MUNDARIJA // оглавление

Jinoyat ishlarini tergov qilishda isbotlash faoliyati ustidan idoraviy-protsessual nazoratning xususiyatlari
Rustam DJURAYEV 3

Факторы, влияющие на национальную безопасность
Ботир ТУРСУНОВ 9

Yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash – davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida
Sarvar MAMAYUSUPOV 16

Анализ правовых документов зарубежных стран по использованию технологии профайлинга в деятельности обеспечения общественной безопасности
Рустамбаев М.Х., Шаханов С.Н. 20

"Xavfsiz poytaxt" konsepsiyasi doirasida axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishning ilmiy-amaliy xususiyatlari
Tashpulatov A.A. 25

Barqaror tinchlik – taraqqiyotimiz garovi
Oybek Turg'unov 30

Xitoyning Markaziy Osiyo strategiyasida Shanxay hamkorlik tashkilotining omili (xitoy tadqiqotchilari izlanishlarining tahlili asosida)
Raxmatulla NURIMBETOV 32

Ситуационные центры как учебно-методическая база по принятию управленческих решений военными руководителями
Ильяс МУРАКАЕВ 37

I. KONSTITUTSIYA, INSON HUQUQLARI VA MILLIY QONUNCHILIK

O'zbekistonda sud-huquq sohasidagi islohotlar va taftish komissiyalarining joriy etilishi (2016-2023)
Axrorov B.J., Xayriyev N.I. 41

Bozorlarda sodir etilayotgan jinoyatlarning barvaqt profilaktikasi xususida ayrim mulohazalar
Ziyodullayev M.Z. 46

Muassis
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

"JAMOAT XAVFSIZLIGI" ilmiy-amaliy jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning 2021-yil 30-sentabr kunidagi 306/4-son qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 20-oktabrda 148674-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Tergovga qadar tekshiruv jarayonida maxsus bilimlarning subyektlari
Zakurlayev A.K., Bababekov N.D. 54

Jabrlanuvchining arizasi bo'lmaganligi munosabati bilan ish yuritishni rad etish – xususiy ayblov instituti istiqboli
Ataniyazov J.K. 62

Xalqaro gumanitar huquqda implementatsiya tavsifi va mamlakat harbiy qonunchiligiga joriy qilishning mexanizmlari
Ravshanov U.M., Chinibayev J.I. 69

Harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari orasida qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar profilaktikasining huquqiy jihatlari
Shukurov U.S. 78

Odam o'g'irlash jinoyatining yuridik tahlili
Ortiqov A.N., 83

Maxsus foydalanish huquqi tamoyillari va ularning ekologik qonun hujjatlarida ifodalanishi
Qurbonov S.S. 90

Maxsus bilimlar haqida fan – sud ekspertshunosligi: tushunchasi, mazmuni va tuzilishi
Bababekov N.D. 95

MUNDARIJA оглавление

II. JAMOAT TARTIBI VA JAMOAT XAVFSIZLIGI

Toshkent shahrida xavfsiz jamoat transporti tizimini samarali yo‘lga qo‘yishning nazariy va amaliy muammolari
Saidov B.A., Tashpulatov A.A. 108

Jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimiga kadrlar tayyorlash samaradorligi
Vaxidov F.R. 113

III. HARBIY SOHADAGI ISLOHOTLAR

Harbiy xizmat o‘tash jarayonidagi psixologik zo‘riqishar va ularni keltirib chiqaruvchi omillar
Ergashev A.T. 117

Harbiy sohada navigatsiya tizimlaridan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari
Madalimov E.F. 121

Войны будущего: «Управляемый хаос» или гибридная война
Есботаев А.Б. 126

IV. XORIJIY TAJRIBA

Историко - теоретический анализ становления и развития Вооруженных Сил Китая
Девяткин А.В. 131

Yaponiyada davlat xususiy sheriklik asosida jamoat xavfsizligini ta’minlashning ayrim masalalari
Xo‘jamberdiyev F.K. 141

Davlat organlarida rahbar kadrlar tayyorlash: innovatsion yondashuvlar va amaliyot (Xitoy Xalq Respublikasi misolida)
Murodullayev A.A. 145

V. TA’LIM-TARBIYA JARAYONI

Mamlakatimizda harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash tizimi hamda xalqaro tajriba
Akbarxodjayev K.A. 149

VI. IQTISODIYOT: NAZARIYA VA AMALIYOT

O‘zbekiston Respublikasida harbiy xizmatchilarni ijtimoiy – huquqiy, moddiy va ma’naviy qo‘llab quvvatlashning nazariy jihatlari
Ikramov A.A. 155

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi moliyaviy nazorat xizmati va davlat moliyaviy nazorati organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni takomillashtirish
Djaydakbayev M.T. 160

VII. IJTIMOIY TARAQQIYOTNING DOLZRB NAZARIY-AMALIY MASALALARI

Turkistondagi harbiy muammolarning oldini olishda jadidlar islohotlarining ahamiyati
Mirzajonov G‘.T. 167

Гуманистические идеи восточных ученых об образовании и воспитании подрастающего поколения
Комилова М.М. 172

Yangi O‘zbekistonda g‘oyyaviy-mafkuraviy jarayonlar intensivlashuvida g‘oyaviy tarbiyaning ahamiyati
Xodjayev O.Sh. 176

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi xizmat faoliyatida foydalanish uchun profayling texnologiyasini ishlab chiqish istiqbollari
Ikanov A.A. 180

O‘zbekiston Respublikasi hududida balandlik-ishg‘ol tayyorgarligining rivojlanish tendensiyasi
Uraimov M.Z. 184

JINOYAT ISHLARINI TERGOV QILISHDA ISBOTLASH FAOLIYATI USTIDAN IDORAVIY-PROTSESSUAL NAZORATNING XUSUSIYATLARI

Rustam DJURAYEV
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondoni,
general-mayor, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist



Annotatsoya. **Ushbu maqolada jinoyat ishlarini tergov qilishda idoraviy-protsessual nazoratning isbotlash faoliyatda tutgan o‘rni, asoslari, tartibga solinishi, amaliy jihatlari va dolzarbligi tadqiq etilgan. Shuningdek maqolada idoraviy-protsessual nazoratning prokuror nazoratidan farqli jihatlari va o‘ziga hos xususiyatlari, mazkur institutning surishtiruv va dastlabki tergovda tutgan o‘rni borasida muhim ilmiy qarashlar bayon etilgan.**

Kalit so‘zlar: **idoraviy-protsessual nazorat, sudga qadar ish yurituvi tergovchi, surishtiruvchi, boshqaruv, nazorat, jinoyat**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari inson va fuqaroning huquqlarini ta’minlash va qonun buzilishlarining oldini olish uchun qo‘shimcha kafolatlar yaratilishini taqozo qiladi. Jinoyat ishlari bo‘yicha sudga qadar ish yurituvi jarayonida fuqarolarning huquqlari va erkinlari davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan cheklanishi va poymol qilinishining ehtimoli mavjudligini hisobga olgan holda ularning oldini olish uchun dastlabki tergov va surishtiruv idoralarining faoliyati ustidan idoraviy-protsessual nazorat o‘rnatilgan.

G.P.Ximicheva fikriga ko‘ra, tergov organi rahbarining protsessual nazoratining afzalligi uning nazorat obyektiga (tergovchi tomonidan qabul qilingan harakatlar va qarorlar) yaqinligidir, bunda mazkur qarorlar va protsessual harakatlar qonun talablariga muvofiqligini doimiy tekshirish va aniqlangan qonunbuzarliklarga shoshilinch javob berish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi [1].

Mazkur fikrlarga qo‘shilgan holda shuni e’tirof etish lozimki, ushbu ta’rif tergov va surishtiruv organi rahbarining idoraviy protsessual nazoratiga to‘liq taalluqlidir.

Huquqiy adabiyotlarda boshqaruv va nazoratning huquqiy institutlarida farqlashning umumiy mezonlari asosida protsessual idoraviy nazorat va prokuratura nazorati o‘rtasidagi bog‘liqlik masalalariga katta e’tibor beriladi [2].

Birinchidan, prokuror va tergov organi rahbari (surishtiruv organi yoki bo‘linmasi boshlig‘i) oldida turgan vazifalar sezilarli darajada farq qiladi, ularning o‘ziga xos protsessual funksiyalari ham har xil.

Ikkinchidan, rahbarning nazorati (prokurorning nazoratidan farqli o‘laroq) ichki idoraviy xarakterga ega, tergovchiga ta’sir qilishning protsessual va ma’muriy imkoniyatlarini birlashtiradi.

Uchinchidan, dastlabki tergov va surishtiruv organlarining protsessual faoliyatini nazorat qilish prokuraturaning ko‘p qirrali faoliyatining yo‘nalishlaridan biridir.

Bizning fikrimizcha, prokurorning nazorat vakolatlarini tergov organi rahbarining protsessual nazorati foydasiga qayta taqsimlash tergovchi, tergov organi rahbari tomonidan qonun buzilishlarini zudlik bilan bartaraf etish va jinoyat protsessi ishtirokchilari va huquqlari boshqa shaxslarning buzilgan huquqlarini tiklash bo‘yicha prokurorning imkoniyatlarida vaqt bo‘yicha muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, jinoyat protsessida idoraviy protsessual nazorat juda muhim o‘ringa ega, chunki uning asosiy maqsadi jinoyat protsessida qonuniylikka rioya qilish bilan belgilanadi. Idoraviy protsessual nazorat jinoyat-protsessual faoliyatining mustaqil yo‘nalishi sifatida ajratilishi va jinoyat-protsessual qonunchilikda ushbu konsepsiyani jinoyat ishlari bo‘yicha sudgacha bo‘lgan protsessda jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari va erkinliklarini ta’minlash vositasi sifatida birlashtirish kerak.

Yuqorida bayon etilgan vakolatlardan ko‘rinib turibdiki, tergov bo‘linmalarining rahbarlari ma’muriy-tashkiliy funksiyalardan tashqari, amalda protsessual funksiyalarni ham bajaradilar, chunki xizmat bo‘yicha unga bo‘ysunuvchi tergovchilarning ishi protsessual faoliyatdan iboratdir.

Tergov bo‘linmasining boshlig‘ini protsess ishtirokchilari doirasiga kiritish zaruriyati JPKning normalaridan kelib chiquvchi qoidalarga asoslangan:

Birinchidan, tergov bo‘linmasining boshlig‘i qonun unga bergan keng protsessual huquq va tegishli majburiyatlarning subyekti bo‘lib, ularni amalga oshirish jarayonida u o‘zining jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi aniq protsessual vazifalarni bajaradi. Uning protsessual faoliyatdagi ishtiroki avvalo, ushbu huquqva majburiyatlarni amalga oshirishda ifodalanadi.

Ikkinchidan, tergov bo‘linmasi boshlig‘iga berilgan protsessual vakolatlar, huquq va majburiyatlarining hajmi va mazmuni ularni amalga oshirish orqali jinoyat-protsessual faoliyatning yo‘nalishiga ta’sir etilishi mumkinligini namoyon qiladi. Ya’ni tergov bo‘limining boshlig‘i tergovning yo‘nalishi, tergov tusmollarni ishlab chiqish va tekshirish, jinoyatni kvalifikatsiya qilish, shaxsni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb etish, ayblovning hajmini belgilash, dastlabki tergovni to‘xtatish (qayta tiklash) va boshqa masalalar yuzasidan o‘zining vakolatlari doirasida tegishli ta’sir o‘tkazishi mumkin.

Uchinchidan, tergov bo‘limining boshlig‘i jinoyat protsessida nafaqat unga berilgan jinoyat-protsessual vakolatlar sababli, balki davlat uning zimmasiga yuklagan kasbiy burchi, jinoyatchilikka qarshi kurash majburiyatlari tufayli harakat qiladi. U JPK normalari talablarini amalga oshiradigan sud-tergov organlarining protsessual faoliyatida ishtirok etadi. Bundan tashqari, u dastlabki tergov organining mansabdor shaxsi bo‘lib, o‘z vakolati doirasida tergovchilarning faoliyatiga protsessual rahbarlikni amalga oshiradi.

To‘rtinchidan, tergov bo‘linmasining boshlig‘i o‘z vakolatlarini amalga oshirar ekan, nafaqat tergov ishini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, balki ishni yuritishda ham bevosita ishtirok etadi: ishlarni tekshiradi, ular yuzasidan topshiriqlar beradi, tergovchilar o‘tkazadigan protsessual harakatlarda ishtirok etadi va tergovchining vakolatlaridan foydalangan holda jinoyatlarni bevosita tergov qiladi.

Beshinchidan, tergov bo‘limining boshlig‘i o‘zining protsessual faoliyatini amalga oshirish jarayonida o‘zi rahbarlik qilayotgan tergovchilar bilan, shuningdek prokuror, surishtiruv organi, jinoyat ishida u yoki bu darajada ishtirok etayotgan shaxslar va tashkilotlar bilan jinoyat-protsessual munosabatga kirishadi.

Oltinchidan, tergov bo‘linmasining

ISSN 3030-3230

boshlig‘i dastlabki tergovni amalga oshirilishiga rahbarlikni amalga oshirganda ham, jinoyat ishlarini bevosita o‘zi tergov qilganda ham jinoyat ishi bo‘yicha yuzaga keladigan ko‘plab masalalarni hal etishda protsessual mustaqillikka ega. Bu esa uni jinoyat-protsessual faoliyatining mustaqil va faol subyekti deb hisoblashga imkon beradi.

Yettinchidan, tergov bo‘linmasi boshlig‘i o‘zining protsessual faoliyatini dastlabki tergovni amalga oshirishni nazorat qilishga va rahbarlik funksiyalarini amalga oshirish qaratadi.

Bizningcha, yuqorida sanab o‘tilgan qoidalar tergov bo‘linmasi boshlig‘ining faoliyat doirasini, uning dastlabki tergovda tutgan o‘rni va vazifasini ko‘rsatib beradi.

Bu uning asosiy jinoyat-protsessual funksiyasini ichki ishlar hududiy yoki transport organi doirasida dastlabki tergovga protsessual rahbarlik qilish funksiyasi sifatida belgilash uchun asos beradi. Biroq tergov bo‘limi boshlig‘ining ushbu funksiyalariga birinchi darajali funksiyalar deb qarash to‘g‘ri bo‘lmaydi, chunki u tergov funksiyasini ham amalga oshirishga, ya’ni tergovchi vakolatidan foydalanib shaxsan dastlabki tergovni amalga oshirishga haqlidir. Shunday qilib, tergov bo‘limining boshlig‘i dastlabki tergovga protsessual rahbarlik qilish va tergov o‘tkazish funksiyasini bajarish davomida jinoyat protsessining ishtirokchisi bo‘ladi. Uning faoliyati butun jinoyat protsessining vazifalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan dastlabki tergov vazifalarini bajarishga qaratilgan.

Shunday bo‘lsa-da, tadqiqot ishi bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnomalarda respondentlarning 53 foizi idoraviy-protsessual nazoratda tergov va surishtiruv organi rahbarlariga O‘zbekiston Respublikasi JPKning 37,39-moddalaridagi vakolat nazorat uchun yetarli emasligini bildirdilar [3].

Dastlabki tergovni amalga oshirayotgan shaxsning barcha harakatlari protsessual harakatning natijalari bo‘yicha tuziladigan hujjatlarda aks etmaydi. Masalan, tergov harakatiga tayyorgarlik ko‘rish, tergov harakatini o‘tkazish rejasini ishlab chiqish, uning ishtirokchilari doirasini belgilash, tegishli shaxslarni tergov harakatida ishtirok etishga jalb qilish, texnik-kriminalistik vositalarni tayyorlash, ularni tanlash, tegishli ta’minot vositalarini topish va ularni ishlatish, mutaxassislar, ekspertlar, xolislarni jalb qilish kabi harakatlar o‘tkazilgan tergov harakatining bayonnomasida aks ettiriladi va tayyor natija sifatida tergov bo‘limi boshlig‘i hamda prokurorning nazarida aks ettiriladi.

Bunday harakatlarni o‘tkazish jarayonida belgilangan protsessual tartibga va qonuniylikka rioya etilganligini tekshirish maqsadida yuqorida keltirilgan subyektlarning faoliyatini vaqt nuqtai nazaridan ikki davrga bo‘lish mumkin. Bu tergov harakatini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish jarayonida amalga oshiriladigan harakatlar.

Tergov harakatini o‘tkazishda tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tergovchining faoliyati ustidan idoraviy-protsessual nazoratni amalga oshirayotgan tergov bo‘limining rahbari albatta o‘zining funksional vazifalari doirasida harakat qilishi kerak. Bunda u tergovchining ish yurituvida bo‘lgan jinoyat ishlari yuzasidan idoraviy-protsessual nazoratni amalga oshirayotganida har bir jinoyat ishi yuzasidan isbotlash jarayoni qanday bosqichda ekanligi va dalillarni aniqlash, to‘plash va tekshirish harakatlari qay darajada ekanligi haqida axborotga ega bo‘lishini taqozo etadi.

JPKning 37-moddasi 2-qismiga muvofiq “Tergov boshqarmasi, bo‘limi, bo‘linmasi, guruhining boshlig‘i va uning o‘rinbosari ... ayrim tergov harakatlarini o‘tkazish haqida tergovchiga ko‘rsatmalar berishga...” haqlidir. Bu o‘z navbatida tergov bo‘limi boshlig‘ining o‘z



bo‘ysunuvidagi tergovchilarning ish yurituvida bo‘lgan jinoyat ishlari bo‘yicha ish materiallarini to‘liq o‘rganish asosida qanday turdagi tergov harakatini protsessning qaysi ishtirokchisi bilan o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatma berishini aniqlashtirish imkoniga ega bo‘ladi.

Ko‘rsatma berish vakolati tergov bo‘limining boshlig‘i jinoyat ishlari yuzasidan dastlabki tergovni amalga oshirayotgan tergovchilarning ish yurituvida bo‘lgan har bir jinoyat ishi yuzasidan tergov vaziyatini qandayligini bilishini taqozo etadi.

Protsessual qonunchilikda belgilangan vakolatlar surishtiruv-tergov bo‘limi boshlig‘iga jinoyat ishi bo‘yicha har bir tergov harakatiga tayyorgarlik ko‘rish, protsess ishtirokchilarini jalb qilish, tegishli texnik-kriminalistik va boshqa vositalarni tayyorlash, tergov harakatini o‘tkazish joyi va vaqtini belgilash, tegishli mutaxassislarni, lozim hollarda esa, masalan ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirishda tergovga qadar tekshiruv organlarining tegishli xodimlarini jalb qilish, tintuv kabi tergov harakatlarini bir necha joyda bir vaqtda o‘tkazilishi lozim bo‘lsa, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi yoki TQT organlari bilan hamkorlik qilish kabi vazifalarning qay yo‘sinda va darajada bajarilishi nazarda tutilmagan.

> **A.Yu.Sindeyevning fikriga ko‘ra, bunday hollarda prokuror nazorati o‘zining birlamchi xususiyati sababli idoraviy protsessual nazorat prokuror nazoratining tarkibiga kirib ketadi, shu sababli isbotlash faoliyatidagi ba’zi vakolatlar prokurorda bo‘lishi muhim deb ta’kidlaydi [4].**

Mazkur fikrlarga qo‘shilish imkonsiz, jumladan jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinishida qo‘shimcha muddatlar olinishi yuzasidan vujudga keladigan byurokratik holatlar prokuror nazorati bo‘yicha ba’zi vakolatlarni tergov organi rahbariga berish lozimligini isbotlaydi. Qolaversa tergov harakatlarining tezkorligi, o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazish jinoyat ishlarini samarali tergov qilinishida muhim omil hisoblanadi.

> **V.V.Samsonovning fikricha, tergov organi rahbariga nafaqat individual tergov harakatlarini, balki protsessual harakatlarni ham amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berish vakolatini berish maqsadga muvofiq. Chunki, alohida tergov harakatlari bilan birgalikda protsessual harakatlar amalga oshirish jinoyat ishlarini sifatiga jiddiy ta’sir o‘tkazadi [5].**

Mazkur fikrlarga qo‘shilish mumkin, ma’lumki, “protsessual harakatlar” tushunchasi “tergov harakatlari” tushunchasiga nisbatan umumiy bo‘lib, nafaqat daliliy ma’lumotlarni olish va tekshirishga qaratilgan kognitiv xarakterdagi tergovchining harakatlarini, balki tashkiliy va xavfsizlik xarakteridagi harakatlarni, shuningdek protsessual qarorlarni ham nazarda tutadi. Albatta, ushbu qoidada protsessual bo‘lgan, tergov harakatlarining bir turi bilan bog‘liq bo‘lmagan individual harakatlar keltirilgan: ayblanuvchi sifatida jalb qilish, gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga nisbatan ehtiyot chorasini tanlash va hokazo. Ushbu protsessual harakatlar, albatta, juda muhimdir, ammo biz tergov organi rahbari qonunda sanab o‘tilishi lozim bo‘lgan boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirish to‘g‘risida ko‘rsatma berish huquqiga ega bo‘lishi kerak deb hisoblaymiz. Tergov organi rahbarining qanday protsessual harakatni amalga oshirish kerakligini oldindan aytib bo‘lmaydi va tergovchi, masalan, ushbu toifadagi jinoyatlarni tergov qilish tajribasi yetarli emasligi sababli, ushbu harakatni amalga oshirishning ahamiyatini tushunmaydi. Darhaqiqat, har qanday holatda, agar tergovchi tergov organi rahbarining ko‘rsatmalariga rozi bo‘lmasa, u ularga shikoyat qilish huquqiga ega.

Tergovchi tomonidan ekspertiza, guvohlantirish, ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish tergov harakatlarini o‘tkazish uchun qaror chiqarilishi JPKning tegishli moddalari bilan tartibga solingan. Bu esa tergov bo‘limining boshlig‘i tomonidan tergovchining tergov harakatini o‘tkazish haqidagi har bir qarori bilan bevosita tanishib chiqilishini, ularda keltirilgan ma’lumotlarning jinoyat ishi materiallari bilan asoslantirilganligini, protsessual tartib qoidalarga rioya etilganligini shaxsan tekshirilishi zarurligini taqozo etadi.

Shu bilan birga amaldagi JPKga muvofiq ba’zi tergov harakatlari – tintuv, shuningdek olib qo‘yish va eksperimentning ba’zi turlarini o‘tkazish haqidagi qarorga prokurorning ruxsati talab qilinadi. Bunday hollarda tergov bo‘limining boshlig‘i tergov harakatini o‘tkazish haqida to‘xtamga kelgan tergovchining chiqargan qaroriga o‘zining munosabat belgisini bildirishdan oldin ishning barcha materiallari bilan shaxsan, chuqur tanishib chiqishi, tergov harakatini o‘tkazish zaruriyati asoslantirilganligini, uning natijalari ijobiy bo‘lishini tekshirishi kerak. Aks holda jinoyat ishi bo‘yicha tergov vaziyatining o‘zgarib ketishi va ishning chigallashishi, murakkablashishi va

ISSN 3030-3230

ohir-oqibat aybdorlar javobgarlikka tortilmay qolishi mumkinligini yoddan chiqarmaslik kerak.

Jinoyat ishlarini tergov qilish amaliyotini tahlil qilish tergov harakatlarini o‘tkazish ustidan idoraviy-protsessual nazoratni ikki davrga bo‘lgan holda amalga oshirilishini ko‘rsatadi. Bu jinoyat ishini qo‘zg‘atishdan oldin o‘tkaziladigan tergov harakatlari va ish qo‘zg‘atilgandan so‘ng amalga oshiriladigan tergov harakatlarini o‘tkazish tartibiga rioya etish va qonunlarga rioya etilishini nazorat qilinadi va nazorat amalga oshiriladi. Jinoyat ishini qo‘zg‘atishdan oldin o‘tkaziladigan tergov harakatlari jinoyat haqidagi ariza yoki xabar bo‘yicha tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishning tarkibiy qismi bo‘lib, ularning asosiy vazifasi xabarda jinoyat hodisasi va jinoyatning alomatlari mavjudligini aniqlashdan iborat bo‘ladi. Ular jinoyat ishi bo‘yicha isbotlash jarayonining tarkibiy qismi bo‘lsa-da, to‘plangan ma’lumotlarning dalil sifatida faqat birlamchi material sifatida foydalanish mumkinligini yoddan chiqarmasligimiz kerak.

> **Bu borada I.A.Demchenkoning fikrlari e’tiborga loyiq, uning ta’kidlashicha karantin yoki boshqa zamonaviy holatlar tergovga qadar tekshiruv muddatini uzaytirishni idoraviy protsessual nazorat vakolatlariga qo‘shishni va uning yangi asoslarini yaratishni taqozo qiladi [6].**

Shuningdek, bu yo‘nalishda tergovchi-surishtiruvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlarda respondentlarining ko‘pchiligi (64%) mazkur jinoyat bo‘yicha arizalarni tekshirish muddatini uzaytirish vakolatini tergov organi rahbariga o‘tkazish, ishlarni sifatida ijobiy ta’sir etishi mumkinligi e’tirof etishdi [7].

Yuqoridagilarda xulosa qilish mumkinki, jinoyat ishlarini tergov qilishda zamonaviy holatlar bu boradagi jinoyat protsessual normalarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi, hamda idoraviy protsessual nazoratning yangi qarashlar bilan uyg‘unlashgan holda tasavvur etishni va tergov organi rahbarining ayrim vakolatlariga o‘zgartish kiritish nazoratning samarali bo‘lishini ta’minlaydi degan fikrdamiz.

Yuqoridagilarga asosan, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 37 va 39-moddalariga quyidagi o‘zgartish va qo‘shimchalarni kiritish lozim.

Har ikki normaning ikkinchi qismida “mazkur kodeksning 329-moddasi uchinchi qismida nazarda tutilgan alohida hollarda, tergovga qadar tekshiruv muddatini surishtiruvchi, tergovchi yoki tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining asoslantirilgan qaroriga ko‘ra bir oygacha uzaytirishi mumkin” jumlalari bilan to‘ldirish taklif etiladi.

ОСОБЕННОСТИ ВЕДОМСТВЕННО-ПРОЦЕССУАЛЬНОГО КОНТРОЛЯ ЗА ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ПО ДОКАЗЫВАНИЮ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ УГОЛОВНЫХ ДЕЛ

Аннотация. В данной статье рассматривается концепция ведомственно-процессуального контроля при расследовании уголовных дел, его основы, регламентация, практические аспекты и актуальность. В статье также описываются отличия ведомственно-процессуального контроля от прокурорского надзора и специфические особенности, важные научные взгляды на роль этого института в дознании и предварительном следствии.

В исследовании использовались такие методы, как анализ, синтез, индукция, дедукция, сравнительно-правовой анализ. В ходе исследовательской работы был изучен передовой зарубежный опыт, научно-теоретические взгляды и следственная и судебная практика, в результате чего были разработаны предложения и рекомендации по внесению соответствующих изменений и дополнений в закон и законодательные акты.

Ключевые слова: ведомственно-процессуальный контроль, следователь досудебного производства, дознаватель, руководство, надзор, уголовное дело.

FEATURES OF DEPARTMENTAL AND PROCEDURAL CONTROL OVER THE ACTIVITIES OF EVIDENCE IN THE INVESTIGATION OF CRIMINAL CASES

Abstract. This article discusses the concept of departmental procedural control in the investigation of criminal cases, its basics, regulation, practical aspects and relevance. The article also describes the differences between departmental procedural control and prosecutorial supervision and specific features, important scientific views on the role of this institution in the inquiry and preliminary investigation.

The study used such methods as analysis, synthesis, induction, deduction, comparative legal analysis. In the course of the research work, advanced foreign experience, scientific and theoretical views and investigative and judicial practice were studied, as a result of which proposals and recommendations were developed for making appropriate amendments and additions to the law and legislative acts

Key words: departmental procedural control, investigator of pre-trial proceedings, investigator, management, supervision, criminal case.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Химичева Г.П. Досудебное производство по уголовным делам: концепция совершенствования уголовно-процессуальной деятельности: монография. М.: Экзамен, 2003. С. 288.

2. Сумин А.А. Актуальные проблемы обеспечения законности в досудебных стадиях уголовного судопроизводства. М.: Московский университет МВД России, 2013.

3. Tadqiqot ishi doirasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari.

4. Синдеев А.Ю. Процессуальные решения прокурора в досудебных стадиях уголовного судопроизводства и их юридические последствия. Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Москва., – 2021 С. 14,45-47

5. Самсонов, В.В. Прокурорский надзор и ведомственный процессуальный контроль в досудебном производстве : диссертация ... кандидата юридических наук : 12.00.09 / Самсонов Валентин Валентинович; [Место защиты: Рост. юрид. ин-т МВД РФ].- Ростов-на-Дону, 2011.- 197 с.: ил. РГБ ОД, 61 12-12/74

6. Демченко И.А. Проблемы законодательного обеспечения проведения следственных (розыскных) действий в условиях пандемии (эпидемии) // Современные проблемы организации расследования преступлений. Международная научно-практическая конференция (Минск, 27 мая 2021 г.) Тезисы докладов. – Минск Академия МВД – 2021. С. 15-17

7. Tadqiqot ishi doirasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari. Tadqiqot ishiga 1-ilova so‘rovnoma natijalari.

ISSN 3030-3230

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА НАЦИОНАЛЬНУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ

Ботир ТУРСУНОВ
доктор политических наук (DSc), профессор

Аннотация. В статье рассмотрены факторы, влияющие на национальную безопасность и ее обеспечение в современных условиях, исследованы условия построения системы обеспечения национальной безопасности, разработаны критерии реализации жизненно важных национальных интересов в основных сферах жизнедеятельности общества, проанализированы интересы, угрозы и основные направления обеспечения национальной безопасности Узбекистана под влиянием процессов глобализации в мире.

Ключевые слова: Республика Узбекистан, национальная безопасность, факторы, системы обеспечения национальной безопасности, жизненно важные национальные интересы, основные направления обеспечения национальной безопасности

Кардинальные реформы происходящие в последнее время можно с уверенностью назвать эпохальными в истории узбекского народа. Республика Узбекистан решает сложные задачи экономического и социального развития страны. Для практической реализации проводимых демократических реформ Узбекистану жизненно необходимы упрочнение стабильности общества и надежная безопасность государства. Современное состояние национальной безопасности Республики Узбекистан обусловлено целым рядом исторических факторов, главным из которых являются процессы глобализации, а также их масштабность, которые определяют векторы развития системы обеспечения национальной безопасности.

В этом контексте важную стратегическую и методологическую основу представляют слова Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева в обращении к Олий Мажлису и народу Узбекистана

«Мы способны обеспечить безопасность и территориальную целостность любимой Родины. Сохраняя мирную и спокойную жизнь в стране, укрепляя ее независимость, мы ускоренными темпами продолжим наш путь устойчивого развития» [1].

Для практической реализации проводимых демократических реформ Узбекистану жизненно необходимы упрочнение стабильности общества и надежная безопасность государства. Главным приоритетом развития Республики Узбекистан является построение демократического социального правового государства и формирование гражданского общества что и было отражено в Концепции национальной безопасности. Реализация данного интереса предполагает обеспечение эффективного функционирования политической системы государства, наличие гражданского мира, национального согласия и социальной стабильности.

Важным элементом системы жизненно важных интересов Республики Узбекистан является достижение сбалансированности политических интересов граждан и государства, а также поддержка обществом осуществляемой внутренней и внешней политики.

Каждое государство имеет свои уникальные характеристики и вызовы в области национальной безопасности, и эти факторы могут различаться в зависимости от контекста и обстоятельств. На национальную безопасность государства влияет множество факторов. Проведение широкого анализа факторов, влияющих на национальную безопасность, позволяет выявить некоторые основные направления, которые оказывают влияние на национальную безопасность:

Во-первых, геополитическое положение: Геополитическое

положение государства может оказывать существенное влияние на его национальную безопасность. Это включает такие факторы, как близость к конфликтным регионам, наличие стратегически важных транзитных маршрутов, доступ к природным ресурсам и т.д. Геополитическое положение может создавать как преимущества, так и угрозы для национальной безопасности.

во-вторых, экономическая сила: Экономическая мощь и устойчивость государства имеют важное значение для его национальной безопасности. Развитая экономика способствует обеспечению обороноспособности, социальной стабильности и инвестициям в сферы безопасности. Экономические факторы, такие как уровень безработицы, инфляция, уровень развития, внешний долг и другие экономические показатели, могут оказывать как положительное, так и отрицательное влияние на национальную безопасность.

в-третьих, демографические изменения: Демографические изменения, такие как население, его структура, миграция и рост населения, могут оказывать влияние на национальную безопасность. Например, быстрый рост населения может создавать давление на ресурсы, социальную инфраструктуру и экономику, что может повлиять на стабильность и безопасность государства.

в-четвертых, экологические угрозы: Изменение климата, природные катастрофы, истощение природных ресурсов и экологические проблемы могут представлять серьезные угрозы для национальной безопасности. Они могут вызывать социальные, экономические и политические нестабильности, а также усиливать конфликты и споры между государствами.

в-пятых, терроризм и экстремизм: Угроза терроризма и экстремизма имеет важное значение для национальной безопасности. Террористические организации и экстремистские группы могут проводить атаки на государственные институты, население и критическую инфраструктуру, создавая опасность для стабильности и безопасности государства.

в-шестых, международные отношения: Международные отношения и политические конфликты имеют прямое влияние на национальную безопасность. Например, конфликты на границе, вооруженные конфликты, нарушение международного права и агрессивные действия других государств могут создавать угрозу для национальной безопасности.

в седьмых, технологический прогресс и кибербезопасность: Быстрый технологический прогресс предоставляет новые возможности и вызывает новые угрозы для национальной безопасности. Развитие киберпреступности, кибершпионажа, кибератак и других форм киберугроз может иметь серьезные последствия для государственных систем и информационной инфраструктуры.

Учет и анализ этих факторов позволит более полно и системно понять влияние национальной безопасности и разработать эффективные стратегии для ее обеспечения [2].

Геополитическое положение государства является одним из ключевых факторов, влияющих на его национальную безопасность. Географическое расположение: Географическое расположение государства может иметь важное значение для его безопасности. Наличие границ с другими государствами, природные преграды (горы, реки, пустыни), доступ к морю и географические особенности могут создавать как преимущества, так и угрозы для национальной безопасности. Например, наличие сложных границ может вызывать территориальные конфликты,

ISSN 3030-3230

а географические особенности могут создавать проблемы с логистикой и обороноспособностью.

Государства, находящиеся вблизи конфликтных регионов, часто подвержены повышенным угрозам для своей безопасности. Это может быть связано с распространением конфликта, насильственными перемещениями людей, террористическими угрозами и другими формами насилия. Близость к конфликтным регионам может потребовать дополнительных мер по обеспечению безопасности и укреплению границ.

Государства, обладающие богатыми природными ресурсами, могут стать объектом интересов других государств и организаций. Ресурсная зависимость может повысить уязвимость государства и создать угрозу для его национальной безопасности. Контроль над ресурсами и защита от их незаконного использования становятся важными аспектами обеспечения безопасности.

Государства, через которые проходят транзитные маршруты, могут столкнуться с угрозами, связанными с транспортировкой товаров и людей. Наличие ключевых транзитных маршрутов может сделать государство мишенью для криминальных групп, контрабандистов и террористических организаций. Обеспечение безопасности на транзитных маршрутах является важным аспектом национальной безопасности.

Государства, имеющие выход к морю, могут иметь преимущества и возможности для развития торговли, сотрудничества и обороноспособности. Однако, контроль за морскими границами, защита от пиратства и обеспечение безопасности на море являются важными задачами для государства.

Вопросы влияния геополитического положения на национальную безопасность были предметом научного исследования в нескольких источниках [3]. В них отдельно указывается, что анализ геополитического положения государства является важным шагом для понимания его национальной безопасности и разработки соответствующих стратегий и политик для обеспечения безопасности.

Влияние экономической силы государства на национальную безопасность является одним из важных аспектов анализа. Глубокое исследование этого вопроса требует рассмотрения различных аспектов экономики и ее влияния на безопасность государства. Экономическая независимость: Сильная экономика позволяет государству быть менее зависимым от внешних источников, что способствует обеспечению национальной безопасности. Государство, имеющее разнообразную и устойчивую экономику, может лучше справляться с внешними угрозами, такими как санкции, экономическое давление и вмешательство.

Экономическая мощь позволяет государству обеспечивать безопасность своих ресурсов. Государства, обладающие стратегически важными ресурсами, такими как энергия, вода, продовольствие, могут использовать свою экономическую силу для защиты и обеспечения доступа к этим ресурсам, что важно для национальной безопасности.

Сильная экономика позволяет государству инвестировать в развитие своей инфраструктуры, включая транспортные сети, энергетическую инфраструктуру, информационные технологии и коммуникации. Качественная и надежная инфраструктура способствует обеспечению безопасности внутри страны, облегчает мобильность военных и гражданских ресурсов и способствует экономическому развитию.

Сильная экономика создает больше возможностей для занятости и обеспечения благосостояния населения. Развитая система занятости и стабильные экономические условия способствуют социальной стабильности и снижают уровень внутренних угроз для национальной безопасности, таких как социальные беспорядки и преступность.

Сильная экономика предоставляет государству финансовые ресурсы для финансирования обороноспособности и безопасности. Государства с высоким уровнем экономической силы могут вкладывать больше средств в современное вооружение, тренировку военных и обновление инфраструктуры безопасности [4].

Глубокий анализ влияния экономической силы государства на национальную безопасность позволяет лучше понять взаимосвязь между экономикой и безопасностью, а также разработать соответствующие стратегии для обеспечения национальной безопасности. Демографические изменения в Узбекистане имеют важное значение для национальной безопасности страны. Глубокое исследование

этой темы требует анализа различных аспектов демографических изменений и их влияния на безопасность. Рост населения: Узбекистан является одной из наиболее населенных стран в Центральной Азии. Рост населения может оказывать давление на доступность ресурсов, инфраструктуру, здравоохранение, образование и социальные услуги. Недостаточное управление ростом населения может привести к экономическим и социальным проблемам, которые могут негативно сказаться на национальной безопасности.

Узбекистан является источником значительной миграции трудовых ресурсов, как внутри страны, так и за ее пределами. Миграция может влиять на национальную безопасность через различные каналы. Это может включать экономические потери из-за высокого уровня эмиграции высококвалифицированных кадров, демографические изменения в связи с выездом трудоспособного населения, а также риски возвращения мигрантов, связанные с социальным включением и экономическими перспективами. Узбекистан характеризуется этническим и религиозным многообразием. Сохранение межэтнической и межрелигиозной гармонии является важным аспектом национальной безопасности. Политическая и социальная интеграция различных этнических и религиозных групп играет ключевую роль в предотвращении конфликтов и обеспечении стабильности в стране [5].

Глубокое исследование демографических изменений и их влияния на национальную безопасность поможет лучше понять связь между демографией и безопасностью, а также разработать соответствующие стратегии для обеспечения национальной безопасности Узбекистана.

Влияние экологических угроз на национальную безопасность в Узбекистане является важным аспектом анализа. Глубокое исследование этого вопроса требует рассмотрения различных экологических факторов, статистических данных и примеров.

Узбекистан является сухим регионом, и доступ к пресной воде является критическим фактором для национальной безопасности. Изменения в доступности водных ресурсов, такие как сокращение объемов Аральского моря и ухудшение качества воды в реках, могут оказывать серьезное влияние на сельское хозяйство, экосистемы и здоровье населения. Узбекистан подвержен увеличению площадей пустынь и засушливых областей из-за климатических изменений и неправильного использования земельных ресурсов. Это может привести к сокращению плодородных земель, уменьшению урожайности и ухудшению условий жизни для сельского населения.

Сокращение площади Аральского моря является экологической катастрофой, имеющей прямое влияние на национальную безопасность. Это привело к сокращению рыбных запасов, ухудшению качества воздуха и земли, а также увеличению распространения пылевых бурь и заболеваний среди населения.

Узбекистан богат биоразнообразием и уникальными экосистемами, которые являются важными для национальной безопасности. Однако незаконная вырубка лесов, загрязнение водных и почвенных ресурсов, а также незаконная охота и браконьерство создают угрозы для биоразнообразия и могут привести к нарушению экосистем и потере природных ресурсов.

Экологические угрозы, такие как загрязнение воздуха, воды и почвы, а также изменение климата, могут негативно влиять на здоровье населения и создавать эпидемиологические риски, такие как распространение инфекционных заболеваний и заболеваний, связанных с загрязнением окружающей среды. В качестве примеров, подтверждающих влияние экологических угроз на национальную безопасность в Узбекистане в литературе приводятся – привести сокращение площади Аральского моря и его последствия для рыболовства и сельского хозяйства, ухудшение качества воды в реках Амударья и Сырдарья, что оказывает отрицательное влияние на здоровье населения и сельское хозяйство, распространение пылевых бурь и заболеваний, связанных с загрязнением окружающей среды и сокращением плодородных земель, угрозы потери биоразнообразия и разрушения экосистем из-за незаконной вырубки лесов и других форм незаконной деятельности [6].

Глубокий анализ влияния экологических угроз на национальную безопасность в Узбекистане помогает лучше понять проблемы, связанные с экологической устойчивостью, и разработать соответствующие стратегии и политики для защиты окружающей среды.

Терроризм и экстремизм являются

ISSN 3030-3230

серьезными факторами, влияющими на национальную безопасность Узбекистана. Глубокое исследование этого вопроса требует рассмотрения различных аспектов терроризма и экстремизма, статистических данных и примеров. Ниже представлен анализ на основе литературных источников, статистики и примеров.

Узбекистан стал свидетелем активности различных террористических группировок, таких как Исламское государство (ИГ), Исламское движение Узбекистана (ИДУ) и другие экстремистские организации. Эти группировки представляют угрозу для национальной безопасности Узбекистана, осуществляя атаки на государственные учреждения, инфраструктуру и гражданское население.

Процессы радикализации и вербовки молодежи в террористические организации являются важными аспектами влияния на национальную безопасность. Идеологическая пропаганда, использование интернета и социальных сетей, а также низкая экономическая и социальная стабильность создают условия для вербовки молодежи в экстремистские группировки.

Финансовая поддержка террористических организаций имеет серьезное влияние на их деятельность и способность осуществлять атаки. Изучение механизмов финансирования терроризма, таких как незаконные транзакции, наркотрафик, контрабанда и другие незаконные деятельности, позволяет более эффективно бороться с этим явлением и обеспечить национальную безопасность [7].

Таким образом, глубокий анализ влияния терроризма и экстремизма на национальную безопасность Узбекистана помогает разработать эффективные стратегии и меры для борьбы с этими угрозами, обеспечивая стабильность и безопасность страны.

Широкое исследование международных отношений как фактора, влияющего на национальную безопасность Узбекистана, требует рассмотрения различных аспектов, таких как политические, экономические, военные и культурные факторы. Для проведения такого исследования можно использовать литературу, статистику и примеры, демонстрирующие влияние международных отношений на безопасность страны.

Исследование политических отношений Узбекистана с другими странами и международными организациями позволяет оценить влияние этих отношений на национальную безопасность. Анализ дипломатических взаимодействий, конфликтов, сотрудничества и влияния политических факторов на безопасность помогает понять, как изменения в международной арене могут повлиять на Узбекистан.

Исследование экономических связей Узбекистана с другими странами, торгового обмена, инвестиций и экономического сотрудничества позволяет определить влияние экономических факторов на национальную безопасность. Анализ экономических санкций, внешней зависимости, торговых конфликтов и их влияния на экономику Узбекистана позволяет оценить риски и угрозы безопасности.

Исследование военных связей, военных союзов, конфликтов и потенциальных угроз безопасности со стороны других государств позволяет оценить влияние военных факторов на национальную безопасность Узбекистана. Анализ военной мощи и потенциала соседних стран, границ, конфликтных зон и боевых действий позволяет определить потенциальные риски и угрозы для безопасности.

Глубокое исследование международных отношений [8] позволит лучше понять, как взаимодействие Узбекистана с другими странами и международными организациями влияет на его национальную безопасность. Это поможет разработать эффективные стратегии и политику для защиты интересов страны и обеспечения ее безопасности.

Широкое исследование влияния технологического прогресса и кибербезопасности на национальную безопасность Узбекистана позволяет понять роль современных технологий и цифровых угроз в контексте безопасности страны. Исследование уязвимостей информационной инфраструктуры, компьютерных систем и сетей, киберпреступности и кибератак позволяет оценить угрозы для национальной безопасности Узбекистана. Рассмотрение политики кибербезопасности, мер по защите информации и данных, сотрудничества с другими странами в области кибербезопасности помогает разработать эффективные стратегии и меры для предотвращения и противодействия киберугрозам.

Развитие информационных и коммуникационных технологий, их влияния на экономику, общество и государственные институты позволяет понять, как технологический прогресс может повлиять на национальную безопасность Узбекистана. Рассмотрение различных аспектов, таких как цифровая экономика, электронное правительство, доступ к информации и общественная безопасность, позволяет определить потенциальные риски и преимущества для безопасности страны.

Широкое исследование влияния технологического прогресса и кибербезопасности на национальную безопасность Узбекистана поможет разработать соответствующие стратегии и меры для обеспечения безопасности информационного пространства и защиты национальных интересов страны.

Таким образом, по нашему мнению, каждый из факторов влияющих на национальную безопасности имеет свою важность и взаимосвязь, они взаимодействуют и влияют друг на друга, образуя целостную систему национальной безопасности. В целом, успешное обеспечение национальной безопасности требует учета всех аспектов безопасности и согласованной работы между ними. Это важное условие для защиты интересов государства, обеспечения благополучия граждан и устойчивого развития Республики Узбекистан.

MILLIY XAVFSIZLIKKA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

Annotatsiya. Maqolada milliy xavfsizlikka va uning zamonaviy sharoitda ta'minlanishiga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqildi, milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimini yaratish shartlari o‘rganildi, jamiyat hayotining asosiy sohalarida hayotiy muhim milliy manfaatlarni amalga oshirish mezonlari ishlab chiqildi, dunyoda globallashuv jarayonlari ta'siri ostida O‘zbekiston milliy xavfsizligini ta'minlashning manfaatlari, tahdidlari va asosiy yo'nalishlari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi, milliy xavfsizlik, omillar, milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimlari, hayotiy muhim milliy manfaatlar, milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishlari

FACTORS AFFECTING NATIONAL SECURITY

Abstract. The article examines the factors affecting national security and its provision in modern conditions, examines the conditions for building a national security system, develops criteria for the implementation of vital national interests in the main spheres of society, analyzes the interests, threats and main directions of ensuring national security of Uzbekistan under the influence of globalization processes in the world.

Key words: Republic of Uzbekistan, national security, factors, national security systems, vital national interests, main directions of national security

Библиографический список:

1. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису и народу Узбекистана \\ https://president.uz/ru/lists/view/5774

2. Institute for Economics & Peace. (2021). Global Peace Index. Retrieved from https://www.visionofhumanity.org/global-peace-index/

Stockholm International Peace Research Institute (SIPRI). (2021). SIPRI Yearbook: Armaments, Disarmament and International Security. Oxford University Press.

United Nations Development Programme (UNDP). (2020). Human Development Reports. Retrieved from http://hdr.undp.org/en/reports

World Bank. (2021). World Development Indicators. Retrieved from https://databank.worldbank.org/source/world-development-indicators

ISSN 3030-3230

U.S. National Intelligence Council. (2021). Global Trends: Paradox of Progress. Retrieved from https://www.dni.gov/index.php/global-trends-home

3. Kaplan, R. D. (2012). The Revenge of Geography: What the Map Tells Us About Coming Conflicts and the Battle Against Fate. Random House.

Buzan, B. (2010). Security: A New Framework for Analysis. Lynne Rienner Publishers.

Mearsheimer, J. J. (2001). The Tragedy of Great Power Politics. W. W. Norton & Company.

The RAND Corporation. (2021). Geopolitical Dynamics and Security in the 21st Century. Retrieved from https://www.rand.org/research_areas/geopolitics.html

4. World Bank. (2021). World Development Indicators. Retrieved from https://databank.worldbank.org/source/world-development-indicators

International Monetary Fund. (2021). World Economic Outlook Database. Retrieved from https://www.imf.org/en/Publications/WEO/weo-database

Brauer, J., & Dunne, J. P. (Eds.). (2010). Arms Trade and Economic Development: Theory, Policy, and Cases in Arms Trade Offsets. Routledge.

Russett, B. (1993). Grasping the Democratic Peace: Principles for a Post-Cold War World. Princeton University Press.

5. United Nations Population Division. (2021). World Population Prospects 2019: Highlights. Retrieved from https://population.un.org/wpp/

World Bank. (2021). World Development Indicators. Retrieved from https://databank.worldbank.org/source/world-development-indicators

International Organization for Migration. (2021). Uzbekistan Migration Profile. Retrieved from https://www.iom.int/countries/uzbekistan

Central Asia Regional Risk Assessment (CARRA) Project. (2017). Demographic Challenges and National Security in Central Asia. Retrieved from https://www.crrc.am/carraproject/Outputs.aspx

6. Kuziev, S., & Burkhanov, B. (2019). Environmental Security in Uzbekistan: Challenges and Prospects. Central Asian Journal of Environmental and Resource Management, 6(1), 1-15.

The World Bank. (2021). Uzbekistan - Environment and Natural Resources Management Project. Retrieved from https://projects.worldbank.org/en/projects-operations/project-detail/P118017

United Nations Development Programme (UNDP) Uzbekistan. (2020). Environmental Governance in Uzbekistan. Retrieved from https://www.uz.undp.org/content/uzbekistan/en/home/projects/environment_and_climate_change/green-economy.html

Government of the Republic of Uzbekistan. (2019). National Report on the State of the Environment of the Republic of Uzbekistan. Retrieved from http://www.uzgidromet.uz/files/files/State%20of%20Environment%202019%20En.pdf

7. Azizov, A. (2017). Terrorism and Counterterrorism in Uzbekistan: Challenges and Responses. Perspectives on Terrorism, 11(5), 129-142.

International Crisis Group. (2019). Central Asia: Terrorism and Religious Extremism. Retrieved from https://www.crisisgroup.org/europe-central-asia/central-asia

United Nations Security Council. (2021). The Threat Posed by the Islamic State in Iraq and the Levant (ISIL) to International Peace and Security and the Range of United Nations Efforts in Support of Member States in Countering the Threat. Retrieved from https://undocs.org/S/2021/404

Government of the Republic of Uzbekistan. (2021). State Security Service of the Republic of Uzbekistan. Retrieved from https://mss.uz/

8. Babakulov, A., & Abdukadirov, S. (2018). Uzbekistan's foreign policy: The role of regional and international actors. Central Asian Survey, 37(3), 382-401.

Ziyaev, A. (2019). Economic diplomacy of Uzbekistan: Achievements and prospects. Journal of Foreign Affairs, 3(1), 66-82.

Stockholm International Peace Research Institute (SIPRI). (2021). Military Expenditure Database. Retrieved from https://www.sipri.org/databases/milex; Central Asia-Caucasus Institute & Silk Road Studies Program. (2020). Uzbekistan's Challenges and Central Asian Security. Retrieved from https://cacianalyst.org/publications/analytical-articles/item/13644-uzbekistans-challenges-and-central-asian-security.html

YOSHLARNING HUQUQ VA MANFAATLARINI TA’MINLASH

davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida



Sarvar MAMAYUSUPOV
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondoni o‘rinbosari,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati, so‘nggi yillarda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligini ta’minlash yo‘nalishida olib borilayotgan strategik islohotlar va ularning ahamiyati yuzasidan ma’lumot berilgan. Maqolada yoshlar faoliyati bilan bog‘liq qonunchilik hujjatlari takomillashtirilgani va uning natijalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, yoshlar siyosati, yoshlar bandligi, yoshlar daftari, yoshlar tadbirkorligi, yosh oila.

Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning davlat va jamiyat hayotidagi faolligini oshirish yoshlarning yuksak azmu shijoati, bilim va salohiyati, iste’dod va qobiliyatini rag‘batlantirish, bandligini ta’minlash davlat siyosatining eng ustuvor masalalaridan bo‘lib, so‘nggi yillarda yoshlarning huquq va manfaatlarini ta’minlash, sifatli ta’lim olishlari uchun zarur imkoniyatlarni yaratish borasida tizimli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda.

Yoshlar ham mavjud imkoniyatlardan unumli foydalangan holda, turli sohalarda yuqori natijalarni qo‘lga kiritib kelishmoqda. Bu borada ta’lim tizimida yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratilishi bilan birga ustuvor vazifalar ham belgilab olingan. Xususan, **“O‘zbekiston – 2030”** strategiyasida ta’lim tizimi islohotlari eng dolzarb vazifalardan etib belgilanib, bu soha ham umumiy, ham ixtisoslashtirilgan tarzda rivojlantirilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda 14 ta Prezident maktabi, 9 ta ijod maktabi va 182 ta ixtisoslashtirilgan maktab faoliyat yuritayotgan bo‘lib, erishilgan tajriba va talablardan kelib chiqib, ulardagi yo‘nalishlar tobora takomillashtirib borilmoqda.

Yuqoridagi islohotlarning natijalari o‘laroq, birgina 2022-2023 o‘quv yilida yurtimizdagi maktab o‘quvchilarining 55 nafari matematika, kimyo, biologiya, fizika va informatika fanlari bo‘yicha nufuzli xalqaro olimpiadalarda 8 ta oltin, 15 ta kumush, 32 ta bronza medalini, madaniyat va san’at sohasidagi nufuzli xalqaro tanlovlarda esa yoshlarimizning 383 nafari bosh sovrinni, 1 ming 359 nafari 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

Kelgusida bu sohada katta marralar belgilangan bo‘lib, xususan, kelgusida yoshlarning zamonaviy kasblar bilan mashg‘ul bo‘lishini ta’minlash uchun har bir viloyatda 1 tadan “Kreativ park”lar faoliyatini tashkil etish, ularga yiliga kamida 40 ming nafar

ISSN 3030-3230

yoshlarni jalb qilish, ilmiy va innovatsion faoliyat, intellektual o‘yinlar hamda chet tillarini o‘rganishga jalb etish orqali kamida 2 million nafar yoshlarning iqtidorini rivojlantirish, har yili 500 nafar iste’dodli yoshlarni xorijning nufuzli oliygohlariga o‘qishga yuborish, 400 ming nafar yoshlarning bandligini ta’minlash va muammolarini hal etishga erishish kabi strategik maqsadlar belgilab olingan.

> Mamlakatimizda yoshlar siyosati borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar dunyo miqyosida ham e’tirof etilib, xususan, 2023-yilda yoshlar taraqqiyoti indeksiga ko‘ra, O‘zbekiston yoshlar siyosati sohasida eng tez rivojlanayotgan mamlakatlardan biri sifatida topildi. Shu bilan birga, BMT tomonidan “Yoshlar strategiyasi – 2030”ni namunaviy tarzda amalga oshirish bo‘yicha tanlab olingan 10 ta mamlakatdan biri sifatida aynan O‘zbekiston e’tirof etilgani, 2022-yilda Buxoro shahri – Turkiy dunyo yoshlari poytaxti, 2024-yilda esa Toshkent – Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mintaqasida birinchi yoshlar poytaxti deb e’lon qilingani ham diqqatga sazovordir.

So‘nggi yillarda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari yanada takomillashtirilib, oxirgi yetti yilda yoshlarga oid 100 dan ziyod qonun va qarorlar qabul qilinib, 200 dan ortiq imtiyozlar berilgani fikrimiz tasdig‘idir.

Bu avvalo ijtimoiy xizmatlarga muhtoj yoshlarni qo‘llab-quvvatlashda o‘z tasdig‘ini topib, xususan, ta’lim kreditidan 151 ming yoshlar foydalangani, ehtiyojmand oiladan bo‘lgan 110 ming talabaning shartnoma to‘lovi to‘lab berilgani fikrimiz tasdig‘idir.

Shuningdek, xorijda yashayotgan va professional faoliyatini yuritayotganlar, ayniqsa, katta ilmiy salohiyatga ega olimlar, mutaxassislar va iste’dodli yoshlar bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, yetakchi xorijiy ta’lim muassasalarida hamda O‘zbekistonda tayyorlash va malakasini oshirish orqali kadrlar tayyorlash maqsadida tuzilgan “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali AQSh va Buyuk Britaniyaning eng nufuzli universitetlarini 50 nafar yigit-qiz bitirgan bo‘lib, bugungi kunda ularda o‘qiyotgan vatandoshlarimiz 200 dan oshgan. Umuman olganda, 110 ming yoshlar bugungi kunda xorijning nufuzli oliy ta’lim muassasalarida tahsil olmoqda.

Bugungi kunda yoshlar siyosatidagi eng ustuvor yo‘nalishlardan biri bu ularning bandligini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lib, bu borada har bir mahallada “Yoshlar bandligi dasturi” amalga oshirilmoqda, “Besh tashabbus olimpiadasi”, “Madaniyat karvoni” tadbirlari o‘tkazilmoqda. Shuningdek, “Oilaviy tadbirkorlik” dasturlari doirasida berilgan kredit evaziga 1 million yosh tadbirkorlikning turli sohalarida band bo‘lmoqda. Hozirgi vaqtda 205 ta “Yoshlar sanoat zonasi”da 1 ming 200 ta loyiha ishga tushirilgan hamda biznesdagi aylanma mablag‘ini million dollardan oshirgan 1,5 ming nafar yosh tadbirkorlar mavjud.

Yoshlarning bandligini ta’minlash maqsadida viloyat va tumanlarda yoz mavsumida maktab, texnikum, oliygoh, istirohat bog‘larida mehnat yarmarkalari o‘tkazilib, bu orqali vakant o‘rinlarga kamida 150 ming yoshlarni ishga joylashtirish imkoniyati yaratildi hamda aynan yoz oylarida “qurilish otryadlari”ni tashkil etilib, 100 ming yoshlar oylik beradigan ishlarga jalb qilindi.

Bundan tashqari yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish bo‘yicha joriy etilgan yangi tizim tufayli 2024-yilning o‘zida “mahalla yettiligi” tavsiyasi bilan 156 ming yoshga 60 ming gektar yer maydoni 30 yil muddatga ijaraga berilgani ham shu yo‘ldagi muhim qadamlardan biridir.

Islohotlar jarayonida qizlarga ko‘maklashish, sharoitlarini yaxshilashga ham alohida e’tibor qaratilib, xususan, og‘ir sharoitga tushib qolgan xotin-qizlar uchun barcha hududlarda 1 xonali ijtimoiy uylar qurilishi yo‘lga qo‘yilib, ular ishga joylashib, “oyoqqa turib olgunga qadar”, ushbu uylarda 3 yil davomida bepul yashash imkoniyati yaratildi.

Ma’lumki O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan O‘zbekistonda ilk bor ishsiz yoshlar bandligini ta’minlashga qaratilgan mutlaqo yangi tizim – “Yoshlar daftari”ning joriy etilishi yoshlarga oid siyosatni yangi sifat bosqichiga ko‘tardi. Natijada o‘tgan qisqa davr ichida respublikada yashayotgan 18-30-yoshdagi minglab ijtimoiy himoyaga, iqtisodiy va psixologik qo‘llab-quvvatlashga muhtoj, ishsiz yoshlar “Yoshlar daftari”ga kiritilib, ularning muammolarini hal qilish uchun hududlarda “Yoshlar jamg‘armalari” orqali zarur mablag‘ ajratildi.

Masalan, 2023-yil davomida 1487 nafar yoshlarga yoshlar daftariga kiritish orqali yordam ko‘rsatilgan bo‘lib shundan 287 nafar yoshlarga 1 mlrd 63 mln so‘m mablag‘lar subsidiya asosida yoshlarga berildi.

Xususan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 95-maqsadida “Ishga joylashtirish bo‘yicha xorijiy davlatlar bilan kelishuvlar sonini 30 taga oshirish”, “Fuqarolarni xorijiy hamkorlar bilan birgalikda davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida kasb-hunarga va chet tillariga o‘qitish doirasida 2 mingta xorijiy kompaniyalar bilan kasbga o‘qitish va ish “bilan ta’minlash tizimini tashkil etish” ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Yana bir ahamiyatli jihati mahallalarda yoshlar balansi shakllantirilib, unda 14-30 yoshdagi yoshlar uch – “qizil”, “sariq” va “yashil” toifalarga ajratilib, har bir toifa bilan alohida ish olib borilmoqda.

Agar xalqaro tajribalarga e’tibor qaratilsa, dunyo miqyosida yoshlar orasidagi ishsizlik 2020-yilda pandemiya ta’siri ostida 8,7 foizni tashkil qilgan. So‘nggi yillarda dunyo miqyosida yoshlar orasidagi ishsizlik Ispaniya, Gretsiya, Serbiya va Italiya kabi Yevropa mamlakatlarida kuzatilmoqda. Dunyoda yoshlarning bandligini ta’minlash va ular orasidagi kelgusida ishsizlikning oldini olish yuzasidan bugungi kunda bir qator chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Shu boisdan ham “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi” asosida barcha umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida kasb-hunarlarga o‘rgatish kurslari joriy etilib, maktab bitiruvchilari kamida 2 ta xorijiy tilni o‘rganishi bilan birga 1 ta kasb egallashini ta’minlash uchun tegishli shart-sharoitlar yaratildi. Shuningdek, ularni xalqaro IT bozorida talab yuqori bo‘lgan zamonaviy kasblarga o‘rgatish tizimi ham yo‘lga qo‘yildi.

Xususan, bu borada rivojlangan mamlakatlarda yoshlarni maktabdan keyin mehnat jamoalariga ishga o‘tish jarayonini soddalashtirish tendensiyasi kuzatilayotgan bo‘lib, bu borada, masalan Avstraliyada yoshlarni olti oylik sinov muddati bilan ishga olib ularga oylik to‘lagan savdo sanoat tadbirkorlariga davlat tomonidan tegishli subsidiyalar ajratish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan, Italiyada bunday korxonalarga soliq imtiyozlari beriladi. Buyuk Britaniyada 16 yoki 17 yoshida maktabni bitirgan va ishsiz bo‘lgan yoshlarni 18 yoshgacha kasb-hunar ta’limiga o‘qitish tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

Shu kabi amaliyot O‘zbekistonda ham mavjud bo‘lib, 2024-yil “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida 2024-yil davomida 90 ming nafar ishsiz yoshlarni kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish ko‘zda tutilgan.

Shundan kelib chiqqan holda O‘zbekistonda ham ish beruvchilarga yoshlarni ish bilan ta’minlaganligi uchun bir qator imtiyozlar berilgan.

> Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PF-61-sonli Farmoni asosida 2023-yil 1-maydan boshlab 2025-yil 1-yanvarga qadar ish beruvchilarga (budjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav jamg‘armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar, shuningdek, ijtimoiy soliqni 1 foiz stavkada to‘lovchilar bundan mustasno) ular tomonidan 25 yoshdan oshmagan xodimlar uchun to‘langan ijtimoiy soliq summasi Davlat budjetidan to‘liq qoplab berilishi amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Bunda, ijtimoiy soliq summasi yosh xodimlar olti oy davomida uzluksiz mehnat faoliyatini amalga oshirishi sharti bilan yettinchi oydan boshlab qoplab berilishi ko‘zda tutildi.

“Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida ham yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali 5 million aholi, shu jumladan, 300 ming nafar yoshlarning bandligini ta’minlash uchun zarur sharoitlar yaratish ko‘zda tutilgan. Umuman olganda esa 2024-yil uchun ishlab chiqilgan “Yoshlar bandligi dasturi” doirasida 759 734 nafar yoshlarni bandligiga ko‘maklashish ko‘zda tutilmoqda.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash o‘rinliki O‘zbekiston Respublikasining yangilangan konstitutsiyasida ham davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlashi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantirishi, shuningdek, yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi belgilangan va kelgusida bunday ustuvor islohotlar albatta o‘z samarasini beradi.

ISSN 3030-3230

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРАВ И ИНТЕРЕСОВ МОЛОДЕЖИ – КАК ПРИОРИТЕТ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ

Аннотация. В данной статье представлена информация о государственной молодежной политике, реализуемой в Узбекистане, стратегических реформах, осуществляемых в последние годы в направлении всесторонней поддержки молодежи, обеспечения эе занятости и их значимости. В статье анализируется совершенствование законодателных документов, связанных с молодежной деятелностю, и результаты этого.

Ключевые слова: молодеж, молодежная политика, занятост молодежи, молодежное предпринимателство, молодая семя.

ENSURING THE RIGHTS AND INTERESTS OF YOUNG PEOPLE AS A PRIORITY OF STATE POLICY

Abstract. This article provides information on the state youth policy implemented in Uzbekistan, strategic reforms implemented in recent years in the direction of comprehensive support for youth, ensuring their employment and their importance. The article analyzes the improvement of legislative documents related to youth activities and the results of this.

Key words: youth, youth policy, youth employment, youth entrepreneurship, young family.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston yoshlariga bayram tabrigi. 2024-yil 30-iyun. https://president.uz/uz/lists/view/7361
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 11.09.2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” dagi PF-158-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-6600413
3. https://thecommonwealth.org/innovation/youth-development-index
4. Buxoroda Turkiy davlatlarning yoshlari jam bo‘ldi. https://uza.uz/oz/posts/buxoroda-turkiy-davlatlarning-yoshlari-jam-boldi_378178
Toshkent 2024-yilda MDH mamlakatlarining birinchi yoshlar poytaxti bo‘ladi. https://zamon.uz/detail/toshkent-2024-yilda-mdh-mamlakatlarining-birinchi-yoshlar-poytaxti-boladi-ozbekiston
5. Prezident yoshlar bilan muloqot qildi. https://president.uz/uz/lists/view/7357
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.02.2024 yildagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-6811936

Анализ правовых документов зарубежных стран по использованию технологии профайлинга в деятельности обеспечения общественной безопасности

Мирзаюсуп РУСТАМБАЕВ
Начальник Университета общественной безопасности
доктор юридических наук, профессор

Саден ШАХАНОВ
Главный научный сотрудник Центра научно-прикладных исследований Университета общественной безопасности

Аннотация: Данная статья подготовлена в рамках научно-практического проекта №ALM-202310202738 «Разработка инновационной технологии профайлинга для использования в деятельности по обеспечению общественной безопасности», выполняемого в Университете общественной безопасности Республики Узбекистан. В статье проводится анализ зарубежного законодательства в сфере применения технологии профайлинга. Раскрываются особенности в подходах и определениях. Проводится анализ законодательства западных стран, СНГ и др.

Ключевые слова: законодательство в области профайлинга, общественная безопасность, профайлинг, профайлер, применение профайлинга, профайлинг правонарушений.

Анализ зарубежного законодательства в сфере регулирования и применения методов профайлинга свидетельствует о имеющихся разных подходах, используемых в западных странах и государствах СНГ, кроме того, отдельным столпом можно выделить некоторые азиатские страны. В ходе анализа усматривается уже сформировавшийся понятийный аппарат, терминология, структура системы профайлинга в западных странах. Вместе с тем в странах СНГ нормативно-правовые акты носят более хаотичный характер и на данный момент отсутствует унификация терминологии и четкая структура системы профайлинга.

В частности, в законодательстве США и Европейского союза усматриваются единые подходы по организации системы использования профайлинга (criminal and offensive profiling) в интересах общественной безопасности. В настоящий момент законодательное регулирование в этой области осуществляется посредством норм, установленных в сфере защиты персональных данных.

При рассмотрении правовых норм в области профайлинга на территории США в ходе исследования учитывались, как законы штатов о персональных данных, так и законы, действующие на федеральном уровне.

Так в соответствии с Законом Калифорнии о конфиденциальности потребителей (California Consumer Privacy Act) «профайлинг это автоматизированная обработка личной информации для оценки определенных личных аспектов, относящихся к физическому лицу, и, в частности, для анализа или прогнозирования аспектов, касающихся работы, экономического положения, здоровья, личных предпочтений, интересов, надежности, поведения, местоположения или перемещений этого физического лица» [1]

В свою очередь законодательство штатов Колорадо [2] и Коннектикут [3] дают следующее определение профайлинга - как автоматизированная обработка персональных данных для оценки, анализа или прогнозирования личных аспектов, касающихся экономического положения, здоровья, личных предпочтений, интересов, надежности, поведения, местонахождения или передвижения идентифицируемого лица.

ISSN 3030-3230

Законодательство штатов Флорида [4], Монтана [5] и Индиана [6] описывают профайлинг как исключительно автоматизированная обработка персональных данных с целью оценки, анализа или прогнозирования личных аспектов, связанных с экономическим положением, здоровьем, (медицинскими записями) личными предпочтениями, интересами, надежностью, поведением, местоположением или перемещениями идентифицируемого лица.

Штаты Теннеси [7] и Техас [8] разъясняют, что профайлинг это исключительно автоматизированная обработка персональных данных с целью оценки, анализа или прогнозирования личных аспектов, связанных с экономическим положением, здоровьем, личными предпочтениями, интересами, надежностью, поведением, местоположением или перемещениями идентифицируемого или идентифицируемого физического лица.

Штат Вирджиния [9] определяет профайлинг как автоматизированная обработка персональных данных с целью оценки, анализа или прогнозирования личных аспектов, связанных с экономическим положением, здоровьем, личными предпочтениями, интересами, надежностью, поведением, местоположением или перемещениями идентифицируемого лица.

Несмотря на все возможные правовые рамки американского законодательства в области криминального и поведенческого профайлинга вероятных правонарушителей и преступников в настоящий момент идет оживленный дискус в тематике расового профайлинга.

Кроме того, отмечается, что американский профайлинг на основе расовой принадлежности в правоохранительных органах не только неправомерен, но и неэффективен. В американском законодательстве отмечается, что расовые различия в правоохранительных органах увековечивают негативные расовые стереотипы, которые могут негативно влиять на демократию и существенно подрывают усилия по поддержанию честного и справедливого общества. [10]

Также отмечается, что использование расовой принадлежности в качестве основы для принятия решений правоохранительными органами, несомненно, имеет негативные последствия. По этой причине Конституция США во многих случаях накладывает больше ограничений на учет расовой и этнической принадлежности в федеральных правоохранительных органах.

Руководство, изданное департаментом юстиции США, запрещает расовый профайлинг в правоохранительной практике, вместе с тем не препятствуя важной работе сотрудников органов общественной безопасности США, в особенности активизации антитеррористических усилий, вызванных событиями 11 сентября 2001 года. [11]

На этом фоне законодательство Европейского союза выглядит более единообразно, так как имеет единую правоприменительную практику и определения профайлинга.

Так в соответствии с Общим регламентом по защите данных (General Data Protection Regulation) ЕС «Профайлинг» означает любую форму автоматизированной обработки персональных данных, состоящую в использовании персональных данных для оценки определенных личных аспектов, относящихся к физическому лицу, в частности, для анализа или прогнозирования аспектов, касающихся работы, экономического положения, здоровья, личных предпочтений, интересов, надежности, поведения, местонахождения или передвижения этого физического лица.[12]

Рабочая группа интерпретировала определение GDPR как состоящее из трех элементов:

- ☑ **Деятельность должна включать «автоматизированную форму обработки».**
- ☑ **Деятельность должна «осуществляться с использованием персональных данных».**
- ☑ **Целью деятельности должна быть «оценка личных аспектов физического лица».[13]**

Следует отметить, что в соответствии с GDPR первый элемент, указанный выше, выполняется, если деятельность включает любую форму автоматизированной обработки, даже если автоматизированная обработка осуществляется в сочетании с неавтоматизированной обработкой.

Другими словами, наличие человеческого участия или вмешательства не обязательно выводит деятельность из-под определения «профайлинга».[13]

Следует отметить, что единое определение профайлинга в государствах СНГ определено участниками СНГ в глоссарии терминов и понятий, используемых государствами СНГ в пограничной сфере, где он определен, как комплекс специальных мероприятий, предусматривающих организацию наблюдения за пассажиром, изучение его поведения, исследование документов, а также опрос с целью выявления в пассажиропотоке подозрительных лиц. [14]

Анализ законодательной базы РФ выявил наличие 276 актов, регламентирующих ту или иную (обучение, применение, определение, сфера, руководство и т.д.) область профайлинга.

Из общего количества документов 47 являются актами органов власти (34 – федеральные законы, 13 – региональные акты), 147 – документы принятые в ходе судебной практики (1 – Высший суд, 146 – суды общей юрисдикции, 1 – Верховный суд РФ), 63 – комментария, 1 – международный договор и 18 проектов правовых актов.

В соответствии с решением Верховного суда РФ [15] применение профайлинга, основанного на допущениях, что лица определенной расы, национального или этнического происхождения или религии с наибольшей степенью вероятности представляют опасность, может привести к таким практическим методам в отношении пограничного контроля, в частности, и мер по борьбе с терроризмом в более общем плане, которые несовместимы с принципом недискриминации.

Законодательством РФ четко регулируется процесс подготовки специалистов в области профайлинга в целях обеспечения общественной безопасности.

В частности, данные нормы определены: Приказом Росгвардии от 30.11.2019 № 396 [ред. от 09.04.2024], «Об утверждении типовых программ профессионального обучения для работы в качестве частных охранников», Приказом Минтранса России от 25.07.2007 № 104 [ред. от 19.08.2019] «Об утверждении Правил проведения предполетного и послеполетного досмотров» [Зарегистрировано в Минюсте России 09.08.2007 № 9975], «Федеральная система обеспечения авиационной безопасности [Национальная программа авиационной безопасности]» [одобрено Межведомственной комиссией по авиационной безопасности, безопасности полетов гражданской авиации и упрощению формальностей 04.04.2019] и др.

Также интересен Приказ Минтруда России от 29.03.2024 № 159 «Об утверждении методических рекомендаций по оказанию государственной социальной помощи на основании социального контракта», где органам социальной защиты населения в целях повышения эффективности (реализации индивидуального подхода) составления программы социальной адаптации рекомендуется разработать систему профайлинга (типологизации) граждан с учетом различных трудных жизненных ситуаций.

В соответствии с законодательством Республики Беларусь «профайлинг» комплекс специальных мероприятий, предусматривающий организацию наблюдения за пассажиром, изучение его поведения, исследование документов, а также опрос в целях выделения в пассажиропотоке подозрительных лиц, к которым применяются дополнительные меры контроля в интересах безопасности.[16]

На территории Республики Казахстан профайлинг регламентируется 10 нормативно и правовыми актами, 2 – международными договорами и документами международного права и одним проектом законодательного акта.

В целом единого определения профайлинга в законодательных и подзаконных актов РК не имеется, здесь определение также опирается на «Глоссарий терминов и понятий, используемых государствами – участниками СНГ в пограничной сфере», однако кроме данного международного документа РК также является участником Европейской этической хартии об использовании искусственного интеллекта в судебных системах и окружающих их реалиях [принята на 31-м пленарном заседании ЕКЭП [Страсбург, 3-4 декабря 2018 года]. Данный документ ЕС регламентирует использование Общего регламента по защите данных [General Data Protection Regulation] с государствами не участвующим в союзе.

ISSN 3030-3230

В законодательных актах Кыргызской Республики поиск результатов не дал, однако в сети интернет активное обсуждение профайлинга в системе обеспечения общественной безопасности наблюдается с начала 2024 года.

Аналогичные показатели выдала база данных Национального центра законодательства при президенте Республики Таджикистан, или отсутствие какого-либо упоминания или использование ключевого слова «профайлинг» в каки либо законодательных актах.

В Республике Корея персональные данные населения регулируются Personal information protection act [PIPA] [17], однако он не дает определение профайлинга аналогичное или похожее на пояснения указанные в законодательства штатов США и ЕС, однако дает некоторые объяснения процедурам автоматизации и использования персональных идентификационных особенностей личностей.

В Китайской Народной Республике профайлинг применяется в правоохранительных и силовых ведомствах, в частности сотрудниками Министерства общественной безопасности. В открытом доступе нормативно-правовые акты не предоставляются. Однако в ходе визитов в КНР было выявлено наличие отдельно учебного предмета по системе профайлинга для сотрудников народной милиции, которые обучаются выявлению потенциальных преступников и правонарушителей во время патрулирования.

Кроме того, в Законе о национальной безопасности (2015 г.): определены полномочия служб и ведомств безопасности, которые наделены широкими полномочиями по мониторингу и составлению профилей подозрительных лиц.

Также, Закон о борьбе с терроризмом (2015 г.): усиливает меры по борьбе с терроризмом и наделяет силы безопасности КНР полномочиями по составлению профилей преступников и террористов.

Китайское законодательство касательно профайлинга и поведенческого анализа были приняты в целях безопасности, и его часто критикуют в западных СМИ за вмешательство в права человека и неприкосновенность частной жизни.

Учитывая вышеизложенное, можно сделать вывод, что консолидированного мнения в этом направлении придерживаются США и ЕС, регулируя и давая основные понятия профайлинга и процесса его осуществления, при этом в самих государства не прекращается дискуссия в данном направлении для отделения криминалистического профайлинга от расового профайлинга.

При этом несмотря на наличие единого утвержденного понятия «профайлинг» закрепленного международным договором стран участниц Содружества независимых государств на их территории единого юридического определения данного термина нет, при этом законодательные и подзаконные акты использует данные термин в обиходе и с разным смысловым оттенком.

На территории ближнего зарубежья лидером в законодательном использовании данного термина является РФ, однако даже там не определены базовые понятия профайлинга и его правовые аспекты, что может свидетельствовать об отсутствии единого понимания и подхода в данном направлении.

На территории Центральноазиатских республик законодательство Республики Казахстан наиболее широко использует данное понятие, в сочетании с имплементацией законодательства ЕС в порядке международных правовых договоров, однако оно также недостаточно для выдвижения утверждения о наличии полноценного понятия и формирования законодательной базы в данном направлении.

Abstract: This article was prepared within the framework of the scientific and practical project No. ALM-202310202738 “Development of innovative profiling technology for use in activities to ensure public safety”, carried out at the University of Public Security of the Republic of Uzbekistan. The article analyzes foreign legislation in the field of application of profiling technology. Features in approaches and definitions are revealed. An analysis of the legislation of Western countries, the CIS, etc. is carried out.

Key words: legislation in the field of profiling, public safety, profiling, profiler, application of profiling, profiling of offenses.

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida amalga oshirilayotgan ALM-202310202738 “Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida foydalanish uchun innovatsion profayling texnologiyasini ishlab chiqish” ilmiy-amaliy loyihasi doirasida tayyorlangan. Maqolada profayling texnologiyasini qo‘llash sohasidagi xorij qonunchiligi tahlil qilinib, tushunchalar va yondashuvlarning o‘ziga xosligi ochib berilgan. G‘arb davlatlari, MDH va boshqalar mamlakatlarning qonunchiligi ilmiy o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: profayling sohasidagi qonunchilik, jamoat xavfsizligi, profayling, profayler, profaylingni qo‘llash, huquqbuzarliklar profaylingi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Закон Калифорнии о конфиденциальности потребителей California Consumer Privacy Act, электронный ресурс, https://leginfo.legislature.ca.gov /faces/ codes_ display Text. Xhtml ? di vision=3.&part=4.&lawCode=CIV&title=1.81.5 [дата обращения 15.04.2024]
2. Закон штата Колорадо о конфиденциальности [The Colorado Privacy Act], электроный ресурс, https://leg.colorado.gov/sites/default/files/documents/2021 A/bills/2021a_190_rer.pdf, [дата обращения 15.04.2024]
3. The Connecticut Data Privacy Act [CTDPA], электроный ресурс, https://leg.connecticut.gov/sites/default/files/documents/2021A/bills/2021a_190_rer.pdf, [дата обращения 15.04.2024]
4. Florida privacy Protection Act, электроный ресурс, https://www.flsenate.gov/Session/Bill/2023/262/BillText/er/PDF, [дата обращения 15.04.2024]
5. Montana Consumer Data Privacy Act, электроный ресурс, https://leg.mt.gov/bills/2023/billpdf/SB0384.pdf, [дата обращения 15.04.2024]
6. The Indiana Consumer Data Protection Act, электроный ресурс, https://iga.in.gov/legislative/2023/bills/senate/5/details, [дата обращения 15.04.2024]
7. Tennessee Information Protection Act [TIPA], электроный ресурс, https://www.tennessee.gov/Session/Bill/2023/262/BillText/er/PDF, [дата обращения 15.04.2024]
8. The Texas Data Privacy and Security Act [TDPSA], электроный ресурс, https://www.texas.gov/Session/Bill/2023/262/BillText/er/PDF, [дата обращения 15.04.2024]
9. Закон штата Вирджиния о защите потребительских данных [Virginia Consumer Data Protection Act], электроный ресурс, https://www.virginia.gov/Session/Bill/ 2023/262/ BillText/er/PDF, [дата обращения 15.04.2024]
10. United States v. Montero-Camargo, 208 F.3d 1122, 1135 [9th Cir. 2000] [«Stops based on race or ethnic appearance send the underlying message to all our citizens that those who are not white are judged by the color of their skin alone.»
11. U.S. Department of Justice Civil Rights Division GUIDANCE REGARDING THE USE OF RACE BY FEDERAL LAW ENFORCEMENT AGENCIES, https://www.dhs.gov/xlibrary/assets/training/xus/crcl/racelawofficers/Common/pdf/doj_profiling_guidance.pdf, [дата обращения 15.04.2024]
12. General Data Protection Regulation [GDPR], электронный ресурс, , [дата обращения 15.04.2024]
13. Руководство по согласию в соответствии с Регламентом 2016/679, электронный ресурс, https://gdpr-text.com/ru/guidelines/consent/, [дата обращения 15.04.2024]
14. Глоссарий терминов и понятий, используемых государствами - участниками СНГ в пограничной сфере [принят на сорок седьмом пленарном заседании Межпарламентской Ассамблеи государств - участников СНГ [постановление N 47-13 от 13 апреля 2018 года]
15. Обобщение практики и правовых позиций международных договорных и внедоговорных органов, действующих в сфере защиты прав и свобод человека, по вопросам защиты прав мигрантов [утв. Президиумом Верховного Суда РФ 20 февраля 2022 г.]
16. Авиационные правила организации и выполнения полетов в гражданской авиации Республики Беларусь, утвержденные постановлением Министерства транспорта и коммуникаций Республики Беларусь от 19 сентября 2006 г. № 37
17. South Korea data protection law [PIPA], электронный ресурс, https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=53044&lang=ENG, дата обращений 28.04.2024

ISSN 3030-3230

“XAVFSIZ POYTAXT” KONSEPSIYASI DOIRASIDA axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishning ilmiy-amaliy xususiyatla

Aziz TASHPULATOV
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Akademiyasi

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va kishilik jamiyatining barcha sohalarida internetdan keng foydalanish kundalik faoliyatning bir qismini tashkil etib, xizmat ko‘rsatish, ilm-fan, ta’lim, elektron tijorat, shuningdek insonning fikrlash tarziga o‘zining ijobiy ta’siri bilan kirib keldi.

Ushbu o‘zgarishlar hayot sifatini yaxshilash bilan bir qatorda, jinoyatchilikning yangi shakli internet tarmoqlari orqali sodir etilayotgan jinoyat turlarining yuzaga kelishiga zamin yaratdi hamda hayotimizga “kiberjinoyatchilik” tushunchasini olib kirdi[1].

Mazkur jinoyatlar o‘z navbatida “Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar” (keyingi o‘rinlarda - kiberjinoyatchilik) deb nomlanadi.

Kiberjinoyatchilik — axborotni egallash, uni o‘zgartirish, yo‘q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta’minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar yig‘indisi[2].

Kiberjinoyatchilik ma’lumotlarni ishlab chiqish, qayta ishlash, saqlash, ular bilan amallar bajarish va aniqlashda ishlatiladigan texnologiyalardan foydalangan holda sodir etiladigan jinoiy qilmish bo‘lib, buning uchun qonunchilikda jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan[3].

Axborot texnologiyalarining keng miqyosda rivojlanishi bir vaqtning o‘zida ko‘p turdagi jinoyatlarning sodir etilishiga imkon yaratdi. O‘z navbatida ushbu turdagi jinoyatlarni aniqlash va ularni oldini olishda yuqori bilim va maxsus kasbiy tayyorgarlikni talab qilmoqda.

Internet bilan bog‘liq xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha xalqaro Symantec Security tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, hozirda har soniyada dunyodagi 12 nafar insondan bittasi internet hujumi qurboni bo‘lmoqda va har yili 556 mln.dan ko‘proq kiberhujum uyushtiriladi va bunda jabrlanuvchilar ko‘radigan zarar miqdori 100 mlrd. AQSH dollaridan ko‘proqdir[4].

Kiberjinoyatchilik to‘g‘risida tushuncha axborot texnologiyalarining doimiy rivojlanishi va internetning paydo bo‘lishi bilan shakllandi. Bu turdagi jinoyatlarning asosiy farqi shundaki, ularning ba’zilari kompyuter yordamida (kompyuter jinoyatlari), boshqalari internet (kiberjinoyatlar) orqali sodir etiladi. Kiberjinoyatchilik ko‘p qirrali bo‘lib, texnologiyalar va internetning doimiy rivojlanishi bilan uning turlari tobora ortib bormoqda.

Axborot xavfsizligi sohasidagi olim I.Kuznetsovning fikrlariga ko‘ra, kompyuter vositalari yordamida ishlov berilgan yoki axborot kommunikatsiya tarmoqlari orqali uzatilgan har qanday ma’lumot noqonuniy tarzda egallab olinishi mumkin[5].

Ushbu turdagi jinoyatlarni aniqlash va fosh etishda bir qator qiyinchiliklar mavjud bo‘lib, ulardan biri fuqarolarning o‘ziga nisbatan sodir etilgan kompyuter huquqbuzarligi to‘g‘risida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berishni istamasliklari va kompyuter jinoyatlariga duch kelganda huquqiy bilimlari yetarli emasligi bilan bog‘liqligini taqozo etmoqda.

Kiberjinoyatlarga qarshi kurash samaradorligi, ko‘p jihatdan ushbu jinoiy tajovuz kriminologik tavsifini to‘g‘ri tushunishga, uning sabab va shart-sharoitlarini hamda oldini olish choralarini o‘rganishga bog‘liq.

Darhaqiqat, jinoyatchilik, xususan raqamli jinoyatning sabablarini tadqiq etish unga qarshi kurash, uning oldini olish, jinoyatchiga odilona jazo tayinlashda yetakchi o‘rin tutadi.

Shunday qilib, raqamli jinoyatlarning sabablari ijtimoiy-psixologik hodisalar bo‘lib, o‘zining qonuniy oqibati sifatida bevosita ushbu

jinoiy hodisani keltirib chiqaradi.

Shuningdek, jinoyatga imkoniyat yaratuvchi qator obyektiv va subyektiv sabablar mavjud. Ushbu sabablarni bilish esa, ularni samarali profilaktika qilish va bu borada noqonuniy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Kiberjinoyatlar bir qator sabablar bilan sodir etiladi, jumladan: shaxsiy yoki moliyaviy foyda; raqobatchini obro‘sizlantirish; qasos; qiziqish; tasodif; o‘zini ko‘rsatish; ma’lum bir guruhda o‘ziga nisbatan hurmat qozonishga intilish va boshqa sabablar.

Bu turdagi jinoyatlarning salbiy oqibatlarining oldini olish uchun kompyuter xavfsizligi sohasida muayyan darajada bilimga ega bo‘lishlikni talab qiladi. AQShda o‘tkazilgan so‘rovlar aynan kompyuter xavfsizligi sohasida bilimga ega xizmatchilar ushbu jinoyatlarni ko‘p sodir etishlarini ko‘rsatdi. Ushbu jinoyatlarni sodir etuvchilarning yoshi masalasida shuni qayd etish mumkinki, mazkur ko‘rsatkich 15-45 yosh oralig‘ida bo‘lib, 33 foiz jinoyatchilar yoshi 20dan oshmagan, 54 foizi 20-40 yosh atrofida hamda 13 foizi 40 yoshdan oshgan toifadagi shaxslar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Mazkur turdagi jinoyatlarni sodir etish sabab va shart-sharoitlari o‘rtasida chambarchas bog‘liqlik bo‘lib, uning mavjudligi kriminologik determinantlar bir butunligini ta’minlaydi. Garchand, shart-sharoitlar o‘z-o‘zidan jinoyatchilik, xususan raqamli jinoyatlarni yuzaga keltirmasa-da, ularsiz jinoyat sabablari shakllana olmaydi va amalga oshmaydi.

Yuridik adabiyotlarda jinoyat va jinoyatchilik shart-sharoitlarining ikki guruhi ajratiladi:

a) jinoyat va jinoyatchilikka turtki bo‘luvchi ijtimoiy-psixologik hodisa (sabab)dan oldingi bosqich sifatida shakllanuvchi;

b) jinoyat va jinoyatchilik faollashuviga, jinoiy oqibatlar kelib chiqishi va jinoiy natijalar harakati uchun imkoniyat yaratuvchi shart-sharoitlar.

Birinchi guruh shart-sharoitlar shakllanayotgan ijtimoiy, guruhiy va individual ong, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, boshqaruv, madaniy-tarbiyaviy ziddiyatlar bilan bog‘liq.

Ikkinchi guruh shart-sharoitlar – huquqbuzarliklarning oldini olish va boshqaruv-tashkiliy sohadagi kamchiliklar, muammo va xatolar bilan bog‘liq. Ikkala guruh shart-sharoitlar ham o‘zaro chambarchas aloqador.

Kiberjinoyatlarning iqtisodiy jinoyatlar sifatida tavsiflanadigan o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

birinchidan, raqamli jinoyatlarning latentlik darajasi ancha yuqori. Ularning aksariyat qismi fuqarolar va mansabdor shaxslarning arizalariga ko‘ra aniqlanadi. Ularni mol-mulkni to‘liq boshqarish va ularning butligini ta’minlash vakolati berilgan shaxslar sodir etadi. Masalan, bank operatsiyalarini amalga oshirishda firibgarlik jinoyati. Zotan, aldangan bank odatda o‘z mavqei, obro‘-e’tiborini saqlab qolishlik uchun tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilmaydi. Raqamli jinoyatlarning ayrim yangi turlari latentlik darajasi esa nisbatan past.

ikkinchidan, raqamli jinoyatlar natijasida davlat, jamiyat va fuqarolarga juda katta miqdorda iqtisodiy va moddiy zarar yetkaziladi.

Umumiy ma’noda jinoyatning iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy va boshqa mazmundagi shart-sharoitlari mavjud bo‘lishi mumkin. Aynan ushbu jinoyatning shart-sharoitlariga quyidagi ijtimoiy-psixologik va tashkiliy boshqaruv tusidagi omillarni misol qilish mumkin:

– ma’lumotlarni qayta ishlash, hisoblash mashinalarini ekspluatatsiya qilish, shuningdek, moddiy qimmatliklarni saqlash, taqsimlash va sarflashning texnologik qoidalarini bajarmaslik;
– mazkur qoidalarning mukammal emasligi;
– ma’lumotlarni himoya qilish vositalarining mavjud emasligi yoki mukammal emasligi;
– qonun bilan himoyalanadigan kompyuter ma’lumoti bilan ishlash qoidalariga rioya etilmasligi yoki uning buzilishi;
– asoslanmagan holda hisoblash mashinalaridan foydalanish;
– ishlab chiqarish jarayonining yetarli darajada tashkillashtirilmaganligi, bir vaqtning o‘zida ma’lumotlarni qayta ishlashning avtomatlashtirilgan usuli orqali va qo‘lda amalga oshirilishi;
– rahbarlarning qo‘l ostidagi xodimlari bilan noto‘g‘ri munosabatda bo‘lishi va boshqa.

ISSN 3030-3230

Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi Axborot texnologiyalari sohasida jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasining 2023 yil bo‘yicha yakuniy hisobot ma’lumotlariga nazar tashlasak, poytaxt hududida so‘ngi to‘rt yilda (2020-2023 y.y.) kiberjinoyatlar 31,9 baravarga (113 / 3 608) oshganligini ko‘rishimiz mumkin[6].

Kiberjinoyatlarning 51,4 foizi (1 854 ta) o‘g‘rilik, 40,6 foizi (1 466 ta) firibgarlik, 3,2 foizi (114 ta) jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi materiallarni tarqatish bilan bog‘liq[7].



Bank kartalari talon-toroji bilan bog‘liq 847 ta (firibgarlik 567 ta, o‘g‘rilik 280 ta) jinoyatlar (25,5 %) fosh etilgan.O‘tgan yil yakuni bo‘yicha jami respublikada 2 473 tasi (jami bu turdagi jinoyatlarning 74,5 %) fosh etilmasdan qolgan[8].

Dissertatsiya mavzusini tadqiq etish jarayonida Toshkent shahrida kiberjinoyatlar sodir etilishining quyidagi asosiy sabablari aniqlandi:

- aholining axborot texnologiyalari sohasidagi yoki moliyaviy savodxonligi yetarli darajada bo‘lmaganligi, shuningdek, kibergigiyena talablariga e’tiborsizligi;
- aholining qisqa fursatlarda katta daromad topishga bo‘lgan qiziqishi va qattiq ishonuvchanligi;
- jahon internet tarmoqlari va telekommunikatsiya tizimlari orqali jinoyatlarni sodir etilishi hudud va chegara tanlamasligi ya’ni transchegaraviylik xususiyati;
- bank va boshqa tashkilotlar xavfsizlik choralarining sustligi, inson omilining mavjudligi va sohaga zamonaviy identifikatsiya mexanizmlarini to‘liq tatbiq etilmaganligi;
- jinoyatlar yuqori texnologiyali yoki modifikatsiya qilingan dasturlardan foydalangan holda maxsus ko‘nikma va bilimlarga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan sodir etilishi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, so‘ngi yillarda ushbu turdagi jinoyatlar yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlarda yuqoriligicha, ayrimlarida esa yanada ortib bormoqda, jumladan:

Rossiya Federatsiyasida 2020 yilda - 510.748 ta, 2021 yilda - 518.000 ta, 2022 yilda - 510.000 ta, 2023 yilda - 661.470 tani tashkil etib, so‘ngi to‘rt yilda (2020-2023 y.y.) 22,7 foizga oshgan.

Belarus respublikasida 2020 yilda - 25.561 ta, 2021 yilda - 55.000 ta, 2022 yilda - 14.800 ta, 2023 yilda - 15.700 tani tani tashkil etib, so‘ngi to‘rt yilda (2020-2023 y.y.) 62,8 foizga kamaygan. Mazkur ijobiy natijaning sababi o‘rganilganda, sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etganligi va yuqori malakali mutaxassis xodimlarni jalb etganligi ma’lum bo‘ldi.

Qozog‘iston respublikasida 2020 yilda - 8.900 ta, 2021 yilda -17.800 ta, 2022 yilda - 17.500 ta, 2023 yilda - 15.500 tani tashkil etib, so‘ngi to‘rt yilda (2020-2023 y.y.) 42,5 foizga oshgan.

Germaniya Federativ respublikasida 2020 yilda -1 08.474 ta, 2021 yilda - 146.363 ta, 2022 yilda - 136.865 ta, 2023 yilda - 140.560 tani tashkil etib, so‘ngi to‘rt yilda (2020-2023 y.y.) 23 foizga oshgan.

Tadqiqot ishi jarayonida Toshkent shahrida axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda quyidagi muammolar aniqlandi:

birinchidan, bank va boshqa tashkilotlar xavfsizlik choralarining sustligi va sohaga zamonaviy identifikatsiya mexanizmlarini to‘liq tatbiq etilmaganligi;

ikkinchidan, sohaga doir jinoyatlarni issiq izidan fosh etish maqsadida, o‘zaro xujjat almashinuvi tartibini raqamlashtirish zaruriyati yuzaga kelayotganligi;

uchinchidan, pul mablag‘lari asosan turli xorijiy elektron platforma va kripto birjalari orqali legallashtirilishi va xorijiy mamlakatlarga chiqib ketishi kuzatilayotganligi;

to‘rtinchidan, aholining ishonuvchanligi hamda axborot texnologiyalari sohasidagi va moliyaviy savodxonligi yetarli darajada emasligi;

beshinchidan, hozirda axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning asosiy qismi voyaga yetmagan shaxslar (maktab o‘quvchilari) tomonidan, qonuniy javobgarlik yoshiga yetmaganliklaridan foydalanib, qasddan takroran jinoyatlarni sodir etayotganligi va buning oqibatida fuqarolarning qonuniy manfaatlariga putur yetkazilayotganligi;

oltinchidan, noqonuniy o‘zlashtirilgan pul mablag‘lari asosan turli xorijiy kripto birjalari orqali legallashtirilishi va xorijiy mamlakatlarga chiqib ketishi kuzatilayotganligi;

yettinchidan, axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda, barcha rivojlangan davlatlar kabi, respublikada, shu jumladan poytaxt hududida ham axborot

texnologiyalari yordamida sodir etilayotgan jinoyatlar yildan-yilga oshib borayotganligi;

sakkizinchidan, sohada yuqori malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan xodimlarning yetishmasligi;

to‘qqizinchidan, soha xodimlarining amaliy va nazariy ko‘nikmalarini kiber diapazonda o‘quv-mashg‘ulotlarini tashkil etish orqali mashq qilish imkoniyatining mavjud emasligi;

o‘ninchidan, bugungi kun talabidan kelib chiqib, raqamli kriminalistika laboratoriyasida “Internet tarmog‘ida bulutli servizlar ekspertizasi” yo‘nalishida malakali xodimlarning yetishmasligi;

o‘n birinchidan, tezkor-tergov tadbirlari va surishtiruv jarayonlarida gumonlanuvchi shaxs tomonidan raqamli ma’lumotlarni qasddan yo‘q qilish maqsadida, axborot tashuvchi qurilmaga qisman zarar yetkazganligi oqibatida butlovchi qismlarning laboratoriyada mavjud emasligi sababli, ayrim xollarda raqamli axborot tashuvchi qurilmalardan ma’lumot olish imkoniyati kamaymoqda;

o‘n ikkinchidan, taqdim etilayotgan aksariyat raqamli ma’lumotlar tashuvchi qurilmalarda operatsion tizim xavfsizlik darajasi yuqori bo‘lganligi sababli, ma’lumot olish imkoniyati kamaymoqda.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilar taklif etilmoqda:

birinchidan, rivojlangan davlatlar (Singapur, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya va boshqa)ning ilg‘or tajribalaridan kelib chiqib, “GSM” xalqaro assotsiatsiya sertifikatiga ega bo‘lgan foydalanuvchilar tomonidan pul mablag‘lar o‘tkazma(tranzaksiya)si amalga oshirilayotgan paytida, sim karta, tarmoq, lokatsiya, rouming va qurilmalar solishtirmasini (zamonaviy autentifikatsiya) amalga oshiruvchi “IPIFICATION” yoki soxtalashtirilgan abonent raqamlari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olish maqsadida, “Uztelekom” va respublika hududida faoliyat olib boruvchi uyali aloqa (mobil) operatorlarida himoya tizimi (anti-fraud)ni joriy etish;

ikkinchidan, mas’ul bo‘lgan idora va tashkilotlar o‘rtasida himoyalangan yopiq tarmoqda yagona innovatsion elektron ma’lumotlar almashinuv platformasini joriy etish;

uchinchidan, Xitoy Xalq Respublikasi tajribasidan kelib chiqib, eksperiment tariqasida, Toshkent shahar IIBBning “Yagona tezkor boshqaruv markazi”da, Markaziy Bank va poytaxt Ichki ishlar organlari mas’ul xodimlaridan iborat bo‘lgan doimiy faoliyat olib boruvchi “Tezkor harakat guruhi”ni tashkil etib, amaliyotga joriy etish;

to‘rtinchidan, “Kibersavodxonlik”, “Shaxsiy va bank plastik karta ma’lumotlaridan xavfsiz foydalanish qoidalari”, “Kiberolam yangiliklari”,- nomli ogohlik ko‘rsatuvlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

beshinchidan, bank va aloqa operatorlari tomonidan mijozlarga: “Hurmatli fuqarolar, shaxsiy va bank karta ma’lumotlaringizni begonalarga bermang! Ogoh bo‘ling firibgarlarga aldanib qolmang!”,- yozuvli ogohlik SMS xabarlarini kamida bir oyda ikki marotaba doimiy ravishda yuborish amaliyotini joriy etish;

oltinchidan, qonunchilikda, axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning umumiy javobgarlik yoshini 14 yosh etib belgilash, shuningdek, “axborotlashtirish qoidalarini buzish” qilmishlari uchun javobgarlikni kuchaytirish;

yettinchidan, respublika hududida noqonuniy kripto-aktivlar aylanmasi faoliyatini tartibga solish va qonunchilikda ushbu harakatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan javobgarlikni belgilash;

sakkizinchidan, poytaxt tajribasidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich, respublikaning barcha viloyat, shuningdek, Toshkent shahar barcha tuman ichki ishlar organlarida, Axborot texnologiyalari sohasida jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘limlarini tashkil etish;

to‘qqizinchidan, soha xodimlarini yo‘nalishga doir bilim, malaka va ko‘nikmalarini doimiy oshirib borish;

o‘ninchidan, raqamli kriminalistika yo‘nalishida yangi “Internet tarmog‘ida bulutli servizlar ekspertizasi” yo‘nalishida xodimlarni tayyorlash;

o‘n birinchidan, protsessual tartibda ashyoviy dalil sifatida baholanib, keyinchalik sud organlari tomonidan yo‘q qilish belgilangan turli raqamli axborot tashuvchi qurilmalar (mobil aloqa vosita, kompyuter texnikasi, video registrator, qattiq disk, flesh xotira va tashqi jamlanmalar)ni ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarida, shuningdek, texnik vosita hamda butlovchi ehtiyot qismlari sifatida foydalanish uchun Toshkent shahar IIBB ATSJQKB Raqamli-kriminalistika laboratoriyasida axborot tashuvchi qurilmalarning kolleksiyasini shakllantirish va yuritish;

ISSN 3030-3230

o‘n ikkinchidan, “Raqamli ma’lumotlar bazasi ekspertizasi” hamda “Internet tarmog‘ida bulutli servislar ekspertizasi”, shuningdek, mobil aloqa vositalariga o‘rnatilgan himoya parollarini buzib kirish, MasOS, IOS operatsion tizimlaridan ma’lumot olish usul va yo‘llari bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarini oshirish;

o‘n uchinchidan, moddiy manfaat evaziga o‘zga shaxslarga g‘arazli maqsadlarda foydalanish uchun o‘z nomiga rasmiylashtirilgan bank karta hamda turli xil ko‘rinishdagi akkauntlarini taqdim etgan shaxslarga nisbatan javobgarlikni belgilovchi yangi normalarni qonunchilikka kiritish.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, yuqorida qayd etilgan takliflar, axborotni egallash, uni o‘zgartirish, yo‘q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta’minot va texnik vositalardan foydalanilgan

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Таштемиров А.А. (2022). Ахборот технологиялари орқали содир этилган фирибгарлик жиноятларига қарши курашиш самарадорлигига эришишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2(12 Special Issue), 35-40.

2. Ўзбекистон Республикасининг “Киберхавфсизлик тўғрисида”ги Қонуни. // 15.04.2022 йил ЎРҚ-764-сон // https://lex.uz/docs/5960604

3. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси // XX1 боб. Ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятлар // https://lex.uz/docs/111453

4. Анорбоев А., Хурсанов Р. Кибержиноятлар хавфини бартараф этиш йўллари. Илмий мақола. Одил судлов. Ҳуқуқий, илмий-амалий нашр. 5/2020. 25-27 бетлар. https://sud.uz/wp-content/uploads/2021/odilsudlov/5_uz.pdf.

5. Кузнецов И.Н. “Информация: сбор, защита, анализ” Ахборот-таҳлил иши учун дарслик: М., 2001.110-б

6. Маълумот учун: 2020 й. 113 та, 2021 й. 2 200 та, 2022 й. 3 630 та, 2023 й. 3 608 та. Қолаверса, 2023 йилда 3 минг 608 та кибержиноятлар қайд қилиниб, жами (21 728) жиноятларнинг 16,6 фоизини ташкил этган.

7. Маълумот учун: Ўзлаштириш 25 та, ҳақорат 20 та, туҳмат 14 та, бошқа 86 та. Шунингдек, 2023 йилда банк карталаридан пулларни талон-торож қилганлик ҳақида жами 12 392 та мурожаатлар келиб тушган.

8. Маълумот учун: ўғрилик 1 524 та (62%), фирибгарлик 899 та (38%).

BARQAROR TINCHLIK – taraqqiyotimiz garovi

Oybek TURG‘UNOV,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari,
yuridik fanlar doktori, professor

Ko‘p yillik an’ana va qadriyatlarga ko‘ra O‘zbekistonimizda 9-may – Xotira va qadrlash kuni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanadi. Shu bois, ushbu bayram arafasida Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaga o‘z hissasini qo‘shgan barcha mehnat va urush faxriylariga hurmat-ehtirom ko‘rsatish, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining xotirasini abadiylashtirishga bag‘ishlangan tadbirlar amalga oshiriladi.

Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan qarorda alohida ta’kidlanganidek, “Xalqimiz asrlar davomida og‘ir sinovlarda, bosqinchi va yovuz kuchlarga qarshi mashaqqatli kurashlarda bukilmas iroda va jasorat namunasini amalda namoyon etib kelgan. O‘z ozodligi, erkinligi yo‘lida kurashib, behisob qurbonlar bergan ota-bobolarimiz jasorati xotiramizdan hech qachon o‘chmaydi.

Darhaqiqat, dunyoda ne’matlar ko‘p. Shu bois insonlar uchun tinchlik-osoyishtalikdan ko‘ra azizroq va bebaho ne’mat yo‘qdir. Yurtimiz tinch bo‘lsa fayzu-baraka, taraqqiyot va rivojlanish bo‘ladi. Oilalarda shodlik, farovonlik, elga to‘y-tomoshalar yarashadi, yuzlarimizdan xursandchilik, o‘yin-kulgi kayfiyati hech qachon arimaydi. Ammo, urush-janjallar tufayli insonlar va millatlar, davlatlar aro nizolar paydo bo‘ladi, ulug‘ qadriyat bo‘lgan mehr-oqibat va odamgarchilik unutiladi, turmush izdan chiqadi.

Ana shu bois, muhtaram Prezidentimiz yurtimizda tinchlikni qadrlash va mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash masalasiga davlat siyosatining eng ustuvor va markaziy yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida e’tibor qaratib kelmoqdalar.

Albatta, inson bolasi borki, baxt va saodatga intilib yashashga haqli. Biroq, ushbu ne’matga o‘z-o‘zidan erishib bo‘lmaydi. Bugungi murakkab zamonda O‘zbekiston va uning rahbariyati mamlakatimiz BMTning teng huquqli a’zosi sifatida xalqaro huquq normalariga og‘ishmay rioya qilishi, uning tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash, terrorizmga qarshi kurash, harbiy mojarolarda ishtirok etmaslik kabi o‘zi qo‘shilgan qator konvensiyalariga muvofiq faoliyat olib bormoqda.

Yodingizda bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy bog‘liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzusidagi yirik xalqaro konferensiyaga mezbonlik qilgan chog‘ida so‘zlagan nutqida “xavfsizlik va barqarorlik – mintaqalarimizning izchil rivojlanishi va o‘zaro aloqalarimiz mustahkamlanishining asosiy sharti ekanligini, bizning xavfsizligimiz bo‘linmasdir va uni faqat konstruktiv muloqot hamda birgalikdagi say-harakatlarimiz orqali ta’minlash mumkinligini” alohida qayd etgan edi.

Bularning bari, O‘zbekiston tinchlikparvar davlat ekanligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, davlatimiz barcha mojarolarni diplomatik vosita va mexanizmlar bilan yechish tarafdori va bunga qat’iy amal qilishi, barcha mojarolarda har doim betaraf bo‘lib qolishga intilishining o‘zi ham bu siyosat xalqimizning tinchlikparvarlik, tolerantlik g‘oyalariga asoslanganini yaqqol dalilidir. Bundan O‘zbekiston nafaqat mamlakat ichkarisida, balki Markaziy Osiyoda ham tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyot bo‘lishi uchun harakat qilayotganini kuzatish mumkin.

Global dunyoda xavfsizlik tizimi tobora mo‘rtlashib borayotganiga guvoh bo‘lib turibmiz. Bu murakkab holat har bir xalq, davlat, shu jumladan O‘zbekiston xalqidan ham yuksak siyosiy hushyorlik va madaniyatni, tinchlik uchun barcha birdek mas’ul ekanligini anglashni talab etadi. Ayniqsa, voqealar mohiyatini chuqur anglamay unga baho berish, xalqaro axborot maydonidagi tarafkash targ‘ibotlarga berilib

ISSN 3030-3230

ketishdan tiyilish, ayniqsa, yoshlarimizga vaziyatni baholash va masalaga o‘ta vazminlik bilan yondashish lozimligini tushuntirish muhim vazifadir.

O‘zbekiston Prezidenti haqiqatan ham, muntazam ravishda dunyoda eng qimmatli, aziz va bebaho ne’mat, bu – tinchlik ne’mati ekanligini, buning uchun O‘zbekiston barcha say-harakatlarni amalga oshirishi va bu boradagi tadbirlar uchun eshigi hamisha ochiq ekanligini dunyoga bildiradi. Sababi, Yangi O‘zbekistonni barpo qilishga bel bog‘lagan Vatanimiz – O‘zbekistonda tinchlik-osoyishtalik hukm surmoqda, ko‘p millatli bag‘rikeng xalqimiz xotirjam turmush kechirmoqda. Biz uchun tinchlik-osoyishtalikning qadri alohida qadrlanadi. Donishmand ota bobolarimiz: “Yurti tinchning – o‘zi tinch”! deb bejiz aytmagan. Tinchlik-osoyishtalik hukm surgan joyda, yuksalish va taraqqiyot bo‘ladi, yurt gullab-yashnaydi, fuqarolarning turmushi farovonlashadi.

Tarix – biz uchun ulkan saboq manbai. Kuni kecha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish to‘g‘risida” Farmoni qabul qilindi. Unda 9-may – Xotira va qadrlash kuni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanishi, shuningdek, Ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, bugun ham safimizda turib Vatanimizning obro‘-e’tiborini yuksaltirishga, yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga hissa qo‘shayotgan faxriylarni e’zozlash hamda fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaning 79 yilligi munosabati bilan urush qatnashchilari va nogironlarini moddiy rag‘batlantirish belgilab berildi. Yoki Prezident Shavkat Mirziyoyevning G‘alaba bog‘iga tashrif buyurib, “Matonat madhiyasi” yodgorligi poyiga gulchambar qo‘yganida ham chuqur ma’no bor. Buni tinchlik qadriyatini mustahkamlash hamda uning ulkan tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ham alohida ta’kidlash zarur, deb hisoblaymiz.

Binobarin, bundan 79 yil avval tugagan Ikkinchi jahon urushi millionlab begunoh odamlarning bevaqt o‘limiga, mislsiz yo‘qotishlar va talafotlarga sababchi bo‘lgan dunyodagi eng dahshatli, qonli qirg‘inlardan biri sifatida insoniyat tarixida muhrlanib qoldi.

Ko‘pmillatli O‘zbekiston xalqi ham haqiqiy jasorat va fidoyilik ko‘rsatib, fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga ulkan hissa qo‘shdi. Xususan, 2 millionga yaqin yurtdoshimiz janglarda ishtirok etib, ularning 500 mingdan ortig‘i qahramonlarcha halok bo‘ldi. Shu bilan birga, urush davrida respublikamiz front uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurol-aslaha va boshqa vositalarni yetkazib beradigan muhim ta’minot markazlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, yurtdoshlarimiz janglar davom etayotgan hududlardan O‘zbekistonga ko‘chirilgan 1,5 milliondan ortiq keksalar, ayollar va yosh go‘daklarni bag‘riga olib, og‘ir damlarda ularga beqiyos g‘amxo‘rlik ko‘rsatdi.

O‘zbekiston xalqining tarix sahifalariga o‘chmas harflar bilan bitilgan bunday mardlik va matonati, olijanobligi, mehr-muruvvati va yuksak ma’naviyati bizga cheksiz g‘urur-iftixor bag‘ishlagan holda farzandlarimizni vatanparvarlik va ajdodlar jasoratiga sadoqat ruhida tarbiyalashga chorlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi hamda Jamoat xavfsizligi universiteti ham tantanali tadbirlar o‘tkaziladigan joylarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashda bor kuchini ayamaydi. Bugungi tinch va osoyishta kunlarimiz uchun jonini fido qilgan jasur yurtdoshlarimizning muqaddas xotirasini e’zozlash va faxriylarimizning hurmatini joyiga qo‘yishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshiradi. Shu bilan birga, bu kabi muqaddas qadriyatlar va an’analar kursant va tinglovchilar ongu shuuriga singdirib boriladi.

Muxtasar qilib aytganda, bularning barchasi bizni hozirgi tarixiy davrda kelajak haqida chuqur o‘ylashga, eng ezgu niyatimiz bo‘lgan mustahkam tinchlik va farovonlikka faqat umumiy intilishlar va birgalikdagi harakatlar bilan erishish mumkinligiga yana bir bor inontirdi. Shu bois, Prezident tabrigida ta’kidlanganidek, nafaqat bizga, balki butun xalqimizga o‘zaro ishonch, birdamlik va hamkorlik ruhi har qachongidan ham ko‘proq zarur. “Hozirgi g‘oyat murakkab va tahlikali zamonda yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, farzandlarimizni turli zararli ta’sirlardan himoya qilish, bebaho boyligimiz bo‘lgan tinchlik va barqarorlikni, millatlar va dinlararo do‘stlik va ahillikni asrashdek o‘ta muhim vazifalarni bajarishda qahramon faxriylarimizning jasorati, shonli an’analari biz uchun hamisha ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi. Biz ulardan ruh va kuch olib, Vatan himoyachilari, tinchlik posbonlari, Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari bo‘lishdek yuksak burchimizni albatta sharaf bilan ado etamiz”.

Shundagina ko‘zlagan ulkan maqsadlarga birgalikda erishamiz.
Zero, barqaror tinchligimiz izchil taraqqiyotimizning garovidir.

XITOYNING MARKAZIY OSIYO STRATEGIYASIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTINING OMILI

(xitoy tadqiqotchilari izlanishlarining tahlili asosida)

Raxmatulla NURIMBETOV
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xitoyning Markaziy Osiyoga nisbatan strategik yondashuvlarining shakllanishida va rivojlanishida Shanxay hamkorlik tashkilotining (SHHT) ahamiyati xitoylik olimlar tadqiqotlari asosida tahlil etilgan. Dastlab chegara masalalarini hal etish uchun shakllantirilgan “Shanxay beshligi”, keyinchalik uning negizida paydo bo‘lgan SHHTdoirasida XXRning mintaqaga nisbatan siyosatining asosiy tamoyillari va elementlari shakllanganligini qayd etilgan. Shu bilan birga, SHHTning kengayishi ta’sirida xitoylik olimlarning tashkilotga nisbatan an’anaviy qarashlarida ham o‘zgarishlar yoritib berilgan. Yangi “Markaziy Osiyo - Xitoy” hamkorlik mexanizmining tuzilishi va institutsionallashuvi istiqbolda aynan ushbu format XXRning mintaqaga nisbatan strategiyasini amalga oshiruvchi asosiy vositaga aylanishi bashorat qilingan.

Kalit so‘zlar: hanxay hamkorlik tashkiloti, “Shanxay beshligi”, “Shanxay ruhi”, “xalqaro munosabatlar yangi modeli”, ko‘ptomonlama hamkorlik, mintaqaviy hamkorlik.

Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan yaqin siyosiy-iqtisodiy, diplomatik va madaniy aloqalarga ega bo‘lgan yirik davlat bo‘lib, tomonlar o‘rtasidagi munosabatlar ijobiy sur’atlarda rivojlanmoqda. Xitoyning mintaqadagi har bir davlat bilan, birinchi navbatda, savdo-iqtisodiy sohadagi ikki tomonlama munosabatlari izchil kengayib borishi natijasida keyingi yillarda bu aloqalar yaqin strategik sheriklikka aylanib, bugungi kunda ko‘plab sohalarni qamrab olgan.

Ma’lumki, Qo‘qon va Xiva xonliklari hamda Buxoro Amirligining XIX asr uchinchi choragida Chor Rossiyasi tomonidan istilo qilinishi va ushbu davlatlarning mustaqilligining tugatilishi bilan, Markaziy Osiyoning Xitoy bilan ko‘p asrlik aloqalari asta-sekin susayib borgan. XX asr boshlarida mintaqa butunligicha sobiq SSSR tarkibiga beshta “sovet respublikalari” sifatida kiritilishi va shu tariqa “Temir parda” ichiga olinishi bilan tomonlar o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar tamomila uzilib qolgan.

XX asrning 80-yillaridan boshlab Xitoyning chegaradosh viloyatlari va Markaziy Osiyo respublikalari o‘rtasidagi mintaqalararo savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalar tiklana boshlangan. Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin, Xitoy 1992-yil boshida barcha Markaziy Osiyo davlatlarining mustaqilligini tan oldi va ular bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatdi. Bu Markaziy Osiyo-Xitoy munosabatlarining yangi tarixiy va geosiyosiy sharoitlarda qayta tiklanganligini anglatar edi.

O‘sha davrda tomonlar o‘rtasidagi eng asosiy masala – davlat chegaralarini uzil-kesil hal qilishdan iborat bo‘lgan [1]. Sobiq SSSR parchalanganidan ko‘p o‘tmay, mintaqaning uchta respublikasi – Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) bilan chegaradosh Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston rahbarlari sobiq Ittifoqdan “meros” bo‘lib o‘tgan munozarali chegara masalalarini hal qilishga kirishdilar. Chegara masalalari bo‘yicha muzokaralar jarayoniga Rossiya Federatsiyasining qo‘shilishi bilan, bir necha yil ichida, aniqrog‘i 1996-yilda "Shanxay beshligi"ning shakllanishiga olib keldi. Xitoylik olimlarning qayd etishlaricha, keyinchalik Shanxay hamkorlik tashkilotiga (SHHT) aylangan “Shanxay beshligi” doirasida XXRning Markaziy Osiyoga nisbatan zamonaviy strategiyasining asosiy tamoyillari va elementlari shakllangan.

Xususan, Markaziy Osiyo va SHHT masalalari bo‘yicha taniqli xitoylik olim Chjou Xushen 2000-yillarning boshida XXRning mintaqaga nisbatan strategiyasida oltita ustuvor yo‘nalishni ko‘rsatgan edi. Bular: “uch yovuzlik”ka (terrorizm, ekstremizm va separatizm) qarshi kurash; chegara hududlarining xavfsizligini ta’minlash; umummintaqaviy barqarorlikka hissa qo‘shish; mintaqani iqtisodiy rivojlantirishda ishtirok

ISSN 3030-3230

etish; Markaziy Osiyoning Xitoyga nisbatan dushman kayfiyatdagi davlatlar yoxud harbiy bloklar ta'siriga tushib qolishiga yo'l qo'ymaslik; mintaqa davlatlarining energetika resurslariga yo'l ochish [2].

Shanxay hamkorlik tashkilotining tuzilishi va faoliyati Xitoyning yuqorida zikr etilgan manfaatlarini ko'ptomonlama hamkorlik orqali amalga oshirish imkonini berdi. XXRning tashkilotni tuzishdagi tashabbuskorligi va yetakchilik roli yana bir taniqli olim Pan Guan ko'rsatganidek, kamida quyidagi uchta omil bilan belgilanadi: birinchisi - XXR tashqi siyosatining konseptual elementlari SHHTning doktrinial-mafkuraviy asoslarini belgilab bergan. Bu eng avvalo "Shanxay ruhi" va "uch yovuzlik"ka qarshi kurashga oid konsepsiyalar. Ular SHHT Xartiyasida o'z ifodasini topgan; ikkinchisi – Xitoy SHHTning institutsional jihatdan shakllanishini faol qo'llab-quvvatlagan. Aynan XXR tashabbusi bilan tashkilotning Kotibiyati Pekin shahrida joylashtirilgan. Bundan tashqari, tashkilot doirasida turli sohalarda hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha tuzilgan ishchi organlar va mexanizmlarning ko'pchiligi aynan Xitoy diplomatiyasining mahsulidir; uchinchidan – SHHT doirasidagi hamkorlik loyihalari va dasturlarini, shu jumladan, moliyaviy jihatdan keng qo'llab-quvvatlagan [3].

Boshqa bir taniqli xitoylik olim Pan Dapenning fikricha, SHHT Xitoyda islohotlar siyosati hamda sotsialistik modernizatsiyaning amalga oshirilishi bilan bir vaqtda qaror topgan. Shu sabab uning shakllanishini bevosita XXRning taraqqiyoti va diplomatiyasidagi o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq. Uning "SHHT - bu Xitoy diplomatiyasining kashfiyoti" degan fikrlari ham e'tiborga molik [4].

Shu tariqa, ayniqsa 2000-yillarning boshlarida SHHT juda ko'plab, tadqiqotchilar (xitoylik, rossiyalik, g'arblik) tomonidan "Xitoyning Markaziy Osiyodagi siyosatining ifodasi" sifatida talqin qilingan. "Shanxay jarayoni"ning institutsionallashuvi, ya'ni SHHT formatida to'liq shakllanishi natijasida Xitoy nisbatan qisqa fursat ichida "g'arbiy yerlar"dan kirib kelishi ehtimoli bo'lgan tahdidlarni bartaraf qilinishiga erishdi. SHHTning tashkil etilishi, birinchi navbatda, Xitoyning shimoliy-sharqiy, shimoliy va shimoliy-g'arbiy strategik mudofaasini ta'minlash bilan bog'liq muammolarni hal qilish imkonini berdi. (1990-yillarning oxirlariga qadar Xitoyning Rossiya va Markaziy Osiyo bilan chegaralar XIX asr o'rtalaridan beri uzil-kesil hal qilinmay kelayotgan edi). Bu hudud Xitoy xavfsizligini va siyosiy barqarorligini ta'minlash uchun o'ta muhim hisoblanadi, chunki mamlakatning quruqlik bo'ylab chegaralarining uchdan bir qismi (7600 kilometrdan ortiq) aynan shu yerlarga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, Xitoy hukumati doim G'arbda joylashgan, qachonlardir "Sharqiy Turkiston" nomi bilan atalgan, Markaziy Osiyo bilan tarixiy-madaniy va etnik jihatdan juda yaqin bo'lgan Shinjon-Uyg'ur avtonom viloyatida xavfsizlikni ta'minlash, xususan, "uyg'ur separatizmi"ga qarshi kurashga juda katta e'tibor qaratgan. SHHT doirasida "uch yovuzlik"ka qarshi kurash konsepsiyasining qabul qilinishi va uning xalqaro hujjat - SHHTning terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyasi (2001-yil 1-iyun) shaklida ishlab chiqilishi, keyinchalik Mintaqaviy aksilterrorchilik tuzilmasining (Ijroqo'mi Toshkentda joylashgan) ta'sis etilishi va bu yo'nalishda ko'ptomonlama amaliy hamkorlikning yo'lga qo'yilishida Xitoy katta jonbozlik qilgan [5].

Pan Dapen ta'kidlaganidek, "SHHT faoliyati Xitoyning G'arbiy mintaqasidagi xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etish va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash kafolati bo'ldi. Shuningdek, SHHTning rivojlanishi va mustahkamlanishi bu hududni ishonchli strategik mudofaa nuqtasiga aylantirmoqda. G'arbiy hududdagi ushbu barqarorlik, zarurat tug'ilganida, XXR mamlakatning boshqa har qanday hududida, masalan, sharqiy qirg'oqlarida ko'zda tutilmagan muammolarni bartaraf etishga kuchlarni safarbar qilish imkonini beradi. Bu ayniqsa Xitoy-AQSH qarama-qarshiligi keskinlashayotgan, shuningdek Janubiy Xitoy dengizidagi vaziyat og'irlashayotgan bir paytda katta strategik ahamiyat kasb etadi" [6].

Xitoyning g'arbiy hududlarida xavfsizlik va strategik barqarorlikning SHHT doirasida ta'minlanishi bilan bir qatorda, tashkilot rasmiy Pekinning mintaqa mamlakatlari bilan izchil ravishda savdo-iqtisodiy, energetika, transport, moliyaviy va madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirishga ham xizmat qilib kelmoqda.

Bundan tashqari, SHHT – bu Xitoy tashabbuskorligi va yetakchiligida tuzilgan ilk ko'ptomonlama hamkorlik mexanizmidir. Shu ma'noda, mazkur tashkilotning umuman olganda muvaffaqiyatli rivojlanishi XXR uchun o'zining tashqi siyosiy, geosiyosiy va geoiqtisodiy konsepsiyalarini izchillik bilan ilgari surish bo'yicha tajriba to'plashida ham muhim omil bo'lib xizmat qildi. Buni xitoylik

olimlar va siyosiy doira vakillari ko‘pincha “davlatlararo hamkorlikning yangi modeli” [7] deb ta’riflashadi.

Shuni ta’kidlash joizki, ilmiy-nazariy nuqtai-nazardan, SHHT – bu klassik xalqaro tashkilot yoki mintaqaviy integratsiya modeli emas. Aynan mana shu muammo atrofida g‘arblik va xitoylik olimlarning qarashlari bir-biridan jiddiy farq qiladi. Masalan, britaniyalik tadqiqotchi Roy Alison SHHTni Xitoyning Markaziy Osiyoda “hukmronlik qilish” modeli, deb ta’riflagan [8]. G‘arblik mutaxassislar orasida SHHTni hattoki Xitoyning tarixan qo‘shni mamlakatlarni o‘zining “qaramlari” deb talqin etgan yondashuvlarining yangi tarixiy shart-sharoitlarida Markaziy Osiyoga nisbatan ko‘rinishi, deb baholaganlar ham bo‘lgan [9]. Umuman olganda, G‘arbda SHHTni “liberal qadriyatlarni, demokratiya va inson huquqlarini cheklash hamda avtoritar siyosiy rejimlarni himoya qilish”ni maqsad qilgan tuzilma va shu sabab u Xitoyning geostrategik maqsadlariga xizmat qiladi, degan qarashlar keng tarqalgan [10].

Lekin, yevropalik va amerikalik olimlar SHHTni asosan G‘arbda shakllangan klassik integratsiya nazariyalari asosida tadqiq qilishgan, shu sababdan ham ularning yondoshuvlarida liberal qadriyatlarning kuchli ta’siri sezilib turadi.

SHHTning kengayishi natijasida, ya’ni unga Markaziy Osiyodan tashqarida joylashgan davlatlarning qabul qilinishi bilan, tashkilotning dastlabki mohiyati ham o‘zgara boshladi. Bu, birinchi navbatda, 2017-yilda Xitoy va Pokistonning tashkilotga to‘laqonli a’zo bo‘lib kirishi bilan bog‘liq. Keyinchalik Eronning 2023-yilda va 2024-yilda Belarusning SHHTga qabul qilinishi bu jarayonni yanada tezlashtirmoqda.

Tuzilmaning kengayishi, uning mohiyatidagi va faoliyat kun tartibidagi o‘zgarishlar ta’sirida oxirgi paytlarda xitoylik olimlarning SHHTga yondoshuvlarida ham yangi jihatlar ko‘zga tashlanadi. Ularning nazarida tashkilot endilikda faqat Markaziy Osiyo bilan cheklanib qolmasdan, Xitoyning xalqaro tashabbuslari uchun xizmat qiluvchi vositaga aylanib bormoqda. Masalan, Van Syaotsuan “Shanxay ruhi” (o‘zaro ishonch, o‘zaro manfaat, tenglik, maslahat, madaniy xilma-xillikni hurmat qilish, umumiy rivojlanish istagi) asosida qurilgan SHHT turli xil sivilizatsiyalar va siyosiy tizimdagi davlatlarni o‘z ichiga olgan noyob xalqaro tashkilot”, deb ta’kidlaydi. Bu esa, uning fikricha, boshqa xalqaro tuzilmalardan farqli o‘laroq inklyuziv hamkorlik hamda “uyg‘un tartibot”ni ilgari surish imkonini beradi [11]. Professor Li Xaydun esa SHHTni “Osiyoning yangi xavfsizlik” konsepsiyasini tatbiq etish uchun muhim institut deb biladi. Bu konsepsiyani AQSH nazorati ostidagi alyanslar rioya etuvchi “qattiq xavfsizlik” konsepsiyasiga qarshi qo‘ygan holda xitoylik tadqiqotchi amalda SHHTni rasmiy Pekinning ko‘p qutblilikka asoslangan yangi dunyo tartibotini shakllantirish strategiyasining mexanizmi deb biladi [12]. Yana bir bir guruh xitoylik ekspertlar SHHTni XXRning “Bir belbog‘, bir yo‘l” tashabbusini tatbiq etish vositasi va shundan kelib chiqib, ikkala platformani o‘zaro “uyg‘unlashtirish” zaruratini isbotlashga harakat qiladi. Buning uchun tashkilot faoliyatida asosan iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish kerakligi ko‘rsatiladi [13].

Tashkilotga nisbatan xitoylik olimlarning yondashuvlaridagi bu “evolutsiya” SHHTning “g‘oyaviy” asoschilaridan hisoblangan Chjou Xuashen va Pan Dapenning “yangicha” talqinlarida o‘zining yorqin isbotini topadi.

Xususan, Chjao Xuashen 2022-yilda chop etilgan maqolasida shunday deb yozadi: “SHHT Xitoyning yangi xalqaro tartibotga doir konsepsiyalari uchun asosiy tajriba va amaliyot maydonchasidir. Xitoy tomonidan asosiy g‘oyalar SHHT amaliyotida o‘z ifodasini topdi va aytish mumkinki, bu tashkilot yangi xalqaro tartibotning o‘ziga xos namunasi. Xitoy esa shu yangi tartibotning vakili” [14].

Pan Dapen bu fikrni yanada yaqqolroq ilgari suradi. Uning ta’kidlashicha, 2010-yilga kelib, iqtisodiy jihatdan Xitoy dunyodagi ikkinchi yirik mamlakatga aylanishi bilan u “global davlat” maqomiga ega bo‘ldi va hozirda xalqaro munosabatlarning “yangi modeli”ni ilgari surmoqda. SHHT – Xitoy uchun “yirik davlat diplomatiyasi”ning namunasi. Tashkilot nafaqat xavfsizlik, balki iqtisodiy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarda katta yutuqlarga erishdi, uning doirasida yangi hamkorlik tizimlari va mexanizmlari shakllantirildi. Doimiy a’zo, kuzatuvchi va muloqot bo‘yicha sherik davlatlarni o‘z ichiga olgan SHHT, mintaqada xavfsizlikni ta’minlash orqali global boshqaruvni takomillashtirishga hissa qo‘shmoqda. Pan Dapen fikricha, “yangilangan” SHHT: (1) Xitoy

ISSN 3030-3230

chegaralarining barqarorligini ta’minlashga va Yevroosiyoda “xavfsiz bufer zona”ni shakllantirishga; (2) xitoy millatining taraqqiyoti uchun mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni rag‘batlantirishga va (3) XXR uchun xalqaro maydonda “strategik ustun” sifatida asosiy uchta maqsad uchun xizmat qilmoqda [15].

Ko‘rinib turganidek, SHHTning kengayishi Xitoyning ushbu tashkilotga nisbatan strategik yondashuvlarining o‘zgarishiga olib keldi va bu xitoylik olimlar va tadqiqotchilarning yangicha qarashlarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Yuqoridagilarga asoslanib, xitoylik olimlar orasida SHHTga nisbatan aynan “yangi xalqaro munosabatlar modeli” va “Xitoyning global konsepsiyalari”ni ilgari suruvchi vosita sifatidagi qarashlar bundan keyin ham kuchayib boradi, degan fikirdamiz. Bu, birinchi navbatda, XXRning global yetakchilikka va yangi dunyo tartibotining o‘z “qoidalari”ga asosan barpo etishga bo‘lgan intilishlari bilan bevosita bog‘liq.

Qolaversa, hozirgi davrda Xitoy Markaziy Osiyo davlatlari bilan ko‘ptomonlama hamkorlikning yangi formatini shakllantirmoqda. Xususan, 2023-yilning 18–19 may kunlari Sian shahrida birinchi “Markaziy Osiyo-Xitoy” sammiti o‘tkazilib, uning yakunlari bo‘yicha qabul qilingan “Sian deklaratsiyasi”da ushbu formatdagi hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish xususidagi kelishuvlar ahamiyatga molik. Jumladan, tomonlar “Yangi iqtisodiy muloqot qo‘shma Strategiyasini” yaratish, “Markaziy Osiyo - Xitoy Ishbilarmonlar Kengashi”ni doimiy o‘tkazish, “Markaziy Osiyo - Xitoy sanoat-investitsiya hamkorligi Forumi”ni o‘tkazishga va boshqa qo‘shma sa’y-harakatlarni amalga oshirishga kelishib olishdi. Shular qatorida, 2024 yilda shtab-kvartirasi Sian shahrida joylashgan “Markaziy Osiyo-Xitoy” hamkorlik mexanizmi faoliyatini tashkillashtirish maqsadida ishchi organ - Kotibiyat tashkil etilganligi e’tiborga molik voqea bo‘ldi. Bu “Markaziy Osiyo - Xitoy” hamkorligining yangi institutsional shaklga kirayotganini anglatadi. Shu asosda xulosa qilish mumkinki, kelgusida Xitoy o‘zining Markaziy Osiyoga nisbatan strategiyasini SHHT bilan bir qatorda institutsionallashib borayotgan yangi hamkorlik formati doirasida ham faol ilgari surishga harakat qiladi.

Abstract. The article, based on research by Chinese scholars, provides a review of the significance of the Shanghai Cooperation Organization (SCO) in the formation and development of China's strategic approaches to Central Asia. In this regard, it is noted that the basic principles and elements of the PRC’s policy towards this region were formed within the framework of the “Shanghai Five”, created for border settlement issues, and which was subsequently transformed into the SCO. At the same time, in the light of the expansion of the SCO, changes in the traditional views of Chinese scholars in relation to this organization have been identified. In connection with the institutionalization of the new cooperation mechanism "Central Asia - China", it is predicted that from now on the PRC will implement its strategy towards the region, mainly through a new format of interaction.

Key words: shanghai Cooperation Organization, “Shanghai Five”, “Shanghai Spirit”, “new model of international relations”, multilateral cooperation, regional cooperation.

Аннотация. В статье, на основе исследований китайских ученых, сделан обзорнқй анализ значения Шанхайской организации сотрудничества (ШОС) в формировании и развитии стратегических подходов Китая к Центральной Азии. На этой основе отмечено, что основные принципы и элементы политики КНР в отношении данного региона сформировались в рамках «Шанхайской пятерки», созданной для урегулирования, и которая впоследствии трансформировалась в ШОС. Вместе с тем, в свете расширения ШОС выявлены изменения традиционных взглядов китайских учёных по отношению к данной организации. В связи с институционализацией нового механизма сотрудничества «Центральная Азия

– Китай», как прогнозируется, отныне КНР будет реализовать свою стратегию в отношении региона, главным образом, посредством нового формата взаимодействия.

Ключевые слова: шанхайская организация сотрудничества, «Шанхайская пятерка», «Шанхайский дух», «новая модель международных отношений», многостороннее сотрудничество,

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.Ходжаев. Китайский фактор в Центральной Азии. Т.:2004 Изд-во "Фан" Академии наук Республики Узбекистан, 136 с.

2. Чжао Хуашэн.Китай, Центральная Азия и Шанхайская организация сотрудничества // Московский центр Карнеги. Рабочие материалы. 2005. №5. С.50.

3. Пань Гуан. Что такое “шанхайский дух” 27.11.2008. http://www.infoshos.ru; Гао Хань-сюнь. Выгода и равенство. Почему теория «Шанхайского духа» обладает мощной жизненной силой. https://rg.ru/2020/11/08/pochemu-teoriia-shanhajskogo-duha-obladaet-moshchnoj-zhiznennoj-siloj.html;

4. Пан Дапэн. Ўша жойда.

5. Stephen Aris. The Shanghai Cooperation Organisation: ‘Tackling the Three Evils’. A Regional Response to Non-traditional Security Challenges or an Anti-Western Bloc? Europe-Asia Studies 2009 61(3):457-482

6. Пан Дапэн. Роль ШОС во внешнеполитической стратегии Китая. 01.10.2020 // https://russiancouncil.ru/analytics-and-comments/analytics/rol-shos-vo-vneshnepoliticheskoy-strategii-kitaya/

7. Jia Q. The Shanghai Cooperation Organization: China’s Experiment in Multilateral Leadership // Eager Eyes Fixed on Eurasia. No. 16–2 / ed. by A. Iwashita. Sapporo : Slavic Research Center, 2007. P. 113–123.

8. Roy Allison. Protective Integration and Security Policy Coordination: Comparing the SCO and CSTO. // The Chinese Journal of International Politics, Volume 11, Issue 3, Autumn 2018, Pages 297–338

9. Swanstrom, N.) China and Central Asia: A New Great Game or Traditional Vassal Relations?, Journal of Contemporary China, (200514(45):569-584.

10. Thomas Ambrosio. Catching the 'Shanghai Spirit': How the Shanghai Cooperation Organization Promotes Authoritarian Norms in Central Asia. // Europe-Asia Studies. Vol. 60, No. 8 (Oct., 2008), pp. 1321-1344: Thomas Ambrosio.The legal framework of the Shanghai Cooperation Organization: An architecture of authoritarianism. May 24, 2016 // https://fpc.org.uk/sco-architecture-of-authoritarianism/: Nick Bisley. The SCO: an illiberal club of growing global significance. 9 Sep 2022 // https://www.lowyinstitute.org/the-interpreter/sco-illiberal-club-growing-global-significance; Heather Katz. Authoritarian Internationalism, Cybernorms, and the SCO. Conference: American Political Science Association. At: Boston, MA, USA. August 2018 //
https://www.researchgate.net/publication/331310648_Authoritarian_Internationalism_Cybernorms_and_the_SCO

11. Wang Xiaoquan Ўша жойда.

12. New Asian security concept will build a world of peace and prosperity. 2019-06-16/ By Li Haidong, professor of the Institute of International Relations, // China Foreign Affairs University (CFAU). http://eng.chinamil.com.cn/view/2019-06/16/content_9531409.htm

13. Н. Лу, Ш. Лу, М. Хуан. Сотрудничество Китая с Россией и странами Центральной Азии в формате «Одного пояса, одного пути» как фактор развития ШОС. // Вестник международных организаций. Т. 13. №3. С. 113–127 Ли. Синь. Проблемы экономического сотрудничества ШОС, «Экономического пояса Шелкового пути» и Евразийского экономического союза. // Журнал “Международная аналитика”. № 2 (2015). С. 57-60.

14. Чжао Хуашэн Современные подходы Китая к Шанхайской организации сотрудничества. 7 мая 2022 // https://rus.sectsco.org/20220507/835611.htm

15. Пан Дапэн. Роль ШОС во внешнеполитической стратегии Китая. 01.10.2020 // https://russiancouncil.ru/analytics-and-comments/analytics/rol-shos-vo-vneshnepoliticheskoy-strategii-kitaya/

ISSN 3030-3230

Центры моделирования и симуляции как учебно-методическая база по принятию управленческих решений военными руководителями

Ильяс МУРАКАЕВ
Университет общественной безопасности
Республики Узбекистан
Заместитель начальника университета
по развитию информационных технологий, доцент

Аннотация. В статье изложены подходы к обучению военнослужащих и сотрудников Национальной гвардии принятию управленческих решений при выполнении оперативно-служебных задач с использованием возможностей ситуационного центра.

Ключевые слова: принятие управленческих решений, охрана общественного порядка, обучение, ситуационные центры, информационные технологии.

Одним из основных направлений деятельности Национальной гвардии является - обеспечение общественных безопасности [2]. Правовой основой деятельности Национальной гвардии Республики Узбекистан (далее – НГ) являются законодательные и иные нормативно-правовые акты, регулирующие общественный порядок, определяющие организацию и устанавливающие обязанности, права сотрудников и военнослужащих (далее – сотрудников), формы и методы их деятельности по охране общественного порядка.

Актуальность данной статьи, подтверждает вкскказквание Верховного главнокомандующего Вооруженных сил – Президента Республики Узбекистан Мирзиёева Ш.М. на расширенном заседании Совета безопасности в 2022 году “Повышение оборонного потенциала, оснащение техникой и вооружением, широкое применение информационных технологий для управления подразделениями, а также повышения их боевой и профессиональной подготовки и в последующем останется одной из приоритетных задач” [1].

Как известно, по большей части, для того, чтобы умело и грамотно управлять подразделениями необходимы высокая профессиональная подготовка руководителей (командиров) подразделений. Однако достижение в мирное время необходимого уровня компетенции командирами при управлении силами и средствами возможно преимущественно путем регулярного проведения с личным составом, штабных тренировок, взводных, батальонных, бригадных тактических учений и заканчивая проведением командно-штабных военных игр. Необходимо отметить, что эффективность практико-ориентированных тренировок и учений, можно значительно повысить путем применения в подготовке военнослужащих всех степеней современных средств моделирования и симуляции (далее – МиС). При этом, немаловажным фактором в пользу последних является сокращение расходов на ГСМ, боеприпасы и другие амортизационные, а также расходы материальных средств.

Успешное выполнение оперативно-служебных и служебно-боевых задач, возложенных на подразделения НГ, требует от руководителей всех степеней постоянного повышения уровня руководства подчиненными подразделениями, совершенствования стиля работы и профессиональной подготовки руководящего состава.

Одним из способов повышения боевой готовности и слаженности совместных действий подразделений при выполнении задач несения службы по обеспечению охраны общественного порядка и безопасности в зонах ответственности является применение средств моделирования и симуляции в ходе проведения компьютерных командно-штабных учений, занятий и тре-нировок по управлению подчиненными силами и

средствами.

Обучение принятию управленческих решений на практических занятиях. Одной из форм обучения курсантов и слушателей в Университете общественной безопасности Республики Узбекистан являются штабные тренировки и деловые игры, сущность которых состоит в том, что обучаемые в соответствии с определенными функциональными обязанностями под руководством руководителя, исходя из созданной им единой для всех обстановки, самостоятельно выполняют конкретную задачу по управлению подразделениями в различных условиях обстановки.

Обучение курсантов и слушателей целесообразно осуществлять на базе специализированных компьютеризированных учебных аудиторий (далее центров МиС) объединенных в единую компьютерную сеть позволяющих тем самым организовывать процесс обучения в форме компьютерных командно-штабных учений и трениро¬вок, деловых игр [3; 4]. Однако для эффективности использования ситуационных центров, их необходимо оснастить предметно ориентированным специализированным программным обеспечением.

В настоящее время целесообразна разработка общей методологии обучения военнослужащих и сотрудников НГ принятию управленческих решений с исполь¬зованием современных информационных технологий. Вместе с тем имеется целый ряд моделей и программно-реализованных алгоритмов, которые предназначены для обучения принятию определенной группы управленческих решений [3-5]. Для эффективного использования данных моделей должны быть разработаны частные методики обучения курсантов и слушателей принятию управленческих решений, которые в дальнейшем могут быть собраны в общей методологии обучения военнослужащих и сотрудников НГ.

В связи с этим актуальной является задача разработки частных мето-дик обучения по принятию военнослужащими и сотрудниками НГ управленческих решений с последующей их опробацией на базе центров МиС.

На сегодняшний день в Университете общественной безопасности РУз функционирует Учебно-методический ситуационный центр, на базе которого реализована необходимая аппаратно-программная составляющая, а также специально спроектирована технологической инфраструктура которая в свою очередь позволяет проводить компьютерных тренировки в звеньях – группа-взвод-батальон-бригада.

Для реализации этих задач в центре установлено необходимое специализированное программное обеспечение, организована их взаимосвязь между пользователями (командирами и подчиненными) посредством компьютерныой сети, средств провоной и радиосвязи, а также специальных информационных табло.

Следует отметить, что проведение занятий по ниже представленной модели (рис.1):

- на 1 этапе позволяет обучаемому увидеть общую картину сцены боевых действий, уяснить роль своего подразделения в выполнении задач старшего начальника, оценить обстановку, сформировать задачи для подчиненных сил и средств, организовать управление, всесторонне обеспечение, наметить вопросы взаимодействия с соседними и приданнами силами и средствами.
- на 2 этапе (виртуальная симуляция) принимать решения и управлять подчиненными силами и средствами непосредственно в ходе выполения боевой задачи в созданной специальным программным обеспечением обстановке;
- на 3 м этапе (реальная симуляция) военнослужащие отработавшие задачи в виртуальной среде отрабатывают ранее поставленные задачи на полевых полигонах и специально оборудованных (для проведения штурма и т.п.) зданиях или специальной технике с учетом знаний и отработанных вводных.



Рисунок 1. Виды симуляций

ISSN 3030-3230

Следует отметить, что очень важно сформировать реалистичность как конструктивной так и виртуальной симуляции для получения максимально возможного эффекта от проводимых учений.

Возможности использования центров МиС для обучения принятию управленческих решений. Центры МиС представляют собой сложные высокотехнологичные комплексы, включающие в себя развитые системы информационно-аналитической поддержки, средства мультимедийного видеоотображения информации (видеоконференц связь) и средства коллективной работы в режиме реального времени [2; 3].Современное инфокоммуникационное оборудование ситуационных центров и имеющиеся телекоммуникационные системы, как правило, позволяют осуществлять все виды информационных процессов (сбор, хранение, обработка, передача информации).

Для проведения компьютерных тренировок в центре МиС должны быть реализована следующая технологическая инфраструктура:

- **помещения с АРМ операторов;**
- **помещение группы розыгрыша сценария (АРМ условного противника);**
- **АРМ руководителя учений (тренировок);**
- **зал разбора проведенных компьютерных учений (тренировок);**
- **помещение со специальным серверным оборудованием.**
- **Для обучения принятию управленческих решений оборудо¬вание должно удовлетворять следующим требованиям:**
- **позволять организовать несколько специализированных автомати-зированных рабочих мест (далее - АРМ);**
- **обеспечивать возможность организации обмена информацией и передачи команд управления между АРМ с использованием различных инфокоммуникационных технологий;**
- **обеспечивать возможность одновременного оперативного доступа к информационным ресурсам (ведомственные базы данных, базы данных сети взаимодействия, Интернет);**
- **содержать коллективные устройства отображения информации.**



Рис. 2. АРМ руководителя учений (тренировок)

В рамках проведения командно-штабных учений (тренировок) осу-ществляется анализ ситуаций, выбор управленческих решений, разработка планов действий, отработка взаимодействия привлекаемых сил и средств, оценка эффективности действий обучаемых. Имеющееся инфокоммуникационное оборудование ситуационного центра настраивается под решаемые задачи. Поэтому проведение мероприятия на базе ситуационного центра предполагает только лишь создание специального математического и программного обеспечения, позволяющего решать задачи подготовки к выработке управленческих решений на основе моделирования различных ситуаций.

На рисунках 2, 3 представлен пример реализации некоторых помещений центра МиС на базе Учебно-методического ситуационного центра Университета общественной безопасности РУз для проведения компьютерных учений (тренировок, занятий).



Рисунок 3. Зал разбора проведенных компьютерных учений (тренировок)

Представленная технологическая инфраструктура позволяет осуществлять проведение компьютерных учений (тренировок) как в конструктивной

симуляциях - на основе специализированного программного обеспечения типа Arma III, JCATS (США), Combat digital Training (Беларусь) и многих других по отдельным темам тактической и специальной подготовки.

На сегодняшний день в других видах и родах Вооруженных сил РУз, ведутся работы по вводу в эксплуатацию центром МиС (преимущественно в структуре Министерства обороны РУз), что в свою очередь при наличии соответсвующей нормативно-правовой базы, а также технических возможностей позволит в ближайшем времени проводить совместные межведомтсвенные компьютерные учения и тренировки, которые в свою очередь позволят вывести взаимодествие на новый качественный уровень.

На сегодняшний день в Университете общественной безопасности РУз реализованы ряд практических задач средствами МиС для проведения занятий по дисциплинам учебных кафедр, что позволяет не только повысить степень усвоения учебного материала обучаемым, но также развить умения и привить навыки при¬нятия решений по управлению силами и средствами в условиях максимально приближенным к боевым.

В частности, возможности современных аппаратно-программных решений в сфере МиС позволяют опытным ППС учебных кафедр разработать частные (адресные) методики обучения по различным направлениям обучения; наличие высококвалифицированных кадров в сфере ИКТ позволяют создать максимально реалистичную виртуальную среду для выполнения поставленных задач, экономив тем самым «львиную долю» расходов на боеприпасы, ГСМ, а также другие материальные расходы.

При этом, остается актуальным консолидация усилий ученых, практиков и экспертов различных областях по наращивание современных методик и моделей применения средств МиС, как непосредственно в интересах задач подразделений НГ РУз, так и взаимодействующих с ними в сфере обеспечения общественной безопасности других министерств и ведомств, в т.ч. посредством единой аппаратно-программной среды.

Annotatsiya. **Maqolada Milliy gvardiya harbiy xizmatchilar va xodimlarini situatsion markazining imkoniyatlaridan foydalangan holda tezkor va xizmat vazifalarini bajarishda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda o'qitishga yondashuvlar tasvirlangan.**

Kalit so'zlar: boshqaruv qarorlarini qabul qilish, jamoat tartibini saqlash, kadrlar tayyorlash, situatsion markazlari, axborot texnologiyalari.

Abstract. **The article describes the approaches to the training of the national guard management decisions when performing operational tasks using the possibilities of the situation center.**

Key words: managerial decision-making, public order, training, situational cen-ters, information technology.

Библиографический список:

1. “Обеспечение безопасности, мира и спокойствия нашего народа остаётся главнқм приоритетом”, Вқступление Президента РУз на расширенном заседании Совета безопасности, 14 января 2022 г., www.gazeta.uz/ru/2022/01/14/armed-forces/ (Дата обращения: 1.06.2024 г.)

2. О дополнительных мерах по повышению эффективности обеспечении общественной безопасности: Постановление Президента, 24 дек. 2018, № ПП-4075// www.lex.uz.

3. Ситуационные центры. Оқт, состояние, тенденции и развития. Н.И,Ильяин, Н.Н, Демидов, Е.В, Новикова. Медиапресс Москва – 2011 г.

4. Меньших, В.В. Использование ситуационных центров для обучения действиям в кризисных ситуациях / В.В. Меньших, О.В. Пьянков, А.Ф. Саморо- ковский // Информационная безопасность регионов, 2011. - Вып. 2(9). - с. 104¬107.

5. Меньших, В.В. Алгоритм имитационного моделирования действий орга¬нов управления и подразделений органов внутренних дел при возникновении чрез¬вычайных обстоятельств / В.В. Меньших, Ю.С. Лунев, А.Ф. Самороковский // Вес. Воронеж. ин-та МВД России, 2007. - № 2. - С. 125-129.

ISSN 3030-3230

O‘ZBEKISTONDA SUD-HUQUQ SOHASIDAGI ISLOHOTLAR VA TAFTISH KOMISSIYALARINING JORIY ETILISHI (2016-2023)

Axrarov Baxrom Jabborovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
yuridik fanlar doktori, professor

Xayriyev Nodir Isroilovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
yuridik fanlar doktori, professor

O‘zbekiston Respublikasida sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatni modernizatsiya qilishda qilishda muhim ahamiyatga ega. Xoh u ijtimoiy-iqtisodiy, xoh madaniy-ma’naviy yoki sud-huquq, ulardan ko‘zlangan oliy maqsad fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish, ularning qonuniy manfaatlari buzilishining oldini olish, lo‘nda qilib aytganda baxtli va farovon hayot kechirishini ta’minlashga qaratilgan bo‘ladi. Bu borada 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi[1] mazkur demokratik islohotlarni o‘tkazishda asosiy omil bo‘lib xizmat qildi.

Xususan, sudlar faoliyati takomillashtirilib, Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudi fuqarolik, jinoiy, ma’muriy va iqtisodiy sud ish yurituvi sohasida sud hokimiyatining yagona oliy organi — Oliy sudga birlashtirildi. Sudyalar oliy kengashi, ma’muriy sudlar, Oliy sud huzurida Sudlar faoliyatini ta’minlash departamenti tashkil etildi. Jinoyat ishini qo‘shimcha tergov yuritish uchun qaytarish instituti bekor qilindi va dalillarga baho berish instituti takomillashtirildi. Bu, o‘z navbatida, ish bo‘yicha barcha holatlar sud tomonidan har tomonlama tekshirilib, dalillarga xolisona baho berilgan holda oqlov hukmlari ko‘payishiga asos yaratdi. Boshqacha aytganda, sudlar tuzilmasi ham zamon talablariga mos ravishda takomillashtirilib, viloyat va unga tenglashtirilgan fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar va iqtisodiy sudlar negizida sudyalarning qat’iyy ixtisoslashuvini saqlab qolgan holda viloyat darajasidagi umumyurisdiksiya sudlari tashkil etildi.

Aytish kerakki, 2017-yilga qadar oltita sud instansiyasida sud qarorlari qayta ko‘rib chiqilgan. O‘zgarishlar natijasida bu instansiyalar so¬ni uchtaga keltirildi.

Sud tizimiga “bir sud — bir instansiya” tamoyili joriy qilindi. Unga ko‘ra:

birinchidan, xalqaro standartlarga mos ravishda uch bos¬qichli sud tizimi yaratildi:

birinchi instansiya (tuman (shahar) sudlari, ayrim toifadagi murakkab ishlar bo‘yicha — viloyat sudlari);

apellatsiya instansiya (viloyat darajasidagi sudlar);

kassatsiya instansiyasi (Oliy sud);

ikkinchidan, xalqaro tashkilotlar va ekspertlarning e’tiroziga sabab bo‘layotgan nazorat instansiyasi to‘liq bekor qilindi.

Prezidentimizning 2017-yil 21-fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni[2] ga asosan 2017-yil 1-iyundan boshlab ma’muriy sudlar tashkil etilgani sud-huquq tizimidagi shiddatli islohotlar yo‘nalishida tom ma’noda muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarining ishonchli sud himoyasini ta’minlash maqsadida davlat organlari qarorlari va mansabdor shaxslarining g‘ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan beriladigan shikoyatlarni, ya’ni ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni ko‘rib chiqishga vakolatli ma’muriy sudlar tashkil etildi.

Ma’muriy sudlar fuqarolar va yuridik shaxslarga davlat organlari va mansabdor shaxslarning g‘ayriqonuniy qarorlari va xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish borasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini amalda to‘liq ro‘yobga chiqarishida muhim rol o‘ynaydi.

Bu, o‘z navbatida, O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, protsessual majburlov choralarini asosli qo‘llash, sud-tergov amaliyotida shaxsni qiynoqqa solmaslik, unga shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatini kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llamaslik, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, jinoyatni fosh etishda faol ko‘maklashgani uchun shaxsni javobgarlikdan to‘liq yoki qisman ozod qilish, jabrlanuvchilarga yetkazilgan mulkiy zararni qoplash hamda jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va erkinliklarini ta’minlash orqali fuqarolarning ishonchini qozonish ustuvor vazifalardandir.

Shu ma’noda, mamlakatimizda sud-huquq sohasidagi institusional islohotlar doirasida mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning huquq va erkinliklariga rioya etish, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani e’tiborga molik. Bu borada jinoyat-ijroiya qonunchiligini, shu jumladan, ozodlikdan mahrum etish joylarida mahkumlarni saqlash shart-sharoitlarini yanada yaxshilashni nazarda tutuvchi qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasi qabul qilindi.

Aholining odil sudlovga bo‘lgan ishonchini oshirish maqsadida “Xabeas korpus” instituti kengaytirilib, tergov ustidan sud nazorati yanada kuchaytirildi. Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash yoki qamoqda saqlash muddatini uzaytirish uchun sanksiya berish vakolatining sudlarga o‘tkazilishi bu boradagi dastlabki qadamlar bo‘lgan bo‘lsa, keyingi yillarda bu islohotlar yanada jadallashdi.

Pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yish, murdani eksgumatsiya qilish, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish yoki ayblanuvchining tibbiy muassasada bo‘lishi muddatini uzaytirish uchun sanksiya berish huquqi ham prokurorlardan sudlarga o‘tkazildi. Sudlarga qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash rad etgan taqdirda boshqa muqobil ehtiyot choralarini qo‘llash huquqi berildi.



Sud ishlarini yuritishda yangi institutlar joriy qilindi, mavjudlari takomillashtirildi. Jumladan, jinoyat protsessida yarashuv instituti kengaytirilib, u sud jarayonining barcha bosqichlarida qo‘llanadigan bo‘ldi. Jinoyat ishi bo‘yicha — dastlabki eshituv, fuqarolik va iqtisodiy sudlarda — sudgacha majlis, soddalashtirilgan tartibda ish yuritish, mediatsiya institutlari joriy qilindi. Shuningdek, so‘nggi yillarda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish borasida salmoqli ishlar qilindi. Masalan, jinoyatni sodir etishda gumon qilingan shaxslarni ushlab turish muddati 72 soatdan 48 soatga, qamoqqa olish va uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot choralarini qo‘llashning, shuningdek dastlabki tergovning eng ko‘p muddati 1 yildan 7 oyga qisqartirildi.

Shaxsga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llash bilan bog‘liq qilmishlar sodir etilishining oldini olish bo‘yicha samarali mexanizmlarni joriy qilinib, bunday qilmishlar uchun javobgarlik kuchaytirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-avgustdagi “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish to‘g‘risida”gi PF-6041-son Farmoni[3] ham ayni ana shunday normativ-huquqiy hujjatlar jumlasidandir. Mazkur Farmon, shubhasiz, ushbu sohada birmuncha yirik o‘zgarishlarga huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi. Xususan, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar xodimlari tomonidan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchidan ariza, tushuntirish yoki ko‘rsatuvlar olishni mazkur jinoyat ishi yurituvida bo‘lgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudyaning yozma ruxsatiga asosan va faqat himoyachi ishtirokida amalga oshirishi belgilandi. Demak, jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, ish yurituvga olingandan so‘ng, ish kimning yurituvida bo‘lsa, ana shu mansabdor shaxsning yozma ruxsatisiz vakolatli organlarning tezkor xodimlari mazkur ish doirasida ishtirokchilardan biron-bir ko‘rinishdagi ariza, tushuntirish yoki ko‘rsatuv olishga haqli bo‘lmaydi. Bunda yozma ruxsat olingan taqdirda ham ayblanuvchi yoki sudlanuvchining o‘zi voz kechmagan

ISSN 3030-3230

bo‘lsa, himoyachining ishtirok etishi shartligi mustahkamlab qo‘yildi.

Bundan tashqari, jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni ushlab turish muddati u haqiqatda ushlangan vaqtdan boshlab hisoblanadigan bo‘ldi. Bu esa, ushlab turish bayonnomasiga shaxsni ushlash vaqti sifatida bayonnoma tuzilgan yoki bayonnomani tuzgan mansabdor shaxs istagan vaqtni emas, gumon qilinuvchining haqiqatda ushlangan vaqtini ko‘rsatish lozimligini anglatadi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 224-moddasiga asosan, ushlash bilan bog‘liq protsessual harakatlar videoyozuvlar orqali qayd etilishi belgilangan. Bunda e’tiborli jihati shundaki, jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsning ushlanishi aks etgan videoyozuvda qayd etilgan vaqt ushlab turish bayonnomasiga muvofiq kelishi, videotasvirga olish vositasining vaqtni to‘g‘ri ko‘rsatib turishini ta’minlash lozim bo‘ladi.

Shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasida diqqatga sazovor o‘zgarish sifatida shuni qabul qilish mumkinki, shaxs amalda ushlangan yoki uni jinoyat ustida ushlash bilan bog‘liq tezkor tadbir amalda yakunlangan yoxud gumon qilinuvchi deb e’tirof etilganligi haqidagi qaror unga ma’lum qilingan paytdan boshlab u bilan bog‘liq protsessual harakatlarni o‘tkazishdan oldin uning advokat bilan xoli uchrashishi ta’minlanishi shartligini belgilandi. Har qanday shaxs ushlangandan so‘ng yoki unga nisbatan tezkor tadbir amalga oshirilgandan keyin, yoxud unga nisbatan biron-bir jinoyat yuzasidan gumonlanuvchi sifatida jalb qilish to‘g‘risida qaror mavjudligi ma’lum qilinganda, shaxs o‘zining qonuniy huquq va erkinliklaridan foydalana olmasligi yoki bunga ruhan tayyor bo‘lmasligi mumkin. Shaxsning qo‘rquv va ruhiy bosim ostida qolishi natijasida adolat va haqiqatni qaror topishi uchun zarur bo‘lgan ma’lumot va dalillar noto‘g‘ri o‘zanga yo‘naltirilishi, jinoyatning to‘la fosh etilmay qolishi, javobgarlikning muqarrarligi tamoyili buzilishiga olib kelishi mumkin. Gumon qilinuvchining advokat bilan xoli uchrashishining ta’minlanishi esa ishning har tomonlama ko‘rib chiqilishi, qonuniylik va dalillarning mustahkamlanishi, pirovardida protsessual harakatlar bo‘yicha sifatli ish yuritish imkonini beradi.

Bundan tashqari, fuqarolarning jinoyat protsessiga ortiqcha jalb qilinishini kamaytirish, murakkab bo‘lmagan ishlar bo‘yicha ish yuritishni qisqartirish maqsadida ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, uncha og‘ir bo‘lmagan va og‘ir jinoyatlar bo‘yicha aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilgan, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tomonidan bildirilgan iltimosnomaga asosan jinoyat ishini yuritishni nazorat qiluvchi prokuror bilan tuziladigan aybiga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv instituti kiritildi.

Prezident tomonidan 26.04.2023 yildagi **“Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya qilinishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”**gi O‘RQ-833-son Qonun[4] imzolandi. Hujjat bilan jinoyat ishlarini ko‘rishda kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan tegishli mansabdor shaxslarning e’tiborini surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi jarayonida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarga qaratish zarur bo‘lgan taqdirda xususiy ajrim chiqarish asoslari belgilanmoqda. Shuningdek, kassatsiya shikoyati (protesti) bo‘yicha ko‘rilayotgan fuqarolik ishini tugatish uchun asoslar ro‘yxati belgilanmoqda.

Fuqarolik sudiga kiritilgan da’vo arizasi bo‘yicha taalluqlilik qoidalari buzilgan taqdirda, mazkur da’vo arizasi sud tomonidan iqtisodiy yoki ma’muriy sudga yuboriladi. Bunda, boshqa suddan da’voni qabul qilib olgan sudning sudyasi, da’vo bo‘yicha kamchiliklar aniqlangan taqdirda 10 kun ichida da’vogarni kamchiliklarni bartaraf etish haqida xabardor qiladi. Shuningdek, bundan buyon o‘zaro bog‘liq bo‘lgan, ba’zilari fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga, ba’zilari esa ma’muriy sudga taalluqli bo‘lgan bir nechta talabni birlashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Endilikda davlat ijrochisining qarori, harakati (harakatsizligi) ustidan shikoyat ma’muriy sudga yoxud bo‘ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga, mansabdor shaxsga beriladi.

Bundan tashqari, iqtisodiy sudlar tomonidan chiqariladigan ijro hujjatlari ijroga uch yil ichida qaratilishi mumkin.

Adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish, sud hokimiyatining amalda mustaqilligini ta’minlash, sudlar faoliyati samaradorligi va odil sudlov sifatini oshirish maqsadida 2023-yil 16-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga

doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni[5] qabul qilindi.

Mazkur farmon bilan 2023-2026 yillarga mo‘ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi va ushbu strategiyani amalga oshirish bo‘yicha harakatlar dasturi tasdiqlandi. Adolatli sud qarorlari qabul qilinishiga erishish orqali xalqning, shu jumladan, tadbirkorlarning sud tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, har bir shaxs sud va sudyalar siymosida o‘zining ishonchli himoyachisini ko‘rishiga erishish bilan birga, sud qarorlarining qat’iyy ijrosini ta’minlash, bu borada davlat organlari va mahalliy hokimliklarning mas’uliyatini oshirish, strategiya doirasida odil sudlovni ta’minlashning ustuvor vazifalari sifatida belgilandi.

Harakatlar dasturi 10 ta bo‘lim 28 ta banddan iborat bo‘lib, uning “Odil sudlov sifatini tubdan oshirish” deb nomlanuvchi 2-bo‘limining 5-bandi ma’muriy sud ish yurituvini takomillashtirishga qaratilgan. Ushbu bandda 2023-yil noyabr oyiga qadar “Ma’muriy sud ish yurituvini takomillashtirish konsepsiyasi”ni ishlab chiqish belgilangan bo‘lib, unda ma’muriy organlar bilan fuqarolar va tadbirkorlar o‘rtasidagi barcha nizolarni xatlovdan o‘tkazib, sudlovga taalluqliligiga oid qoidalarni takomillashtirish, ma’muriy sud ish yurituvi prinsiplarini tanqidiy o‘rganib, ommaviy-huquqiy munosabatlarning mazmun-mohiyatini aks ettiruvchi prinsiplarni kiritish nazarda tutilgan.

Islohotlarning yangi bosqichida sudlarni haqi¬qiy xalq sudiga, inson huquq va erkinliklarining, tadbirkorlar qonuniy manfaatlarining ishonchli himoyachisiga aylantirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab olingan. Xususan, bugungi kunda amaliyot fuqaro bilan davlat organi yoki mansabdor shaxsning tengsizligini ko‘rsatmoqda. Chunki fuqaroning o‘z talablarini isbotlab berish bo‘yicha imkoniyatlari davlat organi yoki mansabdor shaxsning resurslariga qaraganda birmuncha cheklangan.

Shu sababli davlat organlari yoki mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolar huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan taqdirda, ularni ma’muriy sudlar tomonidan samarali himoya qilish, sudlarni huquqi buzilgan fuqaroning haqiqiy himoyachisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirildi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 27-sentabrdagi “Sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-869-son Qonuni qabul qilindi[6]. Ushbu qonunga asosan, 2024-yil 1-yanvardan boshlab sudlarda ishlarni taftish tartibida ko‘rish instituti joriy etildi. Mazkur qonun 2024-yil 1-yanvardan kuchga kirdi. Instansiya bu sudning ishni mazmunan hal qilishda qaratilgan yakuniy hujjatini adolatli, qonuniy va asosli qabul qilinganligini tekshirish bosqichlari bo‘lib hisoblanadi.

Aytish kerakki, endilikda birinchi instansiya sudida ko‘rilgan ishlar apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko‘riladi.

Qonuniy kuchga kirgan sud qarori ustidan berilgan shikoyatni kassatsiya instansiyasida ko‘riladi.

Birinchi instansiya sudining qaroridan norozi taraflar viloyat sudiga apellatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat qilib, ularning ham natijalaridan qoniqmasa, ushbu ish mazkur sudlarda taftish tartibida ko‘rib chiqiladi.

Binobarin, sud ishidan yana norozi bo‘lgan taqdirda viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar tomonidan taftish tartibida ko‘rib chiqilgan ishlar Oliy sudning sudlov hay’atida qayta ko‘rib chiqiladi.

Sud qarorlarini barqarorligini ta’minlash maqsadida barcha yuqori instansiyalarda ish bo‘yicha nafaqat moddiy va protsessual qonun normalarini to‘g‘ri qo‘llanilganligini tekshirish, balki ularga to‘liq sud tergovini o‘tkazish vakolati berildi.

Bu borada ma’muriy sudning o‘rni va rolini kuchaytirish maqsadida, uning vakolatlari kengaytiriladi. Shuningdek, ma’muriy sudlarga davlat idoralari tomonidan yetkazilgan zararni qoplash va boshqa huquqiy oqibatlarga oid masalalarni hal qilish vakolati berilib, fuqarolarning sudma-sud yurib, ovora bo‘lishining oldi olinadi.

Sudlar faoliyatida “yagona darcha” tartibi joriy etilib, bundan buyon, ish fuqarolik, iqtisodiy yoki ma’muriy sudga taalluqli bo‘lishidan qat’iy nazar, ariza “yagona darcha” asosida qabul qilinadi. Bu esa fuqaro va tadbirkorlarning eshikma-eshik sarson bo‘lishiga chek qo‘yadi.

Keyingi yillarda amalga oshirilayotgan shu kabi insonparvar islohotlar natijasida odamlarning sud tizimiga bo‘lgan ishonchi ortib bormoqda. Buni, sudlarga bo‘lgan murojaatlarning ko‘payib borayotganida hamda sudlar tomonidan qabul qilinayotgan

ISSN 3030-3230

oqlov xukmlari, fuqarolar, tadbirkorlar foydasiga qabul qilingan sud qarorlari sonining ortib borayotganida ham ko‘rish mumkin. Natijada, xalq sudni faqat odamlarni qoralaydigan, jazolaydigan organ, deb emas, aksincha, ularning haq-huquqlari va manfaatlarini himoya qiladigan organ, o‘zlarining himoyachisi, adolat posboni, deb qaray boshladi. Bunday ishonchni yanada mustahkamlash uchun sudlar qonundan og‘ishmay ish tutishlari, fuqarolarning manfaatlarini muhofaza etib, ularning buzilgan huquqlarini tiklab, bu yo‘ldan sobitqadamlik bilan qat’iy borishlari va shu asosda xalqning ishonchini qozonishlari zarur bo‘ladi.

Проводимые в Республике Узбекистан реформы в судебно-правовой сфере имеют важное значение для модернизации страны. Будь то социально-экономическое, культурно-духовное или судебное право, их высшая цель будет заключаться в эффективной защите прав и свобод граждан, предотвращении нарушения их законных интересов, а также в обеспечении того, чтобы они жили счастливой и благополучной жизнью. В связи с этим стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан на 2017-2021 годы[1] послужила основным фактором проведения этих демократических реформ.

The reforms carried out in the field of judicial law in the Republic of Uzbekistan are important in the modernization of the country. Whether it is socio-economic, cultural-spiritual or judicial, The Supreme goal pursued by them will be to effectively protect the rights and freedoms of citizens, prevent the violation of their legitimate interests, to ensure that they live a happy and prosperous life. In this regard, the strategy of action on the five priorities for the development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021[1] served as a key factor in the implementation of these democratic reforms.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегияси. https://lex.uz/docs/4168749

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Суд тизими тузилмасини тубдан такомиллаштириш ва фаолияти самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. https://lex.uz/docs/3121087

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 10 августдаги “Суд-тергов фаолиятида шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш кафолатларини янада кучайтириш тўғрисида”ги ПФ-6041-сон Фармони. https://lex.uz/docs/4939467

4. Ўзбекистон Республикасининг “Давлат органлари билан муносабатларда фуқаролар ва тадбиркорлик субъектлари ҳуқуқларининг самарали ҳимоя қилинишини таъминлаш бўйича қўшимча чоралар кўрилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги ЎРҚ-833-сон Қонуни. https://lex.uz/docs/4939467

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 16 январдаги “Одил судловга эришиш имкониятларини янада кенгайтириш ва судлар фаолияти самарадорлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 11-сон Фармони. https://lex.uz/uz/docs/6358976

6. Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 27 сентябрдаги “Суд қарорларининг қонунийлиги, асослилиги ва адолатлилигини текшириш институти такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодексига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги ЎРҚ-869-сон Қонуни. https://lex.uz/docs/6619783?ONDATE=01.01.2024%2000#6620121.

BOZORLARDA SODIR ETILAYOTGAN JINOYATLARNING barvaqt profilaktikasi xususida ayrim mulohazalar

Ziyodullayev Muzaffar Ziyodullayevich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jamoat xavfsizligini ta’minlash kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, professor.

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimiz bozorlariga xos xususiyatlar, bozorlarda sodir etilgan jinoyatlarning bugungi holati va kriminologik tavsifi, jumladan ularni keltirib chiqaruvchi sabablar va imkon beruvchi shart-sharoitlar, bozorlardagi jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini tashkil etuvchi: tashkiliy-amaliy, bevosita jinoyatlar sodir etilishining sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etishga doir hamda aholining huquqiy madaniyatini oshirish, ma’naviy tarbiyalash, qonunga hurmat, qonun buzilishining har qanday ko‘rinishiga murosasizlik tuyg‘usini singdirish bo‘yicha chora-tadbirlarga bilan bog‘liq masalalar tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: bozor, bozorlarda sodir etilayotgan jinoyatlar, o‘g‘rilik, bezorilik, bozorlarda sodir etilayotgan jinoyatlarning asosiy sabablari, bozorlarda jinoyat sodir etishga imkon beruvchi shart-sharoitlar, huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi, Milliy gvardiya xodimlari.

Respublikamizda bozorlar va katta savdo komplekslarining ko‘payib, ish ko‘lamining ortib borishi, ularga tashrif buyuruvchilar hajmining oshishi bozorlar hududida jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatlarning barvaqt oldini olish bilan bog‘liq tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son farmoni bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda hamda istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etish bevosita Milliy gvardiya bo‘linmalari tomonidan amalga oshirilishi belgilab berilganligi bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Farmonga muvofiq, bugungi kunda bozorlar hududida jamoat tartibini saqlash, ichki ishlar organlari bilan birgalikda jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish Milliy gvardiya bo‘linmalari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Bu borada qilinayotgan ishlar, ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, bozorlarda bugungi kunda ham o‘g‘rilik, bezorilik, tovlamachilik, talonchilik, tan jarohati yetkazish kabi jinoyatlar sodir etilishi davom etmoqda. Statistik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, respublikamizdagi mavjud bozorlarda 2022-yilda 585 ta va 2023-yilda 416 ta jinoyat sodir etilgan bo‘lib, bu mamlakatimizda shu davrda qayd etilgan jami jinoyatlarning 0,5 foizini, Milliy gvardiya bo‘linmalari javobgarlik hududlarida sodir etilgan jami jinoyatlarning 88,7 foizini tashkil etadi.

Bugungi kunda kriminogen vaziyat yomon, jinoyatchilik darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda sodir etilayotgan jinoyatlarning katta qismi o‘g‘irlik jinoyati ekani hamda bu jinoyatlar asosan bozorlar, yirik savdo va ovqatlanish majmualarida hududida sodir etilayotgani ko‘zga tashlanmoqda. Bu esa bozorlarda sodir etilgan jinoyatlarga sabab bo‘lgan omillar va shart-sharoitlarni atroflicha o‘rganish, tahlil qilish, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar va tavsiyalarni, tizimli yondashilgan metodikalarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shu sababli ham, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 28-iyul kuni Farg‘ona viloyatida hududlarda huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishida jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yangi metodikalarni ishlab chiqish, huquq-tartibot xodimlarining bilim va

ISSN 3030-3230

dunyoqarashini yuksaltirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek,

Biz islohotlarimizning ilk kunlaridanoq inson qadrini ulug‘lashni eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etdik. Yangilangan Konstitutsiyamizda ham O‘zbekiston huquqiy davlat ekanligini muhrlab qo‘ydik. Yagona maqsadimiz – adolat va qonun ustuvorligini ta’minlash orqali xalqimizni rozi qilish[1].

bozor – savdo-sotiq qilinadigan muayyan joy, maydon bo‘lib, mamlakatimizda bozorlar asosiy sotiladigan mahsulotlariga ko‘ra dehqon (oziq-ovqat) bozori, chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozori, ilgari foydalanishda bo‘lgan mol-mulkni sotish bozori, ulgurji bozor, qurilish mollari bozori, dam olish kuni yarmarkasi kabi asosiy turlarga bo‘linadi.

Bozorlar davlatchilik tarixi singari qadimiy tarixga ega bo‘lib, har bir mamlakat bozorlarining me’morligi va qurilishi iqlim sharoiti, iqtisodi, geografik o‘rni va savdo sohasidagi an’analar bilan bog‘liq. Masalan, qadimgi Rim va Yunonistonning Milet, Pergam va boshqa shaharlarida to‘g‘ri to‘rtburchakli maydonda uch yoki to‘rt tomoni qator ustunli savdo rastalari va omborlar, ibodatxonalar, ustaxonalardan iborat bo‘lgan hamda shahar majmualarining bir qismi hisoblangan. O‘rta Yer dengizi havzasida qadimda ochiq maydonlarda, Sharqda esa usti yopiq bozorlar (“suq”, “asvok”, “chorsu”) rivojlangan.

O‘rta Osiyo hududida Buxoro, Samarqand, Poykend, Urganch, Xiva, Marv, Numijkat, Isfijob, Ushturkat, Chag‘oniyon kabi shaharlarda savdo-sotiq qadimdan rivojlangan. Ayniqsa, o‘rta asrlarga kelib nafaqat shaharlarda, balki juda ko‘p yirik qishloqlarda ham “tim”, “toqi”, “chorsu” deb nomlangan gavjum bozorlar bo‘lgan.

Gumbazli timlar eng gavjum chorraha chorsularda joylashgani uchun ham shaharning me’moriy qiyofasini belgilagan. Yengil yog‘och tomli, ustun ayvonli timlar ham ko‘p bo‘lgan. Chorrahalarda qurilgan tim, chorsu namunalarini Samarqand va Shahrisabz, Xiva (Olloqulixon timi), Buxoro (Abdullaxon timi)dagi timlar misolida ko‘rish mumkin.

Samarqand chorsu Bozori atrofida miskarlik, kulolchilik, sangtaroshlik, mahsido‘zlik, najjorlik, sahhoflik, zargarlik kabi do‘konlar joylashgan. Chorsu Bozori gumbazli qilib qurilgan. O‘rta asrda Toshkentning markaziy bozorida uch mingdan ortiq do‘kon maxsus rastalarga joylashgan [2].

Ta’kidlash kerakki, barcha davrlarda ham bozorlarda tartibni saqlash, ularda jinoyatlar sodir etilishining oldini olish muhim masalalardan biri bo‘lib kelgan. Bu vazifani bajarish uchun maxsus kishilar jalb etilgan. Xususan, Amir Temur saltanati davlatida joriy etilgan muhtasib musulmonlar tomonidan shariat qonun-qoidalarining bajarilishini nazorat qilish bilan birga, bozor-o‘charda tosh-tarozi va narx-navoni nazorat qilib turgan [3]. Shuningdek, karvon yo‘llari va bozorlarda xavfsizlikni ta’minlash, jamoat tartibini saqlash maxsus (harbiy) tuzilmalar tomonidan amalga oshirilgan [4].

Markaziy Osiyoda xonliklar davrida aholi turar joylarida, xususan bozorlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash, shariat qoidalari buzilishining oldini olish vazifasi mirshablarga yuklatilgan. Ba’zi manbalarda mirshablar yuzboshi va yasovulboshiga bo‘ysunishgani [5], ayrim adabiyotlarda esa mingboshi va katta oqsoqollar ixtiyorida xizmat qilganliklari qayd etiladi [6].

Mirshablar kechki payt, ya’ni bozorlar, do‘konlar, ustaxonalar va shahar darvozalari yopilgandan keyin ham o‘z vazifasini bajargani sababli ularni “tun hukmdorlari” (arab. mir – hukmdor, shab – tun) deb atalgan [7]. Ko‘p holatlarda mirshablik xizmatiga jamoat tartibini saqlash jarayonida yordamchi kuch sifatida navkarlar jalb etilgan [8]. Chor istilosidan keyin O‘zbekiston hududida mirshablar tungi navbatchilik, tartib-intizomni ta’minlash bilan birga, politsiya vazifasini ham bajarishgan. Ushbu davrda mirshabxonalar boshlig‘i “qo‘rboshi” deb atalgan [6].

Bevosita bugungi kundagi bozorlar xususida to‘xtalganda shuni aytish kerakki, aksariyat bozorlarga xos quyidagi xususiyatlar mavjud:

- bozorlarga boshqa hududlardan ham ko‘p miqdordagi odamlarning kelib-ketishi hamda ular tarkibining tez-tez o‘zgarishi, shuningdek

tranzit o‘tuvchilar sonining ko‘pligi;

- insonlarning aksariyat holatlarda bozorlarga xarid qilish niyatida borishi sababli ularning yonida doimo pul yoki xarid qilingan narsalarning mavjudligi;
- dehqon (oziq-ovqat) bozorlarida tasdiqlangan sxemadan tashqari joylarda savdo-sotiq qilinishi va natijada yo‘laklarning torayib, to‘sib qo‘yilishi;
- bozorlarning yurish yo‘laklarida ko‘p sonli odamlarning harakatlanishi hamda bu jarayonda tiqilinch holatlarning yuzaga kelishi;
- ayrim bozorlarning avtoturargohlarida transport vositalarining qarovsiz va tartibsiz tashlab ketilishi;
- insonlardagi xarid qilish (shopping) ishtiyoqi uning mulki, puli va boshqa qimmatbaho buyumlariga nisbatan e’tiborning susayishi, ba’zi hollarda esa narsa va buyumlarini qarovsiz yoki unutib qoldirishiga olib kelishi;
- dam olish va bayram kunlari bozor bilan tutash yo‘llarda transport vositalari harakatining ko‘payishi hamda ularning yetarlicha tartibga solinmasligi va h.k.

Ko‘rsatilgan xususiyatlar va omillar bozorlarda muayyan darajada o‘g‘rilik, tovlamachilik, talonchilik jinoyatlari, o‘lim yoki tan jarohati bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalari sodir etilishiga sabab bo‘ladi yoki sharoit yaratadi.

Statistik ma’lumotlar tahlil shuni ko‘rsatadiki, 2022-yilda respublikamizdagi mavjud bozorlarda 585 ta jinoyat sodir etilgan bo‘lib, ularning 444 tasi (75,9 %)ni o‘g‘rilik, 66 tasi (11,3 %)ni bezorilik, 25 tasi (4,3 %)ni qasddan badanga yengil shikast yetkazish, 22 tasi (3,8 %)ni qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish, 10 tasi (1,7 %)ni tovlamachilik, 10 tasi (1,7 %)ni talonchilik, 4 tasi (0,7 %)ni qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish, 2 tasi (0,34 %)ni qasddan odam o‘ldirish hamda bittadan (0,17 %) o‘ldirish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish va bosqinchilik jinoyatlari tashkil etadi.

O‘tgan 2023-yilda esa respublikamiz bozorlarida 416 ta jinoyat sodir etilgan bo‘lib, ularning 334 tasi (80,2 %)ni o‘g‘rilik, 45 tasi (10,8 %)ni bezorilik, 11 tasi (2,6 %)ni qasddan badanga yengil shikast yetkazish, 8 ta (1,9 %) dan qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish va qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish, 5 tasi (1,2 %)ni talonchilik, 2 tasi (0,5 %)ni firibgarlik va 1 ta (0,24 %)dan qasddan odam o‘ldirish, nomusga tegish va ehtiyotsizlik orqasida badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazish jinoyatlari tashkil etadi.

Ko‘rinib turibdiki, so‘nggi yillarda bozorlarda sodir etilgan jami jinoyatlarning asosiy qismi, ya’ni qariyb har beshtadan to‘rttasini o‘g‘rlik jinoyatlari tashkil etadi. Bozorlarda eng ko‘p sodir etilgan jinoyatlarning ikkinchi o‘rnida bezorilik jinoyatlari tashkil etib, qayd etilgan har o‘nta jinoyatning bittasini tashkil etadi. Bozorlarda sodir etilgan jinoyatlarning 7,8 foizi tan jarohati yetkazish bilan bog‘liq jinoyatlar hisoblanadi.

Respublika bozorlarida 2022 va 2023-yillar davomida qayd etilgan jinoyatlarni ma’muriy-hududiy birliklar taqsimotida tahlil qilinganda, ularning yarmidan ko‘pi (52,3 %) Toshkent shahri bozorlariga to‘g‘ri keladi. Bozorlar hududida sodir etilgan jinoyatlarning 22,6 % Farg‘ona viloyati hissasiga to‘g‘ri keladi. Ko‘rinib turganidek, respublikamiz bozorlarida qayd etilgan har to‘rtta jinoyatning qariyb uchtasi (74,9 %) Toshkent shahri va Farg‘ona viloyati bozorlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Respublikamiz bozorlarida 2022-2023-yillarda qayd etilgan jinoyatlar bo‘yicha qolgan hududlarning hissasi quyidagicha: Namangan viloyati – 5,2 %, Qoraqalpog‘iston Respublikasi – 4,4 %, Buxoro viloyati – 4,2 %, Andijon viloyati – 4,0 %, Qashqadaryo viloyati – 2,2 %, Jizzax viloyati – 1,8 %, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlari – 0,9 %dan, Xorazm viloyati – 0,8 %, Navoiy viloyati – 0,4 %, Samarqand viloyati – 0,3 %. Ko‘rsatilgan davrda birgina Toshkent viloyati bozorlarida jinoyat qayd etilmagan.

Jinoyatchilikning sabab va sharoitlari bir qancha kriminologik determinantlar yig‘indisidan iborat bo‘lib ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, g‘oyaviy, ijtimoiy-ruhiy, tashkiliy-boshqaruv, siyosiy sohalardagi kamchiliklar o‘zining oqibati (determinanti) sifatida jinoyatchilik hodisasini mavjud bo‘lishini va o‘sib borishini taqozo etadi.

Bozorlarda sodir etilayotgan iqtisodiy jinoyatlarning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

– ayrim toifa shaxslarda mehnat qilmasdan turib yengil boylik orttirish xohishi, past niyat va g‘araz motivining mavjudligi;

– ayrim toifa shaxslarning ishsizligi oqibatida o‘zi va oilasi ehtiyojlarini

ISSN 3030-3230

qondirishga jinoiy yo‘l bilan erishishga harakat qilishi;

– bozor ma’muriyati tomonidan ishning to‘g‘ri tashkil etilmaganligi, xavfsizlik choralarining ko‘rilmaganligi, ayrim hollarda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash uchun Milliy gvardiya bo‘linmalari bilan shartnomalarning tuzilmaganligi;

– ayrim sotuvchilarning tovar va mahsulotlarni do‘konning ichida sotishga qanoat qilmasdan, uning tashqi qismiga ham yoyib qo‘yishi natijasida ularni nazorat qila olmasligi hamda o‘g‘riliklar sodir etilishiga sharoit yaratib berishi;

– xaridorlarning aksariyati biror narsani xarid qilish jarayonida asosiy e’tiborni xarid qilmoqchi bo‘lgan narsa yoki buyumga qaratishi natijasida o‘z mulki, puli va boshqa qimmatbaho buyumlariga nisbatan e’tiborning susayishi, ba’zi hollarda esa narsa va buyumlarini qarovsiz yoki unutib qoldirishi;

– bozorlarda sodir etiladigan o‘g‘rilik jinoyatlarining o‘ziga xos latentlik darajasi mavjudligi, ya’ni ayrim o‘g‘rilik jinoyat qurboni bo‘lgan shaxslarning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilmasligi (bunga ularning ortiqcha ovoragarchilikdan qochishi, vaqtining kamligi, ishonchsizligi yoki boshqalar sabab bo‘lishi mumkin) oqibatida bu turdagi jinoyatlarning ildiz otishiga olib kelishi;

– bozorlarga boshqa hududlardan katta miqdordagi odamlarning

kelib-ketishi hamda ular tarkibining tez-tez o‘zgarishi, shuningdek tranzit o‘tuvchilar sonining ko‘pligi sababli o‘g‘rilik jinoyatlarini sodir etgan shaxslarni aniqlash hamda ushlash imkoniyatining pastligi;

– bozorlarda xizmat olib boruvchi ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya bo‘linmalari xodimlari xizmatini tashkil etishdagi kamchiliklar, xususan bozorga tashrif buyurgan odamlar soni, oqimi, kechayotgan jarayonlar va boshqalarni inobatga olgan holda kuch va vositalardan samarali foydalanish, ularni qayta joylashtirish yoki manevr qilish choralari ko‘rilmasligi va h.k.

Bozorlarda sodir etiladigan bezorilik va tan jarohati yetkazish bilan bog‘liq jinoyatlarning sabablari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

– ayrim sotuvchi va xaridorlarda huquqiy madaniyat va savdo qilish madaniyati darajasining pastligi, muomaladagi qo‘pollik;

– sotuvchilarning xaridor talashishi va oqibatda masalaning yechimini o‘zaro janjal, urishish orqali topishga harakat qilishi;

– savdo va xarid qilish jarayonida sotuvchi va xaridor o‘rtasida tovarning narxi yoki sifati yoxud boshqa masalada o‘zaro kelishmovchilikning yuzaga kelishi;

– dehqon bozori va yoyma bozorlarda sotuvchilarning joy talashishi hamda buning o‘zaro janjalga aylanishi;

– bozorlarda arava xizmatini ko‘rsatuvchi ayrim shaxslarning ehtiyotsizligi, qo‘polligi oqibatida sotuvchi yoki xaridorlarga ziyon yetkazishi orqasidan janjal kelib chiqishi va boshq.

Bozorlarda jinoyatlar sodir etilishiga imkon beradigan shart-sharoitlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

– bozorlar va savdo rastalarida kuzatuv kameralari o‘rnatilmaganligi;

– do‘konlar va omborlarning yetarlicha himoyalanmaganligi, qo‘riqlovga olinmaganligi va kuzatuv kameralari o‘rnatilmaganligi;

– bozorning ish vaqti tugaganidan keyin to‘liq nazorat va qo‘riqlovga olinmasligi;

– radiouzel tizimi orqali shaxslarni jinoyat qurboni bo‘lib qolmasliklari uchun ehtiyotkorlikka chaqirishning yo‘lga qo‘yilmaganligi;

– joylardagi kuzatuv kameralari situatsion markazlar bilan integratsiya qilinmaganligi;

– tovar va mahsulotlarni nafaqat do‘konda, qolaversa undan chiqarib yoyib sotilishi natijasida ularni nazorat qila

olmasdan o‘g‘rilik sodir etilishiga sharoit yaratib berish;

–bozorlarning avtoturargohlarida transport vositalarining qarovsiz tashlab ketilishi, bozor ma’muriyati tomonidan xavfsizlikni ta’minlash uchun personalning ajratilmasligi oqibatida ulardan o‘g‘riliklar sodir etilishi imkoniyati yuzaga kelishi;

–sotuvchilarning do‘kon yoki rastalardagi mahsulotlari miqdori va hajmi kattaligi sababli ularni nazorat qila olmasligi, bu esa mahsulotlarning o‘g‘rilanishiga imkon berishi;

– dam olish va bayram kunlari bozor bilan tutash yo‘llarda transport vositalari sonining ortib ketishi, ularning harakati yetarlicha tartibga solinmasligi hamda qo‘shimcha kuchlarning ajratilmasligi va h.k.

Bozorlarda sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olishda ularning barvaqt profilaktikasini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi – aholini va alohida shaxslarni ma’naviy-huquqiy tarbiyalash, huquqiy madaniyatini oshirish, ularda qonunga hurmat, qonun buzilishining har qanday ko‘rinishiga murosasizlik tuyg‘usini qaror toptirish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va ularga imkon beradigan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishga yo‘naltirilgan huquqbuzarliklar profilaktikasining har qanday yo‘nalishi va sohasida amalga oshiriladigan uning dastlabki bosqichi.

Demak, bozorlarda sodir etilayotgan jinoyatlarning barvaqt profilaktikasi bu turdagi jinoyatlarning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini o‘z vaqtida bartaraf etish, aholining barcha qatlamlari huquqiy madaniyatini oshirish, ularda qonunga hurmat, qonun buzilishining har qanday ko‘rinishiga murosasizlik tuyg‘usini singdirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Bozorlarda jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi subektlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

– Milliy gvardiya xodimlari;

– ichki ishlar organlari xodimlari, xususan hudud profilaktika inspektori;

– bozor ma’muriyati va mahalliy davlat hokimiyati organlaridan biriktirilgan mas’ul shaxslar;

– davlat soliq xizmati organlaridan biriktirilgan mas’ul shaxslar;

– bozorga biriktirilgan sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati xodimlari.

Bozorlarda jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini amalga oshirishda ishtirok etuvchi subyektlarga quyidagilar kirishi mumkin: bozor joylashgan hududdagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari; bozor hududida xizmat ko‘rsatuvchi yoki savdo-sotiq bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarini ko‘rsatuvchi tashkilotlar; ommaviy axborot vositalari vakillari; bozorlar va unga tutash hududlarda joylashgan masjidlarda faoliyat yurituvchi diniy tashkilotlar vakillari; fuqarolar.

Bozorlarda jinoyatlarning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash quyidagi yo‘llar (usullar) bilan amalga oshirilishi mumkin:

– bevosita bozordagi har bir do‘kon, rastada faoliyat yuritayotgan sotuvchilar, tadbirkorlar bilan tanishish, ularning muammolarini o‘rganish;

– jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni o‘rganish, jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini bevosita qabul qilish;

– bozor hududida ilgari sodir bo‘lgan huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini o‘rganish;

– ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda berilgan ma’lumotlarni o‘rganish;

– huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari, vakolatli organlar va muassasalardan kelib tushgan taqdimnomalar, topshiriqlar va ma’lumotnomalarni o‘rganish;

– turli manbalar orqali kelib tushgan xabar va ma’lumotlarni joyiga chiqib o‘rganish va boshq.

Huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlari aniqlan-gandan so‘ng ularni o‘z vaqtida bartaraf etish choralari ko‘riladi. Bu jarayonda ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya xodimlarining bozor ma’muriyati, shuningdek fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda faoliyat olib borishi samaradorlikka erishishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Bozorlarda jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini tashkil etishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim:

Tashkiliy-amaliy chora-tadbirlar:

– bozor ma’muriyati tomonidan ishni to‘g‘ri tashkil etish, xususan bozor hududi va

ISSN 3030-3230

atrofida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash uchun Milliy gvardiya bo‘linmalari bilan o‘rnatilgan tartibda shartnomalarni tuzish (binobarin, O‘zbekiston Respublikasi bozorlarida savdo faoliyatini tashkil etish qoidalariga muvofiq, har bir bozor ma’muriyati bozorda jamoat tartibini saqlash, qo‘riqlashni tashkil etish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ko‘rish, bozorning normal faoliyat ko‘rsatishi uchun mas’ul hisoblanadi) [9];

– bozorlarning yo‘laklari, savdo rastalari va boshqa muhim ahamiyatga ega bo‘lgan joylariga kuzatuv kameralari o‘rnatish hamda ularni situatsion markazlar bilan integratsiya qilish;

– zaruratga ko‘ra do‘konlar va omborlarning eshiklari, derazalariga temir panjaralar o‘rnatish, ularni qo‘riqlovga olish choralarini ko‘rish;

– Bozor hududini obodonlashtirishga, obyektlarni joylashtirishga va bozorni jihozlashga qo‘yiladigan umumiy talablarga muvofiq, bozorning yaxshi yoritilishi, yondosh hududdan to‘siq bilan ajratilishi hamda ish vaqti tugagandan keyin yopiladigan kirish va chiqish joylari bo‘lishini ta’minlash [9];

– obyektlarni joylashtirishning tasdiqlangan sxemasidan tashqari qo‘shimcha savdo o‘rinlarini tashkil etilishiga, sotuvchilarning tovar va mahsulotlarni do‘konning belgilangan joyidan tashqarida yoyib sotishiga, yo‘laklarni to‘sib yoki toraytirib qo‘yishiga hamda oqibatda o‘g‘rilik va kissavurlik jinoyatlari sodir etilishiga sharoit yaratib berilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

– bozorlarda ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya bo‘linmalari xodimlari xizmatini tashkil etishda ularni belgilangan postlar va patrullik yo‘nalishlari bo‘yicha to‘g‘ri joylashtirish, bozorga tashrif buyuruvchilar soni, oqimi, kechayotgan jarayonlar va boshqalarni inobatga olgan holda zaruratdan kelib chiqib kuch va vositalarni qayta joylashtirish yoki manevr qilish choralarini ko‘rishi;

– zarurat va imkoniyatga ko‘ra bozorlarning avtoturargohlarida transport vositalarining tartibli joylashtirilishi hamda ularning xavfsizligini ta’minlash uchun alohida personal ajratish;

– dam olish va bayram kunlari bozorlarga keluvchilar, tranzit o‘tuvchilar ko‘payishi natijasida ularga tutash yo‘llarda transport vositalari sonining ortishini inobatga olib, xizmatga qo‘shimcha yo‘l-patrul xizmati xodimlari ajratilish.

Keltirilgan tashkiliy-amaliy chora-tadbirlar bir vaqtning o‘zida jinoyatlar sodir etilishining sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etishga ham xizmat qiladi.

Bevosita jinoyatlar sodir etilishining sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etishga doir chora-tadbirlar:

– bozor hududida maqsadsiz yurgan, xatti-harakatlari shubha uyg‘otuvchi, jinoyat, ayniqsa o‘g‘rilik (kissavurlik) sodir etishi mumkin bo‘lgan shaxslarni aniqlash hamda profilaktik suhbat o‘tkazish, boshqa profilaktik choralarni ko‘rish;

– ishsiz bo‘lgan, buning oqibatida o‘zi va oilasi ehtiyojlarini qondirishga qurbi yetmayotgan hamda jinoyatga qo‘l urishi mumkin bo‘lgan shaxslarni band qilish, ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etishga ko‘maklashish;

– alkogolli mahsulotlarni sotishga yo‘l qo‘ymaslik (qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, bozor hududida joylashgan turg‘un savdo shoxobchasi bundan mustasno)[9];

– bozorlarda sodir etiladigan o‘g‘rilik jinoyatlarining latentlik darajasini kamaytirish, xususan har bir jinoyatni hisobga olish va uni sodir etgan shaxsga nisbatan jazo muqarrarligini ta’minlash, bunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va dasturiy ta’minotlar imkoniyatlaridan samarali foydalanish.

Aholining huquqiy madaniyatini oshirish, ma’naviy tarbiyalash, qonunga hurmat, qonun buzilishining har qanday ko‘rinishiga murosasizlik tuyg‘usini singdirish bo‘yicha chora-tadbirlar:

– sotuvchi va tadbirkorlar, bozorda xizmat (servis) ko‘rsatuvchi boshqa shaxslar (aravakash, etikdo‘z, kalit yasovchi va boshq.) bilan ularning huquqiy ongi, savdo qilish va muomala madaniyatini oshirish bo‘yicha huquqiy targ‘ibot va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni o‘tkazib borish;

– bozorlar va unga tutash hududlardagi reklama uchun mo‘ljallangan LED ekranlar va bannerlar orqali, shuningdek tarqatma materiallar va flayerlarni tarqatish orqali aholi orasida sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

– radiouzel tizimi orqali doimiy ravishda shaxslarni shaxsiy mulklariga nisbatan ehtiyotkor munosabatda bo‘lish hamda jinoyat qurboniga aylanib qolmasliklari uchun ogohlantirib borishni yo‘lga qo‘yish;

– bozorlar va unga tutash hududlarda joylashgan masjidlarda imomlar tomonidan qilinadigan ma’ruzalarda mehnat qilmasdan turib yengil boylik orttirish, past niyat va g‘arazgo‘ylik, o‘zgalarning mulkiga ko‘z olaytirish, boshqa insonlar bilan janjallashish illatlaridan tiyilish

lozimligi hamda ularning oqibatlarini hadislar va jonli misollar yordamida tushuntirib borish;

– jinoyatdan jabrlanishi mumkin bo‘lgan shaxslar bilan bevosita suhbatlashish orqali ularga sodir etayotgan yoki yo‘l qo‘yayotgan xatti-harakati jinoyat sodir etilishiga sharoit yaratib berishi mumkinligi, o‘zi esa jinoyatning qurboniga aylanib qolishi mumkinligini tushuntirib borish.

Shuningdek, har bir oilada, maktabgacha ta’lim muassasasi va ta’lim muassasalarida voyaga yetmaganlar va yoshlarni bolaligidan boshlab ma’naviy tarbiyalash, ularda qonunga hurmat, qonun buzilishining har qanday ko‘rinishiga murosasizlik tuyg‘usini singdirish, bozorlar va katta savdo komplekslarida o‘zini tutish, savdo qilish madaniyatini shakllantirish, tozalik va ozodalikka rioya etish, insonlar bilan muloqotda xushmuomalali bo‘lishga o‘rgatib borish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bozorlarda sodir etiladigan jinoyat va boshqa huquqqa xilof xatti-harakatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilarga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

birinchidan, so‘ngi yillarda bozorlarda sodir etilgan jinoyatlar qayd etilgan jami jinoyatlarning o‘rtacha 0,5 foizini, Milliy gvardiya bo‘linmalari javobgarlik hududlarida sodir etilgan jami jinoyatlarning o‘rtacha 88,7 foizini tashkil etadi hamda mazkur jinoyatlar orasida eng ko‘pi (har beshtadan to‘rttasi)ni – o‘g‘rilik jinoyatlari tashkil etadi, keyingi o‘rnida bezorilik jinoyatlari va tan jarohati yetkazish bilan bog‘liq jinoyatlar tashkil etadi;

ikkinchidan, qayd etilgan bu jinoyatlarning yarmidan ko‘pi Toshkent shahri bozorlariga, qariyb chorak qismi Farg‘ona viloyati bozorlari hissasiga to‘g‘ri keladi;

uchinchidan, bozorlarda sodir etilayotgan jinoyatlarning barvaqt profilaktikasi ularning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, aholining barcha qatlamlari huquqiy madaniyatini oshirish, ularda qonunga hurmat, qonun buzilishining har qanday ko‘rinishiga murosasizlik tuyg‘usini singdirish yo‘li bilan amalga oshiriladi;

to‘rtinchidan, bozorlarda jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini amalga oshirishning chora-tadbirlari doirasi keng bo‘lib, ularning samaradorligi mazkur chora-tadbirlar, usullar va shakllarni bir-biridan farqlab, tizimli, mantiqiy izchillikda va har biriga alohida yondashgan holda qo‘llashga bog‘liq;

beshinchidan, Milliy gvardiya va ichki ishlar organlari bo‘linmalarining bozor ma’muriyati, bozor joylashgan hududdagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa tegishli subyektlar bilan hamkorlikda ish olib borishi bozorlarda sodir etilayotgan jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Аннотация. В статье дана характеристика рынков нашей страны, современная ситуация и криминологическая характеристика совершаемых преступлений на рынках, в том числе их причины и способствующие условия, организационно-практические меры, составляющие раннее предупреждение преступлений на рынках и непосредственному устранению причин и условий преступлений. Изучались вопросы, связанные с мерами по повышению правовой культуры населения, нравственному воспитанию, уважению к закону, привитию чувства нетерпимости к любым формам нарушения закона.

Ключевые слова: рынок, преступления, совершаемые на рынках, воровство, хулиганство, основные причины преступлений, совершаемых на рынках, условия, позволяющие совершать преступления на рынках, ранняя профилактика преступлений, сотрудники Национальной гвардии.

Abstract. The article deals with the descriptions of markets of our country, the current situation and criminological characteristics of crimes committed in markets, including their causes and enabling conditions, organizational and practical measures that constitute the early prevention of crimes in markets and the direct elimination of the causes and conditions of crimes. Issues related to measures to improve the legal culture of the population, moral education, respect for the law and instilling a sense of intolerance towards any form of violation of the law were studied.

Key words: market, crimes committed in markets, theft, hooliganism, the main causes of crimes committed in markets, conditions that allow crimes to be committed in markets, early crime prevention, National Guard personnel.

ISSN 3030-3230

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Maqsadimiz – adolat va qonun ustuvorligini ta’minlash orqali xalqimizni rozi qilish // [Elektron manba]. – URL: https://president.uz/uz/lists/view/6519. (murojaat vaqti: 24.08.2023).

2. Bozor / Qomus.Info: Onlayn ensiklopediya // [Elektron manba]. – URL: https://qomus.info/encyclopedia/ cat-b/bozor-uz. (murojaat vaqti: 24.08.2023).

3. Axmedov B. Amir Temur. – Toshkent, 1995. – B. 596, 613; Uljayeva SH.M. Amir Temur saltanatida milliy davlatchilikning rivojlanishi: Avtoref. dis. ... tarix. fanlar doktori. – Toshkent, 2008. – B. 38.

4. Ziyodullayev M.Z. Amir Temur hukmronligi davrida xavfsizlik va huquq-tartibotni ta’minlashning o‘ziga xos jihatlari // O‘zA ilm-fan bo‘limi (elektron jurnal). – Toshkent, 2020. – okt. – B. 77.

5. Muhammad Rizo Ogahiy. Asarlar. 6-jildlik. J.5. Tarixiy asarlardan parchalar. – T., 1978. – B. 192.

6. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. – T., 2003. – B. 10.

7. O‘zbekiston SSR tarixi. 4 tomlik. – Toshkent. 1. Qadimiy davrlardan XIX asrning birinchi yarmigacha. – Toshkent., 1970. – B. 653–654.

8. Ziyodullayev M.Z. Aholi turar joylarida jamoat tartibini saqlash tizimlari: tarixi, buguni va xorij tajribasi: O‘quv qo‘llanma.–Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015.–B. 10.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-avgustdagi “Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga solishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 253-son qarori // [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/ru/docs/2045196 (murojaat vaqti: 24.08.2023).

TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV JARAYONIDA maxsus bilimlarning subyektlari

Zakurlayev Abdumutal Karimovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
‘‘Jinoiy-huquqiy fanlar’’ kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori, professor

Bababekov Nodir Djurabayevich
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Jinoyat protsessining turli bosqichlarida maxsus bilimlardan foydalanishga oid “maxsus bilimlardan foydalanish subyekti”, “maxsus bilimlar subyekti”, “maxsus bilimga ega shaxs”, “ekspert”, “mutaxassis” atamalari, ularning o‘zaro bog‘liqligi va ularning jinoyat protsessidagi faoliyatini huquqiy tartibga solish masalalari o‘rganilgan. Ushbu masala bo‘yicha bir qator fikrlar va ilmiy qarashlarni tahlil qilib, muammoli masalalar bo‘yicha mualliflik fikrlarini taklif qilingan hamda maxsus bilimlar subyektlarining har birining huquqiy holati ko‘rib chiqilgan. “Mutaxassis” va “tarjimon” tushunchalarining mazmunidagi o‘xshashliklar, ular o‘rtasidagi umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarni ajratgan holda, ushbu atamalarni o‘zaro nisbatini aniqlashga harakat qilingan. O‘rganilayotgan muammolarning mazmuniga oid jinoyat-protsessual qonun normalarining va soha mutaxassislarining ilmiy qarashlarining tahlillariga asoslanib, amaldagi O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga hamda “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonuniga, amaldagi qonunchilikni bir xillashtirishga, huquqni qo‘llash muammolarini bartaraf etishga, jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida pedagog, psixolog va tarjimonning mutaxassis sifatida vakolatlarini me’yoriy ravishda mustahkamlashga, ushbu masala bo‘yicha nazariy munozaralarni istisno qilishga imkon beradigan qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: jinoyat protsessi, maxsus bilimlardan foydalanish subyekti, maxsus bilimlar subyekti, maxsus bilimga ega shaxs, ekspert, mutaxassis, sud ekspertizasi, nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti, shifokor, pedagog, tarjimon.

Jinoyat protsessining turli bosqichlarida maxsus bilimlardan foydalanish masalalariga bag‘ishlangan kriminalistik va jinoyat-protsessual adabiyotlarida “maxsus bilimlardan foydalanish subyekti”, “maxsus bilimlar subyekti”, “maxsus bilimga ega shaxs”, “ekspert”, “mutaxassis” atamalari, ularning o‘zaro bog‘liqligi va ularning jinoyat protsessidagi faoliyatini huquqiy tartibga solish bo‘yicha tortishuvlar mavjud.

Ushbu masala bo‘yicha bir qator fikrlar va ilmiy qarashlarni tahlil qilib, ushbu muammoli masalalar bo‘yicha mualliflik fikrlarini taklif qilishga harakat qildik. Bu masalalar bo‘yicha keng tarqalgan ilmiy fikrlardan biri, huquqni muhofaza qiluvchi organlarni istisno qilgan holda, barcha maxsus bilim egalari maxsus bilimga ega shaxs toifasiga kiritish lozim degan fikrdir [1, 54-56.b]. Ushbu fikrlar tarafdorlarining fikriga ko‘ra, “maxsus bilimga ega shaxs” atamasidan foydalanish va uni jinoyat-protsessual qonunida mustahkamlab qo‘yish zarurati tarixiy shart-sharoitlar, qarama-qarshi qarashlarning mavjudligi bilan asoslanadi.

Boshqa olimlar maxsus bilimga ega shaxslarning isbotlash subyektlari sifatida keng ma’nodagi atamasini ta’kidlab, ularni huquqni muhofaza qiluvchi organlar organlari va sud deb ataydilar [2, 54.b]. Ba’zi mualliflar [3] “maxsus bilimga ega shaxs” atamasini mutaxassislar toifasi orqali ta’riflaydilar va uni inson bilimlari, kasbi, hunarmandchilikning muayyan bir sohasidagi malakali, tajribali, mohir mutaxassis sifatida tushunishadi [4].

“Maxsus bilimga ega shaxs” atamasidan ilmiy faoliyatda qo‘llash (yoki qo‘llamaslik) ni asoslash uchun, ushbu iboraning o‘zagini tashkil etuvchi “bilimdon”, “bilimli” kabi so‘zlarning etimologiyasiga e’tibor qarataylik.

ISSN 3030-3230

O‘zbek tilining izohli lug‘atida ushbu atamalarga quyidagicha izoh berilgan: “Bilimdon – 1) bilimlari mukammal egallagan; katta ilmga, ma’lumotga ega bo‘lgan; bilag‘on, o‘qimishli; bilimli. 2) Katta ish tajribasiga ega; o‘z ishini, sohasini yaxshi biladigan; omilkor, bilarmon”. “Bilimli – aynan bilimdon” [5]. Ya’ni, ushbu atamalarni tom ma’nodagi talqini asosida, maxsus bilimga ega shaxs hayotning ma’lum bir sohasida katta ilmga, ma’lumotga ega bo‘lgan odamni tushunishi kerak.

Bizning fikrimizcha esa, bu atama umumlashtirilgan ilmiy bo‘lmagan va yuridik atamashunoslikda emas, filologik ma’noda jumlalarni tuzishni soddalashtirish uchun “mutaxassis” va “ekspert” tushunchalari bilan sinonim sifatida ishlatilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan to‘g‘ri, S.I.Zemsova ushbu atama bilan “mutaxassis” va “ekspert” tushunchalarini almashtirish mumkin emasligini ta’kidlaydi [6, 50.b]. Bu fikrlarni O‘zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual kodeksi ham tasdiqlaydi, jumladan: “Xulosa berish uchun zarur fan, texnika, san’at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lgan har qanday jismoniy shaxs ekspert sifatida chaqirilishi mumkin” yoki “Ekspert sifatida davlat sud-ekspertiza muassasasi eksperti, boshqa korxona, muassasa, tashkilot xodimi yoki boshqa jismoniy shaxs ishtirok etishi mumkin” [7]. Yoki bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonunida “sud eksperti — xulosa berish uchun fan, texnika, san’at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lgan, belgilangan tartibda sud eksperti sifatida tayinlangan jismoniy shaxs” deb belgilangan [8].

Maxsus bilimlar subyektlarining har birining huquqiy holatini batafsil ko‘rib chiqaylik. Shu bilan birga, jinoiy ish qo‘zg‘atish bosqichida maxsus bilimlarga tegishli bo‘lgan huquqiy maqomning xususiyatlariga e’tibor qaratamiz. “Maxsus bilimlar subyekti” tushunchasi ikki toifadagi shaxslarni o‘z ichiga oladi: maxsus bilimlardan foydalanish subyektlari va maxsus bilimlarni qo‘llash subyektlari. Ushbu ikki guruhlar o‘rtasidagi farq nafaqat ularning protsessual maqomi bilangina emas, balki “maxsus bilimlar” toifalari bilan ham aniqlanadi.

Maxsus bilimlardan foydalanish subyektlariga jinoiy protsessual qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan maxsus bilimlardan foydalanish vakolatiga ega bo‘lgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari (tergovchi, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi yoki sud) kiradi. Ushbu subyektlar huquqbuzarlikning ayrim holatlarini aniqlash uchun maxsus bilimga ega shaxslarning maxsus bilimlaridan foydalanadilar. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat-protsessual qonuni maxsus bilimlardan foydalanishni jinoyat ishlari bo‘yicha ish yuritishda yuzaga keladigan masalalarni hal qilish, birinchi navbatda ekspertizalarni tayinlash va o‘tkazish bilan bog‘laydi, shu bilan birga, sohaviy kodekslarda maxsus bilim tushunchalari aniqlanmagan.

Ayrim olimlarda tergovchi maxsus emas, balki kasbiy bilimlarga ega shaxs va tergovchi tomonidan maxsus bilimlardan mustaqil foydalanish mumkin emas degan fikrlar mavjud. Ushbu fikrlar tarafdorlari o‘z qarashlarini asoslash uchun jinoyat-protsessual kodeksida tergovchi tomonidan maxsus bilimlardan mustaqil foydalanish normalari yo‘qligi to‘g‘risida dalil keltiradilar [1, 74.b]. Shuningdek, masalan, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksida mutaxassislar va sud ekspertlari tomonidan maxsus bilimlardan foydalanish bo‘yicha normalar mavjud emas. Yoki bo‘lmasa, Belorus Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida ham, faqat ikkita normada: maxsus bilimlardan foydalangan holda tergov va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirishda mutaxassisning ishtiroki majburiyati (62-modda 3-qismining 4-bandi) va surishtiruv, dastlabki tergovda maxsus bilimlar talab etilganda ekspertizalar tayinlanishi (226-modda 1-qismi) qayd etilgan. Bizning nuqtai nazarimizdan ushbu fikrlar tom ma’noda nazariydir [9].

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksida esa “Zarur hollarda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud ko‘zdan kechirish chog‘ida o‘lchov o‘tkazadi, fotosuratga, kinotasvirga, videoyozuvga tushiradi, rejalar, sxemalar, chizmalar tuzadi, izlardan qoliplar va nusxalar oladi” [7] deb belgilangan hamda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sudga maxsus bilimlarni qo‘llashni taqiqlamaydi.

Shunday qilib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari (tergovchi, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi yoki sud), shubhasiz, maxsus bilimlar subyektlari (tashuvchilari) hisoblanadi.

Tergovchi, surishtiruvchi va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi tomonidan materiallar va

jinoyat ishlari bo‘yicha ish yuritishda o‘zlarining maxsus huquqiy bilimlaridan foydalanish bo‘yicha umumiy vakolatlari amaldagi JPKning 36, 37, 381, 39 va 392-moddalarida berilgan. Xususan, ushbu normalarning mazmuniga ko‘ra, tergovchi, surishtiruvchi va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organing mansabdor shaxsi ushbu Kodeksda nazarda tutilgan doirada va tartibda tergov va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirish, zarur protsessual qarorlarni qabul qilish huquqiga ega.

Ushbu normalarning mazmunida tergovchi, surishtiruv olib boruvchi shaxs tomonidan maxsus bilimlardan foydalanish haqida hech narsa aytilmagan. Biroq, ushbu qoidalar ilmiy-nazariy xususiyatga ega bo‘lib, ular jinoyat-protsessual qonunchilikda nazarda tutilmasligi mumkin. Chunki, kriminalistika va jinoiy protsess sohasida maxsus bilimlarga hamda ularni qo‘llash tajribasiga ega bo‘lmagan shaxs yetarli darajada aniq tergov harakatlarini amalga oshirishi, zarur protsessual qaror qabul qilishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin.

Shunday qilib, o‘rganilayotgan muammolarning mazmuniga oid jinoyat-protsessual qonun normalarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi JPKda:

- muayyan subyektlar tomonidan maxsus bilimlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanishni ko‘rsatadigan normalar mavjud emas;

- tarkibi tergov va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirishda maxsus bilimlardan foydalanish imkoniyatini nazarda tutadigan normalar mavjud.

Hozirda tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov jarayonida maxsus bilimlardan foydalanish masalasi O‘zbekiston Respublikasi JPKda muqobil xususiyatga ega. Jumladan, mazkur Kodeksning 136-moddasiga muvofiq “... Zarur hollarda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud ko‘zdan kechirish chog‘ida o‘lchov o‘tkazadi, fotosuratga, kinotasvirga, videoyozuvga tushiradi, rejalar, sxemalar, chizmalar tuzadi, izlardan qoliplar va nusxalar oladi. Bu ishlarni bajarishga yordam berish uchun ko‘zdan kechirishga mutaxassislar jalb qilinishi mumkin” [7].

Yuqoridagi moddaning normasidan kelib chiqadiki, agar kriminalistik vositalar va kriminalistik usullarni qo‘llash borasida maxsus bilim hamda ko‘nikmalarga ega bo‘lsa tergovchi mutaxassisni tergov harakatida ishtirok etishga jalb qilmasligi ham mumkin. Biroq, R.K.Abdullayevning ta’kidlashicha “ayrim tergovchilar HSBJKKda texnik-kriminalistik vositalar va taktik-kriminalistik usullarni qo‘llash bo‘yicha zarur bilim va ko‘nikmalarga ega emaslar [10, B.36].

Shu sababli, amaldagi JPKning 136 moddasi ikkinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish taklif qilinadi:

“136-modda. Ko‘zdan kechirish tartibining umumiy qoidalari

... Zarur hollarda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud ko‘zdan kechirish chog‘ida o‘lchov o‘tkazadi, fotosuratga, kinotasvirga, videoyozuvga tushiradi, rejalar, sxemalar, chizmalar tuzadi, izlardan qoliplar va nusxalar oladi. Bu ishlarni bajarishga yordam berish uchun ko‘zdan kechirishga mutaxassislar jalb qilinadi”.

Ta’kidlash joizki bu kabi muqobil bo‘lmagan qoida amaldagi JPKda mavjud, jumladan, ushbu Kodeksining 138-moddasida (Murdani ko‘zdan kechirish) “Surishtiruvchi yoki tergovchi murdaning tashqi ko‘rinishini u topilgan joyda xolislar va sud-tibbiyot sohasidagi mutaxassis shifokor ishtirokida ko‘zdan kechiradi. Bunday mutaxassis shifokor ishtirok etishiga imkoniyat bo‘lmagan taqdirda, boshqa shifokor ishtirok etadi. Zarur hollarda murdani ko‘zdan kechirish uchun boshqa mutaxassislar, shuningdek ekspertlar jalb qilinadi” deb belgilangan.

Maxsus bilimlarni qo‘llash subyektlari sud ekspertlari va mutaxassislarni o‘z ichiga olishi kerak [11]. Maxsus bilimlardan foydalanishning mustaqil subyekti sifatida ekspertning huquqiy maqomi O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonuni va amaldagi JPK bilan belgilanadi. Jumladan “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasida “sud eksperti — xulosa berish uchun fan, texnika, san’at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lgan, belgilangan tartibda sud eksperti sifatida tayinlangan jismoniy shaxs” va “sud ekspertizasi — fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va ma’muriy sud ishlarini yuritishda ish holatlarini aniqlashga qaratilgan hamda sud eksperti tomonidan fan, texnika, san’at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o‘tkazish va xulosa berishdan iborat bo‘lgan protsessual harakat” deb belgilangan [8]. JPKda esa “Xulosa berish uchun zarur fan, texnika,

ISSN 3030-3230

san’at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lgan har qanday jismoniy shaxs ekspert sifatida chaqirilishi mumkin” deyilgan [7].

Maxsus bilimlarni qo‘llash subyekti sifatida ekspert va mutaxassisning huquq va majburiyatlari, shuningdek, yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan qoidabuzarlik uchun javobgarlik JPKning 68- va 70-moddalarida belgilangan.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019 yil 17 yanvardagi PQ–4125-son qarori bilan Respublikamizda nodavlat sud ekspertiza tashkilotlarini tashkil etishga ruxsat berilgan [12]. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24 martdagi 180-son qarori bilan “Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida nizom” tasdiqlangan. Ushbu nizomga ko‘ra, “Nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va ma’muriy sud ishlari bo‘yicha sud ekspertizasini o‘tkazishga ixtisoslashtirilgan, shtatida sud eksperti sertifikatiga ega mutaxassislar bo‘lgan tashkilot hisoblanadi” [13].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 iyuldagi PF–6256-son Farmoniga muvofiq 2021 yil 1 sentabrdan boshlab davlat va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlariga Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxatga ko‘ra shartnoma asosida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq, sud ekspertizasi turlari bo‘yicha tadqiqot o‘tkazish huquqi berilgan [14]. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 22 noyabrdagi 706-son qarori bilan esa 51 xil sud ekspertizasi turlarini o‘z ichiga olgan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan sud ekspertizasi turlari bo‘yicha tadqiqotlar ro‘yxati tasdiqlangan [15].

Ko‘rinib turibdiki, nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti nafaqat fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va ma’muriy sud ishlari bo‘yicha sud ekspertizasini o‘tkazishga ixtisoslashtirilgan, balki, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo‘yicha shartnoma asosida sud ekspertizasini o‘tkazishga ixtisoslashtirilgan tijoratchi yuridik shaxsdir.

Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasiga quyidagi mazmundagi yangi band kiritish taklif qilinadi:

“nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti – fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat, ma’muriy sud ishlari va ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo‘yicha shartnoma asosida sud ekspertizasini o‘tkazishga ixtisoslashtirilgan tijoratchi yuridik shaxs”.

Maxsus bilimlarni qo‘llashning yana bir subyekti mutaxassis bo‘lib, “bajaradigan funksiyalarga ko‘ra, mutaxassis sifatida jalb qilingan shaxslarni uchta kichik guruhga bo‘lish mumkin: sud-ekspertiza muassasalarida ishlaydigan va lavozimi bo‘yicha ekspert bo‘lgan; huquqni muhofaza qilish organlarida ishlaydigan, xizmat majburiyatlariga ushbu organlar faoliyatiga maxsus usullar va ilmiy-texnik vositalarni joriy etish kiradigan shaxslar (maxsus texnika bo‘yicha muhandislari, kinologlar, psixologlar va boshq.); sud-ekspertiza muassasalarida yoki huquqni muhofaza qilish organlarida ishlamaydigan, ammo maxsus bilimlarga ega shaxslar” [16, S.22].

Maxsus bilimlarni qo‘llash subyekti sifatida mutaxassisning huquqiy maqomini ko‘rib chiqishda, ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi JPKga muvofiq, “Tergov va sud muhokamasini o‘tkazishda dalillarni topish va mustahkamlashda surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga va sudga yordam berish uchun mutaxassis chaqiriladi. Mutaxassis sifatida shifokor, pedagog hamda zarur bilim va malakaga ega bo‘lgan boshqa shaxslar chaqirilishi mumkin. Himoyachining iltimosnomasiga ko‘ra surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan mutaxassis tushuntirish berish uchun chaqirilishi mumkin. Tergov va sud muhokamasini o‘tkazishda ilmiy-texnika vositalarini (magnitofon, videomagnitofon, kinoga olish apparatlari va boshqa apparatlarni) qo‘llash uchun mutaxassis chaqirilishi mumkin” [7].

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 69-moddasining “Mutaxassis sifatida shifokor, pedagog hamda zarur bilim va malakaga ega bo‘lgan boshqa shaxslar chaqirilishi mumkin” degan qismiga e’tibor qarataylik.

Birinchidan, ushbu normaning so‘zma-so‘z talqiniga asoslanib, qonun ularni faqat jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan paytdan boshlab mutaxassislarga tenglashtiradi (gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohning protsessual holati jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risida qaror qabul

qilingandan keyin vujudga keladi). Binobarin, shifokor, pedagog hamda zarur bilim va malakaga ega bo‘lgan boshqa shaxslar jinoiy ish qo‘zg‘atish bosqichida mutaxassis hisoblanmaydi. Shu bilan birga, ushbu shaxslarning maxsus bilimlari ko‘pincha jinoyat protsessining jarayonning ushbu bosqichida ham talab qilinishi mumkin.

Ikkinchidan, qonun chiqaruvchi shifokor, pedagog hamda zarur bilim va malakaga ega bo‘lgan boshqa shaxslar (jumladan, psixolog) ning faqat tergov va sud muhokamasini o‘tkazishda mutaxassis sifatida ishtirok etishini ko‘rsatadi. Biroq, ularning maxsus bilimlari boshqa protsessual harakatlar paytida, masalan, jinsiy daxlsizlik va jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar bog‘liq hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirishda ham zarur bo‘lishi mumkin. Ushbu turdagi jinoyatlarda jabrlanuvchida qandaydir kuchli psixologik zo‘riqish (stress) paydo bo‘lishi kuzatiladi. Shuningdek, ushbu jarayonda huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining mavjudligi ushbu psixologik stressni yanada kuchaytirishi mumkin. Bunday vaziyatlarda, hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish, guvohlantirish, tirnoq ostidagi moddalar namunalarini olish va boshqa tergov harakatlarida psixologning yordami juda katta bo‘ladi.

Uchinchidan, qonun chiqaruvchi shifokor, pedagog hamda zarur bilim va malakaga ega bo‘lgan boshqa shaxslar ishtirokidagi tergov harakatlari ro‘yxatini cheklab qolmasdan, balki ushbu shaxslarning ishtiroki uchun yosh chegarasini ham belgilaydi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi JPKda “Voyaga yetmagan guvoh yoki jabrlanuvchini so‘roq qilish qonuniy vakili yoki katta yoshdagi yaqin qarindoshi, pedagog va (yoki) psixolog yoxud jabrlanuvchining vakili ishtirokida ularning roziligi bilan o‘tkaziladi” deb belgilangan [7]. Boshqacha qilib aytganda, pedagog va psixolog faqat voyaga etmagan shaxsni so‘roq qilishda mutaxassis maqomiga ega bo‘ladi. Pedagogning voyaga etmaganlar bilan ishlashda ishtiroki tushunarli, biroq, katta yoshdagi shaxslar bilan ishlashda psixolog ko‘pincha zarurdir.

Bundan kelib chiqadiki, pedagog va psixologning mutaxassis sifatida ishtirokini jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan paytdan boshlab, voyaga etmagan shaxslarni so‘roq qilish paytida ishtirok etishi kabi qonuniy cheklash amaliy faoliyatda mavjud holatlarga biroz ziddir.

Shu sababli, fikrimizcha, tergovchi, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi shifokor, pedagog hamda zarur bilim va malakaga ega bo‘lgan boshqa shaxslarning jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida, huquqbuzarlik holatlari yoki bunday ishtirokning paydo bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqib, mutaxassis sifatida ishtirok etishi to‘g‘risida mustaqil ravishda qaror qabul qilish huquqiga ega bo‘lishi kerak.

Maxsus bilimlardan foydalanish nazariyasi va amaliyotini o‘rganish jinoyat protsessida tarjimonning protsessual holatini batafsil o‘rganish zarurligini keltirib chiqardi. O‘zbekiston Respublikasi JPKda “Tarjimon quyidagi hollarda chaqiriladi: 1) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki jabrlanuvchi, fuqaroviy da’vogar, fuqaroviy javobgar yoxud ularning vakillari, guvoh, ekspert, mutaxassis ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarli darajada bilmasa yoinki kar yoki soqov bo‘lsa; 2) biror matnni boshqa tildan tarjima qilishga zarurat bo‘lsa. Tarjimonga tegishli qoidalar ish yuritishda ishtirok etish uchun taklif qilingan, kar yoki soqovning imo-ishoralarini tushunadigan shaxsga nisbatan ham qo‘llaniladi” deb belgilangan va tarjimon tushunchasiga ta’rif berilmagan [7]. Ushbu moddaning mazmunidan, tarjimon – tilshunoslik sohasidagi mutaxassis degan ma’no kelib chiqadi.

Ayrim adabiyotlarda [17] ham “tarjimon” tushunchasiga shu nuqtai nazardan yondashilgan. “Wikipedia. Ochiq ensiklopediya”ga ko‘ra: “Tarjimon — tarjima ishi bilan, ya’ni bir tildagi (manba tili) yozma yoki og‘zaki matnga boshqa bir tilda (tarjima tili) yozma yoki og‘zaki ekvivalent matn yaratish bilan shug‘ullanadigan mutaxassis” [18].

“Mutaxassis” va “tarjimon” tushunchalarining mazmunidagi bu kabi o‘xshashlik, ular o‘rtasidagi umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarni ajratgan holda, ushbu atamalarni o‘zaro nisbatini aniqlashga yordam beradi.

Tushunchalarning tahlillaridan ko‘rinadiki, ularning o‘ziga xos xususiyatlari deyarli bir xil. Masalan, mutaxassis vakolatli organ tomonidan chaqiriladi, bu holat tarjimonni chaqirish uchun ham xos bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi JPKning 20-moddasi, o‘qituvchi va psixologdan farqli o‘laroq, tarjimonni mutaxassisga tenglashtirmaydi, bu esa tarjimonning jinoiy ish qo‘zg‘atish bosqichida ishtirok etish imkoniyatini belgilab bermaydi.

ISSN 3030-3230

Mutaxassis	Tarjimon
jinoyat ishining natijasidan manfaatdor bo‘lmagan shaxs	jinoyat ishining natijasidan manfaatdor bo‘lmagan shaxs
fan, texnika, san’at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lgan shaxs	tarjima qilish uchun zarur bo‘lgan tillarni biladigan shaxs
vakolatli organ tomonidan tergov va boshqa protsessual harakatlarni o‘tkazishda yordam berish uchun jalb qilingan shaxs	gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki jabrlanuvchi, fuqaroviy da’vogar, fuqaroviy javobgar yoxud ularning vakillari, guvoh, ekspert, mutaxassis ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarli darajada bilmasa yoinki kar yoki soqov bo‘lsa; biror matnni boshqa tildan tarjima qilishga zarurat bo‘lsa tergov va boshqa protsessual harakatlarida ishtirok etuvchi shaxs

Yuqoridagilarga asoslanib va olimlarning yuqorida o‘zaro taqqoslangan tushunchalar va ularning o‘zaro bog‘liqligi haqidagi ilmiy qarashlarini o‘rganib, shuningdek, tergovga qadar tekshiruv jarayonida pedagog, psixolog va tarjimonning ishtirokini tahlil qilib, pedagog, psixolog va tarjimonni mutaxassis toifasiga kiritishni hamda amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksining 71-moddasiga (Tarjimon) quyidagi mazmundagi yangi bandni kiritish taklif qilinadi:

71-modda.

Tarjimon – jinoyat protsessida ishtirok etishga ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda jalb qilingan, tarjima uchun zarur bo‘lgan tilni yaxshi biladigan shaxs”.... Ushbu takliflar amaldagi qonunchilikni bir xillashtirishga, huquqni qo‘llash muammolarini bartaraf etishga, jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida pedagog, psixolog va tarjimonning mutaxassis sifatida vakolatlarini me’yoriy ravishda mustahkamlashga, ushbu masala bo‘yicha nazariy munozaralarni istisno qilishga imkon beradi.

СУБЪЕКТЫ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПРОЦЕССЕ ДОСЛЕДСТВЕННОЙ ПРОВЕРКИ

Аннотация. Изучены термины “субъект использования специальных знаний”, “субъект специальных знаний”, “сведущий лицо”, “эксперт”, “специалист”, относящиеся к использованию специальных знаний на различных этапах уголовного процесса, их взаимосвязь и вопросы правового регулирования их деятельности в уголовном процессе. Проанализировав ряд мнений и научных взглядов по данному вопросу, были предложены авторские мнения по проблемным вопросам, а также рассмотрен правовой статус каждого из субъектов специальных знаний. Выделяя сходство, общих и специфических особенностей в содержании понятий “специалист” и “переводчик”, были предприняты попытки определить соотношение этих терминов между собой. Основываясь на анализе норм Уголовно-процессуального права и научных взглядов специалистов относительно содержания исследуемых проблем, было предложено внести дополнения и изменения, которые позволили бы исключить теоретические дискуссии по этому вопросу, унифицировать действующее законодательство, устранить проблемы правоприменения, расширить полномочия педагога, психолога и переводчика как специалиста на этапе возбуждения уголовного дела к действующий Уголовно-процессуальный кодекс и Закону “О судебной экспертизе” Республики Узбекистан.

Ключевые слова: уголовный процесс, субъект использования специальных знаний, субъект специальных знаний, сведущее лицо, эксперт, специалист, судебная экспертиза, негосударственная судебно-экспертная организация, врач, педагог, переводчик.

SUBJECTS OF SPECIAL KNOWLEDGE DURING THE PRE-INVESTIGATION CHECK

Abstract. The terms “subject of the use of special knowledge», “subject of special knowledge”, “knowledgeable person”, “expert”, “specialist” related to the use of special knowledge at various stages of the criminal process, their relationship and issues of legal regulation of their activities in the criminal process are studied. After analyzing a number of opinions and scientific views on this issue, author’s opinions on problematic issues were proposed, and the legal status of each of the subjects of special knowledge was considered. Highlighting the similarities, common and specific features in the content of the concepts of “specialist” and “translator”, attempts were made to determine the relationship of these terms to each other. Based on the analysis of the norms of Criminal procedure law and the scientific views of specialists regarding the content of the problems under study, it was proposed to make additions and changes that would eliminate theoretical discussions on this issue, unify the current legislation, eliminate problems of law enforcement, expand the powers of a teacher, psychologist and translator as a specialist at the stage of initiating a criminal case to the current Criminal Code.the Procedural Code and the Law “On Forensic Examination» of the Republic of Uzbekistan.

Key words: criminal procedure, subject of the use of special knowledge, subject of special knowledge, knowledgeable person, expert, specialist, forensic examination, non-governmental forensic expert organization,

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Махов В.Н. Использование знаний сведущих лиц при расследовании преступлений: монография. – М., 2000. – С.54-56;

2. Латыпов В.С. Отдельные аспекты применения специальных знаний на различных стадиях уголовного процесса [Электронное издание]: учебное пособие / Латыпов В.С.; под общ. ред. Мухаметшина Ф.Б. – Уфа, 2016. – С.15-21.

3. Арсеньев В.Д. Использование специальных знаний при установлении фактических обстоятельств уголовного дела. – Красноярск, 1986. – С.54.

4. Брокгауз Ф.А., Ефрон И.А. Энциклопедический словарь. – СПб., 1900. Т.29. – С.204-205.

5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati / Tahrir hay’ati: E.Begmatov, A.Madvaliev, N.Mahkamov, T.Mirzayev (rahbar), N.To‘xliev, E.Umarov, D.Xudoyberganova, A.Hojiev. A.Madvaliyev tahr.ost. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2013. B–harfi: – B.260, 261.

6. Земцова С.И. Использование понятий «сведущее лицо» и «сведущий свидетель» в уголовном судопроизводстве: за и против // Вестник криминалистики. – 2013. - №2 (46). – С.50.

7. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. 67-м., 174-m. [Elektron resurs]: – URL: https://lex.uz/docs/111460.

8. Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 1 июндаги «Суд экспертизаси тўғрисида»ги қонуни. 3-м. / Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2010. – 22-сон. – 173-м.

9. Нестер И.С. К вопросу о понятиях «сведущие лица» и «субъекты использования специальных знаний» на стадии возбуждения уголовного дела (по законодательству Республики Беларусь) // Евразийский юридический журнал. - 2018. - №2(117). – С.238.

10. P.K.Abdullayev. Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirishning kriminalistik ta’minotini takomillashtirish: Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya: 12.00.09/ P.K.Абдуллаев. – Тошкент, 2023. – Б.36.

11. Цховребова И.А. О дифференциации специальных знаний эксперта и специалиста // Фундаментальные и прикладные проблемы управления расследованием преступлений: Сб. научн. трудов: В 2 ч. Ч. 2. – М., 2005. – С.188.

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 январдаги “Суд-экспертлик фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4125-сон қарори. / Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.01.2019 й., 07/19/4125/2510-сон; 24.02.2021 й., 06/21/6176/0156-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 06.07.2021 й., 06/21/6256/0636-сон. // https://lex.uz/docs/4172023.

ISSN 3030-3230

13. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 24 апрелдаги “Нодавлат суд-экспертиза ташкилотлари фаолиятини ташкил этиш бўйича низомларни тасдиқлаш ҳақида”ги 180-сон қарор. / Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.06.2021 й., 09/21/345/0522-сон, 22.11.2021 й., 09/21/706/1080-сон; 05.04.2022 й., 09/22/153/0266-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 14.12.2022 й., 09/22/705/1089-сон. // https://lex.uz/docs/4774077.

14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 5 июлдаги “Ўзбекистон Республикасида суд-экспертлик тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6256-сон Фармони. / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 06.07.2021 й., 06/21/6256/0636-сон; 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон. // https://lex.uz/docs/5491507.

15. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 22 ноябрдаги “Суд экспертиза соҳасини тартибга солувчи айрим норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида”ги 706-сон қарори. / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 22.11.2021 й., 09/21/706/1080-сон. // https://lex.uz/docs/5737122.

16. Маркова О.В. Участие специалиста в следственных действиях: курс лекций / Маркова О.В., Анищенко И.А., Галезник М.В. / под общ. ред. Марковой О.В. – Минск, 2010. – С.22.

17. Софийчук Н.В. Производство следственных действий с участием иностранных граждан СНГ (По материалам Иркутской области и Республики Бурятия): автореф. дис. канд. юрид. наук. – Иркутск, 2005. – С.21; Щерба С.П. Переводчик в российском уголовном процессе. - М., 2005. – С.63; Абшилава Г.В. Процессуально-правовые и гуманитарные проблемы участия переводчика в уголовном судопроизводстве России: дис. канд. юрид. наук. – М., 2005. – С.47.

18. https://uz.wikipedia.org/wiki/.

JABRLANUVCHINING ARIZASI BO‘LMAGANLIGI MUNOSABATI BILAN ish yuritishni rad etish – xususiy ayblov instituti istiqboli

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbayevich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Jinoiy-huquqiy fanlar” kafedrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo‘yicha fafalsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz jinoyat-protsessual qonunchiligida shaxslarning dispozitiv huquqlari aks etishi, shaxslarning xususiy ayblov instituti doirasida huquqlarini ro‘yobga chiqarishda vujudga kelayotgan huquqiy muammolar borasida to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, javobgarlikdan ozod etishning mazkur turning o‘ziga xosligi hamda uning protsessual tartibi bo‘lgan ish yuritishni rad etish yoki tugatish bilan bog‘liq protsessual muammolari va mazkur masalalarning huquqiy tartibga solish jihatlari tadqiq etilgan. Maqolada jinoyat va jinoyat-protsessual huquqlarida nazarda tutilgan mazkur javobgarlikdan ozod qilishning moddiy va protsessual asoslari qonunchilik va amaliyot nuqtai nazaridan tahlil etilgan bo‘lib, mavjud muammoli va kollizion holatlarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy mulohazalar va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, qonunchiligimizda uchrayotgan shaxslarning da’vosi yo‘qligi asosida ishni rad etish yoki tugatishda ishning keyingi protsessual mexanizmi mavjud emasligi, xususiy ayblov institutini rivojlangan davlatlarda qo‘llanishi, ushbu institutni taraqqiy topish shartlari, ommaviy ayblovdan farqli jihatlari, ommaviy ayblov asosida jinoyatlarni tasniflash zarurati huquqiy tadqiq etilgan. Tadqiqotda analiz, sintez, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil kabi metodlar qo‘llanilgan. Tadqiqot ishida ilg‘or xorijiy tajriba, ilmiy-nazariy qarashlar va tergov hamda sud amaliyoti o‘rganilgan, buning natijasi o‘laroq O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga va boshqa qonun hamda qonunosti hujjatlarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: shaxslarning dispozitiv huquqlari, xususiy ayblov, ommaviy ayblov, ish yuritishni rad etish, jinoyat ishi, jinoyat ishini tugatish, javobgarlikdan ozod etish, da’vo.

Dunyo mamlakatlari jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligida shaxslarning huquq va manfaatlarini oliy darajada ta’minlash muhim rahbariy qoida sifatida mustahkamlangan. Xususan, jinoyat protsessual qonunchilikda jabrlanuvchining manfaatlarini ta’minlash va mazkur munosabatlarga oliy qadriyat sifatida qarash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, shaxsga yetkazilgan moddiy va ma’naviy zarar mazkur ijtimoiy munosabatlarning markazida bo‘lgan jinoyat natijasida kelib chiqadi. Demak, jinoyat va jinoyat protsessual qonunchilik tizimining huquqiy mezonni ta’minlashdagi asosiy vazifasi bu – jinoyat natijasida huquq va manfaatlariga putur yetgan shaxs, – jabrlanuvchini buzilgan huquqlarini tiklash va unga yetkazilgan zararni qoplanishi bo‘lib hisoblanadi. Dastavval qonun chiqaruvchi jabrlanuvchining huquqlarini tiklash bo‘yicha me’yorlarni yaratishi, shundan so‘ng jinoyat sodir etgan shaxsga adolatli jazo berishi va bunda ham jabrlanuvchining talablarini inobatga olish borasidagi normalarni ishlab chiqishi talab etiladi.

Material va metodlar.

Shu bois, shaxslarning jinoiy qilmishlari bo‘yicha ish yuritishni rad etish va tugatishda xususiy ayblov instituti muhim o‘rinni egallaydi. Chunki dunyoda jinoyat natijasida jabrlangan shaxslarning dispozitiv huquqlarini amalga oshirish kabi institutsional qonunchilikni takomillashtirish masalalari dolzarb sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual qonunchiligida shaxslarning dispozitiv huquqlari

ISSN 3030-3230

hisobga olinmagan, deb bo‘lmaydi. Jumladan, JPKning 84-moddasi birinchi qismi 6-bandida ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo‘zg‘atiladigan hollarda uning shikoyati bo‘lmasa, ushbu Kodeksning 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno ekanligini belgilab qo‘yilgan.

Tadqiqot ishida mazkur asosni qo‘llash bilan bog‘liq amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar, normativ tushunmovchiliklar va jabrlanuvchining manfaatlarini hisobga olishda inobatga olinishi lozim bo‘lgan qoidalar tahlil qilingan, shu bilan birga, qiyosiy-huquqiy tahlil, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo‘llanildi.

Tadqiqot natijalari.

JPKning 84-moddasi birinchi qismi 6-bandida ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo‘zg‘atiladigan hollarda uning shikoyati bo‘lmasa, ushbu Kodeksning 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

JPKning 325-moddasida esa jabrlanuvchining shikoyatiga asosan qo‘zg‘atilishi lozim bo‘lgan jinoyat ishlari ro‘yxati keltirilgan bo‘lib, unda aynan JKning qaysi moddalari va qismiga asosan faqatgina jarblanuvchi tomonidan ariza asosida shikoyat qilingan hollarda jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi, aks holda tergovga qadar tekshiruv hujjatlari bo‘yicha ish yurituv rad etilishi belgilagan. Biroq JPKning 84-moddasi mazkur bandi bo‘yicha bir qancha tushunmovchiliklar mavjud.

Jumladan, mazkur moddada “325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno” deb belgilab qo‘yilganligi, amaliyotda turli tortishuvlarga sabab bo‘lmoqda. Mazkur moddada qonun chiqaruvchi jabrlanuvchining shikoyati bo‘lmagan hollarda uning shikoyati bo‘lmasa, ya’ni jinoyat ishi jabrlanuvchi aybdorni javobgarlikka tortishni so‘rab bergan shikoyat arizasi asosidagina qo‘zg‘atiladi, aks holda tergovga qadar tekshiruv hujjatlari bo‘yicha ushbu asosga ko‘ra jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi rad etiladi. Biroq bunda qonun chiqaruvchi JPKning 325-moddasida nazarda tutilgan qaysi hollarni mustasno, deb belgilaganligi mavhumligicha qolgan.

Bu haqda B.Murodov, mazkur mustasnolik amaliyotda bir qancha tushunmovchiliklarni keltirib chiqarayotganligini, ular JPKning 325-moddasi tartibida rad etilgan jinoyat ishlarining goh JPKning 83-moddasi bilan, goh 84-moddaning birinchi qismi 6-bandiga asoslangan holda qaror chiqarilayotganligi bilan asoslab, mazkur holatlarni oldini olish uchun JPK 84-moddasi birinchi qismining 6-bandi, ya’ni “ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo‘zg‘atiladigan hollarda uning shikoyati bo‘lmasa, ushbu Kodeksning 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno” degan matnidan “... ushbu Kodeksning 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno” jumlasini olib tashlash kerakligini bildirgan[1, 99-100-betlar].

B.Murodovning fikrlari o‘rinli, ya’ni mazkur mustasnolikni belgilanishi nafaqat amaliyot vakillarini balki, nazariyada ham o‘zaro tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shunday bo‘lsa-da, B.Murodovning mazkur taklifi biroz keskinligi sababli unga qo‘shilmaymiz. Chunonchi, qonun chiqaruvchi mazkur mustasnolikni jabrlanuvchi nochor ahvolda bo‘lganligi, ayblanuvchiga qaram bo‘lganligi tufayli yoki boshqa sabablarga ko‘ra o‘z huquqini va qonuniy manfaatlarini o‘zi himoya qila olmaydigan alohida hollarda prokuror jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishini qo‘zg‘atishi majburiyatini yuklagan holatini nazarda tutmoqda. Shu sababli mazkur asosni JPKning 325-moddasi alohida qismida aks ettirish orqali tushunmovchilikka barham berish mumkin.

S.A.Maxmudov ham bu boradagi tadqiqotlari davomida, mazkur mustasnolik holati moddaning mazmunida JPKning 325-moddasida nazarda tutilgan barcha hollar mustasno qilayotganligini, aslida mazkur bandni bunday tahrir etilishiga sabab, prokurorning jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishini qo‘zg‘atish mumkin ekanligini bildirib, JPKning 84-moddasi birinchi qismi 6-bandini “Ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo‘zg‘atiladigan hollarda uning shikoyati bo‘lmasa, prokuror jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishini qo‘zg‘atish hollari bundan mustasno” deya qayd etishni taklif etgan[2, 110-115-betlar].

S.Maxmudovning fikrlariga qisman qo‘shilamiz, bunda taklif etilayotgan tahrirda aynan prokurorning mazkur vakolatini ko‘rsatish shart emas, degan fikrdamiz, ya’ni JPKning 325-moddasida belgilangan prokurorning majburiyatini qayta-qayta normalarda aks ettirish maqsadga muvofiq emas.

JPKning 325-moddasi – Jabrlanuvchining shikoyatiga asosan jinoyat ishi qo‘zg‘atish” deya nomlangan bo‘lib, unda Jinoyat kodeksi 105-moddasining birinchi qismida, 109-moddasida, 110-moddasining birinchi qismida, 111-moddasida, 118-moddasining

birinchi qismida, 119-moddasining birinchi qismida, 121-moddasining birinchi qismida, 136-moddasida, 139-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 140-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 1411-moddasining birinchi qismida, 1413-moddasida, 149-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi jinoyat ishlari aybdorni javobgarlikka tortishni so‘rab jabrlanuvchi bergan shikoyat arizasi asosidagina qo‘zg‘atiladi. Jabrlanuvchi nochor ahvolda bo‘lganligi, ayblanuvchiga qaram bo‘lganligi tufayli yoki boshqa sabablarga ko‘ra o‘z huquqini va qonuniy manfaatlarini o‘zi himoya qila olmaydigan alohida hollarda prokuror jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishini qo‘zg‘atishi shart.

Jinoyat kodeksining 167, 170, 172, 173-moddalarida nazarda tutilgan va ustav fondida davlat ulushi bo‘lmagan yuridik shaxsga nisbatan uning xodimi tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi jinoyat ishlari faqat mazkur yuridik shaxs rahbarining, mulkdorining yoki vakolatli boshqaruv organining arizasiga ko‘ra qo‘zg‘atiladi.

Yuqorida keltirilgan normani huquqiy jihatdan tahlil etsak, jabrlanuvchining shikoyatiga asosan qo‘zg‘atilishi mumkin bo‘lgan yoki aksincha mazkur ro‘yxatda keltirilgan jinoyat ishlari yuzasidangina shikoyat bermaslik orqali jinoyat ishi yurituvidan voz kechishi mumkinligi anglanadi. Mazkur ro‘yxatdan so‘ng jabrlanuvchi nochor ahvolda bo‘lganligi, ayblanuvchiga qaram bo‘lganligi tufayli yoki boshqa sabablarga ko‘ra o‘z huquqini va qonuniy manfaatlarini o‘zi himoya qila olmaydigan holatda deb topish uchun asoslar mavjud bo‘lsa, jabrlanuvchining qonuniy manfaatlarini himoya qilish prokuror tomonidan jinoyat ishini qo‘zg‘atish orqali amalga oshirishi majburiyatini qonun chiqaruvchi belgilab bermoqda. Aynan mazkur asosni 84-moddaning birinchi qismi 6-bandida mustasno holat sifatida belgilagan. Faqatgina ushbu mustasnolikni alohida qismda nazarda tutish orqaligina mazkur huquqiy muammoni yechimi sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga 325-moddaning ikkinchi qismida yuridik shaxslar JKning 167, 170, 172, 173-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar bo‘yicha, faqatgina mazkur yuridik shaxslarning ustav fondida davlat ulushi bo‘lmagan va uning xodimi tomonidan sodir etilgan taqdirda, yuridik shaxsning rahbarining, mulkdorining yoki vakolatli boshqaruv organining arizasiga ko‘ra qo‘zg‘atilishi belgilangan.

Xorijiy davlatlardan, Tojikiston Respublikasi[3], Qirg‘iziston Respublikasi[4] JPKlariga ko‘ra jinoyat toifalari xususiy, xususiy-ommaviy va ommaviy ayblov turlariga bo‘linadi. Xususiy va xususiy-ommaviy ayblovga oid jinoyat turlari faqatgina jabrlanuvchi yoki uning qonuniy vakili tomonidan berilgan ariza asosida jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi mumkin. Shuningdek, ish yuritish davomida jabrlanuvchi va uning vakili da’vodan voz kechishi mumkinligi, bunday hollarda jinoyat ishi tugatilishi, nafaqat prokuror balki tergovchining ham alohida hollarda jinoyat ishini qo‘zg‘atishi vakolati normaning alohida qismida keltirib o‘tilgan.

Fikrimizcha mazkur qism ham normaning birinchi qismidagi xususiy ayblov institutini mantiqiy davomi bo‘lganligi sababli, ularni yagona institut sifatida birlashtirish yoki mazkur normani uch mustaqil qismlarga bo‘lish yo‘li bilan yuqoridagi huquqiy muammoni bartaraf etish lozim. Ya’ni JPKning 84-moddasini mazkur asosini quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq ish faqat jabrlanuvchining arizasi bilan qo‘zg‘atiladigan hollarda uning shikoyati bo‘lmasa, ushbu Kodeksning 325-moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

JPKning 325-moddasini esa quyidagi tahrirda:

Jinoyat kodeksi 105-moddasining birinchi qismida, 109-moddasida, 110-moddasining birinchi qismida, 111-moddasida, 118-moddasining birinchi qismida, 119-moddasining birinchi qismida, 121-moddasining birinchi qismida, 136-moddasida, 139-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 140-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 1411-moddasining birinchi qismida, 1413-moddasida, 149-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi jinoyat ishlari aybdorni javobgarlikka tortishni so‘rab jabrlanuvchi bergan shikoyat arizasi asosidagina qo‘zg‘atiladi.

Jinoyat kodeksining 167, 170, 172, 173-moddalarida nazarda tutilgan va ustav fondida davlat ulushi bo‘lmagan yuridik shaxsga nisbatan uning xodimi tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi jinoyat ishlari faqat mazkur yuridik shaxs rahbarining, mulkdorining yoki vakolatli boshqaruv organining arizasiga ko‘ra qo‘zg‘atiladi.

Jabrlanuvchi nochor ahvolda bo‘lganligi, ayblanuvchiga qaram bo‘lganligi tufayli yoki boshqa sabablarga ko‘ra o‘z huquqini va qonuniy manfaatlarini o‘zi himoya qila olmaydigan

ISSN 3030-3230

alohida hollarda prokuror jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishini qo‘zg‘atishi shart.

Shaxslarning jinoiy qilmishlari bo‘yicha ish yuritishni rad etish yoki tugatish amaliyotida asosan jabrlanuvchilarning dastlab ariza bilan murojaat etganidan so‘ng, keyinchalik jinoyat ishi qo‘zg‘atilguniga qadar yoki jinoyat ishi tergov qilish jarayonida mazkur arizasini qaytib olishini va da’vosi yo‘qligi sababli jinoyat ishi qo‘zg‘atmaslikni yoxud jinoyat ishini tugatishni so‘rab murojaat qilish hollari ko‘plab uchraydi.

Yuqoridagi holatni statistik ma’lumotlar bilan asoslasak, xususan, O‘zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Tergov departamenti tomonidan, 2017 yilda 33 ta jinoyat ishlari tugatilgan bo‘lsa, 2019 yilda 51 ta va 2021 yilda 52 ta jinoyat ishlari mazkur asosga ko‘ra tugatilgan[5].

Mazkur raqamlar jinoyat ishini mazmunan hal etuvchi sudlarda quyidagicha ko‘rsatkichlarni tashkil etmoqda, jumladan jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar 2017-yilda 3 ta jinoyat ishlarini mazkur asosga ko‘ra tugatilishi to‘g‘risida ajrim chiqargan bo‘lsa, 2018 yilda 1 ta, 2019-yilda 2 ta, 2020 yilda 11 ta va 2021 yilda 2 ta ajrim chiqarish yo‘li bilan jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan[6].

Yuqoridagi statistik ma’lumotlar, jabrlanuvchilarning mazkur asosga ko‘ra jinoyat ishlarini tergov qilish yoki sudlarda ko‘rish jarayonida murojaat qilishayotganliklari ko‘plab uchrayotganligini asoslaydi. E’tiborli jihati shundaki, amaldagi qonun hujjatlarida mansabdor shaxslar mazkur holatlarda qanday yo‘l tutishi lozimligi nazarda tutilmagan.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 23.05.2014 yildagi “Sud hukmi to‘g‘risida”gi 07-son qarorining 25-bandida Sud sudlanuvchiga avval e’lon qilingan aybni jabrlanuvchining shikoyatiga asosan qo‘zg‘atiladigan jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi JK moddasiga o‘zgartirish zarurligi to‘g‘risida xulosaga kelganda, jabrlanuvchining sudlanuvchini jinoiy javobgarlikka tortish haqidagi arizasi ishda mavjud-mavjud emasligidan kelib chiqib, qaror qabul qilishi belgilangan[7].

Biroq mazkur holatda qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi sudlarda ko‘rib chiqish jarayonida hal etilishi tartibi belgilab berilgan xolos. Mazkur holatlar tergovga qadar tekshiruv yoki surishtiruv jarayonida o‘z yechimini topishi zarur.

M.Hayitovning fikriga ko‘ra, dispozitivlik umumiy-huquqiy prinsip sifatida jinoyat-protsessual ma’noda, jinoyat-protsessual faoliyatni boshlash, davom ettirish yoki tugatishda huquqi buzilgan, deb qaralayotgan shaxsning ixtiyoridan kelib chiqqan holda protsessual harakatlarni amalga oshirish va qaror qabul qilish zarurligining qonunda belgilanishini va unga amal qilinishini anglatadi. Xususiy ayblov deganda, faqat jabrlanuvchining shikoyati bo‘lganida qo‘zg‘atiladigan, jabrlanuvchi yoki uning vakilining talab-xohishi asosida yuritiladigan jinoyatlarga oid ishlarda jabrlanuvchi yoki uning nomidan vakili quvvatlaydigan ayblov tushuniladi[8, 108-118-betlar].

Y.N.Nikiforovaning ta’kidlashicha, dispozitivlik muhitida fuqaroning shaxsiy manfaatlari davlat manfaatlariga qaraganda qadrliroq hisoblanadi[9, 64-bet].

D.Sh.Bekmatova xususiy ayblov tartibidagi jinoiy ta’qib deganda, jabrlanuvchining murojaati jinoyat ishini qo‘zg‘atish hamda uni tugatish uchun asos bo‘ladigan jinoiy ta’qib turi ekanligini bildirgan bo‘lsa[10, 15-bet], A.K.Kulbayevning fikriga ko‘ra, xususiy ayblov bu jinoyat ishlarini yuritishning soddalashtirilgan shakli bo‘lib, uning maqsadi jarayonni tezlashtirish va undan foydalanish imkoniyatlarini oshirishdir[11, 149-bet].

Yuqoridagi olimlarning fikrlari o‘rinli hisoblanib, huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarga yetkazilgan zarar barcha hollarda zamon, makon, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omillaridan kelib chiqib, jabrlanuvchining o‘z shaxsiy mezonlari asosida baholanadi. Bunda zararning eng quyi va yuqori miqdorlariga legitimlik xususiyati berilib, uni tan olish, tasdiqlash, da’vo qilish yoki undan voz kechish jabrlanuvchi irodasidan kelib chiqib hal etiladi.

Shu sababli jabrlanuvchining bu boradagi dispozitiv huquqlarini ta’minlash maqsadida ishning qaysi bosqichida ekanligidan ya’ni tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi jarayonida bo‘lishidan qat’iy nazar mazkur huquq jabrlanuvchiga tegishli ekanligini inobatga olgan holda, JPKning 84-moddasi birinchi qismi 6-bandini quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

ish faqat jabrlanuvchining arizasi bilan qo‘zg‘atiladigan hollarda uning shikoyati bo‘lmasa yoki jabrlanuvchi shu asos bo‘yicha da’vosidan voz kechsa, ushbu Kodeksning 325-moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

Shuningdek, jinoyat ishini tugatish borasida tadqiqot olib borgan olimlar, mazkur asosni qo‘llash bilan bog‘liq bir necha muammoli holatlarni sanab o‘tadilar. Jumladan,

– JPKning 325-moddasida nazarda tutilgan moddalarni aynan bir shaxsga bir necha shaxs tomonidan sodir etilgan bo‘lib, jabrlanuvchi ularning faqat ayrimlariga nisbatan ish yuritishni rad etishni so‘rab murojaat qilishi;

– Agar shaxs jinoyatlar majmuini tashkil etadigan JPKning 325- moddasida nazarda tutilgan bir nechta jinoyatni sodir etsa va barcha jabrlanuvchilar yoki ularning ayrimlari jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun ariza berishdan bosh tortsa, unga nisbatan ushbu modda talablari asosida jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish masalasi;

27. Тихомиров Ю.А. Курс сравнительного правоведения. М., 1996, с.235.
28. "Международный журнал Красного Креста", yanvar-fevral 2021, №28, с22.

HARBIY XIZMATCHILAR VA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR XODIMLARI ORASIDA qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlar profilaktikasining huquqiy jihatlari

Shukurov Umid Soxibjanovich
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi, Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada davlat xizmatchilari, xususan, harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari orasida qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni oldini olishning dolzarbligi, hamda uning huquqiy jihatlari, ilmiy jamoatchilikning bu boradagi qarashlari, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish yoki o‘tkazish kabi huquqbuzarliklar uchun belgilangan javobgarlik turlari va asoslari, sohaga doir milliy qonunchilik tahlili va mavjud

Kalit so‘zlar: qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlar, davlat xizmatchisi, harbiy xizmatchi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, odob-axloq qoidalari, onlayn o‘yin.

Ma’lumki, bugungi kunda dunyo bo‘yicha aholi o‘rtasida, ayniqsa yoshlar orasida qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarga bo‘lgan qiziqish, shu jumladan, butunjahon Internet tarmog‘i vositasida onlayn qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etish va ularda ishtirok etish tobora avj olib bormoqda. Tahlillarga ko‘ra, hozirgi vaqtda butunjahon axborot tarmog‘i bo‘lmish Internet orqali dunyo bo‘ylab 1800 dan ortiq bukmekerlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalarning saytlari faoliyat olib bormoqda. Bugungi kunda yurtimizda 10 dan ortiq totalizator o‘yinlari bilan shug‘ullanuvchi saytlarga kirish cheklangan. Achinarlisi, so‘nggi yillarda davlat xizmatchilari, shu qatorda harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari o‘rtasida ham butunjahon Internet axborot makonida mavjud onlayn qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarga mukkasidan ketish holatlari ko‘plab uchramoqda. Albatta ushbu salbiy illatning davlat xizmatchilari, harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari orasida yoyilishi va keng tus olishi davlat mudofaasi hamda xavfsizligi uchun jiddiy raxna soladi. Chunki davlat xizmatchilari, harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari aholi tinch hayoti va xavfsizligi, jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini barqaror bir maromda faoliyat yuritishi uchun mas’ul shaxslar hisoblanib, ularning qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarga nisbatan moyilligini oshib borishi oqibatida ular orasida o‘z lavozim vazifalariga nisbatan loqaydliklar, jangovar va xizmat shayligiga putur yetkazish, buning ortidan turli jinoyatlar (o‘g‘irlik, bosqinchilik, talon-tarojlik, firibgarlik va boshqalar) sodir etilishi, eng achinarlisi o‘z joniga qasd qilish kabi tanazzulli holatlar ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun ham davlat xizmatchilari, harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari orasida qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlar profilaktikasini muntazam olib borish muhimdir.

Buning tasdig‘i sifatida K.V.Pozdnyakov qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq jinoyatlarni oldini olishning quyidagi jihatlarini ajratib ko‘rsatadi[1]:

1. qonunchilikni takomillashtirish, shu jumladan, o‘yinlarni tashkil qilish faoliyati sohasidagi huquqiy munosabatlarni belgilovchi yangi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish;

ISSN 3030-3230

2 inson turmush darajasini oshirish maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy sohani rivojlantirish;
3 madaniy sohani rivojlantirish, shuningdek jamiyatda axloqiy tamoyillarni mustahkam ushlab turish;
4 ommaviy axborot vositalari orqali noqonuniy qimor o‘yinlarida ishtirok etish, uning zarari va oqibatlari to‘g‘risida xabarlar berib borish hamda targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish;
5 davlat organlarining o‘zaro hamkorligi tizimini takomillashtirish.

Ayni damda, davlat xizmatchilari, shu qatorda harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari orasida qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni oldini olishda ular bilan tarbiyaviy-psixologik va tushuntirish ishlarini o‘tkazib borish eng samarali usullar sifatida qarab kelinadi. Biroq, fikrimizcha, ushbu illatga qarshi kurashishning nafaqat tarbiyaviy-psixologik jihatlariga, balki davlat xizmatchilari, harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari orasida qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlar profilaktikasining huquqiy jihatlariga ham katta e’tibor qaratish zarur.

Bunda bugunning o‘zi bizdan davlat xizmatchilari, harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini onlayn qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarda ishtirok etishlarini oldini olish masalalarini huquqiy jihatdan tartibga solish jarayonida samarali norma ijodkorligini qo‘llash, mavjud yuridik javobgarlik choralari va asoslarini takomillashtirish zarurligini taqozo etmoqda. Chunki bu turdagi huquqbuzarliklar soni kun sayin oshib jamiyatimizda, ayniqsa kelajagimiz bo‘lmish yosh avlod orasida onlayn qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarga bo‘lgan kuchli moyillik ijtimoiylashib bormoqda. O‘z navbatida ta’kidlash lozimki, bu turdagi huquqbuzarliklar yoki sodir etilayotgan jinoyatlar bugungi globallashuv davrida aksar hollarda latent ko‘rinishni kasb etib bormoqda. Shu o‘rinda A.S.Limar qimor o‘yinlarini qonunga xilof ravishda tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq jinoyatlarning huquqiy omillariga to‘xtalar ekan, u mavjud qonunchilik amalda bu kabi jinoyatlar sodir etilayotgan zamonaviy ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari usul va vositalari oldida chorasiz qolayotganligini, ushbu turdagi jinoyatlar bo‘yicha tezkor-qidiruv va tergov faoliyatini olib borish metodlari, normativ va texnik standartlar uchun yetarli huquqiy asoslar yaratilmaganligini hamda natijada haqiqatda sodir bo‘lgan ijtimoiy xavfli qilmish jazosiz qolib ketayotganligini ta’kidlaydi[2].



Milliy qonunchiligimizga ko‘ra, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 278-moddasida qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish yoki o‘tkazish, shu jumladan, ana shunday o‘yinlar uchun qimorxonalar tashkil etish yoki ularni saqlash, voyaga yetmagan shaxsni qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarga jalb qilish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etish yoki o‘tkazish uchun telekommunikatsiya tarmoqlarida, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog‘i provayderlari tomonidan xizmatlar ko‘rsatish, tegishli dasturiy ta’minotdan nusxa ko‘paytirish, uni ko‘paytirish, tarqatish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan[3].

Jinoyat kodeksining atamalarning huquqiy ma’nosi deb nomlanuvchi sakkizinchi bo‘limida qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yin tushunchasiga o‘yin tashkilotchisi (o‘yin muassasasi) tomonidan bir yoki undan ortiq ishtirokchilar bilan tasodifga (voqeaga) va (yoki) o‘yin ishtirokchisining qobiliyati, epchilligi va boshqa sifatlariga bog‘liq yutuq to‘g‘risida tuzilgan, tavakkalchilikka asoslangan bitimga muvofiq o‘yin tashkilotchilari va ishtirokchilarining xatti-harakatlari majmuini nazarda tutuvchi o‘yin, shu jumladan totalizatorlar, kazino, shuningdek o‘yin avtomatlaridan foydalaniladigan o‘yin deya ta’rif berib o‘tilgan.



O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 191-moddasida esa qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarda qonunga xilof ravishda ishtirok etish, xuddi shunday huquqbuzarlikni ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etish yoxud voyaga yetmagan shaxsni qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarda ishtirok etishga jalb qilish hamda qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etish yoki o‘tkazish uchun telekommunikatsiya tarmoqlarida, shu jumladan, Internet jahon axborot

tarmog‘i provayderlari tomonidan xizmatlar ko‘rsatish yoki xizmatlar ko‘rsatishga ko‘maklashish, tegishli dasturiy ta’minotdan nusxa ko‘paytirish, uni ko‘paytirish, tarqatish uchun ma’muriy javobgarlik belgilangan[4].

Bundan tashqari, yurtimizda qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etish va o‘tkazish faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish yo‘lida bir qator Prezident va hukumat qarorlari qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-martdagi PQ-608-sonli “Qimor o‘yinlarini tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq noqonuniy faoliyatning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 16-avgustdagi 176-sonli “Qimor o‘yinlarini tashkil etish va o‘tkazishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori shular jumlasidandir. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-martdagi PQ-608-sonli “Qimor o‘yinlarini tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq noqonuniy faoliyatning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorining 4-bandida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlari zimmasiga qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarga doir huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash va chek qo‘yish, salbiy oqibatlarning oldini olishga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda muvofiqlashtirish ishlari ustidan shaxsiy javobgarlik belgilab qo‘yildi[5]. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 16-avgustdagi 176-sonli “Qimor o‘yinlarini tashkil etish va o‘tkazishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorining 1-bandida 2007-yil 1-sentabrdan boshlab O‘zbekiston Respublikasi hududida qimor o‘yinlarini va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni (shu jumladan totalizatorlar) tashkil etish va o‘tkazish (tirajli, bir lahzali va raqamli lotereyalardan tashqari), qimor o‘yinlarini va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etish va o‘tkazish uchun telekommunikatsiya tarmoqlarida, shu jumladan Internet butunjahon axborot tarmog‘i provayderlari tomonidan xizmatlar ko‘rsatish, O‘zbekiston Respublikasi hududiga pul yutug‘iga ega bo‘lgan o‘yin avtomatlarini olib kirish qat’iyan taqiqlab qo‘yildi[6].

Biroq qabul qilingan ushbu qonunchilik hujjatlariga qaramasdan aynan hozirgi kunda fuqarolarimiz qatori davlat xizmatchilari, harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari orasida ham qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlardagi faollik, bunda ayniqsa Internet tarmog‘i orqali onlayn qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarda ishtirok etish holatlari ko‘payib borayotganligi sababli davlat xizmati, harbiy xizmat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar safida xizmat o‘tash tartibi yoki ularning odob-axloq qoidalari belgilangan maxsus turdagi normativ-huquqiy hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish lozim deb o‘ylaymiz. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 595-sonli qarori bilan tasdiqlangan Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalarining 13-bandi o‘n oltinchi xatboshisida davlat xizmatchilari ishdan tashqari vaqtda jamoat tartibi va xavfsizligiga qarshi qaratilgan xatti-harakatlarni sodir etmaslik, mazkur noqonuniy harakatlarga boshqalarni jalb etmaslik yoki da’vat qilmaslik belgilab qo‘yilgan[7].

Ammo fikrimizcha, mazkur qoidalar namunaviy tavsiya beruvchi xarakter tusiga ega bo‘lib, ular o‘zida to‘laqonli ravishda barcha davlat xizmatchilari uchun umummajburiy davlat ko‘rsatmalarini aks ettirmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 16-moddasida harbiy xizmatchilar va yig‘inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar, shuningdek ichki ishlar organlarining hamda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslar ma’muriy huquqbuzarlik uchun intizom ustavlariga muvofiq javobgar bo‘lishi, mazkur shaxslar ijro hujjatini ijro etmaganligi, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risidagi qonunchilikni, yo‘l harakati qoidalarini, ov qilish, baliq tutish va baliq zaxiralarini saqlash qoidalarini, bojxona qoidalarini buzganligi uchun umumiy asoslarda ma’muriy javobgar bo‘lishi, yuqorida ko‘rsatilgan shaxslarga nisbatan ma’muriy qamoqqa olish choralari qo‘llanilishi mumkin emasligi va muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchilarga jarima solinishi mumkin emasligi belgilab qo‘yilgan. Demak Kodeksning ushbu moddasi talablaridan kelib chiqilsa harbiy xizmatchilar va yig‘inga chaqirilgan harbiy

ISSN 3030-3230

xizmatga majburlar, shuningdek ichki ishlar organlarining hamda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslar qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarda qonunga xilof ravishda ishtirok etish bilan bog‘liq ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etgan taqdirlarida tegishli Intizom ustavlariga ko‘ra intizomiy javobgarlikka tortilishlari lozim. Shuni alohida qayd etish joizki, yuqorida jinoiy va ma’muriy qonunchilik normalari fuqarolarga qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarda qonunga xilof ravishda ishtirok etganlik yoki bu kabi o‘yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etganlik yoki o‘tkazganlik uchun javobgarlikni nazarda tutmoqda. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 191-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 278-moddasi birinchi qismidagi dispozitiv norma mazmun-mohiyatiga e’tibor berib qaraydigan bo‘lsak qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etish yoki o‘tkazish, fuqarolarni bu kabi o‘yinlarda ishtirok etishi qonun doirasida ham amalga oshirilishi mumkinligini istisno etmaydi. Agar shunday bo‘lsa har qancha “g‘alati” tuyulmasin davlat xizmatchilari, harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari qolgan fuqarolarimiz qatori qonunchilik nuqtai nazaridan qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarda ishtirok etishga haqli bo‘lib qoladilar (shu kabi faoliyat uchun qonunan ruxsat berilgan xollarda). Shu bilan birga bugungi kunda davlat xizmatchilari, harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining xizmat faoliyatiga doir maxsus qonunchilik hujjatlarida ushbu toifadagi shaxslarga qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarda ishtirok etish taqiqlanishi bo‘yicha to‘g‘ridan to‘g‘ri belgilangan maxsus normalar mavjud emas. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 9-oktabrdagi PF-1571-sonli farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari umumharbiy nizomlari, xususan, Qurolli Kuchlar Ichki xizmat Nizomining 13-bandida Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchisi o‘z xizmat faoliyatida qonun va harbiy nizomlar talablariga amal qilishi va siyosiy maqsadlarni ko‘zlovchi jamoatchilik, shu kabi boshqa tashkilot va birlashmalar faoliyati bilan aloqador bo‘lmasligi, 67-bandida fuqaro aholiga nisbatan hushmuomila bo‘lishi va ularning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishi hamda 69-bandida hushyor turmush tarzi barcha harbiy xizmatchilarning kundalik yurish-turishiga aylanishi lozimligi belgilangan[8]. Ammo umumharbiy nizomlarda harbiy xizmatchilar uchun qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarda ishtirok etishlari taqiqlanganligi yoki xizmat davrida yoxud xizmat davridan tashqarida (shu jumladan, dam olishda) bu kabi o‘yinlarda ishtirok etishdan o‘zlarini tiyishlari kerakligi to‘g‘risidagi talablar belgilanmagan. Ushbu masalada xorijiy tajribani o‘rganish mobaynida esa ayrim chet el davlatlarida harbiy xizmatchilar uchun bu kabi o‘yinlarda ishtirok etishni taqiqlash bo‘yicha to‘g‘ridan to‘g‘ri maxsus normalar qabul qilinganligini kuzatish mumkin. Masalan, Qozog‘iston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq umumharbiy nizomlarga kiritilgan so‘nggi o‘zgarishlarga asosan xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan holatlarni istisno etgan holda harbiy xizmatchilar o‘yin muassasalariga tashrif buyurishdan o‘zlarini tiyishlari lozimligi belgilangan[9].

Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida harbiy xizmatchilarning harbiy qism (polk) joylashuvi doirasidagina qimor o‘yinlarini tashkil etishi va unda ishtirok etishi taqiqlangan[10].

Nazarimizda, mazkur masala kundan kunga jiddiy tus olib borayotganligi, jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy og‘ir oqibatlarni keltirib chiqarayotganligini va yuqoridagi ijobiy xorijiy tajribani inobatga olib milliy qonunchiligimizda davlat xizmatchilari, harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlariga xizmatni o‘tash davrida qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarda ishtirok etishni bevosita cheklash maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, hozirgi kunga kelib davlat xizmatchilari, harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari orasida qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlar, ayniqsa bu turdagi onlayn o‘yinlarda ishtirok etishning oldini olish masalalari ijtimoiy muhim va dolzarb muammoga aylanib ulgurgan hamda ushbu muammo o‘zining huquqiy tartibga solish jihatidan tez fursatda yechimini topish zarur.

Аннотация: В данной научной статье рассмотрены актуальность профилактики азартных игр и других рискованных игр среди государственных служащих, в частности, военнослужащих и сотрудников правоохранительных органов, а также ее правовые аспекты, взгляды научного сообщества по этому вопросу, виды и основания ответственности, установленные за такие правонарушения, как незаконная организация или проведение азартных и других игр, основанных на риске, анализ национального законодательства в данной сфере и существующих проблем, предложения и выводы.

Ключевые слова: азартные и другие игры, основанные на риске, государственные служащие, военнослужащие, сотрудники правоохранительных органов, правила этикета, онлайн игра.

Abstract. This scientific article examines the relevance of preventing gambling and other risky games among government officials, in particular military personnel and law enforcement officers, as well as its legal aspects, the views of the scientific community on this issue, the types and grounds of liability established for such offenses , as an illegal organization or conduct of gambling and other games based on risk, analysis of national legislation in this area and existing problems, proposals and conclusions.

Key words: gambling and other risk-based games, government officials, military personnel, law enforcement officers, etiquette rules, online games.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Поздняков К.В. Особенности предупреждения незаконной игорной деятельности в Российской Федерации/К.В.Поздняков//Вестник Восточно – Сибирского института МВД России.
2. Лимарь А.С. Предупреждение преступлений, связанных с незаконными организаций и проведением азартных игр:/А.С.Лимарь// автореферат диссертации на соискания ученой степени кандидата юридических наук.
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. https://lex.uz/docs/111453.
4. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. https://lex.uz/docs/97664.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-martdagi PQ–608-sonli “Qimor o‘yinlarini tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq noqonuniy faoliyatning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. https://lex.uz/docs/1150004.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 16-avgustdagi 176-sonli “Qimor o‘yinlarini tashkil etish va o‘tkazishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. https://lex.uz/docs/1238379.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 595-sonli qarori bilan tasdiqlangan Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalari. https://lex.uz/docs/6236838.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 9-oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy nizomlari/Sharq nashriyoti/2007/ 11 va 24-25 bet.
9. https://adilet.zan.kz/rus/docs/U2300000396.
10. https://pravoved.ru/question/1808440/

ISSN 3030-3230

ODAM O‘G‘IRLASH JINOYATINING YURIDIK TAHLILI

Ortiqov Abror Nemat o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada odam o‘g‘irlash jinoyatlari yuzasidan huquqshunoslarining keng qamrovli fikrlari atroflicha yoritilib, jinoiy qilmishning jinoyat-huquqiy tavsifi, jinoyat tarkibining obyekti va obyektiv tomonini belgilari, respublikamizda inson huquqlarini ta’minlash, jumladan shaxs erkinligi va uni o‘g‘irlashning jinoiy-huquqiy asoslarini mustahkamlash, odam o‘g‘irlash va uni kvalifikatsiya qilinishiga oid qonunchilik asoslari qisman yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: odam o‘g‘irlash, jinoyat tarkibining obyekti, zo‘rlik ishlatish, tutqunlikda ushlab turish, qiz o‘g‘irlash, g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish, shaxs ozodligi, erkinlikka tajovuz, inson erkinligi.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar sharoitida jamiyat hayotida barqarorlikni ta’minlash orqali inson huquq va erkinliklariga so‘zsiz rioya etish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish eng muhim vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston tarixida sifat va mazmun jihatdan yangi taraqqiyot davri boshlandi, mamlakatimizda davlat va boshqaruv organlari, barcha rahbarlar bundan buyon o‘z faoliyatini **“Inson-jamiyat-davlat”** va **“Inson qadri”** ezgu tamoyillar asosida olib boradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan inson qadri ulug‘langan holda **“Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi”** ishlab chiqildi, taraqqiyot strategiyasi yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat bo‘lib, ikkinchi ustuvor yo‘nalish “Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy zarur shartiga aylantirish” hisoblanadi. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi o‘zida 100 ta maqsadni mujassam etib, jumladan, 14-maqsad - Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta’minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilashni nazarda tutadi. Shuningdek Jinoyat, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirish jinoiy jazolar va ularni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etishni talab qiladi. Jinoyatlarining yuridik tahlilini o‘tkazish orqali jinoiy jazolar va ularni takomillashtirishga erishish mumkin.

Har qanday jinoyat tarkibi, shu jumladan odam o‘g‘irlash jinoyati obyektiv belgilarining yuridik tahlili jinoiy tajovuz obyektini aniqlashdan, shuningdek ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilish natijasida jinoyat obyektiga ziyon yetish mexanizmlarini o‘rganishdan boshlanadi.

Jinoyat obyekti bu - jinoyat sodir etilishi natijasida nimaga ziyon yetkazilsa yoki ziyon yetkazish xavfi tug‘ilsa, shu tushuniladi. Aksariyat tadqiqotchilar ijtimoiy munosabatlarni jinoyat obyekti sifatida e’tirof etadilar. Har qanday jinoiy qilmishni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish uchun eng avvalo, aybdor tajovuz qilayotgan obyektni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bu albatta to‘g‘ri yondashuvdir.

Jinoyat obyektlari to‘g‘risidagi ta’limotda ularni nazariy jihatdan bir necha guruhlarga bo‘lib o‘rganish taklif etiladi. Ushbu tasnifda dastlab jinoyatning umumiy obyekti – ya’ni, jinoyat qonuni (JK-2-moddasi) bilan qo‘riqlanadigan barcha ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Har qanday jinoyat singari odam o‘g‘irlash ham ijtimoiy xavflilik holatiga ko‘ra, jinoyat qonun bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar majmuiga zarar yetkazadi. Jinoyatning maxsus obyekti deb esa, “Jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy mohiyatlari jihatidan bir-biriga o‘xshash yoki yaqin bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni o‘z ichiga oladigan ijtimoiy munosabatlar guruhiga aytiladi”. Odam o‘g‘irlash jinoyatining maxsus obyekti bo‘lib esa, JK Maxsus qismi birinchi bo‘limida nazarda tutilgan normalar bilan qo‘riqlanayotgan shaxsga tegishli munosabatlar hisoblanadi.

Jinoyatning turdosh obyekti esa, jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan bir-biriga o‘xshash yoki yaqin bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarning kichik guruhlarini o‘z ichiga oladigan ijtimoiy munosabatlarga aytiladi. Shaxsning ozodligi, sha’ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar (VI bob) odam o‘g‘irlash jinoyatining turdosh obyekti hisoblanadi. Mazkur bobda odam o‘g‘irlash (137-modda) bilan bir qatorda odam savdosi (135-modda), ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishga to‘sqinlik qilish (136-modda), zo‘rlik ishlatib g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish (138-modda), tuhmat (139-modda) va haqorat qilish (140-modda) uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi bir qancha tarkibiy unsurlarni ham o‘zida jamlagan.

Ziyon yetkazilgan yoki amalda ziyon yetish xavfi tug‘ilgan aniq ijtimoiy munosabat jinoyatining bevosita obyekti deb e’tirof etiladi. Odam o‘g‘irlash jinoyatining bevosita obyektini turli tadqiqotchilar har xil belgilaydilar. Masalan, M.X.Rustambayevning yozishicha, odam o‘g‘irlashning bevosita obyekti odamlarning istagan yerda bo‘lish erkinligini kafolatlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Mazkur jinoiy qilmishining fakultativ obyekti jabrlanuvchining hayoti yoki sog‘ligi, xavfsizligi bo‘lishi mumkin, professor F.Toxirov “mazkur jinoyatning obyekti odamining erkinligi, ya’ni istagan yerida bo‘lish erkinligi, deb hisoblanadi”, deb yozadi.

R.E.Oganyan esa, insonning erkinligi va shaxsiy daxlsizligini odam o‘g‘irlash jinoyatining bevosita obyekti deb hisoblaydi. Shunga o‘xshash fikrni R.A.Adelxanyan ham ilgari suradi. U ozodlik deganda erkinlikni, o‘z manfaatlari va maqsadlariga muvofiq ish ko‘rish hamda yo‘l tanlashni amalga oshirishga qodirligini tushunadi. Daxlsizlik esa, uning fikricha, birovning amriga, xukmiga bo‘ysunish lozim bo‘lmagan holatni anglatadi.

V.I.Zubkova insonning shaxsiy erkinligini odam o‘g‘irlash jinoyatining bevosita obyekti deb hisoblaydi., S.V.Borodin esa – insonning bir joydan boshqa joyga erkin ko‘chib yurish va o‘zining bo‘lib turish joyini belgilash qonuniy huquqini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlarini kiritadi.

Yuqoridagilar asosida odam o‘g‘irlash jinoyatining bevosita obyekti sifatida insonning ozodligi ko‘rsatilishi to‘g‘risida xulosaga kelish mumkin. Ayni vaqtda bu tushuncha har xil talqin qilinadi. Odam o‘g‘irlash jinoyati bevosita obyektining tarkibiy elementlari sifatida inson qadr-qimmati va shaxsiy daxlsizligi qayd etiladi, nazarimizda, ko‘rib chiqilayotgan tushunchaning mazmuniga yanada aniqroq ta’rif berilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Tahlil qilinayotgan jinoyat tarkibining bevosita obyekti sifatida inson ozodligi bilan bir qatorda uning shaxsiy daxlsizligi ham e’tirof etish uning chegarasini sun’iy ravishda kengaytiradi. Aslini olganda “shaxsiy daxlsizlik” tushunchasi konstitutsiyaviy – huquqiy nazariyaga tegishli bo‘lib, eng avvalo davlatning shaxs qonuniy huquqlari va erkinliklarini amalga oshirishni ta’minlash majburiyatini nazarda tutgan.

Inson qadr-qimmati odam o‘g‘irlash jinoyatining bevosita obyekti sifatida ko‘rsatilish ham asosga ega emas, chunki inson qadr-qimmati mazkur jinoyatning fakultativ obyekti hisoblanadi. Odam o‘g‘irlashda hayot va sog‘liq uchun xavfli bo‘lmagan zo‘rlik ishlatilgan holda, insonning jismoniy erkinligi asosiy bevosita obyekt bo‘lib qoladi, qo‘shimcha obyekt mavjud bo‘lmaydi, shaxsning jismoniy daxlsizligi fakultativ obyekt hisoblanadi. Erkinlik tushunchasi insonning o‘z niyatlari, mayllari va manfaatlariga muvofiq faol ish ko‘rish va o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga erishish qobiliyati sifatidagi falsafiy talqinidan kelib chiqib, yuridik ma’nodagi jismoniy erkinlik deganda, insonning bir joydan boshqa joyga erkin ko‘chib yurish va o‘zining qayerda bo‘lib turish joyini erkin holda belgilash huquqini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlarni tushunish demakdir, anchagina o‘rinli bo‘ladi.

Odam o‘g‘irlash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan jinoyat – shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish deyish mumkin, uning tub manbai sanalgan insonni, shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishning o‘zi jinoyatining obyekti sifatida ko‘rish mumkin. Fikrimizcha, ushbu jinoyat sodir etilganida, jinoyat huquqi bilan qo‘riqlanadigan boshqa obyektlarga zarar yetkazilmasligi mumkin, lekin insonga doim ziyon-zahmat yetkazilishi kutiladi. Shaxs erkinligi bilan bog‘liq jinoyatlarning

ISSN 3030-3230

“shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish” degan terminning o‘ziyoq insonga eng avval zo‘rlik ishlatish bilan jismoniy yoki ruhiy zo‘rlik ishlatilishdan, ziyon-zahmat yetkazilishdan dalolat beradi.

Jinoiy harakatlarga suv, ovqat, issiqlik va hokazolardan uzoq muddat mahrum qilish ham kiradi, degan fikrga qo‘shilish qiyin, chunki odam organizmiga bunday ta’sir ko‘rsatish uning badaniga jismoniy ta’sir ko‘rsatish, jismoniy kuch ishlatish emas, balki insonni azoblash hisoblanadiki, mazkur qilmish uchun O‘zbekiston Respublikasining jinoyat qonunida alohida javobgarlik nazarda tutilmagan.

Jinoyatning umumiy, maxsus, turdosh va bevosita obyektlari bilan bir qatorda (“vertikal” tasniflash) asosiy, qo‘shimcha va fakultativ obyektlar (“gorizontal” tasniflash) ham ajratiladi. Qo‘shimcha obyektga ham muqarrar tarzda ziyon yetkaziladi, lekin u mazkur jinoyatning mohiyatini belgilamaydi va tegishli turdosh obyekt doirasida qamrab olinmaydi.

Shunday qilib, bu yerda gap bir vaqtning o‘zida ikki obyektga tajovuz qiluvchi qilmishlar haqida boradi. Bu turdagi qilmishlarga javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlarda odam o‘g‘irlashni ham kiritish o‘rinli bo‘ladi. Masalan, javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlarda odam o‘g‘irlashning qo‘shimcha obyekti inson hayoti, sog‘lig‘i va xavfsizligi hisoblanadi (O‘zR JK 137-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlari).

Inson hayoti deganda, tug‘ilgan va tirik odamning tabiiy biologik holati tushuniladi. A.X.Saidov va M.X.Rustambayevlar ta’biri bilan aytganda, “hayot – inson mavjudligining uni belgilovchi tabiiy – biologik shakli, ya’ni hayot tushunchasi – sof tabiiy tushunchadir”. Insonning fiziologik tug‘ilishini aksariyat mutaxassislar hayotning boshlanish vaqti deb, biologik o‘lim yuz bergan, ya’ni bosh miya po‘stlog‘ida orqaga qaytarib bo‘lmaydigan o‘zgarishlar sodir bo‘lgan paytni esa – hayotning oxiri deb hisoblaydilar. Boshqa xil jinoyatlardan farqli o‘laroq, jismoniy erkinlikkagina emas, balki inson hayotiga ham tajovuz qiluvchi jinoyatlar ijtimoiy xavflilik darajasiga kuchliligi yetkazilgan ziyonning muqarrarligi va o‘rnini qoplab bo‘lmasligida namoyon bo‘ladi.

Organizmning hayot faoliyatining zaruriy omili hisoblanadigan fiziologik holati inson sog‘lig‘i deb e’tirof etiladi, bunda yosh, ruhiy holat, muayyan kasalliklar yoki jismoniy nuqsonlarining mavjudligi jinoyatni tavsiflovchi ahamiyatga ega emas. Biroq ular jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkinligi e’tibordan soqit etilmaydi, ya’ni bu JK 56-moddasi birinchi qisimi tegishli bandlariga muvofiq jazoni og‘irlashtiruvchi holatlar sifatida e’tiborga olinishi maqsadga muvofiq.

Odam o‘g‘irlash jinoyatini sodir etishga hayot va sog‘liq uchun xavfli bo‘lmagan zo‘rlik ishlatilgan holda insonning jismoniy erkinligi qilmishning bevosita obyekti bo‘lib qoladi, shaxsning jismoniy daxlsizligi esa jinoyatning fakultativ obyekti bo‘ladi. Bunday vaziyatda shaxsning harakatlari faqat JK 137-moddasining birinchi qismi bilan (javobgarlikni og‘irlashtiruvchi boshqa holatlar bo‘lmagan holda) kvalifikatsiya qilinadi.

Jabrlanuvchi jinoyat-huquqiy kategoriyasi jinoiy tajovuz obyekti bilan birga tahlil qilinishi maqsadga muvofiq. Bunda inson umuman jinoyatning, shu jumladan uning jismoniy erkinligiga tajovuz qiluvchi qilmishlarining ham predmeti bo‘lishi mumkin emas, degan fikrga qo‘shilish zarur.

Odam o‘g‘irlash jinoyati sodir etilganda, yoshi, jinsi ijtimoiy kelib chiqishi yoki o‘zgacha holatidan qat’iy nazar, har qanday jismoniy shaxs jabrlanuvchi bo‘lishi mumkin. Bu aybdorning harakatlarini kvalifikatsiya qilishga, odatda, ta’sir ko‘rsatmaydi. Agar odam o‘g‘irlash homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan ayolga nisbatan, yosh bola qariya yoki ojiz ahvoldagi shaxsga nisbatan sodir etilgan bo‘lsa bular javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlar sifatida aybdorning harakatlari JK 56-moddasi birinchi qismi bo‘yicha yuridik baholanishi lozim bo‘ladi.

Odam o‘g‘irlash sodir etilganda qarindosh (masalan bola) jabrlanuvchi bo‘lishi mumkin emas, basharti shaxsda unga egalik qilish huquqi mavjud bo‘lsa. Masala, ota o‘z bolasini xotinidan “o‘g‘irlagan” bo‘lsa uning harakatlarida jinoyat tarkibi mavjud emas. Agar jabrlanuvchi “o‘g‘ri” bilan kelishib, o‘zi turar joyini ixtiyoriy tark etsa va o‘zining ozod qilinishi uchun “o‘g‘ri” b ilan birgalikda pul so‘rasa, qilmish JK 137-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinmaydi, bunda tovlamachilik (JK 165-moddasi) va firibgarlik

(JK 168-moddasi) jinoyatlarining tarkiblari mavjud bo‘ladi.

“Agar bola o‘g‘irlash uni almashtirish bilan bog‘liq bo‘lsa, aybdorning harakatlarini JK 124 va 136-moddalarining 2-qismlariga oid jinoyatlar mavjud bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi”

Shuningdek odam o‘g‘irlash o‘g‘irlanuvchining roziligi bilan sodir etilgan holda ham O‘z.Res. JKning 137-moddasida nazarda tutilgan jinoyat alomatlari mavjud bo‘lmaydi. Masalan, qozoq va qoraqalpoq millati istiqomat qiluvchi respublikaning g‘arbiy va shimoli-g‘arbiy hududlarida (qozoq va qoraqalpoq ovullarida) ba’zan “qiz o‘g‘irlash” holatlari uning o‘zi roziligi bilan yuz beradi. Ammo, bunda, “qiz o‘g‘irlash”dan ko‘zlangan maqsad nikohiga qurish emas, balki, boshqa g‘arazli maqsadlar masalan, tovon puli olish ko‘zlansa, qizning roziligisiz amalga oshirilsa aybdorni va jinoiy harakatlarni aniqlashni talab etadi. Shariatning asosiy manbalari – Qu’ron va sunnada ham odam savdosi, xususan ozod odamni qul qilib sotish, insonni majburiy mehnatga jalb qilish, ayollarni shahvoniy ekspluatatsiya qilish taqiqlangan. Shu o‘rinda agar qiz uni istamagan bo‘lsa qanday yo‘l tutish lozimligi to‘g‘risida savol tug‘ilishi juda o‘rinli masaladir. Ushbu holda muammoli bir vaziyat yuzga kelish “oddiy” odam o‘g‘irlash ijtimoiy xavfli deb topilishi, “nikohiga kirish maqsadida” odam o‘g‘irlash esa - ma’muriy huquqbuzarlik hisoblanishi mumkin. O‘z-o‘zidan ravshanki, bu taklifni o‘rinli deb bo‘lmaydi. Ammo jinoiy qilmishni va milliy odatni ajratishga urinish mazkur muammoning mavjudligidan dalolat beradi.

Hozirgi davrda voyaga yetmagan qizlarni jinsiy buzuqlikka kiritish usullari internet ijtimoiy tarmoqlarida avj olgan. Xususan AQSHda o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, ushbu mamlakatda voyaga yetmaganlarni jinsiy ekspluatatsiya qilishga oid jinoyatlar bilan sudlanganlarning 70 % o‘z qurbonlarini internet orqali topganlar, On-Line chatlari orqali aloqa qilish yordamida o‘zlarining g‘arazlik maqsadlariga osonlik bilan yetishganlar.

Jinoyat tarkibining muhim elementlaridan biri bu – obyektiv tomon hisoblanadi. Jinoyat huquqi fanida obyektiv tomon deb sodir qilingan ijtimoiy xavfli qilmishining tashqi tomoni xususiyatlarini ifodalovchi qonun tomonidan o‘rnatilgan belgilar majmuyiga aytiladi, ya’ni jinoyat sodir qilishning usul va yo‘llarini nazarda tutuvchi belgilar yig‘indisi tushuniladi. Shuningdek, ba’zida obyektiv tomon belgilariga qarab jinoyat obyekti va jinoiy qilmishining subyektiv tomoni haqida xulosa chiqarish mumkin bo‘ladi.

Odam o‘g‘irlashda shaxsni tutqunlikka olish aynan uni o‘zi ko‘nikkan mikromuhitdan ajratish va boshqa joyga ko‘chirishda ifodalanadi, aks holda aybdorning harakatlarida shaxsni tutqunlikka olish amalga oshiriladigan zo‘rlik ishlatib g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish alomatlari mavjud bo‘ladi. Shu tufayli ham odam o‘g‘irlash formal tarkibli jinoyat, ya’ni faqat qilmishni sodir etishdan iborat va tugallangan deb hisoblash mumkin.

Odam o‘g‘irlash uni tutqunlikka olish usullari har xil bo‘lishi, chunonchi: ochiqdan – ochiq yoki yashirincha zo‘rlik ishlatib, shuningdek aldash yoki ishonchli suiiste’mol qilish yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin. M.X.Rustambayev ta’biri bilan aytganda, “egallab olish deganda jabrlanuvchiga egalik qilish, uning taqdirini belgilash imkoniyatiga ega bo‘lish uchun uni shaxsiy erkinligidan mahrum qilish nazarda tutiladi”.

Adabiyotlarda shuningdek, “bosqinchilik yo‘li bilan odam o‘g‘irlash” to‘g‘risida ham so‘z yuritiladi.

Odam o‘g‘irlashning yashirin usuli shundan iboratki, odamni tutqunlikka olish vaqtida yuz berayotgan voqea shohidlari mavjud bo‘lmaydi yoki ular aybdor harakatlarining haqiqiy mazmunini o‘z vaqtida anglay olishmaydi. Jabrlanuvchi o‘zining harakatlari cheklanganligini bir muncha vaqt, bir necha kun o‘tib bilishi mumkin, bunda aybdorning qanchalik yolg‘on va ishonchni suiiste’mol qilganligiga bog‘liq.

Odam o‘g‘irlashning aldash usuli jabrlanuvchini yuz berayotgan voqeaning haqiqiy holatlari xususida chalg‘itishdan iborat bo‘ladi. Mazkur usulda odam o‘g‘irlashining birinchi bosqichida jabrlanuvchi o‘zining o‘g‘irlanganini anglamaydi. Bunda aldash faol bo‘lishi ham, passiv bo‘lishi ham mumkin. Birinchi holda aybdor (aybdorlar) jabrlanuvchiga yolg‘onligi

ISSN 3030-3230

ayon bo‘lgan ma’lumotlarni beradilar, masalan uning yaqin qarindoshi tuzalib bo‘lmas kasallikka chalinib, kasalxonaga yotqizilganini aytishlari va tezda yetib kelishini so‘raganligi kabi holatlar. Passiv aldash aniq vaziyatda jinoyatchi aytishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarni jabrlanuvchidan yashirishda ifodalanishi mumkin. A.I.Toshpo‘latov “passiv aldash shundan iborat bo‘ladiki, aybdor jabrlanuvchini o‘z hatti – harakatlarini tanlash erkinligidan mahrum qilish maqsadida unga aytishi shart bo‘lgan ma’lumotlarni undan yashiradi”, deb tushuntiradi, bu fikr ancha o‘rinli.

Jabrlanuvchi bilan yaqin tanish yoki tanishmoqchi bo‘lgan shaxs tomonidan spirtli ichimliklar, narkotik vositalari, odamni sarxush qiluvchi psixotrop moddalarni ixtiyoriy ravishda iste’mol qilgan holda uni mastlik holatiga yetkazish orqali ham zo‘rlik ishlatmasdan shaxsni tutqunlikka olinish mumkin.

Odam o‘g‘irlashda ishonchni suiiste’mol qilishda aybdor o‘zi va jabrlanuvchi yoki o‘zga shaxslar o‘rtasidagi amalda yuzaga kelgan ishonchli munosabatlardan ustalik bilan foydalanishida ifodalanadi. Ishonchni suiiste’mol qilish aksariyat hollarda bolalarni, shuningdek ruhiy nuqsoni bo‘lgan yoxud taqdiridan nolib yurgan yordamga muhtoj shaxslarni o‘g‘irlashda yuz beradi.

Zo‘rlik ishlatish jinoyat huquqida qo‘llaniladigan tushuncha sifatida Konstitutsiyamizda kafolatlangan shaxsiy daxlsizlikning buzilishiga sabab bo‘ladigan, ma’lum bir shaxsning ikkinchi shaxsga nisbatan ruhiy yoki jismoniy ta’sir o‘tkazishi azoblashi hisoblanadi. Jismoniy zo‘rlik kishi badaniga bevosita ta’sir etishda, ruhiy zo‘rlik badanga yoki jabrlanuvchining eng yaqin kishisiga muayyan ta’sir qilish bilan qo‘rqitishda ifodalanadi, zo‘rlik faqat jabrlanuvchining o‘ziga nisbatan emas, yaqin kishilariga nisbatan ham ishlatilishi yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitib, sodir etilishi mumkin bunga qonun ishlamasligi sifatida izoh berish o‘rinliroqdir.

Zo‘rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlar xususida ko‘pincha qasddan odam o‘ldirish, terroristik akt, xalqaro himoya huquqi bor shaxsga tajovuz qilish, qasddan sog‘liqqa og‘ir shikast yetkazish, jismoniy azob berish noqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish, shaxsni garovga olish, boshliqqa nisbatan zo‘rlik ishlatish kabilardan iboratligi belgilangan.

Q.P.Payzullayev ta’kidlaganidek, “zo‘rlik – bu shaxs tomonidan boshqa inson hoxish – irodasiga qarshi holda jismoniy yoki ruhiy jarohat yetkazish mumkin bo‘lgan hamda uning erki yoki harakatlarini, uning hoxish – irodasini cheklaydigan g‘ayriqonuniy ta’sir ko‘rsatishdir”.

Jinoyat huquqi nazariyasida zo‘rlik ishlatish jabrlanuvchiga jismoniy ta’sir o‘tqazishdangina iborat emas, ruhiy zo‘rlik ishlatish hollari ham mavjud.

Q.P.Payzullayev e’tirof etganidek “ruhiy zo‘rlikka ham ilmiy va qonunchilik nuqtai nazardan aniq ta’rif berishi lozim. Uni faqat jismoniy zarar yetkazish bilan qo‘rqitish belgisi bilan chegaralanib qo‘yish maqsadga muvofiq emas, chunki buning na’tijasida fuqarolar turli xil ruhiy ta’ziqdan, ularning erkiga qonunga xilof ta’sir o‘tkazishdan va boshqa ruhiy tajovuzlardan huquqiy jihatdan himoyalanmay qoladi”.

Zo‘rlik ishlatishning o‘zigina emas, balki uni ishlatish bilan qo‘rqitish ham jinoyat – huquqiy mazmun jasb etadi. Zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish shaxsni qarshilik ko‘rsatishdan voz kechishiga majburlash va uning irodasini hayot va sog‘liq uchun xavfli yoki xavfsiz bo‘lgan ziyon yetkazish og‘zaki yoki o‘zgacha tarzda va’da qilish, ziyon yetkazishga qodir predmetlar (masalan, o‘qotar qurol, to‘qmoq kastet, pichoq, xanjar va sh.k)ni ko‘rsatish yoxud kuch ishlatilishi mumkinligiga ishora qiluvchi harakatlarni bajarish yo‘li bilan so‘ndirish maqsadida shaxsga g‘ayriqonuniy ruhiy ta’sir o‘tkazish sifatida tasniflanishi mumkin. Bunday ta’sir o‘tkazish, do‘pposlash, sog‘liqqa shikast yetkazish, nomusga tegish o‘ldirish bilan qo‘rqitish ham o‘z ichiga olishi mumkin.

Odam o‘g‘irlash jinoyatining ijtimoiy xavfli oqibatlari turli xil bo‘lishi mumkin va bu aybdorning harakatlarini kvalifikatsiya qilishga ta’sir ko‘rsatmaydi. JK 137-moddasining javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat sanalgan qilmishning og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lishi bundan mustasno albatta.

Odam o‘g‘irlash jinoyati obyektiv tomonining fakultativ belgisi sanalgan jinoyat sodir etilgan joy ham sodir etilgan qilmishni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas. Shu bilan bir vaqtda odam o‘g‘irlash jinoyati sodir etilgan joy qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi kuchliligidan dalolat berishi va jazo tayinlashda e’tiborga olinishi ham mumkin. Masalan, odam o‘g‘irlash jinoyati suv yoki havo kemasining bortida, ozodlikdan mahrum qilish joylarida sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Shunday qilib, xulosa o‘rnida aytganda, o‘g‘irlangan insonni zo‘rlik ishlatish yo‘li bilan ushlab turish joylari turar joylar, ofis va savdo obyektlari, yarim tayyor bitmagan inshootlar, xo‘jalik binolari, omborlar, transport vositalari, shuningdek maxsus moslashtirilgan yerto‘lalar, kameralar va hokazolar bo‘lishi mumkin. odatda, bunday joylar oldindan tanlanadi, ba’zan eski jinoiy sheriklar, yaqin tanishlar yoki qarindoshlarning uylari, dala hovlilari, fermalari, shiypon va chorbog‘lari, chala qurilgan imoratlari, yerto‘lalari kabilardan foydalaniladi. Odam o‘g‘irlash jinoyatining obyektiv belgilariga bag‘ishlangan tahlilimizni yakunlar ekanmiz, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida odam o‘g‘irlash tushunchasining mazmuniga ta’rif berilmagani bois, Jinoyat kodeksi 137-moddasida odam o‘g‘irlash tushunchasiga quyidagi mazmunda aniq ta’rif berish lozim:“shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish alomatlari bo‘lmagan holda insonni uning hoxish – irodasiga zid ravishda zo‘rlik ishlatish, zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish yoki aldash yo‘li bilan bir joydan boshqa joyga ko‘chirish va kelgusida tutqunlikda ushlab turish maqsadida g‘ayriqonuniy qo‘lga olish”. Mazkur yondashuv mutlaqo ahamiyatli bo‘lib, chunki u jinoiy qilmishlarning aniq tasniflanishi va jazoning muqarrarligi prinsipini amalga oshirishni ta’minlaydi.

ЮРИДИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРЕСТУПЛЕНИЯ ПОХИЩЕНИЯ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация. В статье подробно освещается широкий круг мнений юристов по поводу преступлений похищения человека, дается уголовно-правовая характеристика преступного деяния, признаки объекта и объективной стороны состава преступления, законодательные основы обеспечения прав человека в нашей республике, включая закрепление уголовно-правовых основ свободы личности и ее похищения, похищение человека и его квалификация.

Ключевые слова: похищение человека, объект состава преступления, применение насилия, содержание в плену, похищение девушки, незаконное лишение свободы, посягательство на свободу личности, свободу человека.

LEGAL ANALYSIS OF THE CRIME OF KIDNAPPING

Abstract. The article covers the comprehensive opinions of jurists on the crimes of kidnapping, the criminal-legal description of the criminal act, the signs of the object and the objective side of the crime, the provision of human rights in our republic, including the freedom of the individual and his kidnapping. Strengthening of the criminal legal framework, the legal basis of kidnapping and its qualification are partially explained.

Key words: kidnapping, object of crime, use of force, holding in captivity, girl abduction, illegal deprivation of liberty, personal freedom, violation of freedom, human freedom.

ISSN 3030-3230

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2022.-B.9.
2. Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi .Umumiy qism.darslik.-Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.-B.151-152.
3. Rustambayev M.X. Odam savdosi: Milliy qonunchilik va xorijiy tajriba.Monografiya // ma’sul muharrir: yu.f.d., prof. Abdurasulova Q.R.-T.:O‘z.Res.HTI, 2019.-25.
4. Rustambayev M.X.O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism.III Tom - Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2021.-B.210.
5. Rustambayev M.X.O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Huquqi kursi. Maxsus qism.III Tom - Toshkent: Complex Print, 2018.-B.256-257.
6. Rustambayev M.X.O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharh. Maxsus qism. - Toshkent: Adolat, 2016.-B.155.
7. Рустамбаев М.Х. Преступлиния против личности.-Тошкент:Эльднур,1998.-С.45.
8. Rustambayev M.X., Saidov A.X. Yashash xuquqi va O‘zbekistonda o‘lim jazosining bekor qilinishi.- Toshkent: O‘zbekiston, 2008.- B.8.
9. Рустамбаев М.Х. Курс уголовного права Республики Узбекистан. Особенная часть. Том 3: Преступления против личности. Преступлиния против мира и безопасности.Учебник для ВУЗов.-Тошкент:ТГЮИ, 2008.-С.268.
10. O‘razaliyev M.Q.Jinoyatchilik bilan aloqador bo‘lgan ijtimoiy salbiy hodisalarning sabablari va ularni oldini olish. //Monografiya.-T.:TDYU, 2017.-56.
11. www.ziyouz.com kutubxonasi. O‘zbekiston milliy ensklopediyasi.
12. Ochilov X. Savollar va javoblar. Jinoyat huquqi (Umumiy qism) O‘quv-uslubiy qo‘lanma/ ma’sul muharir: prof. Taxirov F.-Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.-B.25-29.
13. Taxirov F. Shaxsga qarshi jinoyatlar va ularning yuridik tahlili. Ma’sul muharirlar: Boboyev H., Rustambayev M. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.-B.122.
14. Payzullayev Q.P. Zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurash muammosi // TDYI Axborotnomasi.-Toshkent, 2009.-№7.- B.53.
15. Payzullayev Q.P. Zo‘rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlar/ Ma‘sul muxarrir: prof/ Taxirov F. Monografiya.- Toshkent: TYUDI, 2009.- B. 19, 24, 56-57.
16. Оганян Р.Э. Похищение человека: историчиские и правовые проблемы.-М.,2001-С.18.
17. Курс уголовного права.Т.3. Особенная часть / Под ред. Борзенкова Г.Н. и Комиссарова В.С.-М.,2002.-С.214.
18. Уголовное право. Часть Общая. Часть Особенная/ Под ред. Гаухмана Л.Д., Колодкина Л.М. и Максимова С.В.-М., 1998,-С,345
19. Almasov F. Falsafa yoxud fikrlash san’ati/ Ma’sul muharrir: Davronov Z.-Toshkent: Noshir, 2008.- B.142.
20. Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации/ Под ред.В.Т.Томинаю, В.С.Устинова и В.В.Сверчкова.- М., 2002.- С.294.
21. Шаропов Р.Д. Физическое насилие в уголовном праве.-СПб., 2001.- С. 184.
22. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Mualliflar jamoasi. -Toshkent: Adolat,1997.-B.169-170.
23. Toshpo‘latov A.I. Yolg‘on guvohlik uchun jinoiy javobgarlik muammolari: yurid. fan.nom. …diss.avtoref.-Toshkent:TDYI, 2008-B.12.
24. Toychiyev N. Zo‘rlik bilan sodir etiladigan jinoyatlar. O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi. Toshkent: Adolat. 2009.-B.200.

MAXSUS FOYDALANISH HUQUQI TAMOYILLARI VA ULARNING EKOLOGIK QONUN HUJJATLARIDA IFODALANISHI

Qurbonov Sobir Sultonovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada maxsus foydalanish huquqi tamoyillari va ularning ekologik qonunchilik hujjatlarida ifodalanishining rivojlanish bosqichlari, qonunchilikdagi tabiiy resurslardan maxsus foydalanish huquqi tamoyillari tahlili hamda muallif qarashlari bayon etildi.

Kalit so‘zlar: tabiiy resurslar, maxsus foydalanish, yer, ishlab chiqarish, atrof-tabiiy muhit, inson, ekologiya, tabiatni muhofaza qilish.

Tabiiy resurslardan foydalanish jarayonida vujudga keladigan munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi zamirida tabiiy resurslardan foydalanishning mohiyatini ifodalovchi prinsiplar yotadi. Tabiiy resurslardan foydalanish sohasidagi prinsiplar ekologik qonunchilik normalarda ifodalanadi va bu boradagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Mamlakatimiz ekologiya huquqida tabiiy resurslardan foydalanishga oid prinsiplarning rivojlanish tarixini shartli ravishda mustaqillikka qadar bo‘lgan davr va milliy qonunchilik davriga ajratish mumkin.

Jumladan, mustaqillikka qadar bo‘lgan davrdagi tabiiy resurslardan foydalanish borasidagiprinsiplarsobiqSSSRKonstitutsiyasida ifodalanib, ular “1) atrof tabiiy muhitni qo‘riqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish prinsipi; 2) ekologik siyosatda joriy va kelajak avlod odamlarining manfaatlarini asos qilib olish prinsipi; 3) atrof tabiiy muhitni qo‘riqlash vazifalarining umumxalq va umumdavlat xususiyat kasb etishi prinsipi; 4) davlat atrof tabiiy muhitni himoya qilish faoliyatining rejaliligi va atrof tabiiy muhitni himoya qilish va tabiiy resurslardan foydalanishga oid amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuining kompleksliligi; 5) xalq xo‘jaligi iqtisodiy manfaatlarining va atrof tabiiy muhitni himoya qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va insonlar atrof muhitini sog‘lomlashtirishning o‘zaro uyg‘unlashganligi prinsipi; 6) atrof tabiiy muhitni himoya qilish munosabatlarida sotsialistik qonuniylikka rioya qilish prinsipi; 7) davlat tashqi siyosat prinsiplarining planetar muhit ekologik himoyasining manfaatlari bilan birligi prinsipi”dan [1] iborat bo‘lgan.

O‘zbekiston mustaqilligidan keyingi, milliy qonunchilik davridagi atrof tabiiy muhitni qo‘riqlash va tabiiy resurslardan foydalanish borasidagi prinsiplar qayta shakllandi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunida va boshqa ekologiya sohasidagi qonun hujjatlarida o‘z ifodasini topdi.

Xususan, ushbu Qonunning 4-moddasidagi tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish uchun davlat hokimiyati mahalliy idoralari, vazirliklar va idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermerlik va kooperativ xo‘jaliklar, shuningdek ayrim shaxslar xo‘jalik, boshqaruv hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish jarayonida amal qilishlari kerak bo‘lgan qoidalar bir qator mualliflar tomonidan tabiiy resurslardan foydalanishning asosiy prinsiplari sifatida e’tirof etiladi [2].

Bu prinsiplar quyidagilardan iborat: 1) insonning yashash muhiti bo‘lmish biosfera va ekologiya tizimlari barqarorligini saqlab qolish, odamlarning ekologik jihatdan xavfsizligi, inson va uning kelgusi avlodlari genetik fondi haqida g‘amxo‘rlik qilish; 2) fuqarolarning hayot uchun qulay tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqini ta’minlash, barcha turdagi ta’lim muassasalarida ekologiya o‘quvining majburiyligi; 3) jamiyatning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini ilmiy asoslangan holda uyg‘unlashtirish; 4) tabiatdan maxsus

ISSN 3030-3230

foydalanganlik uchun haq to‘lash va umumiy asoslarda foydalanganlik uchun haq to‘lamaslik; 5) ekologiya ekspertizasi o‘tkazishning majburiyligi; 6) tabiatdan oqilona foydalanishni va tabiatni muhofaza qilishni rag‘batlantirish; 7) tabiiy resurslarni tiklash zarurligi, atrof tabiiy muhit va inson sihat-salomatligi uchun zararli, tiklab bo‘lmas oqibatlarga yo‘l qo‘ymaslik; 8) tabiatni muhofaza qilish vazifalarini hal etishda oshkoralik; 9) tabiatni muhofaza qilish sohasida milliy, regional va xalqaro manfaatlarni uyg‘unlashtirish; 10) tabiatni muhofaza qilish qonunlari talablarini buzganlik uchun javobgar bo‘lish.

Ekolog-huquqshunos olim J.T.Xolmo‘minov tabiiy resurslardan foydalanishdagi ushbu prinsiplarni asosiy prinsiplar sifatida e’tirof etib o‘tgan [3].

Ba’zi mualliflar esa bu prinsiplarga qo‘shimcha ravishda tabiiy resurslardan foydalanishga aloqador va tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan boshqa prinsiplarni ham ilgari suradilar.

Jumladan, N.R.Axmanov 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan Yer kodeksining 2-moddasida ko‘rsatilgan “Yer to‘g‘risida”gi qonun hujjatlarining asosiy prinsiplarini ham tabiiy resurslardan foydalanish prinsiplari qatoriga qo‘shadi [4] hamda ularga “1) eng muhim tabiiy resurs, fuqarolar hayotiy faoliyatining asosi tariqasida yer fondini asrash, tuproq sifatini yaxshilash hamda uning unumdorligini oshirish; 2) yerlardan oqilona, samarali va belgilangan maqsadda foydalanishni ta’minlash; 3) qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlarning, eng avvalo sug‘oriladigan yerlarning alohida muhofaza etilishini, kengaytirib borilishini hamda ulardan qat’iy belgilangan maqsadda foydalanishni ta’minlash; 4) qishloq xo‘jaligi yerlarining unumdorligini oshirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hamda yerlarni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishni davlat yo‘li bilan va boshqa tarzda qo‘llab-quvvatlash; 5) yerga va butun atrof tabiiy muhitga zarar yetkazilishining oldini olish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash; 6) yerga egalik qilish va undan foydalanish shakllarining xilma-xilligi, yer munosabatlari ishtirokchilarining teng huquqliligini ta’minlash hamda ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya etish; 7) yerdan foydalanganlik uchun haq to‘lash; 8) yerlarning holati haqidagi axborotning to‘liq bo‘lishini hamda undan erkin foydalanishga yo‘l qo‘yilishini ta’minlash” [5].

Shuningdek, N.R.Axmanov O‘zbekiston Respublikasining “Yer kodeksi”da va “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunida ko‘rsatilgan umumiy prinsiplar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatning barcha xususiyatlarini to‘la o‘zida mujassamlashtirganligini ta’kidlash qiyinligini e’tirof etib, shu munosabat bilan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda tabiiy resurslardan foydalanishga oid quyidagi prinsiplarni ham qo‘shimcha ravishda ilgari surish mumkinligi haqida fikr yuritadi va ularni quyidagicha izohlaydi: 1) tadbirkorlarning tabiiy resurslardan foydalanishidagi hududiy daxlsizligi; 2) qonun asosida berilgan va foydalanayotgan tabiiy resurslarni davlat apparati hamda qonunda belgilangan talab asosida foydalanish; 3) tabiiy resurslardan foydalanishda tadbirkorlar faqatgina o‘zining emas, balki davlat manfaatini inobatga olishi; 4) tadbirkorlik faoliyatida tabiiy resurslardan foydalanishda xorijiy tadbirkorlik tajribalaridan keng foydalanishlari; 5) mustaqil iqtisodiy faoliyat jarayonida tabiiy resurslardan noto‘g‘ri foydalanishda yuridik javobgarlikning mavjudligi; 6) tabiiy resurslardan foydalanishda o‘z daromadlari to‘g‘risida deklaratsiya berilishi va olingan daromadga yarasha soliqlar to‘lashi lozimligi; 7) tabiiy resurslardan foydalanishda huquq va majburiyatlarning birligi va boshqalar [6].

Tabiiy resurslardan foydalanishga oid prinsiplar bir qator qonun hujjatlarida o‘z ifodasini topgan. Ushbu qonun hujjatlarida ifodalangan tabiiy resurslardan maxsus foydalanishning prinsiplarini shakllantiruvchi va tabiiy resurslardan foydalanishning mohiyatini ifodalovchi quyidagi vazifalar va qoidalarni keltirib o‘tamiz:

O‘zbekiston Respublikasining “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunidagi: 1) atmosfera havosining tabiiy tarkibini saqlash; 2) atmosfera havosiga zararli kimyoviy, fizikaviy, biologik va boshqa xil ta’sir ko‘rsatilishining oldini olish hamda kamaytirish; 3) davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish kabi atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunchilikning asosiy vazifalari sifatida mustahkamlanganligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) qonunida 1) hayvonot dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish ruxsatnomalar asosida haq evaziga

amalga oshirilishi; 2) maxsus foydalanish uchun ruxsatnoma belgilangan tartibda, tasdiqlangan kvotalar doirasida berilishi; 3) yovvoyi hayvonlarning tur bo‘yicha xilma-xilligini va ular tabiiy galalarining hamda zotga oid turlarining bir butunligini tabiiy erkinlik holatida saqlab qolish; 4) yovvoyi hayvonlarning yashash muhiti, urchish joylari va ko‘chib o‘tish yo‘llarini saqlab qolish; 5) yovvoyi hayvonlardan oqilona foydalanish, ularni tiklash va takror ko‘paytirish; 6) yovvoyi hayvonlarning sonini tartibga solish belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) qonunida:

1) o‘simlik dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish ruxsatnomalar asosida haq evaziga amalga oshirilishi;

2) maxsus foydalanish uchun ruxsatnoma belgilangan tartibda, tasdiqlangan kvotalar doirasida berilishi;

3) o‘simlik dunyosining yashash faoliyati uchun qulay sharoitlarni ta’minlash;

4) uning yo‘q qilib yuborilishining yoki unga boshqacha zararli ta’sir ko‘rsatilishining oldini olishga qaratilishi;

5) o‘simlik dunyosining turlari xilma-xilligini va genetik fondini tabiiy sharoitlarda saqlab qolish;

6) o‘simlik dunyosi o‘sadigan muhitni saqlab qolish;

7) o‘simlik dunyosidan oqilona foydalanish, uni tiklash va takror ko‘paytirish;

8) yovvoyi holda o‘suvchi o‘simliklarning tarqalishini va sonini tartibga solish mustahkamlangan.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘simliklarni himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunida 1) qonuniylik; 2) inson sog‘lig‘i va atrof-muhit xavfsizligining ustuvorligi; 3) tizimlilik va uzluksizlik; 4) biologik usulni qo‘llash ustuvorligi; 5) ochiqlik va shaffoflik o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi asosiy prinsiplar sifatida alohida normada mustahkamlangan.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) qonunida 1) o‘rmonlarni muhofaza qilish, himoya qilish, ko‘paytirish, takroriy ko‘paytirish, qayta tiklash, ularning mahsuldorligini oshirish; 2) o‘rmonlarga salbiy ta’sirlarning oldini olishga qaratishga oid maqsad va qoidalar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunida 1) aholi va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlari uchun suvlardan oqilona foydalanishni ta’minlash; 2) suvlarni bulg‘anish, ifloslanish va kamayib ketishdan saqlash; 3) suvlarning zararli ta’sirining oldini olish hamda ularni bartaraf etish; 4) suv obyektlarining holatini yaxshilashdan, shuningdek suvga doir munosabatlar sohasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermer, dehqon xo‘jaliklari hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kabi asosiy vazifalar sifatida mustahkamlangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi (yangi tahrirdagi) qonunida 1) mineral xom ashyoga bo‘lgan talablarni hamda boshqa ehtiyojlarni qondirish uchun yer qa’ridan oqilona, kompleks foydalanilishini, yer qa’ri, atrof muhit muhofaza qilinishini, yer qa’ridan foydalanilayotganda ishlarning bexatar olib borilishini ta’minlash, 2) yer qa’ridan foydalanuvchilarning huquqlarini muhofaza qilishdan, shaxs, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish sifatida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi qonunida 1) tipik, noyob, qimmatli tabiiy obyektlar va majmualarni, o‘simliklar va hayvonlarning irsiy fondini saqlab qolish; 2) inson faoliyatining tabiatga salbiy ta’sir ko‘rsatishi oldini olish; 3) tabiiy jarayonlarni o‘rganish; 4) atrof tabiiy muhit monitoringini olib borish; 5) ekologik ma’rifat va tarbiyani takomillashtirish kabi qoidalarda ifodalangan.

Yuqoridagi alohida qonunlarda ifodalangan vazifa va qoidalarga, ularning tabiiy resurslardan maxsus foydalanish jarayonidagi o‘ziga xos xususiyatlar o‘z mazmunini ifodalangan.

Atrof tabiiy muhitni qo‘riqlash va tabiiy resurslardan foydalanish borasidagi asosiy prinsiplar ifodalangan O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasida ta’kidlangan insonning yashash muhiti bo‘lmish biosfera va ekologiya tizimlari barqarorligini saqlab qolish, odamlarning ekologik jihatdan xavfsizligi, inson va uning kelgusi avlodlari genetik fondi haqida g‘amxo‘rlik qilish; fuqarolarning hayot uchun qulay tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqini ta’minlash kabi prinsiplarning muayyan davr mobaynida shakllanib kelganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

ISSN 3030-3230

Bu borada O.S.Kolbasov tomonidan “inson sog‘lig‘i va hayotining himoya qilinishi ustuvorligi; aholi yashashi, mehnat qilishi va dam olishi uchun mo‘tadil ekologik shart-sharoitlarning ta’minlanishi” prinsipining XX asrning 70-yillaridayoq e’tirof etilishi diqqatga sazovor [7].

Bu borada N.N.Vedenin tomonidan ham bir qator prinsiplar ilgari surilgan bo‘lib, ular: 1) tabiiy resurslardan foydalanish huquqi mulk huquqidan alohidaligi prinsipi: bunga ko‘ra mulk egasi va tabiiy resurslardan foydalanuvchi alohida shaxslar bo‘ladi. Masalan, davlat o‘zining vakolatli mansabdor organi shaxsida muayyan tabiat obyektining egasi bo‘lishi mumkin, biroq bu vakolatidan kelib chiqib, tabiat obyektini foydalanishga boshqa shaxsga topshirishi mumkin; 2) tabiiy resurslardan foydalanish oqilona ravishda amalga oshirilishi kerak, ya’ni ekspluatatsiya qilinayotgan tabiat resursidan eng maksimal darajada ko‘proq foyda olinishi va bu foydalanish boshqa tabiat obyektlari bilan hamohang ravishda, ularning holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasdan amalga oshirilishi lozim; 3) tabiiy resurslardan foydalanish maqsadli xususiyat kasb etishi lozimligi prinsipi: muayyan tabiat resursidan foydalanish uchun ruxsatnoma (litsenziya) rasmiylashtirilishi jarayonida bunday foydalanish qanday maqsadlarni ko‘zlab amalga oshirilishi aniq ko‘rsatilishi lozim (masalan, yer osti boyliklaridan foydalanishga litsenziya yoki suvdan maxsus foydalanishga ruxsatnoma) bo‘lib, amaldagi qonunchilik va maxsus normalar qonun-qoidalarida ko‘rsatilgan maqsadlardan chetga chiqqan holda tabiiy resurslardan foydalanish ekologik-huquqiy normalarning buzilishi sifatida baholanishi lozim; 4) tabiiy resurslardan foydalanishning tekinligi va haq evazigaligi prinsipi shuni anglatadiki, har qanday sub’ekt tabiiy resurslardan maxsus foydalanib o‘z faoliyatini amalga oshirar ekan bunday harakatlarni amalga oshirganligi uchun qonun bilan belgilangan to‘lovlarni to‘lashi lozim. Tabiiy resurslardan foydalanishning tekinligi tabiiy resurslardan umumiy asoslarda foydalanuvchilargagina taalluqlidir; 5) tabiiy resurslardan foydalanish jarayonida tabiiy resurs sifatini yomonlashtirganligi uchun to‘lov to‘lash: har qanday tabiiy resurslardan foydalanuvchi biror-bir tabiiy resursdan uning sifatiy holati yomonlashuviga olib kelgan usullarda foydalangan taqdirda o‘z harakatlari uchun qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan miqdordagi pul summasini to‘lashi shart; 6) tabiiy resurslardan samarali foydalanishni tashkillashtirish prinsipi davlat tomonidan maxsus vakolatli organi shaxsida tabiiy resurslardan foydalanish faoliyatini amalga oshirish jarayonida eng kam moddiy sarflashlar orqali yuqori sifat ko‘rsatkichiga erishgan tabiiy resurslardan foydalanuvchilarni rag‘batlantirishga oid chora-tadbirlar majmuining mavjud ekanligini anglatadi. Masalan, yuridik va jismoniy shaxslarga soliq imtiyozlarini taqdim etish yoki imtiyozli asoslarda kredit mablag‘larini ajratish; tabiiy resurslardan foydalanishni me’yorlash va limitlash: tabiiy resurslardan yanada samaraliroq foydalanishni tashkil etish maqsadida davlat tomonidan maxsus vakolatli organi shaxsida amalga oshiriladi [8].

O‘rganilgan prinsiplardan kelib chiqib bizningcha, tabiiy resurslardan foydalanish borasidagi O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasida ko‘rsatilgan prinsiplarni alohida ravishda quyidagicha 1) tabiiy resurslardan umumiy foydalanish prinsiplari va 2) tabiiy resurslardan maxsus foydalanish prinsiplari va 3) tabiiy resurslardan birgalikda foydalanishning umumiy prinsiplari sifatida ajratib ko‘rsatib belgilab berish tabiiy resurslardan foydalanuvchilarning mas’uliyatini yanada oshiradi hamda tabiiy resurslardan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlarini belgilashda bir qator qulayliklar yaratadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasida ko‘rsatilgan prinsiplar va boshqa atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish, jumladan maxsus foydalanishni tartibga solishga qaratilgan bir qator qonun hujjatlarida ekologiya sohasida xalqaro huquq normalarining, jumladan umumyevropa ekologiya siyosati prinsiplarining ba’zi jihatlarini inobatga olgan holda aks ettirish tabiiy resurslardan maxsus foydalanish borasidagi milliy qonunchiligimiz prinsiplarining yanada samarali bo‘lishini ta’minlashga xizmat qilardi.

Yuqorida ta’kidlangan prinsiplarda mustahkamlangan qoidalarga tabiiy resurslardan maxsus foydalanish jarayonida rioya qilinishi tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni, tabiiy resurslardan maxsus foydalanish borasidagi huquq va majburiyatlarning himoya qilinishini ta’minlaydi.

Аннотация. В статье рассмотрены принципы права специального пользования и этапы развития их выражения в природоохранном законодательстве, а также ппривedён анализ принципов права специального природопользования в законодательстве и изложена точка зрения автора.

Ключевые слова: природные ресурсы, специальное использование, земля, производство, окружающая среда, человек, экология, охрана природы.

Abstract. The article examines the principles of the right of special use and the stages of development of their expression in environmental legislation, as well as provides an analysis of the principles of the right of special use of natural resources in legislation and sets out the author's point of view.

Key words: natural resources, special use, land, production, environment, people, ecology, nature conservation.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Петров В.В. Правовая охрана природы в СССР. – М.: Юридическая литература, 1984. – С. 20-22.
2. Экологическое право Республики Узбекистан. – Ташкент: ТДЮИ, 2006. – С. 36-37.
3. Xolmo‘minov J.T. O‘zbekiston Respublikasining ekologiya huquqi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2003. – B. 10-11.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 1998. – № 5-6. – 82-modda.
5. Axmanov N.R. Tadbirkorlarning tabiiy resurslardan foydalanish huquqini tartibga solish muammolari: yurid. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2007. – B. 29-30.
6. Axmanov N.R. Tadbirkorlarning tabiiy resurslardan foydalanish huquqini tartibga solish muammolari: yurid. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2007. – B. 31.
7. Колбасов О.С. Научные основы будущего союзного закона об охране окружающей среды // Окружающая среда и право. – М., 1977. – С. 11.
8. Веденин Н.Н. Экологическое право: Вопросы и ответы. – М.: Новый Юрист, 2007. – С. 59.

ISSN 3030-3230

MAXSUS BILIMLAR HAQIDA FAN – SUD EKSPERTSHUNOSLIGI: tushunchasi, mazmuni va tuzilishi

Bababekov Nodir Djurabayevich
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada maxsus bilimlardan foydalanish nazariyasi va amaliyoti, maxsus bilimlardan foydalanishning shakllari o‘rganilgan hamda maxsus bilimlarni qo‘llash faoliyati doirasida o‘zaro uyg‘unlashgan sud ekspertiza instituti, mutaxassisning ishtiroki va boshqalar odil sudlov jarayoni va boshqa protsessual faoliyatining turlaridan qat’iy nazar, lekin ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda bugungi kunda yagona, muvofiqlashtirilgan huquqiy tartibga solishga juda muhtojligi asoslangan. Mavzu bo‘yicha olimlarning nazariy qarashlari va sud ekspertlik amaliyotining tahlillariga asoslanib hamda yuridik atamalarni qo‘llash faoliyatini soddalashtirish maqsadida, sud ekspertizasi institut va ekspertning huquqiy maqomi instituti, mutaxassisning ishtiroki instituti va boshqalarning huquqiy, protsessual, uslubiy va tashkiliy asoslarini yaxlit bir butun – maxsus bilimlardan foydalanishning makro-institutining bir qismi deb hisoblash taklif qilingan hamda ushbu sanab o‘tilgan institutlar “Sud ekspertshunosligi fani” doirasida o‘rganilishi lozimligi asoslangan. Mavzu bo‘yicha olimlarning nazariy qarashlari va sud ekspertlik amaliyotining tahlillariga asoslanib, ushbu fanning predmeti, tuzilishi va obyekti taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: maxsus bilimlar, makro-institut, sud ekspertiza instituti, maxsus bilimga ega shaxsni so‘roq qilish instituti, mutaxassisning ishtiroki instituti, tarmoqlararo ekspertiza huquqiy instituti, sud ekspertizasi umumiy nazariyasi, sud ekspertshunosligi fani, sud ekspertshunosligining predmeti, sud ekspertshunosligining tuzilishi (tizimi), sud ekspertshunosligining obyekti.

Juda ko‘plab davlatlarda maxsus bilimlardan foydalanish nazariyasi va amaliyoti maxsus bilimlardan foydalanishning ikki shakli (protsessual va noprotsessual) hamda ushbu shakllar doirasida ko‘plab boshqa shakllar mavjudligini tasdiqlaydi.

Maxsus bilimlardan foydalanishning protsessual shakldagi turlari quyidagilardan iborat: sud ekspertizasi (yoki sudga oid ekspertiza) – odil sudlovning turlicha protsesslarida; ekspertiza – soliq, bojxona, notarial faoliyat va ijro protsessida; tergov, sud va boshqa protsessual harakatlarda mutaxassisning, shu jumladan tarjimon (surdo-tarjimon), pedagog va psixologning ishtiroki; mutaxassisning maslahati (boshqacha aytganda - xulosa), odil sudlovda, ijro protsessida va notarial faoliyatda.

Maxsus bilimlardan foydalanishning protsessual shakllari maxsus bilimlardan foydalanishning jinoyat-protsessual qonunchilikda nazarda tutilgan manbalari hisoblanadi. Shunga ko‘ra, maxsus bilimlardan foydalanishning noprotsessual shakllari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘zda tutilmagan, ammo jinoyat-protsessual qonunchiligiga zid bo‘lmagan va bu yoki boshqa darajada isbotlash jarayonida ishlatilishi mumkin bo‘lgan shakllardir.

Maxsus bilimlarning protsessual shakllari an’anaviy ravishda sud ekspertizasi, ekspertning ko‘rsatuvlari va mutaxassisning turli xil tergov harakatlarini amalga oshirishdagi ishtiroki, shuningdek ba’zi boshqa protsessual harakatlar (xususan, taqqoslash tadqiqotlari uchun namunalar olishda mutaxassisning ishtiroki)ni o‘z ichiga oladi.

Jinoiy ishlar bo‘yicha o‘tkaziladigan dastlabki tadqiqotlarni u yoki bu shaklga kiritish hali ham bahs va munozaralarga sabab bo‘lmoqda [1].

Maxsus bilimlardan foydalanishning noprotsessual shakllariga, birinchi navbatda, mutaxassisning turli xil maslahat berish faoliyati, masalan, tegishli protsessual hujjatlarda aks etmaydigan, so‘roq, tergov eksperimenti, tintuv, ekspertiza tayinlash va boshqalarni tayyorlash va rejalashtirish jarayonidagi maslahatli

yordami kiradi. Bu kabi faoliyat tergovchiga tegishli tergov harakatlarining samaradorligini oshirishga imkon beradi, chunki u bir qator savollarni aniqroq shakllantirishga, tergovni noto‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirishga urinishlarni o‘z vaqtida oldini olishga, turli xil salbiy holatlarni aniqlashga imkon beradi va h.k.

Noprotsessual shaklda maxsus bilimlardan foydalanish turlari, odatda, tibbiy va psixiatrik guvohlantirish; taftish, inventarizatsiya, soliq va auditorlik tekshiruvlari; mutaxassisning maslahati kabilarni o‘z ichiga oladi.

Maxsus bilimlardan foydalanish bo‘yicha faoliyat doirasida o‘zaro uyg‘unlashgan sud ekspertiza instituti, mutaxassisning ishtiroki va boshqalar odil sudlov jarayoni va boshqa protsessual faoliyatining turlaridan qat’iy nazar, lekin ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda bugungi kunda yagona, muvofiqlashtirilgan huquqiy tartibga solishga juda muhtoj. Bu holatni ko‘pchilik olimlar, shuningdek huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari: tergovchilar, sudyalar, sud ekspertlari tomonidan o‘tkazilgan so‘rov natijalari tasdiqlaydi.

Qonunchilikning huquqiy tartibga solishning takomillashtirishga yo‘naltirilgan holdagi rivojlanishi, yangi huquqiy institutlarning paydo bo‘lishi, huquqiy tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning kengayishi sababli kerakli huquqiy elementlarning kengayishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Bunday jarayon huquqning ko‘plab sohalarida kuzatiladi va natijada, huquqiy institutlarni alohida toifaga – **huquqiy makro-institutning** shartli toifasiga birlashtirish zarurligi to‘g‘risida xulosa qilishga olib keladi.

Maxsus bilimlardan foydalanishni me’yoriy va huquqiy tartibga solishdagi turli qarama-qarshiliklar hamda mavjud bo‘shliqlar, ushbu faoliyatning tarkibiy qismlarini o‘rganish bag‘ishlangan fanni aniqlash, bu fanni amalga oshirishda yuzaga keladigan bo‘shliqlar va muammolarni bartaraf etishning samarali usullarini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

> **Maxsus bilimlardan foydalanish (umumiy ma’noda – qo‘llash va foydalanish)** – bu odil sudlovni yuritish yoki boshqa protsessual faoliyat jarayonini olib boruvchi, o‘zining protsessual funksiyasini amalga oshirish uchun muhim bo‘lgan ma’lumotlarni olish yoki protsessual tartibda boshqa yordam ko‘rsatish uchun maxsus bilimga ega shaxslarni (sud ekspertlari va mutaxassislarni) jalb qiladigan shaxslar ishtirokidagi o‘ziga xos faoliyatdir. Ushbu faoliyat deyarli tegishli qonunlar, sohaviy kodekslar va ichki normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Ushbu me’yoriy qoidalarning yig‘indisi alohida huquqiy institutlarni tashkil etadi, masalan, sud ekspertizasi instituti, mutaxassisning protsessual harakatlarda ishtiroki instituti, boshqa turdagi protsessual (yurisdiksiya) faoliyatida ekspertizalar va boshq.

Yuridik atamalarni yaganalashtirish (soddalashtirish) maqsadida, yuqoridagi barcha huquqiy institutlarni yaxlit bir butunning – **maxsus bilimlardan foydalanishning makro-institutining** bir qismi deb hisoblash taklif qilamiz.

Huquqiy institutlarni turlarga bo‘lish masalasi tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar guruhlarini aniqlash, huquq sohasini ajratish va moslashtirish, u yoki bu huquqiy institutning huquq tarkibidagi o‘rnini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda yangi ijtimoiy munosabatlarning paydo bo‘lishi, shuningdek, kengayishi munosabati bilan mavjud ijtimoiy munosabatlarni yanada aniqroq tartibga solish zarurati tufayli huquqiy tartibga solishni kengaytirish jarayoni kuzatilmoqda.

Qonunchilik har yili takomillashib va murakkablashib bormoqda, yangi huquqiy institutlar paydo bo‘lmoqda, ular doirasidagi subinstitutlar esa institutlar darajasiga “o‘sib bormoqda”. Huquq elementining mantiqiy tuzilishini hosil qilish uchun makro darajadagi yangi huquqiy kategoriyani – makro-institutni ajratish mumkin.

Makro-institut – alohida institutlar va ular doirasidagi subinstitutlardan iborat bo‘lgan bir nechta huquq sohalari doirasidagi bir xil, o‘zaro o‘xshash va bog‘liq bo‘lgan huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun normalarining murakkab yig‘indisidir.

Ushbu atama yangi, ammo ma’lum tizimlarning makro va mikro darajalarida ishlatilishi yetarlicha uzoq vaqtdan beri, turli xil ijtimoiy fanlar – iqtisodiyot, sotsiologiya kabi fanlarning tadqiqot (o‘rganish) predmetiga kiritilgan. Bundan tashqari, olimlar ma’lum ijtimoiy munosabatlarning ushbu darajalarida huquqiy tartibga solish masalasiga tobora ko‘proq e’tibor qaratmoqdalar.

“Maxsus bilimlardan foydalanish” huquqiy kategoriyasining aynan huquqiy makro-institut

ISSN 3030-3230

ekanligi haqidagi xulosa, uning quyidagi belgilari bilan asoslanadi: moslashuvchanligi, tartibga solishning to‘liqligi, predmet-funksional belgilari bo‘yicha o‘zaro bog‘liqligi, muayyan huquqiy munosabatlarni tartibga solishi va murakkab tuzilishga egaligi.

Odil sudlov jarayoni yoki boshqa protsessual (yurisdiksiya) jarayon doirasidagi faoliyat maxsus protsessual shaklda, bir bosqichdan ikkinchisiga ketma-ket o‘tish bilan, shu jumladan sud ekspertlari va mutaxassislarga murojaat qilishda amalga oshiriladi. Tahlil qilinayotgan makro-institut avtomatik ravishda bu kabi xususiyatlarga ega bo‘ladi, ammo u turli protsessual sohalarda amalga oshirilganligi sababli, u ham tegishli jarayonlararo xususiyatga ega bo‘ladi.

Maxsus bilimlardan foydalanishning makro-instituti o‘z tabiatiga – tartibga solinadigan huquqiy munosabatlar predmetining huquq tizimining boshqa elementlari bilan bog‘liqligiga – ko‘ra kompleksdir. Ushbu kategoriyaning komplekslilig murakkabligi shundaki, tartibga solish – protsessual yoki aralash xususiyatga ega bo‘lgan turli xil huquq sohalaridagi o‘xshash huquqiy munosabatlarni, masalan, fuqarolik protsessi, jinoyat protsessi, ma’muriy huquq va protsess, notarial huquqi, ijro ishi va sh.k.larni – qamrab oladi.

Bundan tashqari, ushbu makro-institut murakkab hosiladir, chunki u quyidagi institutlar va subinstitutlarni o‘z ichiga oladi: maxsus bilimga ega shaxsning huquqiy maqomi instituti, bunga sud eksperti va mutaxassisning huquqiy maqomi subinstitutlari kiradi; sud ekspertiza instituti, bunga har xil protsessual turdagi (birlamchi va takroriy ekspertiza, komissiyaviy, kompleks) ekspertizalarning subinstitutlari kiradi; maxsus bilimga ega shaxsni (sud eksperti va mutaxassis) so‘roq qilish; mutaxassisning ishtiroki instituti va sh.k.

Huquqiy tartibga solish sohasida tahlil qilinayotgan makro-institut maxsus institut hisoblanadi, chunki uning mavjudligi muayyan huquqiy munosabatlarni o‘rnatish va belgilash orqali tartibga solish sohasini farqlashga va ajratishga imkon beradi.

Maxsus bilimlardan foydalanishning makro-instituti o‘z funksiyasiga ko‘ra tartibga soluvchi hisoblanadi, chunki uning asosida maxsus bilimga ega shaxslarning yordamiga muhtoj subyektlarning hamda maxsus bilimga ega shaxslarning o‘zini huquqiy holatini qisman tartibga soluvchi normalar, shuningdek, o‘z funksional maqsadni amalga oshirish uchun yuqoridagi shaxslarning huquq va majburiyatlarini amalga oshirishning protsessual tartibini belgilaydigan normalar yotadi.

E.A.Zaytseva sud ekspertizasi instituti tomonidan tartibga solinadigan huquqiy munosabatlar turlarini aniq ajratib, quyidagi ekspert-protsessual munosabatlarni ko‘rsatgan: “a) sudgacha va sud bosqichlarida, ish bo‘yicha jinoiy ish yuritishga mas’ul bo‘lgan va ekspertiza tayinlagan mansabdor shaxslar, davlat organlari va ekspert o‘rtasidagi munosabatlar; b) huquqni muhofaza qilish organlari nazorati ostida yuzaga keladigan va rivojlanadigan, ish bo‘yicha sud eksperti bilan mustaqil huquqiy manfaatlarga ega bo‘lgan protsess jarayon ishtirokchilari hamda protsessning boshqa ishtirokchilari (tarjimon, mutaxassis, guvoh, jabrlanuvchi) o‘rtasidagi munosabatlar; v) ekspertiza tayinlagan protsess ishtirokchilari va huquqni muhofaza qilish organi o‘rtasidagi ekspertiza masalasidagi munosabatlar; g) tayinlangan sud ekspertizalari sud ekspertiza muassasasida o‘tkazilgan hollarda, sud eksperti bilan sud ekspertizasi muassasasi rahbari o‘rtasidagi munosabatlar; d) ekspertlar komissiyasi a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar” [2].

E.A.Zaytsevaning yuqoridagi fikrlarini qo‘llab-quvvatlab, ushbu sud ekspertizasi instituti tomonidan tartibga solinadigan huquqiy munosabatlar turlarini to‘ldirish va uning tarkibiga hozirda, huquqiy tartibga solinmagan, biroq ekspert-protsessual deb tasniflanishi mumkin bo‘lgan huquqiy munosabatlarni ajratib ko‘rsatish zarur deb hisoblaymiz.

Jumladan maxsus bilimlardan foydalanishning makro-instituti doirasida tartibga solinadigan bir qator huquqiy munosabatlarni ajratish mumkin. Bu quyidagilar o‘rtasidagi munosabatlardir:

Huquqiy munosabatlarning yuqorida sanab o‘tilgan turlarini sud ekspertizasining huquqiy instituti bilan umumiy asoslarga ega bo‘lgan tarmoqlararo ekspertiza huquqiy instituti tarkibiga kiritish mumkin deb hisoblaymiz.

Bu kabi huquqiy munosabatlarni ajratish o‘ziga xos protsessual xususiyatlarini hisobga olgan holda, odil sudlov jarayonida va boshqa turdagi protsessual faoliyatda, ekspertizani huquqiy tartibga solishni birlashtirish zarurati tufayli mumkin bo‘ladi. Chunki, yuqorida sanab o‘tilgan munosabatlar, birinchi guruhdan tashqari (1-5-bandlardagi huquqiy munosabatlar), odil sudlov jarayonida ish yuritish doirasida amalga

1. sud ekspertizasini tayinlash va o‘tkazishda sud ekspertiza muassasasi xodimi bo‘lgan sud eksperti va uning rahbari;
2. sud ekspertizasini tayinlash va o‘tkazishda sud ekspertiza muassasasi xodimi bo‘lmagan, ammo sud ekspertizasini o‘tkazishda ushbu sud ekspertiza muassasasiga jalb qilingan sud eksperti va uning rahbari;
3. boshqa turdagi protsessual (yurisdiksiya) faoliyatni olib boruvchi shaxs (organ) va sud eksperti;
4. ishni yuritayotgan shaxsning ishtirokida va uning ruxsati bilan, sud ekspertizasini tayinlash va o‘tkazish bilan bog‘liq holda ishning natijasidan manfaatdor protsess ishtirokchilari bilan sud eksperti;
5. sud ekspertiga ekspert xulosasi olish uchun individual tarzda murojaat qilinganda (muqobil yoki xususiy ekspertiza), ekspert va ishning natijasidan manfaatdor shaxslar (ishda ishtirok etuvchi shaxslar), ularning qonuniy vakillari, ayblanuvchining (gumon qilinuvchi, sudlanuvchining) himoyachisi;
6. ijro ishini yuritish doirasida, sud eksperti bilan sud hujjatlari va boshqa organlarning hujjatlarini ijrosini majburiy ijro etuvchi shaxs (masalan, ijro ishini yuritish doirasida mol-mulkni baholash bo‘yicha ekspertiza);
7. sud ekspertizalarini o‘tkazish bo‘yicha, sud hujjatlari va boshqa organlarning hujjatlarini ijrosini majburiy ijro etuvchi shaxs bilan ijro ishi protsessi ishtirokchilari;
8. turli notarial harakatlarni amalga oshirish va dalillarni ta’minlash doirasida, notarius bilan sud eksperti;
9. sud ekspertizalarini o‘tkazish bo‘yicha notarius bilan notarial harakatlar ishtirokchilari;
10. bojxona operatsiyalarini amalga oshirishda yuzaga keladigan masalalarni tushuntirish uchun sud ekspertizasini tayinlash va o‘tkazishda bojxona organining vakolatli mansabdor shaxsi bilan sud eksperti;
11. sud ekspertizalarini o‘tkazish bo‘yicha bojxona organining vakolatli mansabdor shaxsi bilan bojxona faoliyati ishtirokchilari;
12. soliq nazoratini amalga oshirish jarayonida sud ekspertizasini o‘tkazishda soliq organining mansabdor shaxsi bilan sud eksperti;
13. sud ekspertizasini o‘tkazish bo‘yicha soliq organining mansabdor shaxsi bilan soliq harakatlari ishtirokchilari.

oshirilmaydi, bu holat esa ularni tartibga solishga imkon bermaydi, ammo ushbu huquqiy munosabatlarning tabiati barcha o‘ziga xos xususiyatlarga ko‘ra, odil sudlov jarayonida sud ekspertizalarini o‘tkazishda mavjud bo‘ladigan huquqiy munosabatlar bilan bir xil bo‘ladi.

Sud ekspertizasi instituti va boshqa turdagi protsessual (yurisdiksiya) faoliyatda ekspertiza institutlarida umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarning mavjudligi, odil sudlov va boshqa turdagi protsessual faoliyat uchun yagona bo‘lgan alohida qonun normalariga asoslangan huquqiy tartibga solishning yagona asosidan foydalanish zarur deb ta’kidlashga imkon beradi.

Shu sababli “O‘zbekiston Respublikasida sud ekspertizasi va boshqa turdagi protsessual (yurisdiksiya) faoliyat bo‘yicha ekspertiza to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining yangi Qonunini ishlab chiqish taklif etiladi.

Shunday qilib, sud ekspertizasining huquqiy instituti va boshqa turdagi protsessual (yurisdiksiya) faoliyatdagi ekspertiza instituti yaxlit butunning - maxsus bilimlardan foydalanishning makro-instituti - bir qismidir. Har ikki institut ham tegishli faoliyatda maxsus bilimlardan foydalanish shakllarini tartibga soladi.

Fikrimizcha, huquqiy munosabatlarning quyidagi kengaytirilgan turlari mutaxassisning ishtirok etish institutiga kirib, quyidagi subyektlarning o‘zaro munosabatlarini shakllantiradi:

1) protsessni (odil sudlov, boshqa turdagi protsessual faoliyat, masalan, ijro ishi) olib boruvchi mansabdor shaxslar bilan unda ishtirok etish uchun jalb qilingan mutaxassis;

2) mutaxassis bilan ishning natijasidan manfaatdor bo‘lgan shaxslar (ishda ishtirok

ISSN 3030-3230

etuvchi shaxslar), ularning qonuniy vakillari, ayblanuvchining (gumon qilinuvchi, sudlanuvchi) himoyachisi (shu jumladan maslahat olish uchun mutaxassisga individual tartibda murojaat qilinganda);

3) protsessga mutaxassisni jalb qilish bo‘yicha, ishning natijasidan manfaatdor bo‘lgan shaxslar, ularning vakillari, ayblanuvchining himoyachisi (gumon qilinuvchi, sudlanuvchi) va protsessni olib boruvchi mansabdor shaxslar.

Maxsus bilimlardan foydalanish makro-institutning va uning tarkibiga kiruvchi sud ekspertizasi institut va ekspertning huquqiy maqomi instituti, mutaxassisning ishtiroki instituti va boshqalarning huquqiy, protsessual, uslubiy va tashkiliy asoslarini o‘rganish, “ushbu sanab o‘tilgan institutlar aynan qanday fan yoki ilmiy bilimlar sohasining tadqiqot yoki o‘rganish predmeti bo‘lishi mumkin” degan savolga javob izlash zarurligini ko‘rsatdi.

Bu holat ma’lum bir fan sohasi predmeti doirasida sud ekspertizasi instituti to‘g‘risidagi yangi nazariy qoidalarning o‘rnini aniqlash uchun, shuningdek, ushbu institutni huquq tizimida tartibga soluvchi qoidalar o‘rnini aniqlashning me’yoriy-huquqiy reglamentini hisobga olgan holda muhimdir.

Ta’kidlash joizki, sud ekspertizasining umumiy nazariyasi bundan 25 yillar oldin fan sifatida emas, balki kriminalistika fanining bir tarmog‘i va fanlararo nazariya sifatida shakllangan edi.

Sud ekspertizasi umumiy nazariyasi — bu nazariyaning o‘zining va uning obyekti – sud ekspertlik faoliyati, ilmiy bilimlarning ushbu sohasidagi xususiy nazariy tuzilmalar, nazariyani rivojlantirishning va ekspertiza tadqiqotlari, jarayonlar va munosabatlarni amalga oshirishning usullarining tamoyillari tizimi, ya’ni, sud ekspertlik faoliyatining kompleks ilmiy aks etishidir [3].

Ushbu ta’rif sud ekspertizasi umumiy nazariyasining shakllanishi davrida muhim ahamiyat kasb etdi. Ammo T.V.Averyanovaning o‘zi ushbu ta’rifni shakllantirishda, fanning nazariyasini emas, balki sof amaliy faoliyatning nazariyasini ishlab chiqishga nisbatan yondashganligini ta’kidlagan [4]. R.S.Belkin esa sud ekspertizasi umumiy nazariyasi predmetini aniqlashda, kriminalistika fanining umumiy nazariyasi predmetining ta’rifi aniqlash kabi yondashgan [5; 6].

Sud ekspertlik faoliyatining protsessual bo‘lmagan, ammo huquqiy va ilmiy-tashkiliy ta’minotining nazariy asoslari sud ekspertizasi nazariyasi bilan emas (bu masalada, T.V.Averyanova va R.S.Belkinlarning fikrlari mutlaqo to‘g‘ri), balki, sud ekspertshunosligi fanida o‘rganilishi kerak, protsessual jihatlari esa protsessual huquq faniga tegishli bo‘ladi [7, S.16].

Shunday qilib, umumiy ma’noda sud ekspertlik faoliyatining qonuniyatlarini o‘rganish haqida gapirganda, protsessning (odil sudlov yoki boshqa turdagi) turidan qat’iy nazar, ushbu faoliyatni yagona huquqiy va tashkiliy ta’minotining qonuniyatlarini o‘rganishni ajratib ko‘rsatib bo‘lmaydi. Shu sababli, fikrimizcha, “Sud ekspertshunosligi fani” degan umumiy nomlanish hozirgi paytda asl voqelikka ko‘proq mos keladi.

Sud ekspertshunosligining predmeti.

Ko‘rilayotgan masala bo‘yicha olimlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot va tahlillar [8] ko‘rsatadiki, sud ekspertshunosligining predmetiga dastlabki tashkiliy tamoyillarni o‘rganishni ham kiritilishi kerak ekan. Chunki:

birinchidan, *sud ekspertlik faoliyatining sifati birinchi navbatda bu faoliyatni eng maqbul (optimal) shaklda amalga oshirishni tashkil etishga bog‘liq.*

ikkinchidan, *ekspertiza muassasasi yoki tashkilotining eng mos tashkiliy shaklini tanlash uning faoliyatiga bevosita ta’sir qiladi, sud ekspertizalarini o‘tkazish sifatini yaxshilashga yoki uni samarasiz bo‘lishiga qodir bo‘ladi.*

uchinchidan, *yaxlit jarayon sifatida birlashtirish asta-sekin sud ekspertlik faoliyatining barcha sohalarini, huquqiy va tashkiliy sohalaridan to uslubiy, sud ekspertlarining o‘qitish (ta’lim) va malakasini oshirishgacha bo‘lgan sohalarini qamrab olishi kerak.*

Shunday qilib, aynan sud ekspertshunoslik doirasida sud ekspertlarini tayyorlash va qayta tayyorlash sifatini yaxshilash, sud ekspertizasini ilmiy-uslubiy ta’minlashni birlashtirish imkoniyatlari yaratiladi.

Sud ekspertshunosligini tadqiqot predmetiga huquqiy asoslarni kiritish zarurligini quyidagicha asoslash mumkin: birinchidan, sud ekspertshunosligi sud ekspertizasini tavsiflovchi, shu jumladan uni tayinlash va o‘tkazish jarayonidagi umumiy qonuniyatlarni o‘rganadi; ikkinchidan, ushbu qonuniyatlar odil sudlov ishlarini yuritish va boshqa turdagi protsessual (yurisdiksiya) faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir, bu esa tadqiqot predmetini faqat jinoiy protsessual soha bilan toraytirishga imkon bermaydi, chunki

sud ekspertizasi huquqiy institut sifatida, sud protsessining barcha turlarida, shuningdek ijro protsessida, notarial, bojxona va boshqa turdagi protsessual faoliyatda ham qo‘llaniladi.

Aslida, yuqorida aytilganlar odil sudlov jarayonlarining turlari yoki boshqa turdagi protsessual faoliyatdan qat’iy nazar, sud ekspertshunosligining huquqiy asoslarini birlashtirish zarurligini asoslaydi.

Agar ushbu asoslar faqat jinoiy protsessual qonun yoki boshqa biron bir protsessual fan tomonidan o‘rganilsa, sud ekspertizasining huquqiy asoslarini birlashtirish (yaganalashtirish), sud ekspertizasi to‘g‘risidagi yagona qoidalarni amalga oshirish mumkin bo‘lmaydi.

Professor Ye.R.Rossinskaya sud ekspertshunosligi predmetining quyidagi ta’rifini taklif qilgan: “sud ekspertshunosligining predmeti sud ekspertlik faoliyatini umumiy amalga oshirishning nazariy, huquqiy va tashkiliy qonuniyatlar; sud ekspertizalari turlari, sinflari, turkumlari va oilalarining hamda ularga oid xususiy nazariyalarning yagona metodologiya va muvofiqlashtirilgan tushunchalar tizimi asosidagi hamda sud ekspertiza sohasidagi bilimlarning doimiy ravishda yangilanib va takomillashib borishini hisobga olgan holdagi vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlar, ushbu qonuniyatlarni o‘rganish asosida ishlab chiqiladigan va odil sudlovning barcha turdagi jarayonlari uchun yagona bo‘lgan ekspertiza texnologiyalari, ekspertlik vakolatlari va malakalarining standartlari hamda sertifikatlangan ekspertiza laboratoriyalari, sud ekspertlik faoliyatining yagona huquqiy va tashkiliy ta’minoti kabilar hisoblanadi” [9; 10].

Ushbu ta’rifni ma’qullagan holda, bu ta’rifga boshqa turdagi protsessual faoliyatda (masalan, soliq, bojxona, notarial, ijro protsessida) maxsus bilimlarni qo‘llash va ulardan foydalanishning nazariy, huquqiy va tashkiliy qonuniyatlarini kiritish bilan to‘ldirish taklif qilinadi.

Sud ekspertshunosligi tomonidan o‘rganiladigan, shu jumladan boshqa turdagi protsessual faoliyatda ekspertiza tayinlash va o‘tkazish jarayonida sud ekspertlik faoliyatining huquqiy asoslariga quyidagilar kiritilishi mumkin:

- sud ekspertiza muassasasi yoki tashkiloti faoliyatining asoslari va muassasa yoki tashkilot rahbarlarining huquqiy holati;

- boshqa turdagi protsessual faoliyatda, huquqni qo‘llash va norma ijodkorligi faoliyati subyekti sifatida ekspertiza o‘tkazishga jalb qilingan sud ekspertining huquqiy va kasbiy maqomining huquqiy asoslari. Ta’kidlash joizki, norma ijodkorligi – normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning shunday hujjatlarni ishlab chiqish, qabul qilish, ularga o‘zgartirish kiritish yoki ularni bekor qilishga qaratilgan va tashkiliy-huquqiy jihatdan muayyan jarayonga asoslanadigan faoliyatidir;

- ekspert faoliyati natijasining rasmiy va mazmunga oid jihatlarini tartibga solishning huquqiy asoslari – boshqa turdagi protsessual faoliyatda sud ekspertining xulosasi, uni baholash va odil sudlovni bilan birga boshqa turdagi protsessual faoliyatda foydalanish xususiyatlari;

- sud ekspertizasi, boshqa turdagi protsessual faoliyat bo‘yicha ekspertiza sohasidagi xalqaro-huquqiy hamkorlikning huquqiy asoslari.

Fikrimizcha, sud ekspertshunosligi doirasida maxsus bilimlardan foydalanishning mutaxassisning faoliyati kabi shaklini o‘rganish ham o‘z o‘rniga ega bo‘ladi.

Yuqoridagilarga asoslanib, ushbu yondashuvni quyidagilar orqali asoslashga harakat qilamiz:

birinchidan, maxsus bilimlarni uning turli shakllarida, odil sudlov bilan birga boshqa turdagi protsessual faoliyatda qo‘llashning umumiy asoslari, maxsus bilimlardan foydalanishning o‘zaro o‘xshash shakllarini amalga oshirish sharti bilan, odil sudlov bilan birga boshqa turdagi protsessual faoliyatda mutaxassisning faoliyatini birlashtirish zarurati bilan;

ikkinchidan, ekspert va mutaxassisning umumiy kasbiy va vakolat hamda malakalariga oid xususiyatlarining mavjud bo‘lishi bilan;

uchinchidan, sud ekspertshunosligi fanidan boshqa fanlarning, amaldagi qonunchilik normalari bilan belgilangan mutaxassisning faoliyatini o‘rganishga kompleks yondashuvni ta’minlay olmasligi bilan.

Fikrimizni asoslash uchun, ta’kidlash joizki, sezilarli farqlarga qaramay, mutaxassis va sud ekspertini ko‘p narsalar o‘zaro bog‘lab turadi. Ushbu masalalarni o‘rganish maxsus bilimlarga ega bo‘lgan shaxslarning kasbiy holati va tayyorgarligi bilan bog‘liq umumiy qoidalarni umumlashtirish va birlashtirishga, mutaxassis va ekspert o‘rtasidagi farqlarni aniqlashga, har ikki subyektga nisbatan huquqiy muvofiqlashtirishni takomillashtirishga imkon beradi.

Albatta, bu kabi yondashuvga qarshi fikrlar ham mavjud. Ayrim olimlar sud ekspertshunosligi faniga “mutaxassis to‘g‘risida”gi bo‘limini

ISSN 3030-3230

kiritmaslik kerak deb hisoblaydilar, chunki ularning fikricha, bu masalalar ilmiy bilimlarning boshqa sohalari, masalan, dalillar nazariyasi doirasida ko‘rib chiqilishini ta’kidlaydilar [11].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, sud ekspertshunosligi fanining predmetiga quyidagi huquqiy asoslar kiritilishi mumkin deb hisoblaymiz:

– huquqni qo‘llash va qonun ijodkorligi faoliyatining subyekti sifatida mutaxassisning huquqiy va kasbiy maqomi;

– mutaxassis faoliyatining rasmiy va mazmunga oid jihatlarini tartibga solish;

– mutaxassisning maslahati va xulosalari, shuningdek, ularni odil sudlovda yoki boshqa turdagi protsessual faoliyatda qo‘llash xususiyatlari.

Ushbu huquqiy asoslarni bitta bo‘limga – “yurisdiksiya faoliyatida maxsus bilimlarni qo‘llash va ulardan foydalanishni huquqiy ta’minoti bo‘limi” – birlashtirish mumkin. Chunki, mutaxassis faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari hamda odil sudlov jarayonida ahamiyati, bu faoliyatning konseptual asoslarini alohida bo‘limga ajratish zarurligini keltirib chiqaradi. Aynan shu sababli, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasining 3-moddasiga mutaxassis faoliyatining natijalarini aks ettiruvchi protsessual hujjat mutaxassis fikri to‘g‘risidagi band taklif qilingan:

“mutaxassis fikri – jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida amalga oshiriladigan tadqiqotlar natijasi yuzasidan mutaxassis (sud eksperti)ning belgilangan tartibda rasmiylashtiriladigan fikri”.

Ammo maxsus bilimga ega bo‘lgan shaxslar faoliyatining umumiy kasbiy asoslarini hamda maxsus bilimlardan foydalanish shakllarini hisobga olgan holda, ushbu xususiyatlarni yagona bo‘lim doirasida o‘rganish imkoniyati to‘g‘risida fikrlar bildirilgan [12; 13].

Fikrimizcha, odil sudlovda va boshqa turdagi protsessual faoliyatda maxsus bilimlardan foydalanish shakllari bo‘yicha umumiy qoidalar “Sud ekspertshunosligining umumiy asoslari” bo‘limiga kiritilishi kerak.

Ta’kidlash joizki, sud ekspertining kasbiy faoliyati, sud ekspertlarini ekspertini tayyorlash va ularning malakasini oshirish, sud ekspertining faoliyatini sertifikatlash va ekspertiza didaktikasi masalalarini o‘rganish fikrimizcha, sud ekspertshunoslik fanining “maxsus bilimlarni qo‘llash va ulardan foydalanishni tashkiliy ta’minoti” bo‘limiga kiritilishi kerak.

Ushbu huquqiy asoslarni sud ekspertshunosligi fanining predmeti doirasiga kiritish taklifi - ushbu fanning nomiga to‘liq mos keladi, chunki bu tom ma’noda maxsus bilimlarga ega bo‘lgan shaxs va u amalga oshiradigan faoliyat haqidagi ta’limotdir.

Sud ekspertshunosligi fanining predmetiga kiritilgan ushbu qoidalar faqat ushbu fan tomonidan monopollashtirilmaydi, ular boshqa bir qator fanlar, birinchi navbatda protsessual fanlar tomonidan ham o‘rganiladi.

Fikrimizcha, bu kabi yondashuv ilmiy bilimlarni boyitishga qodir va huquqiy tartibga solishni takomillashtirish uchun qo‘shma ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilishi zarurligini taqozo qiladi.

Aslida, sud ekspertshunosligi uzviy bog‘liq bo‘lgan protsessual huquq sohasining predmetidan farq qilgan holda, maxsus bilimlardan foydalanish bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshirishga oid qonuniyatlarini o‘rganadi.

Sud ekspertshunosligining tuzilishi (tizimi). Sud ekspertshunoslik fanining predmeti va tuzilishi to‘g‘risida olimlarning nazariy fikrlarini tahlil qilish sud ekspertshunosligi fanining tuzilishini ishlab chiqishga imkon beradi.

Ta’kidlash joizki, ushbu qonuniyatlarning aksariyat ko‘pchiligini va ekspertizalarning xususiy nazariyalarini ajratishda Ye.R.Rossinskayaning yondashuvlarini [9; 10] ma’qullaymiz, shu bilan birga, ushbu yondashuvlarning ma’lum bir qismlarini to‘ldirish hamda quyidagicha tuzilishini taklif qilish mumkin [8]:

1. Sud ekspertizasining konseptual asoslari:

1.1. Sud ekspertshunosligi fani haqidagi ta’limot: sud ekspertshunosligining predmeti, tizimi, tamoyillari, vazifalari, funksiyalari, uslublari;

1.2. Odil sudlovda va boshqa turdagi protsessual faoliyatda maxsus bilimlardan foydalanish shakllari to‘g‘risidagi ta’limot;

1.3. Maxsus bilimga ega shaxslar (mutaxassislar) haqidagi ta’limot;

1.4. Sud ekspertizasi to‘g‘risidagi ta’limot: predmeti, obyektlari va ularning xususiyatlari va belgilari, sud ekspertizasining vazifalari;

1.5. Sud ekspertizalarining turlar va sinflar bo‘yicha shakllantirish va tasniflash qonuniyatlari to‘g‘risidagi ta’limot; sud ekspertizalarining yangi turlari va sinflarini shakllantirish va rivojlantirish qonuniyatlari to‘g‘risidagi ta’limot;

1.6. Sud ekspertlik faoliyati haqidagi

umumiy qoidalar, Sud ekspertlik faoliyatining tamoyillari, uning odil sudlovda va boshqa turdagi protsessual faoliyatdagi o‘rni va roli;

1.7. Sud ekspertlik faoliyatining jarayonlari, munosabatlari va maqsadlari to‘g‘risidagi ta’limot: ekspertiza identifikatsiyasi nazariyasi; ekspertiza diagnostikasi nazariyasi; ekspertizada kriminalistik bashorat nazariyasi, ekspertlik restitutsiyasi nazariyasi [14]; ekspertlik profilaktikasi nazariyasi;

1.8. Ekspertning kommunikativ faoliyatining shakllari va vositalari, shu jumladan tergovchi, sud, sud ekspertiza muassasasi rahbari bilan o‘zaro munosabatlar, shuningdek, sud ekspertshunosligining tili, ekspertlik tushunchalari va atamalari tizimi, tilni axborotlashtirish va rasmiylashtirish masalalari to‘g‘risidagi ta’limot;

1.9. Sud ekspertizalarining alohida turlari va sinflarining xususiy nazariyalarining umumiy nazariy qoidalari (xususiy ekspertiza nazariyasi tushunchasi, uning predmeti, obyektlari, vazifalari).



2. Boshqa turdagi protsessual (yurisdiksiya) faoliyatda maxsus bilimlarni qo‘llash va ulardan foydalanishni huquqiy ta’minoti:

2.1. Davlat sud ekspertiza muassasalari va nodavlat sud ekspertiza tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslari hamda ularning rahbarlarining huquqiy maqomi. Fikrimizcha “davlat” va “nodavlat” atamalarini sud ekspertlariga nisbatan qo‘llab bo‘lmaydi, chunki bu atamalar sud ekspertlik faoliyatini amalga oshiradigan muassasa yoki tashkilot shakllariga tegishlidir hamda faoliyatining asosiy prinsipi mustaqillik bo‘lgan sud ekspertlariga tegishli emas, xususan: “davlat sud-ekspertiza muassasasi – sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirish uchun tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan muassasa, shuningdek, tegishli davlat organlari, vazirliklar va idoralar tizimidagi ixtisoslashtirilgan sud ekspertizasi bo‘linmalari; nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti – nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat, ma’muriy sud ishlari va ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud ekspertizasini o‘tkazishga ixtisoslashtirilgan, shtatida sud eksperti sertifikatiga ega mutaxassislari bo‘lgan tashkilot; sud eksperti – xulosa berish uchun fan, texnika, san’at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lgan, belgilangan tartibda sud eksperti sifatida jalb qilingan jismoniy shaxs” [15]. Ko‘rinib turibdiki, qonunchilikda nazarda tutilgan har qanday shaklda mavjud bo‘lgan ekspertiza muassasasi yoki ekspertiza tashkiloti sud ekspertlik faoliyatini tegishli shaklda ta’minlashga qaratilgan vakolatlarni amalga oshiradi, sud eksperti ishining sifatli bajarilishi uchun sharoit yaratadi. Shuning uchun muassasa yoki tashkilotning tashkiliy shakli ekspertiza tadqiqotlari natijasi uchun muhim ahamiyat kasb etmaydi;

2.2. Boshqa turdagi protsessual (yurisdiksiya) faoliyatda, sud ekspertizalarini o‘tkazishga norma ijodkorligi va huquqni qo‘llash faoliyatining subyektlari sifatida jalb qilingan sud ekspertining huquqiy va kasbiy maqomi asoslari;

2.3. Ekspert tashabbusi to‘g‘risidagi ta’limot;

2.4. Sud ekspertlik faoliyati natijasining rasmiy va mazmunga oid jihatlarini tartibga solishning huquqiy asoslari – boshqa turdagi protsessual (yurisdiksiya) faoliyatida ekspert xulosasi, uni baholash va boshqa odil sudlovda, shu jumladan turdagi protsessual (yurisdiksiya) faoliyatida foydalanish xususiyatlari;

2.5. Mutaxassisning norma ijodkorligi va huquqni qo‘llash faoliyatining subyekti sifatida huquqiy va kasbiy maqomining asoslari;

2.6. Mutaxassis faoliyati natijalarining rasmiy va mazmunga oid jihatlarini tartibga solishning huquqiy asoslari – maslahat yoki yozma fikr, shuningdek ulardan sud ishlarida va boshqa turdagi protsessual (yurisdiksiya) faoliyatda foydalanish xususiyatlari;

2.7. Sud ekspertizasi, boshqa turdagi protsessual (yurisdiksiya) faoliyat bo‘yicha ekspertiza, shuningdek, mutaxassisning sud protsessida va boshqa turdagi protsessual (yurisdiksiya) faoliyatda ishtiroki sohasida xalqaro-huquqiy hamkorlik.

3. Protsessual (yurisdiksiya) faoliyatda maxsus bilimlarni qo‘llash va ulardan foydalanishni tashkiliy ta’minoti:

3.1. Davlat sud ekspertiza muassasalari va nodavlat sud ekspertiza tashkilotlarining tashkil etilishi, tuzilishi, funksiyalari;

3.2. Davlat sud ekspertiza muassasalari va nodavlat sud ekspertiza tashkilotlarining axborotli ta’minoti;

3.3. Sud ekspertlarining kasbiy faoliyati, sud ekspertlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish, sud eksperti faoliyatini sertifikatlash, ekspertlik didaktikasi;

3.4. Sud eksperti kasbiy faoliyatining psixologik, mantiqiy va axloqiy asoslari; sud ekspertining kasbiy etikasi.

ISSN 3030-3230

4. Sud ekspertizasi texnologiyalari:

4.1. Sud ekspertlik faoliyatining uslubiyoti;

4.2. Ekspertiza tadqiqotlari jarayoni va uning bosqichlari;

4.3. Sud ekspertiza uslubiyatlari, ularni tasniflash, muvofiqlashtirish, standartlashtirish va pasportlashtirish;

4.4. Sud eksperti va mutaxassisning profilaktik faoliyati;

4.5. Sud ekspertining (mutaxassis) xatolarining oldini olish.

Sud ekspertshunosligining tabiati, shuningdek, uning boshqa fanlar bilan bilvosita bog‘liqligi – o‘zining tuzilishiga ko‘ra murakkabdir. Chunki uning tarkibida huquqiy bilimlar sohasi, shu jumladan, boshqa (tibbiyot, kimyo, fizika va boshq.) fanlar bilan aloqalar kabi elementlardan iborat bo‘ladi hamda bu holat uning sun’iy xususiyatini yana bir bor isbotlaydi. Sud ekspertshunosligi fan sifatida ilmiy bilimlarning boshqa sohalari, fanlar, birinchi navbatda, kriminalistika bilan uzviy bog‘liqdir.

Bu kabi ko‘p qirrali aloqadorlik va bog‘liqlik sud ekspertshunosligining xususiyatlarini ifodalaydi. Kriminalistika va sud ekspertshunosligi alohida fanlar sifatida mavjud bo‘lsa-da, shu bilan birga, ular nafaqat tarixiy rivojlanishi, balki uslubiyoti, vazifalari va maqsadlari bo‘yicha bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Sud ekspertshunosligining obyekti. Sud ekspertshunosligining yuqorida taklif qilingan tuzilishi (tuzilmasi) sud ekspertshunosligining obyektini aniqlashtirishni talab qiladi, chunki uning mavjud bo‘lishi ushbu fanning mustaqilligi va o‘ziga xosligini tasdiqlaydi.

Sud ekspertshunosligi umumiy nazariyasining obyekti sifatida “ko‘p sonli tarkibiy qismlarni (faoliyat subyektlari, tadqiqot obyektlari, vazifalar, usullar va boshq.) o‘z ichiga olgan muayyan yagona tizim sifatida ko‘rib chiqiladigan sud ekspertlik faoliyati” ajralib chiqadi [16]. Ushbu fikrni ko‘plab mualliflar qo‘llab-quvvatlagan [6; 17; 18]. Biroq, shu bilan birga, ba’zi olimlar sud ekspertshunosligining obyekti sifatida faqat sud ekspertlik amaliyotini ajratib ko‘rsatadilar [14].

Sud ekspertshunosligining rivojlanish tarixi ko‘rsatadiki, fanning hozirgi holati uchun sud ekspertizasining umumiy nazariyasi, ushbu masala bo‘yicha ilmiy fikrlarni yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun yetarli emas.

Chunki, sud ekspertlik faoliyatining jadal takomillashib borayotganligi sababli, fanning obyekti ham o‘zgarishlarga uchradi, agar ilgari sud ekspertlik faoliyati bilan faqat davlat sud ekspertiza muassasalari shug‘ullangan bo‘lsa, endilikda, mamlakatimizda nodavlat sud ekspertiza tashkilotlari, shuningdek, xususiy sud ekspertlari ham faoliyat ko‘rsatmoqda. Natijada, sud ekspertlik faoliyatida sifatga oid o‘zgarishlar yuz berdi va fanning obyektiga, ayniqsa, ushbu faoliyatdagi xalqaro munosabatlarni hisobga olinsa, ta’sir qildi. Bundan tashqari, sud ekspertshunosligi tarkibida mamlakatimizda maxsus bilimlardan foydalanishning boshqa shakllari (masalan, mutaxassis fikri, mutaxassis xulosasi) to‘g‘risidagi qoidalar ishlab chiqilmoqda, ularni amalga oshirish qonuniyatlari ham ushbu fan predmetiga kiritilgan bo‘lib, bu uning obyektini yanada kengayishiga sabab bo‘ladi.

Ko‘plab olimlar sud ekspertshunosligi fanining obyekti aynan sud ekspertlik faoliyati ekanligiga qo‘shiladilar, ammo ular, ushbu tushunchaning fan obyekti sifatida ajratib ko‘rsatish asoslariga turlicha yondashadilar.

Masalan, M.Ya.Segay sud ekspertlik faoliyatining yaxlit tizimini tashkil etuvchi to‘rtta tarkibiy blokni taklif qilgan:

1) davlatning sud ekspertlik faoliyatni qonunchilik va idoraviy normativ-huquqiy darajadagi huquqiy ta’minoti bo‘yicha faoliyati;

2) davlat ijro etuvchi organlarining sud ekspertlik faoliyatini boshqarish funksiyasini bajaradigan faoliyati;

3) sud ekspertlik faoliyati bosh subyektlarining, davlat sud ekspertiza muassasalarida sud ekspertizalarini tashkil etish va o‘tkazishni ta’minlash faoliyati;

4) odil sudlov ishtirokchilarining sud ekspertizalarini tayinlash va o‘tkazish bo‘yicha faoliyati [14].

Bizning fikrimizcha, “sud ekspertlik faoliyati” atamasini keng va tor ma’noda tushunish lozim. Tor ma’noda, sud-ekspert faoliyati deganda faqat sud protsessida sud ekspertizasini o‘tkazishga qaratilgan muayyan subyektlarning (ekspertiza muassasalari yoki tashkilotlarining rahbarlari, ekspertlar, mutaxassislar) harakatlarining yig‘indisi (tizimi) tushunilishi mumkin.

Sud ekspertlik faoliyatini kompleks ravishda bir nechta tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olgan faoliyat sifatida ko‘rish mumkin:

1) muayyan subyektlarning (ekspertiza muassasalari va tashkilotlarining rahbarlari, ekspertlarning davlat organlari mansabdor shaxslari, sud protsessida va boshqa

turdagi protsessual (yurisdiksiya) faoliyat jarayonida ishtirok etuvchi shaxslar bilan o‘zaro munosabatlarida), sud ekspertizalarini o‘tkazishni tashkil etish va ta’minlashga, shuningdek, odil sudlovda va boshqa turdagi protsessual (yurisdiksiya) faoliyati bo‘yicha ish yuritishda ekspertizalarni o‘tkazishga qaratilgan harakatlarining majmui (tizimi);

2) sud ekspertlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish;

3) sud ekspertining kasbiy faoliyati, uni tayyorlash va malakasini oshirish;

4) ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va o‘tkazish, sud ekspertizalarini axborotli, shu jumladan uslubiy ta’minoti;

5) yuqoridagi yo‘nalishlar bo‘yicha sud ekspertizasi sohasida xalqaro-huquqiy hamkorlik.

“Sud ekspertlik faoliyati” tushunchasining ta’rifida umumiy va o‘ziga xos bir qator xususiyatlarni ajratish mumkin. Umumiy xususiyatlarga quyidagilar kiradi: sud ekspertlik faoliyati – bu turli xil harakatlar majmui; ushbu harakatlarning yig‘indisi esa o‘z maqsad va vazifalariga, o‘zining obyektiga ega.

Sud ekspertlik faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagicha ifodalanadi:

1) uning murakkab tabiati hamda quyidagi to‘rtta tarkibiy qismlarning o‘zaro bog‘liqligi: davlat sud ekspertiza muassasalari va nodavlat sud ekspertiza tashkilotlarini tashkil etish va ularning faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash, kadrlar ta’minoti (shu jumladan ekspertlarni tayyorlash, malakasini oshirish, ularning malakalarini attestatsiyadan o‘tkazish va sertifikatlash), ilmiy (shu jumladan ilmiy-uslubiy ta’minot) va ekspertlik (sud ekspertizasini o‘tkazish) ishlari, shuningdek ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro hamkorlik;

2) normativ-huquqiy tartibga solish;

3) faoliyatning tegishli yo‘nalishini bajaradigan ma’lum bir subyektlar tarkibi.

Shunday qilib, sud ekspertlik faoliyati – davlat sud ekspertiza muassasalari va nodavlat sud ekspertiza tashkilotlari rahbarlari, sud ekspertlari va mutaxassislarning protsess ishtirokchilari bilan sud ekspertizalarini o‘tkazish, davlat sud ekspertiza muassasalari va nodavlat sud ekspertiza tashkilotlarining tuzilishi va faoliyati, kadrlar ta’minoti, ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va o‘tkazish, ilmiy-uslubiy va axborot ta’minotini shakllantirish, shuningdek sud ekspertizasi sohasidagi xalqaro hamkorlikni o‘z ichiga olgan, qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan harakatlari yig‘indisidir.

Odil sudlovdan boshqa turdagi protsessual (yurisdiksiya) faoliyatda amalga oshiriladigan ekspertlik faoliyati sud ekspertlik faoliyatidan, huquqiy tartibga solishdagi xususiyatlaridan tashqari, yana sud ekspertlari, mutaxassislar va davlat sud ekspertiza muassasalari va nodavlat sud ekspertiza tashkilotlari rahbarlari bilan o‘zaro munosabatlarga kirishadigan subyektlar bilan farq qiladi. Masalan, bojxona yoki soliq faoliyati doirasida bu nazorat faoliyatini amalga oshiruvchi bojxona yoki soliq organining mansabdor shaxsi bo‘lsa, dalillarni ta’minlash bo‘yicha notarial harakatlarni amalga oshirishda esa notarius hisoblanadi. Biroq, ushbu ko‘rsatilgan farq muhim emas, chunki bu ekspertiza o‘tkazish va sud ekspertlik faoliyatining mohiyatiga ta’sir qilmaydi.

Sud ekspertlik faoliyatidan tashqari, sud ekspertshunosligining obyekti, uning predmetining taklif qilingan tuzilishidan kelib chiqqan holda, odil sudlovda yoki boshqa turdagi protsessual (yurisdiksiya) faoliyatdagi mutaxassisning ish faoliyati hisoblanadi, chunki ushbu faoliyatning asoslari hamda uning umumiy qonuniyatlari sud ekspertshunosligi ya’ni, maxsus bilimlarni qo‘llash va ulardan foydalanish shakllari to‘g‘risidagi ta’limot tomonidan ishlab chiqiladi.

Yuqoridagilarga asoslanib, sud ekspertshunosligining obyekti ikki qismdan iborat va ularning har biri quyidagi umumiy qonunlar bilan tavsiflanadi deb ta’kidlash mumkin:

birinchidan, sud ekspertlik faoliyati – harakatlar majmuasi sifatidagi faoliyat;

ikkinchidan, sud ekspertlik faoliyati – maxsus bilimlarni, odil sudlov protsessida yoki boshqa turdagi protsessual (yurisdiksiya) faoliyatda boshqa shakllarda qo‘llash va ulardan foydalanish bo‘yicha faoliyat.

Yuqorida ta’kidlanganidek, maxsus bilimlarni odil sudlov protsessida yoki boshqa turdagi protsessual (yurisdiksiya) faoliyatda boshqa shakllarda qo‘llash va ulardan foydalanish faoliyati nafaqat sud ekspertshunosligining o‘rganish obyekti hisoblanadi. Sud ekspertshunosligi maxsus bilimlardan foydalanishning turli shakllarini amalga oshirishning sof protsessual jihatlarini o‘rganmaydi, bu protsessual fanlar doirasida o‘rganiladi.

Ammo sud ekspertshunosligining predmetida ko‘rsatilgan elementlarda mavjud bo‘lgan turli shakllarning ishlash mohiyatini o‘rganish natijalari – ushbu sohani huquqiy tartibga solishdagi mavjud ziddiyatlarni bartaraf

ISSN 3030-3230

qilish, “maxsus bilimlardan foydalanish” huquqiy makro-institut qoidalarini soddalashtirish va yagona tizimga solish uchun asos bo‘lishi mumkin. Sud ekspertshunosligi obyektini tushunishga bu kabi yondashuv, faoliyatli yondashuvni hisobga olgan holda, sud ekspertshunoslik fanining predmetini aniqlash bilan bog‘liq bo‘ladi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar quyidagi alohida xulosalarni shakllantirishga imkon berdi:

tadqiqot predmeti maxsus bilimlardan foydalanishning butun majmuasini qamrab oladigan fan aniqlandi hamda ushbu fanning takomillashtirilgan tuzilishi taklif qilindi;

sud ekspertshunosligi fanining Ye.R.Rossinskaya [9] tomonidan taklif qilingan predmetining ta’rifini qo‘llagan holda, ushbu predmetni faning tadqiqot obyektini aniqlashtirgan holda shakllantirish zarur deb taklif qilamiz. Sud ekspertshunosligi fanining predmeti bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- sud ekspertlik faoliyatini umumiy tarzda amalga oshirishning nazariy, huquqiy va tashkiliy qonuniyatlari hamda maxsus bilimlarni odil sudlov protsessida yoki boshqa turdagi protsessual (yurisdiksiya) faoliyatda qo‘llash va ulardan foydalanish bo‘yicha faoliyat;

- yagona uslubiyot va soddalashtirilgan maxsus atamalar va tushunchalar apparati asosida hamda sud ekspertizalarga oid bilimlarining doimiy yangilanishi va takomillashib borishini hisobga olgan holdagi sud ekspertizalarining turlari, sinflari va oilalarining hamda xususiyat nazariyalarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlari;

- yuqoridagi qonuniyatlarni o‘rganish asosida ishlab chiqiladigan, odil sudlov va boshqa turdagi protsessual (yurisdiksiya) faoliyat uchun yagona bo‘lgan ekspertiza texnologiyalari;

- ekspertlarning malakalari va vakolatlari hamda sertifikatlangan ekspertlik laboratoriyalari;

- maxsus bilimlarni, odil sudlov protsessida yoki boshqa turdagi protsessual (yurisdiksiya) faoliyatda boshqa shakllarda qo‘llash va ulardan foydalanish bo‘yicha faoliyatni va sud ekspertlik faoliyatini yagona huquqiy va tashkiliy ta’minoti.

Tadqiqotlarimizning predmetidan kelib chiqib, “sud ekspertshunosligi” fani yuqorida ta’kidlangan qonuniyatlar to‘g‘risidagi ilmiy bilimlar tizimi deb aytish mumkin.

Yuqoridagilarga asoslanib, sud ekspertshunosligining obyekti ikki qismdan iborat va ularning har biri quyidagi umumiy qonunlar bilan tavsiflanadi:

birinchi, sud ekspertlik faoliyati – harakatlar majmuasi sifatidagi faoliyat;

ikkinchi, sud ekspertlik faoliyati – maxsus bilimlarni, odil sudlov protsessida yoki boshqa turdagi protsessual (yurisdiksiya) faoliyatda boshqa shakllarda qo‘llash va ulardan foydalanish bo‘yicha faoliyat.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari, quyidagicha xulosalar chiqarishga asos bo‘ladi:

sud ekspertshunosligi sud ekspertizasining huquqiy institutlarini, boshqa turdagi protsessual (yurisdiksiya) faoliyatda, shuningdek, maxsus bilimlarda foydalanishning huquqiy makro-instituti tarkibiga kiruvchi boshqa turdagi faoliyatda sud ekspertlik faoliyati, mutaxassisning ishtiroki kabilarni me’yoriy-huquqiy tartibga solish va amalga oshirishni asoslovchi bilim sifatida maydonga chiqadi;

sud ekspertshunosligi tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar, ushbu makro-institut tarkibiga kiruvchi sohalararo huquqiy institutlarni muvofiqlashtirish, birlashtirish va soddalashtirishda qonun chiqaruvchi tomonidan qabul qilinishi taklif qilinadi.

Sud ekspertshunosligi fanining asosiy qoidalarini ishlab chiqish masalalari bo‘yicha ilmiy izlanish bilan shug‘ullangan olimlarning baynalmilalligi – ushbu fanning, maxsus bilimlardan foydalanish makro-institutining konseptual birligini va bu maxsus bilimlarning asosiy elementlarini har qanday odil sudlovga oid ishlar yoki boshqa turdagi protsessual (yurisdiksiya) faoliyatga nisbatan rivojlanishini ta’minlovchi xususiyatini tasdiqlaydi.

НАУКА ОБ ИСПОЛЬЗОВАНИИ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ – СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТОЛОГИЯ: ПОНЯТИЕ, СУЩНОСТЬ И СТРУКТУРА

Аннотация. В статье изучены теория и практика использования специальных знаний, формы использования специальных знаний и обоснована острая необходимость в едином, скоординированном правовом регулировании института судебной экспертизы, участия специалиста и т.д., взаимосвязанных в рамках деятельности по применению специальных знаний, независимо от видов правосудия и других процессуальных видов деятельности, но с учётом их особенностей. Основываясь на теоретических взглядах учёных по данной теме и анализе судебно-экспертной практики, а также в

целях упрощения деятельности по применению юридических терминов, предложено рассматривать правовые, процессуальные, методические и организационные основы института судебной экспертизы и института правового статуса эксперта, института участия специалиста и т. д., в составе единого макро-института использования специальных знаний, а также на основании того, что прошедшие институты должны быть исследованы в рамках “Судебной экспертологии”. На основе теоретических взглядов учёных и судебно-экспертной практики предложен предмет, структура и объект науки судебная экспертология.

Ключевые слова: специальные знания, формы использования специальных знаний, макро-институт, макро-институт использования специальных знаний, институт правового статуса лица со специальными знаниями, институт судебной экспертизы, институт допроса лица со специальными знаниями, институт участия специалиста, правовой институт межотраслевой экспертизы, общая теория судебной экспертизы, наука судебной экспертологии, предмет судебной экспертологии, структура (система) судебной экспертологии, объект судебной экспертологии.

THE SCIENCE OF USING SPECIAL KNOWLEDGE – FORENSIC EXPERT SCIENCE: CONCEPT, ESSENCE AND STRUCTURE

Abstract. The article examines the theory and practice of the use of special knowledge, the forms of the use of special knowledge and substantiates the urgent need for a unified, coordinated legal regulation of the institute of forensic examination, the participation of a specialist, etc., interrelated within the framework of the application of special knowledge, regardless of the types of justice and other procedural activities, but taking into account their features. Based on the theoretical views of scientists on this topic and the analysis of forensic expert practice, as well as in order to simplify the use of legal terms, it is proposed to consider the legal, procedural, methodological and organizational foundations of the Institute of forensic Examination and the institute of the legal status of an expert, the institute of specialist participation, etc., as part of a single macro-institute for the use of special knowledge, and also on the basis of the fact that the past institutes should be investigated within the framework of “Forensic Expertise». Based on the theoretical views of scientists and forensic expert practice, the subject, structure and object of the science of forensic expert science is proposed.

Key words: special knowledge, forms of using special knowledge, macro-institute, macro-institute of using special knowledge, institute of legal status of a person with special knowledge, institute of forensic examination, institute of interrogation of a person with special knowledge, institute of specialist participation, legal institute of intersectoral expertise, general theory of forensic examination, science of forensic expertise, subject forensic expert science, the structure (system) of forensic expert science, the object of forensic expert science.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дьяконова О.Г. Судебная экспертиза и предварительные исследования как конкурирующие формы использования специальных знаний / Дьяконова О.Г. // Судебная экспертиза. 2019. № 2(58). – С.8-20. DOI 10.25724/VAMVD.GRST.

2. Зайцева Е.А. Концепция развития института судебной экспертизы: дис. ...д-ра юрид. наук. М., 2008. 437 с.

3. Аверьянова Т.В. Судебная экспертиза. Курс общей теории. – М.: Норма, 2006. – 480 с.

4. Алиев И.А., Аверьянова Т.В. Концептуальные основы общей теории судебной экспертизы. – Баку, 1992. – С.83.

5. Белкин Р.С., Винберг А.И. Криминалистика. Общетеоретические проблемы. – М., 1973. – 264 с.;

6. Белкин Р.С. Курс криминалистики. – М., 2001. – С.27.

7. Россинская Е.Р. Современная судебная экспертология – наука о судебной экспертизе и судебно-экспертной деятельности / Теоретические вопросы судебной экспертизы // Теория и практика судебной экспертизы № 4 (40) 2015. – М., – С.10-18.

ISSN 3030-3230

8. Дьяконова О.Г. Специальные знания в судебной и иной юрисдикционной деятельности государств-членов ЕАЭС: теория и практика: дис. .д-ра юрид.наук. – М., 2021. В 2-х томах. – 647 с.

9. Россинская Е.Р. Современные представления о предмете и системе судебной экспертологии // Lex russica (Русский закон). 2013. – Т.95 № 4. – С. 421-428.

10. Россинская Е.Р. Генезис, система, функции, тенденции развития судебной экспертологии // Судебно-медицинская экспертиза. 2017. № 5. – С. 4-7. DOI: 10.17116/sudmed20176054-7.

11. Зайцева Е.А. Реализация состязательных начал при применении специальных познаний в уголовном судопроизводстве: монография. – Волгоград, 2006. – 192 с.

12. Дьяконова О.Г. Понятие и структура предмета науки «судебная экспертология» // Вестник университета имени Кутафина О.Е. (МГЮА). 2015. № 12. – С. 86-99.

13. Дьяконова О.Г. Перспективы развития науки «Судебная экспертология» // Вестник экономической безопасности. 2016. № 4. – С. 38-45.

14. Сегай М.Я. Судебная экспертология: объект, предмет, природа и система науки // В зб. «Теорія та практика судово експертізі і криміналістікі», Вип. 3. – Хартв: Право, 2003. – С. 25-32.

15. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 21 февралдаги “Суд экспертизаси тадқиқотларини ўтказиш тартиби тўғрисидаги намунавий низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 73-сон қарори / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 22.02.2023 й., 09/23/73/0098-сон.

16. Аверьянова Т.В., Белкин Р.С., Корухов Ю.Г., Россинская Е.Р. Криминалистика: учебник для вузов / Т.В.Аверьянова, Р.С.Белкин, Ю.Г.Корухов, Е.Р.Россинская; под ред. Р.С.Белкина – М., 1999. – 600 с.

17. Бикмаева Н.Л. Историко-криминалистические тенденции развития судебной экспертизы и судебных экспертных учреждений России, (XIX-конец XX века): автореф.дис... канд. юрид. наук. – Нижний Новгород, 2006. – 27 с.;

18. Бычкова С.Ф. Становление и тенденции развития науки о судебной экспертизе. – Алматы, 1994. – 165 с.

TOSHKENT SHAHRIDA XAVFSIZ JAMOAT TRANSPORTI TIZIMINI samarali yo‘lga qo‘yishning nazariy va amaliy muammolari

Saidov Baxrom Anvarovich
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, Magistratura boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor

Tashpulatov Aziz Anvarovich,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, mustaqil izlanuvchisi

“Xavfsiz poytaxt” konsepsiyasini joriy etishda yuzaga kelayotgan asosiy muammolardan biri, bu Toshkent shahar jamoat transport tizimini tartibga solish bo‘yicha mavjud muhim muammolar va ularning yechimiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar bilan bog‘liq.

Ma’lumki respublikamizning iqtisodiy salohiyati o‘sib bormoqda. Bu barcha sohalar bilan bir qatorda avtomobil transporti va kommunikatsiyalarini ham qamrab olganini ko‘rishimiz mumkin. Albatta, bu quvonarli holat, o‘zgarishlar aholimizning ijtimoiy rivojlanishi darajasini yaxshilashga ham xizmat qilmoqda. Lekin shu bilan birga ushbu sohada yechimini talab qiladigan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bularga yo‘l-transport hodisalarining sodir etilishining sezilarli darajada ortganligini, uning oqibatida insonlarning hayotdan ko‘z yumushi yoki turli darajada tan jarohatlarini olishi, avtomobil yo‘llarida va shahar ko‘chalarida tirbandliklarning yuzaga kelishi, atrof muhitning transport vositalari chiqaradigan gazlardan ifloslanishi kabilarni keltirishimiz mumkin[1].

So‘nggi yillarda aholiga avtotransport xizmati ko‘rsatishni yaxshilash, jamoat transporti yo‘nalishlari tarmog‘ini kengaytirish va harakat tarkibini zamonaviy, ekologik toza avtobuslar bilan yangilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xorijiy ekspertlar ishtirokida yangicha yondashuvlar asosida Toshkent shahar jamoat transportining yangi yo‘nalishlari tarmog‘i ishlab chiqildi.

Shaharlarda avtobus transporti orqali ko‘rsatiladigan xizmat sifati quyidagilar bilan aniqlanadi: yo‘lovchilarni manzillariga o‘z vaqtida yetkazib borish; to‘xtash bekatlariga kelish uchun sarflanadigan vaqt va avtobusni kutish hamda boshqasiga almashish vaqtlarni ham hisobga olgan holda harakatlanish uchun sarflanadigan vaqt; harakatlanish komfortligi (qulaylik, o‘tirib ketish uchun joylarning mavjudligi, avtobus salonining to‘lish darajasi va boshqalar)[2].

Shu bilan birga, qatnov muntazamligiga, harakat xavfsizligi va sifat talablariga rioya etilmasligi, yo‘lkira haqining tabaqalashgan tariflari mavjud emasligi, jamoat transporti harakati ustuvorligi ta’minlanmasligi jamoat transporti jozibadorligini pasaytirmoqda.

Tashish sifati yo‘lovchilarning transport xizmatiga bo‘lgan talabini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar yig‘indisidan iborat bo‘lib, ularga qatnov qulayligi(avtobusning to‘lganlik darajasi, avtobus tipining tashish xarakteriga mosligi va harakat muntazamligi), yo‘lovchilar qatnov vaqtining davomiyligi, harakat xavfsizligi va xizmat ko‘rsatish madaniyati kiradi[3].

Jamoat transportini moliyalashtirishning amaldagi tizimi harakat tarkibini tizimli ravishda yangilab borish va sohaga xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish imkonini bermayapti.

Toshkent shahar jamoat transport tizimida quyidagi muammolar mavjud:

- mavjud yer usti jamoat transporti harakat tarkibining 30 foizi yoki 350 tasi eskirganligi yo‘lovchi tashish xizmatlariga bo‘lgan talabning to‘liq qondirilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda;

- ko‘cha va chorrahalarda jamoat transporti harakatiga ustuvorlik berilmaganligi, harakat tarkibining yetishmovchiligi va uning texnik nosozliklar sabab turib qolishi natijasida yo‘lovchilarning avtobuslarni kutib turish vaqti 25 - 30 daqiqani tashkil etmoqda;

ISSN 3030-3230

- jamoat transporti turlari va yo‘nalishlarini bog‘lovchi transport-o‘tish bog‘lamalari yetarli darajada rivojlanmagan;
- avtobus oraliq bekatlari infratuzilmasi xavfsizlik, qulaylik va shaharsozlik normalariga javob bermaydi;
- avtomobil yo‘l bo‘yi to‘xtash joylarining hozirgi kundagi betartib holati tirbandliklarni yuzaga keltirib, jamoat transportining o‘rtacha harakatlanish tezligining pasayishiga olib kelmoqda;
- yo‘nalishsiz taksi faoliyati qonunchilik bilan yetarli darajada tartibga solinmagan;
- Toshkent metropoliteni harakat tarkibining eskirganligi natijasida turli xil texnologik holatlar sodir bo‘lishiga olib kelmoqda;
- jamoat transportida yo‘lkira haqini belgilash bo‘yicha ta’rif siyosati takomillashtirilmagan va egiluvchan ta’riflar joriy etilmagan;
- jamoat transporti korxonalari faoliyatini moliyalashtirish ishlari bugungi kun talablariga javob bermaydi;
- yo‘l harakatini tashkil etish tizimining mukammal emasligi sababli yo‘llar va chorrahalarda transport oqimi to‘g‘ri taqsimlanmagan hamda tirbandliklar darajasi yuqori, yo‘l-transport hodisalari soni ortib bormoqda[4].

Hozirgi vaqtda poytaxtimiz Toshkent shahrida avtomobillar soni ko‘paygani tufayli yo‘llarda tirbandliklar yuzaga kelib, belgilangan manzilga yetib olishga vaqt ko‘p sarflanmoqda. Tirbandliklarga “chiday olmagan” ba’zi haydovchilar “tirbandlik hududi”dan qutulishi bilan yo‘qotgan vaqtiga “etib olish” maqsadida tezlikni belgilangan me’yordan oshirib, yo‘l-transport hodisasini yuzaga keltirishi mumkin[5].

Yo‘lovchi tashish avtomobil transporti xususiy tashuvchilarning hisobiga yuqori suratlar bilan rivojlanib borishiga qaramasdan uning ishidagi barcha muammolar to‘la hal qilinmagan. Aholiga transport xizmatini ko‘rsatishda kamchiliklarni yuzaga keltiruvchi asosiy sabablar mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- harakatlanuvchi tarkiblarga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlashning qoniqarli tashkil etilmaganligi;

- yo‘nalishlarning zarur avtobuslar bilan yetarli ta’minlanmaganligi;

- bosh va shohbekatlarda, yo‘nalishlarda transport jarayonini tashkil etishning samarali shakllaridan va ilg‘or usullaridan sust foydalanilishi[6].

Poytaxtning yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasiga doir texnik jihatlari tahlil qilinib, ularning rivojlanish tendensiyasi o‘rganilgan. Sohaga oid har bir qurilma davrlashtirilib, ya’ni bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda. Xususan, har bir davr alohida ko‘rib chiqilgan hamda har bir davrning o‘ziga xos tomonlariga urg‘u berilib, e’tiborga molik jihatlari o‘rganildi. Yo‘l harakati xavfsizligini texnologik tizimlashtirish, aqlli shaharda aqlli chorrahalarning rivojlanishi, ayniqsa, fuqarolarimiz tomonidan kuzatuv texnologiyalariga nisbatan ijobiy fikrlarning ko‘payishiga olib keldi.

Bunday texnologiyalarning poytaxtda joriy etilishi shahar infratuzilmasi samaradorligi hamda aholining faolligini oshirishga olib keldi. Kameralar va tizimlar aqlli shahar infratuzilmasi, operatsiyalari va faoliyatini kuzatib boradi, uning yanada samarali ishlashiga yordam berishga erishiladi. Aholi shaharda yanada xavfsizroq yashashi uchun har qanday xavfning oldini olishda maksimal darajaga erishildi, fuqarolar tomonidan qoidalar buzilishining oldini olish va shahar infratuzilmasi elektr energiyasini taqsimlash, shuningdek, svetoforlarni turli sharoitlarga mos ravishda dinamik jihatdan sozlash kabi ishlarda kameralarning o‘rni katta bo‘ldi[7].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-111-son “Toshkent shahar jamoat transporti tizimini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori bilan tasdiqlangan “Toshkent shahar jamoat transporti tizimini 2025-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”da poytaxt aholisi va mehmonlarining sifatli, ommabop va xavfsiz transport xizmatlariga o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish hamda yo‘lovchilarga qulay va xavfsiz harakatlanish muhitini yaratish uchun jamoat transport tizimini kompleks rivojlantirishning o‘rta muddatli maqsadlari, vazifalari va ustuvor yo‘nalishlari belgilandi. Unga ko‘ra 2025-yilga qadar:

- yo‘nalishdagi avtobuslarning

o‘rtacha tasarruf tezligini 17 foizga oshirish;

- avtobus qatnovlari muntazamligini 95 foizga yetkazish;

- yo‘nalish harakat intervalini 35 foizgacha qisqartirish;

- shahar hududini jamoat transporti bilan to‘liq qamrab olish;

- aholining jamoat transportidan foydalanish darajasini 43 foizga yetkazish (kunlik yo‘lovchi tashish hajmi o‘rtacha 2,7 mln. yo‘lovchiga yetkazish);

- jamoat transporti qulay va ekologik toza harakat tarkibi bilan yangilash yo‘li bilan atrof-muhitga salbiy ta’sirini 35 foizga kamaytirish;

- shahar markazida harakatlanayotgan yengil avtomobillar soni 20 foizgacha qisqartirilishi;

- velosiped transporti infratuzilmasining keng rivojlanishi;

- transport korxonalari faoliyatini raqamlashtirish hisobiga ishlab chiqarish samaradorligi 30-35 foizga o‘sishi, ma’muriy va operatsion xarajatlar o‘rtacha 20-22 foizga kamayishi;

- yo‘lkira haqi to‘lanishida naqd pul aylanmasidan voz kechish;

- transport korxonalari daromadlari yig‘ilishining shaffofligini ta’minlash;

- chorrahalarda transport vositalarining o‘tkazuvchanligi 15 foizga oshirilishi rejalashtirilgan.

Fikrimizcha, poytaxt ko‘chalarida yo‘l harakati xavfsizligi qoidalarini muntazam ravishda qasddan buzuvchilarga, og‘ir oqibatlarga olib kelgan yo‘l-transport hodisalarini sodir etganlarga nisbatan javobgarlik choralarini kuchaytirish, shu jumladan ilg‘or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda, transport vositasini boshqarish huquqidan uzoq muddatga mahrum qilishgacha bo‘lgan qat’iy ma’muriy va jinoiy-huquqiy ta’sir choralarini kuchaytirish lozim.

Shu bilan birga jamoat xavfsizligini ta’minlashga vakolatli bo‘lgan davlat organlari xodimlarining qonuniy talablariga bo‘ysunmaslik hamda faol qarshilik ko‘rsatish harakatlarining oldini olish tartib va mexanizmlarni takomillashtirish masalasi ham poytaxtda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bois, ommaviy axborot vositalari, telekommunikatsiya tarmoqlari va Internet tarmog‘idan foydalangan holda ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha vakolatli davlat organlari xodimlarini obro‘sizlantirish holatlarining oldini olish va ularga barham berishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish kerak.

Yuqorida qayd etilganlar bilan birga shuni ham ta’kidlash joizki, davlat-xususiy sheriklik va autsorsing mexanizmlarini yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimiga va yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish jarayoniga kengroq joriy etish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida hozirgi vaqtda xizmatlar sohasida davlat-xususiy sherikligidan keng foydalanilmoqda. Butun dunyoda davlat-xususiy sherikligi ijtimoiy xizmatlarni amalga oshirish mexanizmini o‘zida mujassamlashtiradi, bunda ular faoliyatining ko‘lami davlat budjeti hisobiga moliyalashtirish hajmi bilan cheklangan. Bunday tendensiya o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida va Germaniya, AQSh, Fransiya kabi jamiyatga xizmat ko‘rsatishda DXSH mexanizmi faol qo‘llanilayotgan rivojlangan mamlakatlarda kuzatilmoqda[8].

Poytaxt ko‘chalarida transport va piyodalarning harakatni to‘xtatishi va boshlashi to‘g‘risida ogohlantirishning zamonaviy signal beruvchi tizimlarini joriy etish, piyodalar uchun yangi turdagi o‘tish joylarini tashkil etish lozim. Zotan, amerikalik professor, urbanist Vukan Vuchik aytganidek “Shahar avtomobillar uchun emas, insonlar uchundir”[9].

Biz shahar ko‘cha-yo‘llarini shunday oqilona loyihalashtirishimiz lozimki, ular shaharlarimiz ko‘rkiga ko‘rk qo‘shibgina qolmay, insonlarga ko‘proq foyda keltiradigan hududga aylansin. Yo‘l tarmog‘ini kengaytirish strategiyasining xato ekanligi ko‘pgina davlatlar tajribasida o‘zining isbotini topdi. Chunki, yo‘llar qancha ko‘p qurilsa, ularda harakatlanadigan avtomobillar, shu bilan birga tirbandliklar soni ortib boraverdi. Shunday ekan, shahar ko‘cha-yo‘l tarmog‘ini zamonaviy konsepsiyasini yaratish bugungi kun shaharsozligida dolzarb masalalardan biridir[10].

Fikrimizcha, poytaxtda yo‘l infratuzilmasini kompleks takomillashtirish, yo‘llar sifatini yaxshilash, transport vositalarining xavfsiz harakatlanishi uchun ishonchli sharoitlar yaratish

ISSN 3030-3230

hisobidan yo‘l-transport hodisalari sodir etilishini minimal darajaga keltirish mumkin.

Buning uchun yo‘l qurilishi sohasiga oid normativ hujjatlarga zamon talablaridan kelib chiqib tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, jamoat va maxsus transport uchun alohida harakatlanish yo‘l polosasi va zamonaviy velosiped yo‘lkalari tashkil etish lozim.

Poytaxt bozorlari atrofidagi tirbandliklarni bartaraf etish va fuqarolarga qulayliklar yaratish maqsadida va transport vositalari sonini hisobga olgan holda, yirik bozorlar atrofida ushbu bozorlarning daromadlari hisobidan ko‘p qavatli yoki yer osti avtoturargohlari qurilishini tashkil etish davr talabiga aylandi.

Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish, tirbandliklarni masofadan turib bartaraf etish maqsadida yo‘llardagi barcha svetoforlarning axborot boshqaruvi tizimiga ulanishini ta’minlash, sohaga intellektual tizimlarni joriy etish kerak.

Hozirgi kunda "GPS", "GLONASS", "GALILEO" atamalari ko‘plab qo‘llanilib kelinmoqda. Minglab avtohavaskorlar GPS moslamasidan unumli foydalanmoqda. Smartfon va planshet egalari esa navigatsiyaning sun’iy yo‘ldoshli tizimlaridan muntazam foydalanadi. AQShning "GPS", Rossiyaning "GLONASS" (Evropaning "GALILEO" tizimi hozircha tajribadagi loyihadir) tizimlari kundalik foydalanuvchilar uchun turgan joyini xaritadan bilish, notanish hududda mo‘ljal olish, masofani aniqlash imkonini beradi[11].

Avtokorxonalar, avtotransport tizimini boshqaradigan idora va tashkilotlarga esa yanada keng imkoniyatlar taqdim etadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishda sun’iy yo‘ldoshli navigatsiya tizimi yordamida xaritada transport vositalari harakatini kuzatish, harakat yo‘nalishini tekshirish va to‘liq statistikasini olish, bosib o‘tilgan masofa va to‘xtab turilgan vaqtni hisoblash, yonilg‘i-moylash materiallari xarajatini kamaytirish, yo‘lovchi va yuk tashish jarayonini maqbullashtirish mumkin[12].

Shu bilan birga qoniqarsiz holati yo‘l-transport hodisasiga, ayniqsa, o‘limga olib kelgan yo‘l yoki muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi obyektlari tasarrufida bo‘lgan tashkilotlar yoki organ rahbarlaridan moddiy zararni undirish tartibini joriy etish hamda ularning javobgarligini belgilash lozim.

Xorijiy tajriba transport harakatini tashkil etishni takomillashtirishga qaratilgan turli chora-tadbirlarni amaliyotga joriy etish shahar transport tizimlari samaradorligini oshirishning eng radikal va samarali usuli ekanligini ko‘rsatmoqda.

Ko‘cha-yo‘l tarmog‘ida harakatlanayotgan avtomobillar soni hamda avtoturargoh maydonlari uning sig‘imi va o‘tkazuvchanlik qobiliyatidan ortmasligini ta’minlash maqsadida turli ma’muriy cheklov yoki ko‘cha-yo‘l tarmog‘idan foydalanganligiga yig‘im undirishni joriy etish, ko‘cha-yo‘l tarmog‘ining tirbandligiga salmoqli ta’sir ko‘rsatayotgan shaxsiy yengil avtomobillar ekanligi sababli, ushbu yondashuvni amalga oshirishda cheklovlarning asosiy obyekti hisoblanadi. Shunday qilib, bu kabi chora-tadbirlarni qo‘llash orqali G‘arbiy Yevropaning transport zichligi va avtomobillar soni 1000 kishiga 550 ga yaqin bo‘lgan shaharlarda shaxsiy avtomobillarda ishga borish qatnovlari ulushi 20 foizdan ortmaydi.

AQShda shaharlarning ko‘cha-yo‘l tarmog‘ida transport harakatini baholashning asosiy mezoni sifatida xizmat ko‘rsatish darajasi (LOS) dan foydalaniladi. U harakatlanish tezligi, qatnov vaqti, avtomobil boshqarishning qulayligi va xavfsizligi, manevrlarning erkinligi kabi omillarni umumlashtirgan holda aks ettiruvchi sifat ko‘rsatkichi hisoblanadi. AQShda ushbu ko‘rsatkich transport harakatini tashkil etish sifatini baholashning asosiy mezoni sifatida me’yoriy hujjatga kiritilgan. Darajalarga ajratish transport va yo‘lni baholovchi parametrlarni qulay va tushunarli shkalaga o‘tkazish imkonini berdi[13].

Bundan tashqari piyodalarni yo‘l harakati qoidalarini buzganligi uchun javobgarlikka tortishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, transport vositalari haydovchilari tomonidan sodir etiladigan «yo‘lda bezorilik» holatlari bilan ifodalanadigan xatti-harakatlar uchun ma’muriy javobgarlikni joriy etish maqsadga muvofiq.

Ayniqsa, jinoyat va ma’muriy huquqbuzarliklarning mast holatda sodir etilganligini, shuningdek, alkogolli ichimliklar iste’mol qilmaslik cheklovi o‘rnatilgan shaxsni ushbu cheklovga rioya etmaganligini aniqlash va tasdiqlash tartibini ishlab chiqishga zarurat mavjud.

Zotan, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ma’muriy-huquqiy mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish masalalarining mazmun-

mohiyatini anglash alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada ukrainalik huquqshunos olim V.F.Mutskoning yo‘l harakati xavfsizligini ma’muriy-huquqiy tartibga solish – bu davlat organlarining hayotga zarar yetkazish xavfini minimallashtirish uchun transport vositalarida odamlar va yuklarni tashish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarga ta’sir qilishning maxsus usullaridan foydalanish jarayoni[14], degan fikrini to‘g‘ri va o‘rinli deb hisoblaymiz.

Xulosa sifatida shuni qayd etish lozimki, tadqiqot ishi doirasida ishlab chiqilgan yuqorida qayd etilgan taklif-tavsiyalar, Toshkent shahrida jamoat transporti tizimini kompleks rivojlantirish, yo‘lovchilarga sifatli va xavfsiz transport xizmatlarini ko‘rsatish, shuningdek sohaga raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobobekov B. (2024). Yangi o‘zbekistonda yo‘l harakati qoidalarini takomillashtirishga bog‘liq islohotlar. Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(2), 50-53.

2. Nasirov I. Z., Xaydarov M. A. (2023). Shahar jamoat transportining asosiy ekspluatatsion ko‘rsatkichlarlari. Ijodkor o‘qituvchi, 3(34), 138-143.

3. Nazarov A.A. (2022). Shahar jamoat transportida yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish. Journal of new century innovations, 15(3), 154-157.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagi PQ-111-son “Toshkent shahar jamoat transporti tizimini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. https://lex.uz/docs/5847479.

5. Karabayev O. (2024). Axborot-tahlil ishida yo‘l-transport hodisalarini oldini olishning nazariy-huquqiy jihatlari. Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(1), 151-155.

6. Chariyev X., Abdulazizov B. (2023). Yo‘lovchilarni manzillariga o‘z vaqtida yetib borishlarida bir transportdan ikkinchi transportga o‘tishga sarflanadigan vaqtlarga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning tahlili. Solution of social problems in management and economy, 2(10), 5-11.

7. Karimov A.A. (2022). Xavfsizlikni ta’minlash va yo‘l harakatini tartibga solishda aqlli kameraning o‘rni. Innovation in the modern education system, 3(25), 273-283.

8. Tursunov O. (2022). Transport xizmatlari va infratuzilmasini rivojlantirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi. Евразийский журнал академических исследований, 2(13), 4-9.

9. Вукан Р.Вучик “Транспорт в городах, удобных для жизни”, перевод с английского А.Калинина под науч.ред. М.Блинкина, Москва, 2011г.

10. Saydametova F. J. (2022). Zamonaviy shahar yo‘llari va ko‘chalarini loyihalashning asosiy tamoyillari. Scientific aspects and trends in the field of scientific research, 1(4), 14-19.

11. Nasirov Ilkham Zakirovich- Ph.D., Gaffarov Mukhammadzokir Toshtemirovich , Doctoral Student. (2023). Consequences Of Complete And Undercombustion Of Fuel. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 3597–3603. https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.448.

12. Nasirov I. Z. (2024). Transport vositalari uchun intellektual boshqaruv tizimi. So ‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi, 7(2), 156-161.

13. Ziyayev K. Z., Abdurazzokov U. A. (2022). Zamonaviy shaharlarning transport muammolari va ularni hal etish usullari. Uzbek Scholar Journal, 9, 253-255.

14. Муцко В.Ф. Административно-правове регулювання безпеки дорожнього руху в Украини: автореф. дис….. канд. юрид. наук / В.Ф. Муцко. – К., 2011, – С. 10.

ISSN 3030-3230

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TIZIMIGA kadrlar tayyorlash samaradorligi

Vaxidov Fazliddin Raufovich
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimiga kadrlar tayyorlashning dolzarb masalalari, bu borada mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida kuzatilgan muammo va qiyinchiliklar hamda amalga oshirilgan islohotlar va ularning samaradorligi to'g'risida ma'lumot berilgan. Shu bilan birga bugungi kunda jamoat xavfsizligi tizimiga kadrlar tayyorlashning zamonaviy mexanizmlari, bu borada qonun hujjatlarining takomillashib borayotganiga ham urg'u qaratilgan.

Kalit so'zlar: Jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, ichki xavfsizlik, xavfsizlikka tahdid, kasbiy mahorat, harbiy tayyorgarlik.

So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi islohotlar doirasida aholining tinchligi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamiyatda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bu borada jamoat xavfsizligi bilan shug'ullanuvchi tuzilmalarning faoliyati yanada takomillashtirilib, bu borada salohiyatli kadrlar tayyorlash sifat jihatdan mustahkamlab borilmoqda. Zero bugungi tobora globallashib borayotgan dunyoda tinchlik va xavfsizlikni saqlash, aholi manfaatlarini har tomonlama himoya qilish mamlakat siyosatining muhim belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida

> "... yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ona yurtga mehri va sadoqatini oshirishga yanada ko'proq ahamiyat berishimiz kerak. Biz jamiyatimizda har qanday radikallashuvga, yoshlarimiz ongini buzg'unchi yot g'oyalar bilan zaharlashga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga, ma'rifat o'rnini jaholat egallashiga yo'l qo'ymaymiz"

deb ta'kidlab yosh avlodimizni ana shunday barkamol, el-yurt uchun fidoyi insonlar qilib tarbiyalash oldimizda turgan eng ustuvor vazifalar turganini anglatadi [1].

Shuni alohida qayd etish lozimki shu vaqtga qadar jamoat xavfsizligi va jamoat xavfsizligini ta'minlash tushunchalariga turli huquqiy adabiyotlar va manbalarda turlicha ta'riflar berilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi Farmonida mazkur tushunchalarga ilk marotaba huquqiy ta'rif berildi va mazkur hujjat asosida Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi qabul qilindi [2].

Unga ko'ra jamoat xavfsizligi – jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo'lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash esa, davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim hisoblanadi.

O'zbekistonda tinchlik va osoyishtalikka bo'lgan har qanday tahdidlarni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, shuningdek, zamon talablaridan kelib chiqib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va Qurolli Kuchlarning kadrlar salohiyatini oshirish, shuningdek, kuch va vositalarni samarali boshqarishda rahbar kadrlarning intellektual va professional salohiyatini yanada oshirish eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar natijasida harbiy kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish tizimi prinsipial jihatdan mutlaqo yangi asosga o'tkazildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida mahalliy ofitser kadrlar yurtimizdagi harbiy xizmatchilar umumiy sonining atigi 0,6 foizini tashkil etardi [3, 319]. Ofitserlarni tayyorlash esa uchta harbiy bilim yurtida va bor-yo'g'i uchta harbiy mutaxassislik

bo‘yicha olib borilar edi.

Mustaqillik arafasida va istiqlolning dastlabki yillarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashga mas’ul bo‘lgan harbiy tuzilmalar, xususan, Ichki qo‘shinlarni kadrlar bilan ta’minlash bo‘yicha bir qator muammolar mavjud edi.

Ma’lumki Sovet Ittifoqi tarqatilganidan so‘ng harbiy kadrlar sohasida ham tabiiy ravishda jiddiy o‘zgarishlar, kamchiliklar sodir bo‘ldi. Boisi ittifoq vaqtida O‘zbekistonda xizmat vazifasini o‘tagan ko‘plab harbiy xizmatchilar MDHning turli mamlakatlariga ko‘chib ketib xizmat faoliyatlarini davom ettirdilar. Jumladan 1991-1994-yillarda 838 nafar harbiy xizmatchi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ichki qo‘shinlari saflaridan chiqib, MDHning turli davlatlaridan o‘z xizmat faoliyatlarni davom ettirdilar [6, 17-18].

Mazkur davr mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, ichki qo‘shinlar qo‘mondonligi, harbiy qism va bo‘linmalar tomonidan ichki qo‘shinlarni kadrlar bilan butlash bo‘yicha yirik masshtabda ishlar amalga oshirildi. Birinchi navbatda Respublikaning barcha viloyat, shahar va tumanlaridagi mudofaa bo‘limlari bilan hamkorlikda zaxiradagi ofitserlarni haqiqiy xizmatga chaqirish yuzasidan muhim ishlar amalga oshirildi. Natijada 406 nafar zaxiradagi ofitserlar haqiqiy xizmatga qabul qilindi. Biroq mazkur tarkibning professionallik darajasi, kasbiy mahorati va harbiy tayyorgarligi zamon talablariga to‘la darajada javob bera olmaganini tan olish lozim.

Ofitserlar tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Toshkent oliy harbiy bilim yurtidagi eskternat kurslarida o‘qib ma’lum darajada tajriba to‘plagan praporshiklar hisobiga to‘ldirilgan.

Mazkur davrda ichki qo‘shinlar tarkibini butlash ishlarida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ichki qo‘shinlari faxriylar Kengashi konvoy diviziyasining sobiq komandiri, keyinchalik Ittifoq Ichki ishlar vazirligi Oliy kurslari boshlig‘i general-leytenant Sirojiddinov Burxon Hasanovich boshchiligida katta hajmdagi ishlar olib borildi. Xususan Sirojiddinovning taklif va tashabbusi ostida zaxiradagi bir qator tajribali ofitserlar haqiqiy xizmatga qayta jalb etildi. Jumladan, zaxiradagi faxriylar polkovniklardan P.M.Kislenko, A.F.Batrakov, N.I.Chyursinov, A.D.Kalashnikov, A.I.Terno va boshqalar ichki qo‘shinlarning samarali faoliyati va rivojiga ulkan hissa qo‘shdilar [7, 7-8].

Kadrlar masalasida yana bir e’tiborli jihat shundan iborat bo‘ldiki, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligining turli mamlakatlarida xizmat vazifasini o‘tayotgan mamlakatimiz fuqarolarini yurtimizga qaytarish ishlari ham soha rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ko‘zda tutildi. Ichki qo‘shinlar rahbariyati tomonidan ana shunday fuqarolarini keyingi faoliyatlarini bevosita ichki qo‘shinlar bilan bog‘lashlari uchun tinimsiz va tizimli ravishda ishlar olib borildi.

Bir qator MDH davlatlari bilan amalga oshirilgan kelishuvlarga muvofiq holda 1991-1994-yillarda ichki qo‘shinlar saflari 46 nafar MDH davlatlaridan kelgan ofitserlar va harbiy bilim yurtlarining bitiruvchilari hisobiga to‘ldirildi.

E’tiborli jihati, O‘zbekistonda tug‘ilgan va MDH davlatlarining turli harbiy oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan kursantlarni yurtimizga qaytarish va o‘qishlarini O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Toshkent oliy harbiy bilim yurtida davom ettirishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi.

Masalan, mazkur davrda yurtimizga kelgan va xizmat faoliyatini O‘zbekistonda davom ettirgan ofitserlardan K.A.Aliyev va N.V.Suleymanov, keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo‘shinlarining qo‘mondoni darajasigacha ko‘tarilgan.

Ichki qo‘shinlarni kadrlar bilan butlash masalasida amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlar natijasida 1994-yilning 31-dekabr holatiga praporshiklar bilan qo‘shib hisoblaganda ichki qo‘shinlarning ofitser lavozimdagi tarkibi 71%ni tashkil etgan.

Ichki qo‘shinlar shaxsiy tarkibini kadrlar bilan muntazam ta’minlashda Toshkent oliy harbiy-texnika bilim yurtining o‘rni va ahamiyati yuqori sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Toshkent oliy harbiy-texnik bilim yurti Sovet Ittifoqi Vazirlar Kengashining 1990-yil 15-oktabrdagi 1730-sonli ko‘rsatmasiga binoan Ichki ishlar vazirligi Oliy kurslari (5375 harbiy qism) bazasida tashkil etilib, Sovet Ittifoqi Ichki ishlar vazirligi Ichki qo‘shinlari Toshkent oliy harbiy-texnika bilim yurti deb nomlangan. Toshkent oliy harbiy texnika bilim yurti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 10-yanvardagi Farmoni asosida O‘zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasiga olinib, Ichki ishlar vazirligi tizimiga kirgan [5].

1991-1992-yillarda 135 nafar ofitser bilim yurtini tark etib, o‘z yurtlariga ketib qolishi natijasida bilim yurtining tajribali ofitserlari hisobiga Rossiya va MDHning boshqa davlatlari

ISSN 3030-3230

ichki qo‘shinlarining rahbariyati va kadrlar salohiyati kuchaytirilganligi kuzatilgan bo‘lsa, aksincha iqtidorli kadrlarning ketib qolishi oqibatida oliy harbiy bilim yurtining ilmiy va o‘quv salohiyatini zaiflashdi [6, 24].

Masalan, bilim yurti boshlig‘i general-mayor X.A. Shogenov Rossiya Federatsiyasida Kabardino-Bolkariya Respublikasi Ichki ishlar vaziri etib tayinlangan bo‘lsa [9], bilim yurti boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari, polkovnik (keyinchalik general-mayor V.S.Agoles Belorus Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ichki qo‘shinlari qo‘mondoni, so‘ngra Belorus Respublikasi Ichki ishlar vaziri etib tayinlandi [9].

Amalga oshirilgan ishlar natijasida qo‘shimcha ravishda yangi, zamonaviy harbiy ta’lim muassasalari tashkil etildi, kursantlarni o‘qitish tizimi esa ko‘p tarmoqli asosda yo‘lga qo‘yildi. Yuqori bo‘g‘in qo‘mondonlik ofitserlarini tayyorlash hamda mudofaa qurilishi sohasida ilmiy-tadqiqotlar va ishlanmalarni amalga oshirish bo‘yicha eng zarur vazifalar samarali hal etilmoqda. Bu borada, ayniqsa, Qurolli Kuchlar akademiyasi g‘oyat muhim o‘rin egallab kelmoqda. Shuningdek, armiyaning asosiy tayanchi bo‘lgan serjantlar korpusini shakllantirishga alohida e’tibor qaratildi. Ilg‘or xalqaro standartlar asosida tashkil etilgan Serjantlar tayyorlash maktablarida ta’lim 26 ta yo‘nalish va mutaxassislik bo‘yicha olib borilmoqda.

Oxirgi yillarda qabul qilingan bir qator huquqiy hujjatlar mamlakat ichki xavfsizligi tizimiga malakali kadrlar tayyorlash tizimining takomillashuviga xizmat qilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi “Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (PQ-5076) hamda “Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (PQ-5077) qarorlari sohadagi islohotlarni yangi bosqichga ko‘tardi [1].

Xulosa o‘rnida alohida qayd etish lozimki, mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston Respublikasi IIV ichki qo‘shinlari tarkibini kadrlar bilan butlash ishlarida ko‘plab qiyinchiliklar bo‘lganligiga qaramay, mamlakat rahbariyati tomonidan amalga oshirilgan samarali islohotlar hamda Toshkent oliy harbiy texnika bilim yurtida olib borilgan chora-tadbirlar natijasida ichki qo‘shinlarni kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga oid tizim yaratildi. Keyingi yillarda kadrlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish yuzasidan amaliy ishlar yanada takomillashtirilib, bilim yurtida nafaqat Ichki qo‘shinlar uchun, balki, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimidagi barcha kuch tuzilmalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar, qolaversa xorijiy mamlakatlar uchun ham sifatli oliy harbiy kadrlar tayyorlandi.

В СИСТЕМУ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБУЧЕНИЯ ПЕРСОНАЛА

Аннотация. В статье представлена информация об актуальных вопросах подготовки кадров для системы общественной безопасности, проблемах и трудностях, наблюдаемых в Республике Узбекистан в годы независимости, а также реализованных реформах и их эффективности. При этом акцент делается на современных механизмах подготовки кадров для системы общественной безопасности и совершенствовании нормативно-правовых документов в этой связи.

Ключевые слова: общественная безопасность, общественный порядок, внутренняя безопасность, угроза безопасности, профессионализм, военная подготовка.

TO THE SYSTEM OF ENSURING PUBLIC SAFETY PERSONNEL TRAINING EFFICIENCY

Abstract. The article provides information on current issues of personnel training for the public security system, problems and difficulties observed in the Republic of Uzbekistan during the years of independence, as well as implemented reforms and their effectiveness. At the same time, the emphasis is on modern mechanisms for training.

Key words: Public Safety, Public Order, internal security, security threat, professional skills, military training. personnel for the public security system and improving regulatory documents in this regard.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr. prezident.uz/uz/lists/view/5774.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2021-yil 29-noyabr. PF-27. https://lex.uz/docs/-5749291

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent. “O‘zbekiston”, 2021. – 464 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. PF-318-son. “SSSR Ichki ishlar vazirligining ichki qo‘shinlari va o‘quv yurtlari to‘g‘risida”. 1992-yil
10-yanvar, https://lex.uz/docs/148222.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. “Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (PQ-5076), “Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (PQ-5077). www.lex.uz.

6. Мамо В.А. Внутренним войскам Республики Узбекистан посвящается. Боевой путь внутренних войск МВД в период суверентитета и независимости Республики Узбекистан. Т.: 1995.

7. Чурсунов Н. Дело всей жизни. (К 100-летию Сирождинова Б.Х.). Т.: 2017, 36 с.

8. Жертвенност Очерк 54 Генерал Хачим Шогенов. Очерк 54 «General-leytenant Xachim Alisagovich Shogenov». https:/proza.ru/2020/01/07/1215

9. https://be.wikipedia.org/wiki/.

ISSN 3030-3230

HARBIY XIZMAT O‘TASH JARAYONIDAGI PSIXOLOGIK ZO‘RIQISHAR VA ULARNI KELTIRIB CHIQARUVCHI OMILLAR

A.T. Ergashev
O‘zbekiston Respublikasi
Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi,
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Maqolada odatdagi insonlarning shuningdek harbiy xizmatchilarning adaptatsiya jarayoni, psixologiya fanlaridan boshqa sohalarda ham o‘rganilayotgani, ya’ni tibbiyot sohasida, biologiya va fiziologiya kabi fan sohalarida ham o‘rganilayotgani, adaptatsiya jarayonining ahamiyati, sezgi organlarini kuchsiz va kuchli ishlashi, Adaptatsiya so‘ziga tushuncha berilgani sezgirlikning o‘zgarishi, ko‘ruv adaptatsiyasi, eshitish adaptatsiyasi, teri adaptatsiyasi va eng muhimi ruhiy adaptatsiya qonuniyatlari, harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarni xizmat jarayonini boshqarishda adaptatsiyaning mohiyati, tormozlanish holatlari, taassurot holatlari, ko‘ruv, eshituv, hid bilish, teri-kuyish masalalari, harbiy xizmatchi kasbining alohida o‘ringa egaligi, maxsus kasbiy talabnomalar asosida tanlab olinishi, kasbiy tayyorgarlik darajasining doimiy shayligini saqlab turishi, harbiy xizmatchining siymosi, harbiylik kasbining sifatlari, harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarni adaptatsiyalanuvini ta’minlashda jangovar tayyorgarlikning o‘rni va roli, ko‘nikish jarayonida jamoadagi muhitning dolzarbligi kabi masalalarga e’tibor berilgan.

Kalit so‘zlar: adaptatsiya, psixologiya, tibbiyot, biologiya, fiziologiya, taassurot, harbiy kasb, dolzarb, siymo, sifat, genetika, xususiyatlar, negativ adaptatsiya, harbiy xizmat, daraja, shaxs, fazilat, bilim, ko‘nikma, malaka, ijtimoiy, xususiyat, rang-barang, qiyinchilik.

Odatda insonlarning adaptatsiya jarayoni psixologiya fanlaridan boshqa sohalarda ham o‘rganiladigan asosiy dolzarb mavzu hisoblanib, tibbiyot sohasida, biologiya va fiziologiya kabi fan sohalarida ham o‘rganiladi. Aslida adaptatsiya jarayonining ahamiyati shundan iboratki, u kuchsiz qo‘zg‘alishni payqashga yordam berib, kuchli qo‘zg‘alishdan sezgi organini saqlaydi.

Adaptatsiya (lot. Adabtare - moslashtirmoq) - sezgi a’zolarining qo‘zg‘ovchi kuchiga moslashuvi natijasida muayyan sezgirlikning o‘zgarishini o‘rgatadi. Adaptatsiya hodisasida sezgirlik ortishi hamda kamayishi mumkin.

Adaptatsiya qonuniyati barcha sezgilarga xos jarayon hisoblanib, ko‘ruv adaptatsiyasi, eshitish adaptatsiyasi, teri adaptatsiyasi va eng muhimi ruhiy adaptatsiya qonuniyatlariga egadir. Harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarni xizmat jarayonini boshqarishda adaptatsiya alohida ahamiyat kasb etadi.

Adaptatsiya jarayonida miyaning po‘stloq qismi sezgirlikni pasaytiradigan mulohazalovchi jarayon tormozlanish holati yuz beradi. Kuchli ta’sirdan kuchsiz taassurotga o‘tganda, sezgirlik asta-sekin ortib boradi, taassurot kuchayganda esa sezgirlik kamayib boradi (ko‘ruv, eshituv, hid bilish, teri-kuyish va hokazo).

Jamiyatda boshqa kasblarga nisbatan harbiy xizmatchi kasbi alohida o‘rin tutadi. Bu kasb egalari alohida maxsus kasbiy talabnomalar asosida tanlab olinadi, chunki ular uchun kasbiy tayyorgarlik darajasining doimiy shayligini saqlab qolish juda muhim hisoblanadi. Bugungi kun harbiy xizmatchisining siymosi qanday bo‘lishi kerak va harbiylikni o‘zlari uchun kasb sifatida tanlaganlar qanday shaxsiy sifatlarga ega bo‘lishlari lozim? Harbiy xizmatni o‘tayotgan

harbiy xizmatchilarni adaptatsiyalashuvini ta’minlash jangovar tayyorgarlik uchun, jamoadagi muhit uchun ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

Genetik nuqtai nazardan adaptatsiya uch xil xususiyatli negiz (manba) ta’sirida vujudga keladi:

1. Qo‘zg‘atuvchilarning davomli ta’siri jarayonida sezgilarning to‘la yo‘qolishi tarzidagi adaptatsiya - bunda doimiy ta’sir qilib turadigan qo‘zg‘atuvchi ta’sir o‘tkazadigan bo‘lsa, bunday holatda sezgi so‘nib qoladi. Masalan, teriga tegib turadigan yengilgina bir yuk tez orada sezilmay qoladi. Yoqimsiz hidli bir joyga qirib qolganimizda, bir ozdan so‘ng bu hidni batamom yo‘qolib ketganday his qilamiz. Og‘izda biron-bir narsa ushlab turiladigan bo‘lsa, ta’m sezgisining intensivligi bo‘shashadi.

2. Doimiy va harakatsiz qo‘zg‘atuvchining ta’siriga nisbatan ko‘rish analizatorlarida to‘la adaptatsiya hodisasini shu bilan tushuntirib berish mumkin. Bunday holatda qo‘zg‘atuvchining harakatsizligini ko‘rish retseptorlari apparatining harakatchanligi bosib yuboradi. Ko‘zni har doim ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda harakatlanib turishi ko‘rish sezgisining uzluksizligini ta’minlaydi. Qo‘zg‘atuvchi ta’siridan 2-3 sekund o‘tgach, ko‘rish sezgisi yo‘qoladi, ya’ni adaptatsiya hodisasi yuzaga keladi.

Kuchli qo‘zg‘atuvchining ta’siri ostida ham sezgilar zaiflashadi. Masalan, qo‘lni muzdek suvga tutib turgan paytda, sovuq qo‘zg‘atuvchi ta’siri bilan yuzaga kelgan sezgining intensivligi pasayadi. Qorong‘iroq xonadan juda yorug‘ joyga birdaniga kirib qolsak, yorug‘likdan «ko‘r» bo‘lib qolib, atrofimizdagi narsalarni qiyin ajratamiz. Ma’lum fursat o‘tgandan so‘ng, ko‘rish analizatorlarning sezgirligi keskin sur’atda pasayadi va biz mo‘tadil ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Ko‘rish sezgirligining intensiv yorug‘lik qo‘zg‘ashuvchisi bilan ta’sir qilganda pasayishdan iborat hodisani yorug‘lik adaptatsiyasi deb yuritiladi. Ko‘rib o‘tilgan ikki turdagi adaptatsiyani ko‘pincha psixologiya fanida negativ adaptatsiya deb ataladi. Chunki, har ikkala adaptatsiya natijasida ham analizatorlarning sezgirligi keskin pasayadi.

3. Sezgirlikni, kuchsiz qo‘zg‘atuvchi ta’siri ostida sodir bo‘ladigan, ortib borishini ham adaptatsiya deb atash an’anaga aylanib qolgan. Aksariyat sezgi turlariga xos bo‘lgan adaptatsiyaning mazkur turi pozitiv adaptatsiya deyiladi. Qorong‘ilik adaptatsiyasida ko‘rish sezgirligi ortadi.

Tibbiyot psixologiyasida negativ og‘riq adaptatsiyasining mavjudligi to‘g‘risidagi gipoteza (ukolga, ignaga, issiq nurlanishga nisbatan) ham hukm surishi ta’kidlanib o‘tildi.

Adaptatsiyani hosil bo‘lish xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumot:

- **- taktil (teri) adaptatsiya juda tez hosil bo‘ladi;**
- **- ko‘z adaptatsiyasi bir necha minut;**
- **- hid va ta’m adaptatsiyalari undan ham uzunroq vaqt talab qiladi.**

Shu sababli, harbiy kasb talabnomalarida harbiy xizmatga chaqiruvchilarni adaptatsiyalashuv darajasini alohida ko‘rsatib, uni aniqlash uchun qo‘llaniladigan psixologik testlar mavjud. Harbiy kasbiy talabnomaning mudofaa maqsadidan kelib chiqqan holda, ta’kidlash joizki, muayyan harbiy kasb vazifalarini bajarish uchun harbiy xizmatchi shaxsidan talab qilinuvchi fazilatlar, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarning uyg‘unlashgan majmuasini o‘stirishga qaratilgandir. Binobarin, harbiy xizmatning ko‘p qamrovli, ‘‘inson-inson’’, ‘‘inson-jamiyat’’, ‘‘inson-texnika’’ tizimlari bilan ham bevosita bog‘liq ekanligi alohida inobatga olinishi darkor.

Harbiy xizmatni kasb sifatida tanlaganlar uchun shaxs ijtimoiy xususiyatlari inobatga olinishi zarur. Harbiy xizmat «Shaxs-jamiyat-davlat» tizimi doirasida faoliyat yuritishni talab etadigan davlat xizmatining murakkab bir turi hisoblanadi. Harbiy xizmatchilar faoliyatining rang-barangligi nafaqat xarakter jihatidan, balki qo‘yilgan xizmat vazifalarini bajarish jihatidan ham turli qiyinchiliklar bilan yuzma-yuz kelishni taqozo etadi.

Harbiy xizmatchilarning harbiy xizmatga moslashuvining asosiy vazifasi – xizmatga moslashuv holatini aniqlash, tashqi ko‘rinishdagi belgilar asab- hissiy buzilishlar va shaxsni yakka tartibda ruhiy tushkunlikka

ISSN 3030-3230

tushishining o‘ziga xosligidan kelib chiqib quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

* harbiy xizmatchining ruhiy holatini baholash, ruhiy emotsional buzilishning toifasi va sifatini aniqlash;
* ishchanlik holatini tiklashga qaratilgan ruhiy ta’sir etishning eng ma’qul yo‘li va usullarini aniqlash;
* ruhiy zo‘riqish va jarohat oqibatini va ruhiy ta’sir jarayonini shakllantirish;
* normal professional ko‘rsatkichli ishchanlik qobiliyati bilan solishtirish.

Aniqlangan harbiy kasbiy sifatlarni nazarda tutgan holda, kasbiy talabnomaning birinchi bo‘limidan quyidagi xususiyatlarga e’tibor berish lozim bo‘ladi:

* ijtimoiy xususiyatlar: shaxsiy jasorat, botirlik, axloqiy me’yor, dadillik, odamlarga qiziqish, muloqotchanlik, xarakterdagi shijoatlilik;
* intellektual xususiyatlar: umumiy qobiliyatlarning rivojlanganligi, aniq mantiqiy fikr yuritish qobiliyatiga egalik, tezkor mulohaza yurita olish;
* sensomotorli xususiyatlar: jismoniy zukkolik, xotira, idrok, e’tiborlilik;
* hissiy-irodaviy xususiyatlar: vaqt tig‘izligi va jismoniy zo‘riqish jarayonida tezkor tafakkurga ega bo‘lish, o‘ziga ishonuvchanlik, kuchli iroda, ruhiy barqarorlik, o‘zini tuta bilish;
* boshqa shaxsiy fazilatlar: antropometrik ko‘rsatkichlar, ma’lumot tanqisligi jarayoni va zo‘riqish vaziyatlarida ishchanlikning yuqori darajada saqlab qolinishidir.

Harbiy qismga ijtimoiy moslashuv jarayonida quyidagi bosqichlar ko‘zga tashlanadi:

* harbiy qism bilan tanishuv;
* kichik harbiy bo‘linma bilan tanishuv;
* ofitserlar bilan tanishuv;
* o‘ziga tegishli bo‘lgan predmetlar bilan tanishuv;
* o‘z haq-huquqlari bilan tanishuv;
* o‘z burchini anglab yetishi va uni tan olishi;
* qurshab turgan ijtimoiy muhitga qo‘shilib ketishi;
* atrof muhitni va ijtimoiy muhitni o‘ziniki qila olishi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan barcha bosqichlar muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun harbiy xizmatchilar bilan amalga oshiriladigan ma’naviy-ma’rifiy mashg‘ulotlari va tarbiyaviy ishlar aniq rejada olib borilishi hamda harbiy xizmatchi qism faoliyatida siyosiy faollikka undash maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, Qurolli Kuchlar saflariga yangi kelgan yoki xizmat zaruriyati tufayli xizmat joylarini o‘zgartirish davomida yangi jamoaga kelgan harbiy xizmatchilarning jamoaga tez moslasha olmasligi yoki moslashuviga harbiy jamoa yoki komandirlar tomonidan amaliy ruhiy yordam o‘z vaqtida ko‘rsatilmasligi harbiy xizmatchilarning zo‘riqishiga olib kelishi mumkin. Yangi kelgan harbiy xizmatchining tez moslashishiga va jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlariga tez kirishib ketishida kichik va katta komandirlarning o‘rni bebaho.

Аннотация. В настоящей статье показаны периоды адаптации человека, а именно военнослужащего, изучения вопросов адаптации в психологии, медицине, биологии и физиологии, впечатлении человека в начальной стадии адаптации, разница и статус военной службы с другими специальностями, образ военнослужащего, его личностные качества, виды адаптации с точки зрения генетики, негативная адаптация в психологии, требуемые личностные качества от военнослужащего, такие как знания, практика, адаптация, социальные качества, различные тяготы военной службы, вопросы чувствительности, зрительная адаптация, адаптация на слуховые реакции, адаптация на чувствительноть кожи и главное психологическая адаптация. Кроме этого автор статьи обратил внимание на вопросы особенности адаптации в ходе несения военной службы, управление адаптацией, вопросы требоваемые в военной подготовке, адаптация с момента прибытия в воинскую часть и в ходе службы, во время боевой подготовки, постепенное и поэтапное усиление различных психо-физилогических и физических нагрузок на военнослужащих, место и роль интенсивной боевой подготовки для скорейшей адаптации военнослужащих.

Ключевые слова. **Адаптация, психология, медицина, биология, физиология, представления, военная специальность, проблема, качества, образ, генетика, негативная адаптация, военная служба, степень, личность, знания, привычка, опыт, социальная, виды, разнообразие, тяготы службы.**

Abstract. this article shows periods of adaptation of a person, namely a soldier, studying the issues of adaptation in psychology, medicine, biology and physiology, impression of a person in the initial stage of adaptation, difference and status of military service with other specialties, the image of the soldier, his personal qualities, types of adaptation from the point of view of genetics, negative adaptation in psychology, required personal qualities from the serviceman, such as the practice of the serviceman, such as the practice of the military , various hardships of military service, issues of sensitivity, visual adaptation, adaptation to auditory reactions, adaptation to sensitive skin and the main psychological adaptation. In addition, the author of the article drew attention to the issues of adaptation during military service, adaptation management, issues required in military training, adaptation from the moment of arrival in the military unit and during service, during combat training, the gradual and gradual strengthening of various psycho-physical and physical loads on military personnel, the place and role of intensive combat training for the speedy adaptation of military personnel.

Key words: **adaptation, psychology, medicine, biology, physiology, representations, military specialty, problem, quality, image, genetics, negative adaptation, military service, degree, personality, knowledge, habit, experience, social, species, variety, hardships of service.**

ISSN 3030-3230

HARBIY SOHADA navigatsiya tizimlaridan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari

Madalimov Elbek Farxotovich
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi,
Umumiy taktika kafedrasi katta o‘qituvchisi, topografiya xizmati boshlig‘i

Annotatsiya. Maqolada quyidagi masalalar ko‘rib chiqilgan: Harbiy sohada navigatsiya tizimlaridan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari to‘g‘risidagi ma’lumotlar tahlil qilingan. Qo‘shinlarda navigatsiya qabul qilgich vositalarini qo‘llashning eng muhim yo‘nalishlarini bo‘linmalarga tatbiq etish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: garmin, navigatsiya, GPS, GLONASS, sun’iy yo‘ldosh, monitoring, elektron - raqamli xarita.

Zamonaviy harbiy jangovar harakatlarni tashkillashtirish hamda ularni olib borishda zamonaviy qurol-yarog‘ va zamonaviy navigatsiya qabul qilgich vositalaridan foydalangan holda olib boriladi. Bugungi kunda dunyo miqyosida global navigatsiya tizimining shakllanishi, JPS qabul qilgich vositalarini hayotning barcha jabhalariga kirib kelishi, har sohada tubdan o‘zgarishlar sababchisiga aylanib, o‘z navbatida, bu o‘zgarishlar qo‘shinlarni boshqarishda yangi ehtiyojlar shakllanishiga olib kelmoqda. Shuningdek, joyda oriyentirlanish, harakatlanish yo‘nalishini saqlash, obyekt va nishonlar koordinatalarini hamda joylashish o‘rnini aniqlash, maydonlar va masofalar o‘lchash kabi vazifalarni an’anaviy usuldan zamonaviy usul bilan maxsus tizimlar yordamida bajarish zamon talabi bo‘lib qoladi.

Qurolli Kuchlarda jangovar harakatlar sharoitida zamonaviy navigatsiya qabul qilgich vositalarni qo‘llash orqali tezkor qaror qabul qilish shuningdek, kichik bo‘linmalarni jangda samarali boshqarilishini ta’minlash bugungi kunning dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi paytda dunyoning quyidagi mamlakatlarining navigatsiya tizimlari ishlab turibdi:

AQShning GPS tizimi – GPS (Global Positioning System) – 24 ta sun’iy yo‘ldoshdan iborat. 1- sun’iy yo‘ldosh 1978-yilda kosmosga uchirilgan.Signallar juda kuchli. Signallar ob‘ekt koordinatalarini 3 metr xatolikda aniqlay oladi.

Rossiya Federatsiyasining GLONASS navigatsiya tizimi. (Globalnaya navigatsionnaya sputnikovaya sistema GLONASS) Tizim 1970- yillarning ikkinchi yarmidan boshlab yaratila boshlangan. Bunda Hindiston va Xitoy davlatlari bilan hamkorlik qilingan. 1992-yildan boshlab Rossiya fazoga jami 44 navigatsiya sun’iy yo‘ldoshlarini uchirgan. Hozirgi vaqtda shundan 24 tasi ishlab turibdi.

Yevropa mamlakatlarining “Galileo” navigatsiya tizimi. Tizimni shakllantirish 1999-yildan boshlangan. Tizim asosan harbiy sohaga tegishli bo‘lmagan maqsadlar uchun ishlasa-da, uning uch polosali signallari hamda yerdagi translatsiya stansiyalari birga ishga tushirilsa obyektlar o‘rnini 10 sm aniqlikda belgilab berish imkoniyatiga ega. sun’iy yo‘ldoshlari soni 30 dona. Birinchi sun’iy yo‘ldosh 2005-yil dekabrda uchirilgan bo‘lib, birinchi signal 2006- yilda olingan.

Xitoyning “BEYDOU” navigatsiya tizimi. Tizim faqatgina harbiy maqsadlar uchun yaratilgan bo‘lib, va hozirgi kunda fuqarolarga ham xizmat ko‘rsatadigan bo‘ldi. O‘lchash aniqligi “Galileo”nikidan kam emas. Tizimdagi jami sun’iy yo‘ldoshlar soni 35 dona. 2020- yil iyul oyidan boshlab to‘liq ishga tushirildi.

«GPS» tizimi 3 bo‘g ‘indan iborat
1.Kosmik segment
2.Boshqaruv segmenti
3.Foydalanuvchi segment

XX asrga kelib navigatsiya sohasida sun’iy yo‘ldosh orqali pozitsiyalanuvchi priyomniklarni qo‘llash muhim va ahamiyatli texnologik yangilik bo‘ldi.

Pozitsiyalanish deganda yer yuzasidagi turli obyekt yoki kuzatuvchining joylashuv



o‘rnining koordinatalarini aniqlash maqsadida sun’iy yo‘ldoshlar tizimidan foydalanib amalga oshiriladigan o‘lchash ishlari tushuniladi.

Hozirgi kunda sun’iy yo‘ldosh orqali pozitsiyalanishning eng asosiy tizimlari bu AQShning GPS hamda Rossiya federatsiyasining GLONASS tizimlaridir. 2010- yillarga kelib bir vaqtning o‘zida ikki tizimning ham sun’iy yo‘ldoshlaridan foydalanib pozitsiyalanadigan apparatlar qo‘llanila boshlandi. Aynan shunday apparatlarning aniqligi yuqoriroq bo‘lib, obyekt koordinatalarini eng kam xatolik bilan aniqlash imkoniyatini beradi. Bunday apparatlar boshqalariga nisbatan ko‘proq sun’iy yo‘ldoshni ko‘ra oladi va buning natijasida qabul qilinayotgan signallarning barqarorligi ta’minlanadi.

GPS tizimi AQSh hukumatining boshqaruvi ostida bo‘lib, hukumat tizimning aniq ishlashi va ish qobiliyatiga javobgardir. AQSh Mudofaa vazirligining tizimdan fuqarolarning foydalanishiga qaratilgan siyosati hamda federal radionavigatsiya Rejasiga ko‘ra hukumatning tizim ishini vaqti-vaqti bilan korreksiyalari yoki sun’iy yo‘ldoshlarning noqulay joylashuvi natijasida joylashuv o‘rnining aniqligi vaqtinchalik yomonlashishi mumkin.

GPS tizimi 1993-yilda AQSh Qurolli Kuchlarida rasman tatbiq qilingan. Dastlabki apparatlar Thales Navigation kompaniyasi tomonidan nisbatan soddaroq tarzda ishlab chiqilgan.

Qurolli Kuchlarimizda qo‘llanilib kelinayotgan zamonaviy navigatsiya priyomniklarini afzalliklari:

2012-yilda esa AQShning yana bir kompaniyasi - “Garmin” mahsuloti bo‘lgan “Montana-600” priyomnigi Qurolli Kuchlarga tatbiq qilindi. Bunday modeldagi navigatsiya apparatlari yordamida quruqlikdagi qo‘shinlar quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘ldilar:

- priyomnikning va unda proeksiyalangan nuqtalarning geografik va to‘g‘ri burchakli koordinatalarini aniqlash;
- gorizont tomonlari va harakatlanish azimutlarini aniqlash;
- harakat tezligi, sarflangan vaqt va masofani hisoblash;
- 500 tagacha bo‘lgan nuqtalar bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yaratish;
- harakat marshrutlarini loyihalashtirish va shu marshrutdan adashmasdan samarali harakatlanish;
- manzilga eltadigan eng qisqa va qulay yo‘lni aniqlash;
- qarama-qarshi marshrutni belgilash.

Kamchiliklari:

Shuni e’tiborga olish lozimki, AQSh harbiylari tomonidan dunyoning istalgan boshqa hududlari uchun signallar aniqligini yomonlashtirishi yoki butunlay o‘chirib qo‘yishi mumkin. Buning natijasida o‘sha hududdagi barcha priyomniklar ishlamaydi, samalyotlar va kemalar oriyentirlana olmaydi.

AQShning sun’iy yo‘ldosh navigatsiyasi ustidan bunday hukmronligi Yevropa mamlakatlari, Rossiya, Xitoy, Hindiston kabi boshqa qudratli mamlakatlarni qoniqtirmaydi va ular o‘z sun’iy yo‘ldosh navigatsiyasi tizimini yaratishga kirishdilar.

Rossiya sobiq Ittifoq davrida 1982-yilda GLONASSning birinchi sun’iy yo‘ldoshi fazoga uchirdi, ammo faqat 1993-yilda Rossiya federatsiyasida GLONASS sun’iy yo‘ldosh tizimi ishlab chiqildi. Avval boshdanoq bu tizim harbiy maqsadlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, aynan shu maqsadda qo‘llanilib kelmoqda. Umuman olganda GLONASS tizimi GPS tizimiga juda o‘xshash va maqsadlari ham bir xil. Ammo ma’lumotlarning aniqligi jihatidan GLONASS

ISSN 3030-3230

tizimi GPS tizimidan keyinroq turadi. Shu sababli mamlakatning harbiy qismlarida haligacha 2003-yilda ishlab chiqarilgan, keyinroq 2009-yilda takomillashtirilgan GROT-M navigatsiya apparatlaridan foydalanilib kelinmoqda. Mazkur apparatlar hajm jihatidan kattaroq bo‘lsa-da, turli tabiiy sharoitlarga chidamligi hamda aniq ishlashi bilan ajralib turadi.

Ammo shuni hisobga olish kerakki, GPS tizimi GLONASS tizimidan sakkiz yil avvalroq yaratildi, va XX asrning 90-yillarida takomillashish jihatidan juda ildamlab ketdi.

AQShning GPS va Rossiyaning GLONASS tizimlariga qaram bo‘lmagan mutlaqo mustaqil Yevropada GALILEO, Xitoyning BEYDOU sun’iy yo‘ldosh navigatsiya tizimi mavjud bo‘lib, undan o‘z joylashuv o‘rnini 1 m dan 9 m gacha aniqlikda aniqlash, barcha turdagi transport qutqaruv xizmatlarini ma’lumotlar bilan ta’minlash, harbiylarga, politsiyaga, o‘t o‘chiruvchilarga, davlat organlari va aholiga xizmat ko‘rsatish maqsadlarida foydalaniladi.

Tabiiyki, butun Yer sharini qamrab oluvchi sun’iy yo‘ldosh navigatsiya tizimiga ega bo‘lish juda katta mablag‘ talab etadi. Shuning uchun Hindistonning IRNSS sun’iy yo‘ldosh navigatsiya tizimlari sun’iy yo‘ldoshlarning yetarli emasligi tufayli faqat mazkur mamlakatlar va ularga yondosh davlatlar hududlarini qamrab olgan xolos.

AQSh Harbiylari birinchi bo‘lib GPS tizimini qo‘lladilar: Mudofaa vazirligi o‘z maqsadlari uchun sun’iy yo‘ldosh navigatsiyasini ishga tushirdi, biroq bir necha yil o‘tgach, u tinch aholi uchun mavjud bo‘ldi. Hozirgi vaqtda past Yer orbitasida majburiy signallarni uzatuvchi 24 ta sun’iy yo‘ldosh mavjud. sun’iy yo‘ldoshlar soni vaqti-vaqti bilan o‘zgarib turadi, lekin har doim global joylashuvni aniqlash tizimining uzluksiz ishlashini ta’minlash uchun yetarli bo‘lib qoladi. Fors-major holatlarida zaxira sun’iy yo‘ldoshlar taqdim etiladi va har o‘n yilda yangi, modernizatsiya qilingan kosmik kemalar orbitaga chiqadi, chunki GPS ishlashiga hech narsa xalaqit bermasligi kerak. GPS qanday ishlaydi Texnologiya GPS paydo bo‘lishidan ancha oldin qo‘llanilgan marker obyektlarining oddiy navigatsiya prinsipiga asoslanadi. Marker obyekt - bu koordinatalari aniq ma’lum bo‘lgan belgi.

GPS qurilmalarning turlari eng oddiy navigatsiya qurilmasi tashqi qabul qiluvchidir. U sun’iy yo‘ldoshlar bilan aloqa qiladi va ulardan signallarni oladi, ammo ma’lumotdan foydalanish uchun qabul qiluvchi boshqa qurilmaga - masalan, smartfon yoki noutbukka ulangan bo‘lishi kerak;

Navigatsiyaga ko‘plab qo‘shimcha funksiyalar, jumladan, Internetga kirish qo‘shiladi. GPS qurilmalarining kelajagi: 2024-yilga va undan keyinga qarash GPS qurilmalari kamtarona boshlanganidan beri uzoq yo‘lni bosib o‘tdi. Bugungi kunda ular turli xil ilovalarda, hatto o‘zini o‘zi boshqaradigan mashinalarda qo‘llaniladi. Biroq, GPS qurilmalarini kelajakda nima kutmoqda?

1. Yaxshilangan aniqlik: Differensial GPS tizimlari (DGPS): DGPS GPS signallarining aniqligini oshirish uchun yerosti stansiyalar tarmog‘idan foydalanadi. Bu, ayniqsa, aniq joylashishni aniqlash talab qilinadigan qishloq xo‘jaligi kabi sohalarda foydali bo‘lishi mumkin. Keyingi avlod sun’iy yo‘ldosh tizimlari: GPS III, Galileo, BeiDou va boshqa keyingi avlod tizimlari aniqlik, mavjudlik va ishonchlilikni oshiradi.

2. Boshqa texnologiyalar bilan integratsiya: Narsalar interneti (IoT): GPS qurilmalari uzluksiz aloqa va kuzatuvni ta’minlash uchun IoT qurilmalari bilan birlashtiriladi. Kengaytirilgan reallik (AR): AR navigatsiyasi odatiy holga aylanishi mumkin, bu haydovchilar va piyodalarga yanada intuitiv va ma’lumot beruvchi navigatsiyani taqdim etadi.

3. Avtonom tizimlar: O‘zi boshqariladigan avtomobillar: GPS qurilmalari o‘zi boshqariladigan avtomobillarning xavfsiz va samarali ishlashini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Uchuvchisiz havo vositalari: GPS yetkazib berish, xaritalash va boshqa maqsadlarda foydalaniladigan Uchuvchisiz havo vositalari uchun yanada muhimroq bo‘ladi.

4. Yangi ilovalar: Shaxsiy ichki navigatsiya: GPS qurilmalari savdo markazlari, aeroportlar va shifoxonalar kabi ichki navigatsiya uchun ishlatiladi. Salomatlikni kuzatish: GPS qurilmalari hayotiy belgilarni kuzatish va moslashtirilgan tavsiyalarini berish uchun taqiladigan qurilmalar bilan birlashtirilishi mumkin.

5. Foydalanish qulayligi: GPS qurilmalari kengroq foydalanuvchilar doirasi uchun arzonroq bo‘ladi. Yaxshilangan interfeys: GPS qurilma interfeyslari borgan sari intuitiv va ulardan foydalanish osonroq bo‘ladi. Har qanday sharoitda ishonchli va aniq navigatsiyani qanday ta’minlash mumkin? Yechimni atomlar va fotonlarning xususiyatlarini o‘rganadigan kvant fizikasida topish mumkin.

Kvant navigatsiyasi - bu ikkita asosiy tamoyildan foydalanadigan yangi texnologiya:

kvant interferometri va kvant kompas. Kvant interferometri - bu masofa yoki burchakning daqiqali o‘zgarishlarini o‘lchash uchun yorug‘lik to‘lqinlaridan foydalanadigan qurilma. U interferensiya fenomeni asosida ishlaydi, bu erda ikki yoki undan ortiq to‘lqinlar bir-biriga qo‘shilib, turli amplituda va fazaga ega bo‘lgan yangi to‘lqin hosil qiladi.

Agar to‘lqinlardan biri obyekt harakati tufayli o‘z uzunligini yoki yo‘nalishini o‘zgartirsa, bu o‘lchash va tahlil qilish mumkin bo‘lgan interferentsiya naqshining o‘zgarishiga olib keladi. Shunday qilib, kvant interferometri jismning tezligi va tezlanishini juda yuqori aniqlik bilan aniqlashi mumkin. Kvant kompas - bu jismning harakat yo‘nalishini aniqlash uchun Yerning magnit maydonidan foydalanadigan qurilma. Ikki yoki undan ortiq kvant obyektlari, masalan, atomlar yoki fotonlar, jismoniy jihatdan ajratilgan bo‘lsa ham, ularning xususiyatlari bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan maxsus holatda bo‘lgan chalkashlik fenomeni asosida ishlaydi. Agar obyektlardan biri tashqi maydonga ta’sir qilsa, bu boshqa obyektning holatiga ta’sir qiladi va buni o‘lchash va tahlil qilish mumkin. Shunday qilib, kvant kompas obyektning harakat yo‘nalishi va Yerning magnit qutbi orasidagi burchakni juda yuqori aniqlik bilan aniqlay oladi. Kvant navigatsiyasining afzalliklari shundaki, u hech qanday tashqi infratuzilmani talab qilmaydi, shovqin va xakerliklarga chidamli, har qanday sharoitda ishlaydi, juda yuqori aniqlik va ma’lumotlarni yangilash tezligiga ega.

Kvant navigatsiyasining kamchiliklari shundaki, u murakkab va qimmat qurilmalarni talab qiladi, harorat va tebranishlarga sezgir, chegaralangan diapazon va ish vaqtiga ega. Kvant navigatsiyasi harbiy, aviatsiya, kosmik, suv osti, geodeziya, tibbiy va boshqa sohalarda amaliy qo‘llash uchun katta imkoniyatlarga ega. U samolyotlar, raketalar, sun’iy yo‘ldoshlar, suv osti kemalari, robotlar, dronlar, avtomobillar, poyezdlar va boshqa transport vositalarini boshqarish uchun ishlatilishi mumkin. U ham Yerning tortishish maydonini o‘lchash, yashirin narsalarni aniqlash va boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin.

Kvant navigatsiyasi bizning davrimizning eng istiqbolli va innovatsion texnologiyalaridan biridir. U navigatsiya va tegishli sohalarda tadqiqot va ishlanmalar uchun yangi ufqlarni ochadi. Kvant navigatsiyasi AQSh, Xitoy, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Rossiya va boshqa mamlakatlar olimlari va muhandislari tomonidan ixtiro qilingan va faol rivojlantirilmoqda. Bu xalqaro hamkorlik va raqobat predmeti, shuningdek, harbiy va fuqarolik manfaatlaridir.

Kvant navigatsiyasi - bu dunyomizni yaxshi tomonga o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan kelajak texnologiyasi. Amerikaning L3Harris harbiy-sanoat kompaniyasi AQSh harbiy-havo kuchlari tadqiqot laboratoriyasi buyurtmasi bilan ishlab chiqilgan NTS-3 eksperimental sun’iy yo‘ldoshining yakuniy sinovlarini boshladi. Uning kelajakdagi vazifasi Yerning geostatsionar orbitasidan joylashishni aniqlash, navigatsiya va vaqtni aniqlash (PNT) signallarini uzatishdir. U GPSga muqobil yangi avlod joylashishni aniqlash texnologiyasining prototipiga aylanadi. Og‘irligi 1250 kg bo‘lgan qurilma L3Harris tomonidan 2018- yilda AQSh havo kuchlari bilan imzolangan shartnoma asosida 84 million dollarga qurilgan. NTS-3 orbitaga chiqqach, GPSdan mustaqil ishlaydi. Yangi texnologiya va ilg‘or signal shakllari raqiblarga uni tiqilib qolish yoki aldashni qiyinlashtiradi. AQSh harbiy-havo kuchlari ushbu loyihani “Vanguard” deb atagan. Agar sinovlar muvaffaqiyatli o‘tsa, harbiylar GPS yulduz turkumini mustahkamlash uchun katta ehtimol bilan bunday sun’iy yo‘ldoshlar partiyasini sotib oladi. AFRL va Mitre korporatsiyasi foydalanuvchilarga GPS signallari va yangi NTS-3 signallarini qabul qilish imkonini beradigan qayta dasturlashtiriladigan qabul qilgichni ishlab chiqish uchun mas’ul edi. Yer tizimlari Parsons Corp tomonidan ishlab chiqarilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, quyidagi xulosalar qilish mumkin:

Bo‘linmalar hududlarda harakatlanishida Zamonaviy navigatsiya qabul qilgich vositalariga juda katta ehtiyoj seziladi. Jangovar harakatlar olib borilayotgan hududdaKvantnavigatsiyasidanfoydalanish shaxsiy tarkibning mutaxassisligi bo‘yicha tayyorgarligini yuqori darajalariga olib chiqish hamda zamonaviy texnikalarni mukammal darajaga egallaydigan asosiy vazifa hisoblanadi.

ISSN 3030-3230

В ВОЕННОЙ СФЕРЕ ПРЕИМУЩЕСТВА И НЕДОСТАТКИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАВИГАЦИОННЫХ СИСТЕМ

Аннотация. В статье рассмотрены следующие вопросы: проанализированы данные о преимуществах и недостатках использования навигационных систем в военной сфере. Освещены пути внедрения в части важнейших направлений применения средств навигационного приемника в войсках.

Ключевые слова: garmin, навигация, GPS, ГЛОНАСС, спутник, мониторинг, электронно - цифровая карта.

IN THE MILITARY FIELD ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF USING NAVIGATION SYSTEMS

Abstract. The article covers the following issues: data on the advantages and disadvantages of using navigation systems in the military field are analyzed. In the troops, ways of applying the most important directions for the use of navigational receivers to units are illuminated.

Key words: garmin, navigation, GPS, GLONASS, satellite, monitoring, electronic - digital map.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Харисов В.Н., Перов А.И., Болдин В.А. и др. Глобалная спутниковая радионавигационная система ГЛОНАСС. - М.: ИПРЖР, 1999 г.
2.Навигаторы в армиях разных стран, Интернет-журнал “Армейский Вестник”, 2016 г.
3.Internet- GARMIN International. - http://www.garmin.com.

ВОЙНЫ БУДУЩЕГО: «УПРАВЛЯЕМЫЙ ХАОС» ИЛИ ГИБРИДНАЯ ВОЙНА

Аскар Бейсенович Есботаев,
преподаватель цикла Обеспечения общественной безопасности и правовой подготовки Специализированного учебного центра Национальной гвардии Республики Узбекистан

В последние годы геополитическая карта мира существенным образом изменяется. Эти перемены имеют глобальный характер и оказывают влияние на многие страны и регионы мира. Их главное содержание состоит в том, что эпоха однополярного мира, в котором доминировали США, заканчивается и уходит в прошлое. Мир снова становится многополярным, и основными факторами, которые обуславливают этот процесс, являются новая геополитика России и быстро возрастающее экономическое и военное могущество Китая. События, которые происходят в геополитической сфере вокруг Сирии, Ирака, Украины, Израиля и Палестины, подписание соглашения о долгосрочном партнерстве и сотрудничестве России и Китая, а также создание Евразийского экономического союза (ЕврАзЭС) и межгосударственного неформального объединения стран с динамично развивающейся экономикой – Бразилии, России, Индии, Китая и Южно-Африканской Республики (ЮАР) БРИКС являются знаковыми. Они свидетельствуют о том, что мир вступает в эпоху глобальных перемен и уже никогда не будет таким как прежде, всего два-три года тому назад[1].

Происходящие перемены требуют глубокого осмысления и адекватной реакции во внешней и внутренней политике многих стран, в том числе и Республики Узбекистан. Прежде всего, необходимо адекватным образом определить их стратегические приоритеты в новых геополитических условиях.

На этот раз в качестве темы для обсуждений была вынесена проблема войн нового типа, которые сегодня часто именуются войнами «управляемого хаоса» или гибридными войнами.

Во-первых, в современных геополитических условиях проблема урегулирования военных конфликтов стала неимоверно трудной, требующей огромных усилий международного сообщества.

Во-вторых, в нынешнем взаимосвязанном и взаимозависимом мире любая акция или провокация в дальнем уголке земного шара легко может привести к региональному или даже глобальному военному конфликту.

Сегодня на смену мировым войнам пришли «гибридные войны», которые представляют угрозу безопасности национальным интересам всех государств, включая и страны Центральной Азии.

В-третьих, в современном мире существуют силы, которые, даже вопреки инстинкту самосохранения, готовы ввергнуть человечество в пучину Армагеддона [2].

Современные «гибридные войны» – это войны с использованием различных военных и невоенных технологий. Эти технологии охватывают информационный, экономический, культурный и иные аспекты, которые и служат основой для появления разновидностей технологий «гибридных войн». В этом плане большую роль играют СМИ, которые любое противостояние на основе тех или иных аспектов преподносят как новые технологии «гибридных войн»[3].

На нынешнем этапе «гибридные войны» в основном реализуют мировые и региональные державы, такие как США, Россия, КНР, Турция, Иран, Саудовская Аравия и др. Практически ежедневно появляются новые военные и невоенные технологии «гибридных войн», образуя своеобразный гибрид. Указанные державы действуют неординарно, периодически меняя правила игры.

Среди характерных особенностей «гибридных войн» можно выделить следующее: они ведутся без каких-либо правил, ограничений и объявления войны, реализуются на чужой территории своими и

ISSN 3030-3230

чужими руками; маскируются под локальные и региональные конфликты/кризисы, субъекты, реализующие такие войны, всячески отрицают свою причастность к ним и т.д.

Поэтому, все нынешние локальные войны, вооруженные конфликты на региональном и мировом уровнях приобрели гибридный характер и, соответственно, вносят необходимые коррективы в тактику ведения боевых действий.

Практически забыты такие военные термины, как «фронт», «тыл», «объявление войны» и другие термины, присущие мировым войнам, в которые были вовлечены практически все страны мира.

Применение прогнозирования «гибридных войн» в Центрально-азиатском регионе так же будет зависеть от политики мировых и региональных держав, их стратегии и тактики в данном регионе. В этой связи, на геополитическую обстановку Центральной Азии первостепенное влияние оказывает противоборство этих сил [4].

Кроме России, КНР и США, свою игру здесь пытаются вести Европейский Союз, Турция, Иран, Саудовская Аравия, Индия и Пакистан, каждая из которых также имеет свои геополитические/геоэкономические интересы, ради достижения которых используются различные технологии/инструменты «гибридных войн».

В течение последних десятилетий предпринимались неоднократные попытки дестабилизации обстановки в Центральной Азии на основе межэтнических, религиозных и других внешних и внутренних факторов. К ним можно отнести непрекращающиеся кровопролитные «этнические войны» между киргизами и таджиками; террористические вылазки в Республике Таджикистан в период гражданской войны, в последующем в 2010, 2014, 2015 годах, а также в Казахстане в 2011, 2014, 2016 годах, которые реализовались в рамках «террористических войн». Все указанные события подогревались непосредственно извне некоторыми мировыми и региональными державами и имели гибридный характер[5].

Среди инструментов – реперных точек «гибридных войн»: вопросы водоснабжения, наркотрафик, вопрос использования мигрантского труда, таможенного регулирования и др.

Ведущие эксперты различных стран мира в вопросах обеспечения государственной и региональной безопасности дают основание полагать, что гибридные войны составляют основу геополитического соперничества. Гибридная война является стратегией, нацеленной на изнурение страны без прямой конфронтации традиционных военных действий. Для достижения этой цели используется широкий спектр действий, включающих использование воинских и иррегулярных формирований одновременно с проведением в рамках единого замысла и плана операций по внесению хаоса в административно-политическую, финансово-экономическую, культурно-мировоззренческую сферы, а также по подрыву военной безопасности государства. Именно этот синтез довольно точно отражает ключевое отличие гибридной войны от традиционных войн.

Поскольку любая война является силовой формой продолжения политики, в свою очередь, сама политика является основным инструментом ведения гибридных войн.

Гибридная война носит тотальный характер и, по сути дела, ведётся против всех жизненно важных сфер государства-мишени. Основной целью гибридной войны является лишение страны-жертвы фактического суверенитета без захвата её территории.

Для того, чтобы победить в войне, необходимо достичь решения трех основных задач: разгромить вооруженные силы противника, разрушить его экономический потенциал, а также свергнуть или заменить политический строй. Эта формула победы справедлива для любого поколения войн в прошлом, настоящем и будущем, но в гибридной войне очень важны последние две задачи.

1950-yilda qabul qilingan 162-sonli “Politsiya to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq Yaponiyada jamoat xavfsizligini ta’minlash masalasida mamlakat Bosh vazirning yurisdiksiyasi ostida Jamoat xavfsizligi milliy komissiyasi tuzilishi belgilangan bo‘lib, mazkur komissiya rais va besh nafar a’zodan iborat. Milliy jamoat xavfsizligi komissiyasi shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligi va tartibini saqlash, shuningdek, milliy jamoat xavfsizligi bilan bog‘liq politsiya operatsiyalari uchun mas’ul bo‘lib, politsiyani tayyorlash, politsiya aloqalari, axborot texnologiyalari tahlili, jinoiy ekspertiza, jinoyatlar statistikasi va politsiya jihozlari bilan bog‘liq masalalarni nazorat qiladi va politsiya boshqaruvini muvofiqlashtiradi. Mazkur qonunning 15-moddasiga muvofiq mamlakatda faoliyat yuritayotgan Milliy politsiya agentligi ham Jamoat xavfsizligi milliy komissiyasi tarkibida tashkil etiladi[8].

Yaponiyada jamoat xavfsizligini ta’minlashda o‘ziga xos davlat-xususiy sheriklik modeli ega bo‘lib, mazkur model xavfsizlik xizmatlarini optimal tarzda ta’minlash, resurslarni samarali ishlatish va innovatsion yechimlarni joriy etish uchun mo‘ljallangan. Yaponiyada davlat-xususiy sheriklik modeli

ISSN 3030-3230

orqali jamoat xavfsizligini ta’minlashning o‘ziga xos asosiy yo‘nalishlarga ega. Xususan, davlat va xususiy sektor birgalikda shaharlar va mahallalardagi xavfsizlikni oshirish uchun keng ko‘lamli kamera nazorati va monitoring tizimlariga ega bo‘lib, Tokio va Osaka kabi yirik shaharlar, monitoring tizimlari orqali jinoyatlarni oldini olish va jamoatchilikni himoya qilish uchun davlat-xususiy sheriklik doirasida xususiy kompaniyalar bilan hamkorlik qiladi.

Shuningdek, Yaponiyada davlat va xususiy sektor jamoat transporti xavfsizligini ta’minlash uchun birgalikda faoliyatini tashkillashtiradi. Bunda mazkur faoliyat metro, poyezd va avtobus tizimlariga qaratilgan xavfsizlik choralari va texnologik yangiliklarni o‘z ichiga qamrab oladi. Xususan, JR (Japan Railways) kompaniyasi va boshqa xususiy transport operatorlari davlat bilan birgalikda transport vositalarida xavfsizlik ta’minlash uchun monitoring tizimlari va qo‘riqlash xizmatini o‘zida mujassam etadi. 1970-yildagi 110-sonli “Yo‘l harakati xavfsizligi chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qonun[9]ning 30-moddasiga muvofiq davlat yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risidagi bilimlarni tarqatish va yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida xabardorlikni oshirish maqsadida yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha ta’limni rivojlantirish va yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha jamoatchilik bilan aloqalar faoliyatini kuchaytirish hamda davlat xususiy sektorda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha sog‘lom va ixtiyoriy tashkiliy faoliyatni rivojlantirish kabi zarur choralarni ko‘rishi belgilab o‘tilganligi ham xususiy sektorni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar jumlasiga kiradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, davlat-xususiy sheriklik asosida jamoat xavfsizligini ta’minlashda mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash xizmatini sifat va samaradorligi jihatidan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida bir qator takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, favqulodda qo‘ng‘iroqlarni amalga oshirgan mobil telefonlar va planshetlarning joylashuvini aniqlash tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda telekommunikatsiya kompaniyalari bilan hamkorlikda, uyali telefon va planshet yordamida favqulodda qo‘ng‘iroq qilinganda ham, qo‘ng‘iroqni qabul qiluvchi tomon global joylashishni aniqlash tizimi (GPS) va boshqalardan foydalangan holda qo‘ng‘iroq joyini aniqlay tez va to‘g‘ri aniqlash imkonini yaratish. Mazkur chora-tadbirlar orqali favqulodda vaziyat yuz bergan hududga tez va qisqa fursat ichida yetib borib favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish imkoni yuzaga keladi.

Ikkinchidan, avtonavigatsiya qurilmalari kabi avtomobil ichidagi qurilmalardan foydalangan holda favqulodda qo‘ng‘iroqlar paytida joylashuv ma’lumotlarini uzata oladigan tizimlarni ommalashtirish va rivojlantirish bo‘yicha harakatlar amalga oshiriladi. Bundan tashqari, favqulodda vaziyatlar vositalarining voqea joyiga yetib borish vaqtini qisqartirish va favqulodda haydash bilan bog‘liq baxtsiz hodisalarning oldini olish uchun biz favqulodda avtomashinalar uchun ustuvor signallarni boshqaradigan tizimni ishlab chiqishga yordam beramiz.

Uchinchidan, xususiy qo‘riqlash kompaniyalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar birgalikda jinoyatchilik soni oshib ketgan hududlarda patrullik xizmatini tashkil etish orqali xavfsizlikni ta’minlash tizimini joriy qilish. Bunda qo‘shnichilik nazorati dasturlari ishlab chiqish orqali xavfsizlikni ta’minlovchi xususiy sektor va aholi o‘rtasidagi hamkorlikni, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va asosan aholi o‘rtasidagi ko‘ngilli fuqarolar bilan birgalikda mahallada xavfsiz muhitni yaratish maqsadida hamkorlikni amalga oshirishga erishish mumkin.

Аннотация: В данной статье рассматриваются правовые основы деятельности по обеспечению общественной безопасности в Японии на основе государственно-частного партнерства, опыт защиты прав и свобод граждан, а также выделены некоторые аспекты обеспечения безопасности в городах, микрорайонах и общественном транспорте совместно государственным и частным секторами.

Ключевые слова: общественная безопасность, частный партнер, опасная зона, национальная безопасность, юрисдикция, национальная комиссия, статистика преступности, системы мониторинга, транспортный оператор и т.д.

Abstract. This article examines the legal basis for public safety activities in Japan based on public-private partnerships, the experience of protecting the rights and freedoms of citizens, and highlights some aspects of ensuring safety in cities, neighborhoods and public transport jointly by the public and private sectors.

Key words: traffic jams, traffic jams, traffic jams, traffic jams, traffic jams, legal proceedings, federal commission, statistics monitoring, traffic monitoring, transport operators and travel agencies.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Федеральный Закон “О безопасности” N 390-ФЗ Российской Федерации от 28 декабря 2010 года [электронный ресурс]. - Режим доступа: http://www.internet-law.ru/law/inflaw/sec.htm. – Дата обращения: 02.10.2022.

2. Маматқулов С.С. “Ички ишлар идоралари фаолиятини такомиллаштириш ўзбекистон республикаси жамоат хавфсизлигини таьминлашнинг муҳим омили сифатида” магистирлик дис. -Т., 2011. – 12 б.

3. Закон Республики Казахстан «О национальной безопасности Республики Казахстан» от 6 января 2012 года № 527-IV [электронный ресурс]. – Режим доступа: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31106860. – Дата обращения: 02.10.2022.

4. Помимо США, национальная гвардия организована и функционирует в Испании, Республике Кипр, Никарагуа, Пакистане, Сальвадоре, Саудовской Аравии, Хорватии, Шри-Ланке.

5. Отдельные аспекты функционирования национальной гвардии Испании освещены в работах: Бондарь Е.О. Правовые основы организации и деятельности полиции Испании : автореф. дис. … канд. юрид. наук. М., 2002. 25 с.; Цымбалова А.Е. Проблемы обеспечения этнополитической безопасности Королевства Испании: концепции, институты и технологии [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://cheloveknauka.com/problemy-obespecheniya-etnopoliticheskoy-bezopasnosti-korolevstva-ispanii. – Дата обращения: 03.04.2016.

6. Замира Тожиева ,«BOZOR, PUL VA KREDIT» илмий амалий журнал, «БПК», 2019 й. 3-сон, 2019 й

7. 2020-yi 20-dekabrdagi ““Dunyodagi eng xavfsiz Yaponiya”ni yaratish strategiyasiga o‘zgartirishlar to‘g‘risida”gi Yaponia Vazirlar Mahkamasining qarori // https://www.kantei.go.jp/jp/content/000119821.pdf (murojaat sanasi: 25.06.2024)

8. https://elaws.e-gov.go.jp/document?lawid=329AC0000000162 (murojaat sanasi: 26.06.2024)

9. https://elaws.e-gov.go.jp/document?lawid=345AC0000000110_20230616_505AC0000000058&keyword=%E4%BA%A4%E9%80%9A%E5%AE%89%E5%85%A8 (murojaat sanasi: 26.06.2024)

ISSN 3030-3230

DAVLAT ORGANLARIDA RAHBAR KADRLAR TAYYORLASH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA AMALIYOT
(Xitoy Xalq Respublikasi misolida)

Muradullayev Abbosbek Abduraxmanovich
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat organlarida rahbar kadrlar tayyorlashda innovatsion yondashuvlar va ilg‘or tajribalar muhokama qilingan. Bu borada mavjud tendensiyalar va muammolar o‘rganilgan, davlat sektori rahbarlarining malakasini oshirish va yetakchilik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan samarali dastur va tashabbuslarni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: rahbar kadrlarni tayyorlash, davlat idoralari, innovatsion yondashuvlar, o‘qitish amaliyotlari, innovatsion o‘qitish usullari, yetakchilikni rivojlantirish, elektron ta’lim, ish faoliyatini baholash

Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida davlat sektorida ham xususiy sektorda ham yetakchilik qobiliyatiga ega, malakali kadrlarga, shu jumladan, rahbar kadrlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan strategiyaning 81-maqsadida “Milliy kadrlar zaxirasida rahbarlik lavozimlariga nomzodlar sonini kamida ming nafarga yetkazish” samaradorlik ko‘rsatkichi belgilangan[1].

Davlat boshqaruvida rahbar kadrlarning yetakchiligini rivojlantirish davlat tashkilotlarini yanada samarali, mas’uliyatli va jamiyatning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga javob berishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Davlat boshqaruvida rahbar kadrlarini tayyorlash dolzarbligining asosiy sabablarini quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

- Davlat sektori texnologik taraqqiyot, globallashuv va demografik o‘zgarishlar kabi tez o‘zgaruvchan muammolarga duch kelmoqda.
- Ushbu qiyinchiliklarni samarali boshqarish rahbarlardan moslashish va innovatsiyalar yaratish uchun ko‘nikma va bilimga ega bo‘lishni talab qiladi.
- Davlat boshqaruvidagi rahbarlar davlat mablag‘laridan foydalanish va davlat siyosatini amalga oshirish uchun javobgardirlar.
- Rahbarlar yangi chaqiriq va tahdidlarga tezda javob berishlari va moslashishi kerak.
- Davlat boshqaruvidagi rahbarlar turli vazifalar va mas’uliyatlarga ega bo‘lgan yirik va murakkab tashkilotlarni boshqarish uchun mas’uldirlar. Ularni tayyorlash, professionalligini oshirishda o‘qitish ularga ushbu tizimlarni qanday boshqarish va bir nechta manfaatdor tomonlarning harakatlarini muvofiqlashtirishni tushunishga yordam beradi.
- Rahbar xodimlarining faoliyati siyosiy muhit bilan chambarchas bog‘liq. O‘qitish rahbarlarga siyosiy jarayonni tushunishga va siyosatchilar va tashkilotlar bilan samarali hamkorlik qilishga yordam beradi.
- Davlat boshqaruvi rahbarlari qoidalar va qonunlarni tushunishlari kerak. O‘qitish ularga rioya qilishni ta’minlash va huquqiy xavflarni minimallashtirish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni beradi.
- Rahbar kadrlar jamoatchilik bilan tez-tez aloqada bo‘lib, ular bilan muloqot qilish va ularning ehtiyojlariga javob berish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. O‘qitish ularga madaniyatlararo muloqot va fuqarolar ishtirokida ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Bu borada ilg‘or davlatlar tajribalarini o‘rganish va tahlil qilish ham juda muhim ahamiyatga ega. Shu asosda biz tomonimizdan

Xitoy Xalq Respublikasining (XXR) rahbar kadrlar tayyorlash borasidagi tajribasi ilmiy o‘rganildi.

XXR davlat xizmatchilari uchun ta’lim va malaka oshirish tizimi turli lavozimlarni tashkil etish, mas’uliyat va vakolatlarni belgilash kabi kadrlar tayyorlash mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. Xitoyda davlat xizmatchilari tayyorlash tizimi mavjud bo‘lib, unda mas’uliyat Xitoy kommunistik partiyasi (XKP) Markaziy Qo‘mitasi va iyerarxiya bo‘yicha mahalliy joylarga bo‘linadi[2]. Ta’limni boshqarish organi va ta’lim muassasalari o‘rtasida vazifalarning taqsimlanishi davlat xizmatchilarining malakasini oshirish samaradorligini ta’minlaydi.

Davlat boshqaruvi sohasida rahbar kadrlar tayyorlashni o‘rganish murakkab va tez o‘zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlarda mamlakat davlat hokimiyati apparatining samaradorligi va moslashuvchanligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim va kadrlar tayyorlash qoidalarining 2016-yildagi nashri ichki partiyaviy nizom sifatida qabul qilingan bo‘lib, kadrlar va davlat xizmatchilarining ta’lim va malakasini oshirishning oltita asosiy tamoyilini belgilaydi[3]. Bu tamoyillar amalga oshirilayotgan tadbirlar, shuningdek, kadrlar tayyorlash sohasidagi islohotlar va innovatsiyalar uchun yo‘riqnoma bo‘lib xizmat qiladi.

1 umumiy maqsadlarga erishish uchun o‘qitish. Davlat xizmatchilari va kadrlarini o‘qitish sotsialistik yo‘nalishga muvofiq amalga oshirilishi, partiya va davlat talablariga javob berishi, tayyorlangan kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish va ularning kasbiy o‘sishiga yordam berishi kerak. Ta’lim va kadrlar tayyorlash sifati va samaradorligini har tomonlama oshirish zarur;

2 axloqni afzal ko‘rgan holda axloq va qobiliyatga urg‘u berish. Ta’lim va kadrlar tayyorlashdan maqsad – hukmron partiya uchun mutaxassislar va ziyolilarni tarbiyalashdir, shuning uchun “axloq qobiliyat bilan birga, axloqni afzal ko‘radi” tamoyiliga ko‘ra amalga oshiriladi. Bu borada o‘quv jarayonida qobiliyatlarni rivojlantirishga alohida e’tibor berish muhim hisoblanadi. O‘qitishdan maqsad qobiliyat egallash ekan, kadrlar tayyorlashdan kam bo‘lmagan holda bilim olishga e’tibor qaratish, shunga mos ravishda xizmat burchini bajarishda kadrlar saviyasini har tomonlama oshirish zarur;

3 universal ta’lim. O‘qitish turli mezonlar bo‘yicha tashkil etiladi: lavozimlar tasnifi va iyerarxiyasiga ko‘ra, davlat xizmatchilarining qobiliyatlari va shaxsiy fazilatlariga ko‘ra, shuningdek, davlat xizmatchilarining vazifalari, maqsadlari va malakasini oshirishga bo‘lgan ehtiyojlariga muvofiq. Shu bilan birga, barcha sohalar va barcha davlat xodimlarini qamrab oladigan ilmiy asoslangan o‘quv rejasi va materiallari zarur;

4 nazariya - amaliyot uchun, o‘qitish - qo‘llash uchun. Trening davomida nazariy mashg‘ulot va amaliy ishning o‘zaro ta’siriga yo‘l-yo‘riq sifatida va aksincha e’tibor berish kerak. Nazariyani o‘rganishda nazariyani amaliy ishlarda qo‘llash ko‘nikmalari darajasini oshirish uchun vaziyatlarni tahlil qilish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni takrorlash, dala imtihonlarini o‘tkazish kerak;

5 islohotlar va innovatsiyalarni faollashtirish. Davlat xizmatchilari va kadrlarini o‘qitish va tayyorlash o‘zgaruvchan vaziyatga ega bo‘lib, vazifalar - kadrlar o‘sishi va davlat xizmatchilarining malakasini oshirishning obyektiv qonuniyatlariga mos kelishi kerak. O‘qitishni ochiq asosda tashkil etish, o‘qitish mazmunini takomillashtirish, zamonaviy o‘qitish konsepsiyasini joriy etish, o‘qitish uslubini o‘zgartirish, barcha resurslarni birlashtirish va professor-o‘qituvchilar tarkibini optimallashtirish, shuningdek, nazariya, amaliyotning nazariy innovatsiyalarini rag‘batlantirish va uni institutsionallashtirish zarur;

6 qat’iy boshqaruv choralaridan foydalangan holda kadrlar tayyorlashni huquqiy tartibga solish. Davlat xizmatchilari va kadrlarni tayyorlashning qonunchilik bazasini yaratish va takomillashtirish zarur. Kadrlar tayyorlash muassasasi faoliyatini qat’iy tartibga solish tizimni takomillashtirish, jarayonlarni normallashtirish va kadrlar tayyorlashni ilmiy jihatdan oqilona loyihalashda ifodalanadi.

XKP kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratadi va yuqori malakali kadrlar tayyorlashni asosiy strategik loyiha sifatida qaraydi, unga Xitoy xususiyatlariga ega sotsializm qurish ishini va hukmron partiyani ilgari surishda alohida ahamiyat beradi. Xitoy butun dunyoga hukmron partiya qurish va Xitoy iqtisodiyotining ochilishi va rivojlanishiga ko‘maklashish bo‘yicha o‘zining dastlabki tajribasini namoyish etdi, bu erda davlat xizmatchilarining ta’lim va malakasini oshirish hal qiluvchi rol o‘ynadi.

Ushbu kompleks ta’lim va tarbiya tizimi o‘ziga xos xususiyatlarga ega[4]:

1) Xitoyda barcha darajadagi partiya

ISSN 3030-3230

maktablari mansabdor shaxslar va davlat xizmatchilarini tayyorlash uchun javobgardir. XKPga tegishli partiya maktablari partiyaning missiyasi va siyosatini bevosita qo‘llab-quvvatlaydi, bitiruvchilarning partiya va davlatga sodiq qolishini ta’minlaydi;

2) Xitoyda davlat xizmatchilarini tayyorlash aniq qonunlar tizimi bilan tartibga solinadi, jumladan[5]:

“Davlat xizmati to‘g‘risida”gi qonun: kadrlar tayyorlash tamoyillarini, shu jumladan tartiblilik, me’yoriylik va qonunlarga rioya qilishni belgilaydi.

O‘qitish to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom (2008): treningning aniq tafsilotlarini, jumladan, obyektlar, usullar va baholash mexanizmlarini o‘rnatadi.

Ushbu barcha qoidalar va qonunosti hujjatlari birgalikda o‘qitish va tarbiyalashning tamoyillari, mexanizmlari, obyektlari, mazmuni, usullarini, shu jumladan muassasalar, o‘qituvchilar, darsliklar, moliya, baholash, tekshirish, nazorat, fanlar va boshqalarni aniq tartibga soladi. Bundan tashqari, mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda turli hududlardagi ta’lim organlari va o‘quv muassasalari tomonidan mazkur qoidalarni amalga oshirish bo‘yicha batafsil tushuntirishlar hamda qoidalarga muvofiq tezkor chora-tadbirlar ko‘rish imkonini beruvchi aniq tavsiyalar ham ishlab chiqilgan;

3) barcha davlat xizmatchilari, shu jumladan, barcha darajadagi rahbarlar uchun malaka oshirishlari kerak. “Davlat xizmati to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash to‘g‘risida”gi vaqtinchalik nizom barcha davlat xizmatchilari, birinchi navbatda, tuman va idoralar darajasidagi rahbar xodimlarni tayyorlashni tartibga soladi. Partiya qo‘mitalari rahbarligida o‘quv rejalari, metodlari va ko‘lami ishlab chiqilib, o‘qitilgan davlat xizmatchilari soni ko‘paytirib borilmoqda;

4) ta’limga tizimli yondoshuv quyidagi muammolarni hal etishga qaratilgan[6]:

1. Mashg‘ulotlar aniq muammolarni tizimli ravishda hal qilishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Kadrlar tayyorlashning ustuvor yo‘nalishlari quyidagi mezonlarga asoslanishi kerak: Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish. O‘rganish iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy taraqqiyotga hissa qo‘shishi kerak.

2. Hukmron partiya salohiyatini kuchaytirish: Mashg‘ulotlarda asosiy e’tibor hukmron partiyaning tashkiliy tuzilmasi va mafkuraviy asoslarini mustahkamlashga qaratilishi kerak.

Davlat xizmatchilarining majburiyatlarini yangilash: kadrlar tayyorlash davlat xizmatchilarining saviyasi va toifalarini hisobga olgan holda ularning aniq rol va majburiyatlariga moslashtirilishi kerak.

5) davlat xizmatchilari uchun mos bo‘lgan o‘qitish usullari. Davlat xizmatchilarini o‘qitish va o‘qitish metodikasi o‘qitish usullarini, o‘qitish shakllarini va tegishli texnik texnikani o‘z ichiga oladi. O‘quv maqsadiga erishish o‘qitish va tarbiyalash usullarining xilma-xilligi va ularni to‘g‘ri qo‘llashga bog‘liq. Xitoyda davlat xizmatchilarining malakasini oshirishda o‘qitish usullarini tanlash va ularni obyektlarga, shuningdek, o‘qitish mazmuniga qarab takomillashtirishga alohida e’tibor qaratiladi. O‘qitishning turli usullari qo‘llaniladi – ma’ruzalar, muhokamalar, keyslar, simulatsiyalar, idrok etish va boshqalar. Kadrlar tayyorlash obyektlari, maqsad va mazmuniga qarab har xil shakllar kompleks tarzda qo‘llaniladi: yo‘nalish o‘z xohishiga ko‘ra, ishdan tashqari o‘qitish ish joyida o‘z-o‘zini tayyorlash bilan, mamlakat ichida malaka oshirish chet elda o‘qitish bilan birlashtiriladi[7].

Turli darajadagi kadrlarni o‘qitish va tayyorlash bo‘yicha boshqaruv organlari axborot texnologiyalarining eng so‘nggi yutuqlarini, “katta ma’lumotlar”, “Internet+” va boshqa texnik texnikalarni to‘liq qo‘llaydilar, kadrlar tayyorlashning keng qamrovli, hamma uchun ochiq, standartlashtirilgan tizimini yaratadilar.

Xitoy hukumatida rahbar kadrlar malakasini oshirish tez o‘zgaruvchan iqtisodiy va siyosiy muhitga moslashish zarurati bilan bog‘liq holda sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi[8]. XXR tomonidan qabul qilingan innovatsion yondashuvlar va amaliyotlar boshqa mamlakatlar uchun qimmatli saboqlar beradi.

Ushbu yondashuvlarning zamirida uzluksiz o‘rganish va rivojlanishning muhimligini tan olish, XXI asrda samarali yetakchilik uchun zarur bo‘lgan kompetensiya va ko‘nikmalarga e’tibor qaratish zarur. Sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar kabi ilg‘or texnologiyalardan foydalanish o‘rganishni shaxsiylashtirish va eng yuqori sifatli materiallar va resurslardan foydalanish imkonini berdi.

Biroq, Xitoyning rahbar kadrlar tayyorlash tizimida e’tibor talab qiladigan ba’zi muammolar mavjud. Korrupsiya va qarindosh-urug‘chilik bilan bog‘liq muammolarni hal qilish, shuningdek, rahbarlar saflarida ko‘proq inklyuzivlik va xilma-xillikni ta’minlash zarurati shular jumlasidandir[9].

Xulosa qilib aytganda, Xitoyning hukumat rahbariyatini rivojlantirish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, innovatsion yondashuvlar va amaliyotlar boshqaruv sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Butun umr davomida ta’lim olish, texnologiyalardan foydalanish

va kompetensiyalarga e'tibor qaratish muhimligini tan olgan holda, boshqa davlatlar XXR modelidan qimmatli saboq olishlari va undan o'zlarining yetakchilik tizimini rivojlantirishda foydalanishlari mumkin.

XXRning boshqaruv kadrlarini tayyorlash bo'yicha o'rganilgan tajribasiga asoslanib, quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

1. Rahbar kadrlarni tayyorlashga onlayn ta'lim, virtual reallik va sun'iy intellekt kabi ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy etish.

2. Raqamli ko'nikmalar va strategik fikrlashga e'tibor qaratgan holda hukumatning o'zgaruvchan ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish.

3. Tajribali yetakchilarni yosh iste'dodlar bilan bog'laydigan, bilimlarni uzatish va yetakchilikni rivojlantirishga yordam beruvchi mentorlik tarmoqlarini yaratish.

4.Yetakchilikni rivojlantirishda innovatsiyalar va tadqiqotlarni rag'batlantirish, ilg'or tajribalarni o'rganish va yangi o'qitish modellarini ishlab chiqish.

Аннотация. В данной статье рассматриваются инновационные подходы и передовой опыт подготовки руководящих кадров в государственных органах. В связи с этим изучены существующие тенденции и проблемы, проанализированы эффективные программы и инициативы, направленные на повышение квалификации управленцев государственного сектора и развитие лидерских качеств.

Ключевые слова: подготовка руководящих кадров, государственные органы, инновационные подходы, педагогическая практика, инновационные методы обучения, развитие лидерства, электронное обучение, оценка и развитие эффективности.

Abstract. This article discusses innovative approaches and best practices in training management personnel in government agencies. In this regard, existing trends and problems were studied, effective programs and initiatives aimed at improving the skills of public sector managers and developing leadership skills were analyzed.

Key words: leadership training, government agencies, innovative approaches, teaching practice, innovative teaching methods, leadership development, e-learning, performance assessment and development.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/6600413

2. Van Ya. (2018). Reformirovanie sistemы vыsshego obrazovaniya v Kitae v XX — nachale XXI v. Obщestvo: sotsiologiya, psixologiya, pedagogika, 3, 62−71.

3. Den T. (2020). Issledovanie po povыsheniyu effektivnosti sistemы upravleniya vыsshim obrazovaniem Kitaya. Strategicheskie orientirы sovremennogo obrazovaniya: sbornik nauchnыx statey, 148−151. Yekaterinburg.

4. Li Ya. (2015). Novaya dinamika vыsshego obrazovaniya v Kitae. Vestnik NGPU, 6 (28).

5. A top Chinese university stripped «freedom of thought» from its charter. Retrieved from: https://qz.com/1770693/chinas-fudan-university-axes-freedom-of-thought-from-charter/.

6. Cao Y., Yang R. (2019). World-class university construction and higher education governance reform in China: A policy trajectory. In C. D. Wan, M. N. N. Lee, & H. Y. Loke (Eds.), The governance and management of universities in Asia: Global influences and local responses, 21−42.

7. Cheng Danhong — Shanghai University. Retrieved from: https://www.shu.edu.cn/info/1383/65411.htm.

8. Circular of the State Council on Printing and Distributing the Overall Plan for Comprehensively Promoting the Construction of World-Class Universities and First-Class Disciplines Guo Fa. (2015). 64. Retrieved from: http://www.gov.cn/zhengce/content/2015−11/05/content_10269.htm.

9. Curaj A., Georghiou L., Harper J., Egron-Polak E. (2015). Mergers and alliances in higher education. International practice and emerging opportunities.

ISSN 3030-3230

MAMLAKATIMIZDA HARBIY PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH TIZIMI HAMDA XALQARO TAJRIBA

Akbarxodjayev Kamol Abral o‘g‘li,
Ichki ishlar vazirligi akademiyasi,
Harbiy tayyorgarlik kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz ta’lim tizimida harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar va belgilab o‘tilgan ustuvor vazifalar hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda harbiy ta’lim tizimidagi muhim xususiyatlari va oliy harbiy o‘quv yurtlari o‘qituvchilariga quyiladigan asosiy talablar bayon etilgan.

Harbiy ta’lim, harbiy pedagog kadrlar, oliy harbiy ta’lim muassasalari, pedagogik faoliyat

Mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik yangilanishlar hamda mintaqadagi harbiy - siyosiy vaziyatni hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini keng ko‘lamda isloh qilishning poydevori bo‘ldi. Shunga muvofiq, harbiy ta’lim tizimida ham keng qamrovli islohotlarni amalga oshirishga asos bo‘ldi. Jumladan: Mudofaa vazirligida ko‘p bosqichli harbiy ta’limning isloh qilish konsepsiyalari ishlab chiqildi. O‘tgan yillar mobaynida harbiy sohada juda katta yutuqlar qo‘lga kiritildi. Harbiy ta’limda innovatsion yondashuv, informatsion texnologiyalar, simulatsiya vositalari keng qo‘llanila boshlandi.

So‘nggi yillar davomida qo‘shimcha ravishda yangi, zamonaviy ta’lim muassasalari tashkil etildi, kursantlarni o‘qitish tizimi ko‘p tarmoqli tizimga aylantirildi.

Shuningdek, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash fakultetlari ham mavjud bo‘lib, bu fakultetlar O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmat qilayotgan ofitser va serjantlarni o‘z mutaxassislari bo‘yicha qayta tayyorlashdan iborat. Bugungi kunda mamlakatimizda ofitser va serjant kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirishning samarali tizimi yaratilgan bo‘lib, bular IIV Akademiyasi, IIV Malaka oshirish instituti, Mudofaa vazirligining serjantlar korpusi, oliy harbiy ta’lim muassasalari, oliy harbiy ta’lim muassasalari qoshidagi malaka oshirish fakultetlari, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi va akademiya qoshidagi ofitserlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish oliy kurslaridir.

Davlat ta’lim standartlari asosida harbiy ta’limni takomillashtirish va modernizatsiyasi qilishda asosiy e’tibor harbiy ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil yetish va boshqarish tizimini mazmunan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo yetmoqda. Chunki, bugungi kunda harbiy ta’lim tizimida yaratilayotgan sharoitlar, zamonaviy o‘zgarishlar barcha imkoniyatlardan foydalana oladigan, o‘ziga va harbiy faoliyatiga nisbatan talabchan, o‘z kasbining ustasi bo‘lgan, harbiy sohaning sirlarini har tomonlama chuqur o‘zlashtirgan, o‘zini o‘zi rivojlantiruvchi hamda o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini to‘la ishga sola biladigan mahoratli harbiy-pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda.

Harbiy ta’lim - Qurolli Kuchlarning turli bo‘g‘inlari, harbiy qismlar va maxsus kuchlar uchun kadrlar tayyorlash tizimi hisoblanib, ushbu termin ofitser va boshqa harbiy xizmatchilarning amaliy faoliyatida zarur bo‘lgan fundamental va maxsus harbiy fanlar bo‘yicha tizimlashtirilgan bilimlar va ko‘nikmalar yig‘indisini anglatadi[5].

Respublikamizda ta’lim tizimi doimo davlatimiz rahbari e’tiborida bo‘lmoqda. O‘tgan davr mobaynida sog‘lom va har tomonlama rivojlangan avlodning shakllanishini ta’minlashga qaratilgan samarali maktabgacha ta’lim tizimini tashkil qilish, bu sohada chuqur islohotlar o‘tkazish bo‘yicha kompleks tashkiliy-huquqiy chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu Davlatimiz rahbarining qabul qilgan qaror va farmonlarida, me’yoriy hujjatlarda o‘z aksini topyapti.

Zamonaviy taraqqiyotning tamal toshi ham,

mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir[4]. Davlatimiz rahbarining ushbu so'zlari o'zbek milliy ta'lim tizimini bugungi davr da'vati zamirida tubdan modernizatsiya qilishning bosh mayog'i, qat'iy shiori, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Zero, mustaqillik yillarida mamlakatimizda shakllangan ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajriba, xalqaro standartlar, shuningdek asrlar davomida sayqal topib kelgan milliy tarixiy tajribamiz, an'analarimiz hamda qadriyatlarimiz asosida isloh qilish bugunning o'tkir talabiga aylandi.

Tabiiyki, hozirgi zamonda yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy mezonlari hamda andozasi o'zgardi. Ular bilimni, axborotni, hayot tarziga ta'sir etuvchi boshqa ma'lumotlarni nafaqat oilada, maktabda, oliy ta'lim dargohida, balki dunyoviy miqyosdagi vertual axborot makonidan, Internet va ijtimoiy tarmoqlardan, matbuot, radio, televideniye hamda o'zga manbalardan olish imkoniyatiga egalar. Ta'lim va tarbiyani tashkil etishda ushbu real voqelikni inobatga olmaslik aslo mumkin emas.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda 2020-yil 23-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'RQ-637-son qarori bilan tasdiqlangan **"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining qabul qilindi[2].**

Shuningdek 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining 35 bandida quyidagilar belgilab o'tilgan:

- barcha darajadagi rahbar kadrlar va xodimlarning "hayot davomida ta'lim olish" (Life Long Learning) tamoyili asosida butun faoliyati davomida o'zlariga zarur bo'lgan ko'nikmalarini rivojlantirib borishga qaratilgan malaka oshirish tizimining yagona qoidalarini belgilash tizimi joriy etildi;

- davlat fuqarolik xizmatchisining uzluksiz malakasini oshirish va kasbiy rivojlanishi — davlat fuqarolik xizmatini o'tashning muhim sharti etib belgilash[3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10 qarorning 3-ilovasi "Ichki ishlar organlarida kadrlar salohiyati darajasini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlari Yo'l xaritasi"da bir qator vazifalar belgilangan:

2024/2025-o'quv yilidan boshlab Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining magistraturasida "ilmiy-pedagogik faoliyat" mutaxassisligi bo'yicha ichki ishlar organlari uchun ilmiy-pedagogik kadrlarni maqsadli tayyorlashga qaratilgan o'quv jarayonini yo'lga qo'yish choralarini ko'rish. Bunda quyidagi talablar nazarda tutiladi:

mazkur mutaxassislik bo'yicha tanlovni kamida ikki yillik amaliy xizmat stajiga ega tayanch oliy yuridik ma'lumotli ichki ishlar organlari xodimlari orasidan amalga oshirish;

Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi bakalavriat ta'lim yo'nalishini imtiyozli diplom bilan tamomlagan bitiruvchilar uchun mazkur mutaxassislik bo'yicha magistraturaga tanlovsiz kirish huquqini berish hamda o'qishni tamomlagandan so'ng ularga ichki ishlar organlari ta'lim va ilmiy muassasalarida kamida uch yil uzluksiz ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish majburiyatini yuklash.

Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida ichki ishlar organlari ta'lim va o'quv muassasalarining pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini quyidagi choralarni nazarda tutgan holda yo'lga qo'yish:

ichki ishlar organlari ta'lim va o'quv muassasalarining pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va uzluksiz malakasini oshirish muddatlari, talablari va yo'nalishlarini nazarda tutuvchi tartibni belgilash;

o'quv dasturlari va rejalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'qitishning ilg'or yondashuvlarini inobatga olgan holda ishlab chiqish va tasdiqlash;

o'quv jarayoniga mahalliy va xorijiy yetakchi ta'lim va o'quv muassasalarining yuqori malakali mutaxassislarini shartnoma asosida jalb qilish amaliyotini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlari ishlab chiqilgan[4].

2023-yil 11-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" Strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son farmonning 1-ilovasida ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab o'tilgan:

pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish;

oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish;

oliy ta'lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash;

yosh tadqiqotchilarning ulushini oshirish, ularning ilmiy izlanishlarini qo'llab-quvvatlash

ISSN 3030-3230

va shu kabi bir qator vazifalar belgilab olingan[1].

Harbiy kadrlarni tayyorlashda harbiy jamoalarni tayyorlashga kompleks yondashuvni amalga oshirish, pedagogik jarayonning har bir funksiyasining qoidalari va shartlariga rioya qilinsa kadrlarni tayyorlash jarayonini tashkil etish va o‘tkazish davlatning harbiy siyosati talablariga muvofiq, qo‘mondonlik buyruqlari va ko‘rsatmalari bilan amalga oshiriladi. Ta’lim tizimini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar hamda rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rganish samarali usullardan biri hisoblanadi. Biz xam ushbu maqolada ba’zi bir rivojlangan mamlakatlarning harbiy pedagog kadrlar tayyorlash tizimiga nazar soldik.

Rossiya Federatsiyasida harbiy pedagog kadrlar tayyorlash tizimiga bog‘liq Ad’yuntura mavjud Ad’yuntura so‘zi aspirantura va magistratura so‘zlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa-da, aspirantura yoki magistraturaga qaraganda kamroq tarqalgan. Dastlab ad’yunktlar ilm-fan, cherkov va davlat xizmati sohalarida rahbarlarga yordam berishgan. Hozirda ad’yunkturada tahsil olayotgan talabalar shunday nomlanadi. Bu atama faqat oliy ta’lim tizimida, huquqni muhofaza qilish organlarining universitetlarida va Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligida qo‘llaniladi.



Ad’yuntura nima? Bazilar xizmat va ish bilan qiziqsa, boshqalari o‘qituvchi va tadqiqotchi bo‘lishni xohlaydi. Ilm-fan bilan shug‘ullanishni davom ettirish uchun talabalar universitetda o‘qishni davom ettiradilar, dissertatsiya yozadilar va himoya qiladilar, «PhD» darajasini oladilar, shundan so‘ng ular dars berishni boshlaydilar. Agar fuqarolik universitetlarda talaba aspiranturani tamomlasa, mahkamaviy universitetlarda – Ad’yunturani tamomlashi kerak. Ta’limning ushbu shakli Rossiyaning barcha ta’lim muassasalariga xosdir. Talabalarga bunday ta’lim berishdan maqsad bo‘lajak o‘qituvchilar va magistrant tadqiqotchilarni tayyorlashdir.

Ad’yunturaga qabul qilish uchun xodim bildirgi yozishi kerak. Bildirgi ta’lim muassasasi rahbariga yuboriladi. Rasmiy hujjatda abituriyentning kirish imtihonlariga kirish to‘g‘risidagi so‘rovi, mavjud ta’lim to‘g‘risidagi ma’lumotlar, dissertatsiya ishining dastlabki mavzusi, yozilgan va chop etilgan ilmiy ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks etgan bo‘ladi.Kirish imtihonlari qanday bo‘lishi kafedra universitetiga va tanlangan ta’lim yo‘nalishiga bog‘liq. Misol uchun, agar ta’lim muassasasi Mudofaa vazirligiga tegishli bo‘lsa, abituriyent falsafa, jismoniy tarbiya, chet tili va ixtisoslashtirilgan fanlarni o‘z ichiga oladi. Kerakli miqdordagi ball to‘plaganlar ad’yuntlar qatoriga kiritiladi.

Ad’yunturada ta’lim shakli qanday?

Ta’limning 2 shakli mavjud:

1. kunduzgi (kurs 3 yil davom etadi);

2. sirtqi (dastur 4 yilga mo‘ljallangan).

Talabalar keyinchalik dissertatsiya yozish va ilmiy daraja olish uchun yordamchi dasturga kirishadi. Butun o‘quv jarayoni va tadqiqot ilmiy ishlarga bag‘ishlangan. Yordamchi o‘z ishida qaysi mavzuni yoritishni o‘zi hal qiladi. U o‘z tanlovini tegishli bo‘lim bilan muvofiqlashtirishi kerak. Har bir talabaning ilmiy rahbari bor (bu faqat tajribali o‘qituvchi bo‘lishi mumkin, odatda professor unvoniga ega). U ilmiy ish yozish jarayonini nazorat qiladi.

Talabalar keyinchalik dissertatsiya yozish va ilmiy daraja olish uchun yordamchi dasturga kirishadi. Butun o‘quv jarayoni va tadqiqot ilmiy ishlarga bag‘ishlangan. Yordamchi o‘z ishida qaysi mavzuni yoritishni o‘zi hal qiladi. U o‘z tanlovini tegishli bo‘lim bilan muvofiqlashtirishi kerak. Har bir talabaning ilmiy rahbari bor (bu faqat tajribali o‘qituvchi bo‘lishi mumkin, odatda professor unvoniga ega). U ilmiy ish yozish jarayonini nazorat qiladi.

Agar ad’yunkt himoyada muvaffaqiyatli hisobot bersa, u nomzodlik darajasini oladi. Har kim o‘z taqdirini o‘zi tanlaydi. Ad’yuntura bitiruvchisi mahkamaviy organlarda xizmatga qaytish yoki ilmiy izlanishlar bilan shug‘ullanish va o‘qituvchi bo‘lish huquqiga ega.

Ad’yunturalar tashkil etilgan muassasalar. Ad’yunktura - bu juda keng tarqalgan ta’lim. Ta’limning ushbu shakli Rossiyadagi aksariyat mahkamaviy va harbiy universitetlarda mavjud.

Mudofaa vazirligining harbiy Ad’yunkturasi

Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligining universitetlari boshqa mahkamaviy ta’lim muassasalaridan unchalik farq qilmaydi: ad’yunktlar ham bu erda o‘qiydilar.

Poytaxtda Mudofaa vazirligining Harbiy universiteti joylashgan. Voronej havo kuchlari akademiyasi uchuvchilarni tayyorlash uchun

mo‘ljallangan. Ammo dengiz floti zobitlari shimoliy poytaxtda - Finlyandiya ko‘rfaziga yaqinroqda o‘qitiladi. Buyerda dengiz akademiyasi joylashgan. Ta’lim muassasalari ro‘yxati shu bilan tugamaydi. Ushbu akademiyalarda talabalar harbiy mutaxassisliklarni puxta egallaydilar. Ular orasida quyidagi sohalar alohida talabga ega: dengiz floti, aviatsiya, artilleriya.

FSB akademiyasida Ad’yunktura

FSBning o‘z ta’lim muassasasi - Rossiya FSB akademiyasi mavjud. Bu xorijiy razvedka, xavfsizlik va xavfsizlik xizmatlarining bo‘lajak xodimlari tahsil oladigan ixtisoslashgan tashkilotdir. Kursantlar ilmiy faoliyat bilan faol shug‘ullanadilar. Ilmiy-tadqiqot faoliyatida o‘zini namoyon qilgan, ayniqsa muvaffaqiyatli talabalar ad’yunkturaga imtiyozli kirish huquqiga ega.

Ta’limning ko‘plab yo‘nalishlari mavjud. Ro‘yxatga informatika, matematika, hatto kriptografiya ham kiradi. Biroq, asosiy mutaxassislik yuridik hisoblanadi. Bo‘lajak tergovchilar va tezkor xodimlar universitetni tamomlaydilar.

Ichki ishlar vazirligining ad’yunkturasi

Mahkamaviy va harbiy universitetlar (shu jumladan, Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligi tizimidagi ta’lim muassasalari) nafaqat talabalarni (kelajakdagi politsiya xodimlari), balki o‘qituvchilarni ham tayyorlaydi. Olimlarni tayyorlash dasturlari mavjud. Rossiya Federatsiyasida mahkamaviy universitetlar orasida markaziy o‘rinni Rossiya Ichki ishlar vazirligining Butun Rossiya ilmiy-tadqiqot instituti egallaydi. Bu PhD darajasini olish uchun eng nufuzli joy. Ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash uchun boshqa muassasalar ham mavjud. Masalan, poytaxtda bu Ichki ishlar vazirligi universiteti[7].

U yerda jinoyat-protsessual, ma’muriy va jinoyat huquqi bo‘yicha mutaxassislar, bo‘lajak kriminologlar, sud-tibbiyot ekspertlari, operativ xodimlarni tayyorlaydi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda harbiy ta’lim tizimidagi muhim xususiyatlaridan biri bu tashkiliy xususiyatdir. Ushbu jarayon quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

-tanlovga yagona yondashuvlar;

-o‘qituvchilarni tayyorlash, malakasini oshirish tizimi;

-professor-o‘qituvchilarni kasbiy faoliyat qarab yagona talablari;

-mamlakatdagi oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘quv dasturlari fuqarolik o‘quv muassasalari bilan birgalikda amalga oshirilishi.

Pedagogik faoliyatning muhim xususiyati shundan iboratki xorijiy oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari yuqori ijtimoiy maqomga (davlatning katta xizmatchisi maqomi), ishonchli ijtimoiy himoya, kafolatlangan yuqori maoshli doimiy ishga egaligidir.

G‘arb harbiy ekspertlariga ko‘ra: qurolli kuchlarning harbiy qismlari, maxsus qo‘shinlar va ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlari mazmuni va muddatlari jihatidan farq qiladi, shundan kelib chiqib dolzarb masalalarini samarali hal qilish maqsadida NATO harbiy blokiga a’zo davlatlari uchun umumiy, ilmiy asoslangan, eng yaxshi ta’lim resurslaridan foydalangan holda ta’lim oluvchilar va o‘qituvchilarga yagona til tayyorgarligi o‘qitish tizimini tashkil etish kerakligini ta’kidlashadi.

NATO bloki a’zo davlatlarning asosiy harbiy o‘quv yurtlari quyidagilar: universitetlar (misol, AQShda – Milliy mudofaa universiteti), kollejlar (misol, AQShda – Armiya kolledji), maktablar (misol, Italiyada – Harbiy havo kuchlari maktabi) va institutlar (misol, Buyuk Britaniyada – quruqlikdagi kuchlarning umumiy ta’lim instituti).

Xorijiy oliy harbiy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarining miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari o‘rganish shuni ko‘rsatadiki shahodatlangan xodimlar va erkin yollanganlarni soni tengdir ba’zan erkin yollanganlar soni ko‘proqdir, masalan AQShda asosan professor-o‘qituvchilar tarkibini erkin yollanganlar tashkil etadi – zaxiradagi sobiq harbiy xizmatchilar. Biroq kafedralar rahbariyati hamda umumharbiy fanlar harbiy xizmatchilardan tayinlanadi.

Xorijiy oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilariga qo‘yilayotgan hozirgi talab ularning keng dunyo qarashga ega bo‘lishidir. Shuning uchun AQSh, Germaniya, Fransiya universitetlarida o‘quv vaqtining 40% ga yaqini gumanitar fanlarni o‘rganishga ajratiladi. Universitetlarning ta’lim dasturlarida tarix, siyosatshunoslik, psixologiya, falsafa, sotsiologiya, huquqshunoslik, iqtisod, adabiyot, jahon madaniyati va san’ati, chet tillari, yetakchilik va boshqaruv nazariyasi fanlarini chuqur o‘rganish nazarda tutilgan [6].

Universitetning o‘qituvchi lavozimiga tayinlanuvchi nomzodlar uchun muhim talab bu: tegishli sohada harbiy va pedagogik tajriba hamda majburiy muntazam malaka oshirishdir.

ISSN 3030-3230

Shunday qilib, xorijiy oliy harbiy o‘quv yurtlari o‘qituvchilarining professional va shaxsiy fazilatlariga ko‘ra quyiladigan asosiy talablar quyidagilardir:

-ilmiy darajali olimlarning mavjudligi;

-keng dunyo qarash;

-insonparvarlik;

-pedagogika va psixologiya bo‘yicha chuqur bilim;

-ta’lim oluvchilarni boshqara olish qobiliyati;

-yuqori darajadagi professional tayyorgarlik, shu jumladan harbiy professional tayyorgarlik fuqarolik o‘qituvchilari uchun;

-boy harbiy tajriba jumladan: mahalliy urushlarda qatnashish va qurolli ziddiyatlar;

-doimiy shaxsiy va kasbiy professional o‘zini-o‘zi takomillashtirish;

-ilmiy ishlarda faol ishtirok etish;

-ta’lim oluvchilar o‘rtasida g‘arb demokratiyasi g‘oyalarini shakllantirishdagi tirishqoqlik.

Shuni ta’kidlash joizki, ta’lim muassasalari o‘qituvchilik lavozimiga talabgorlar: qo‘shinlardan kelgan ofitserlar va fuqarolik ta’lim muassasalari o‘qituvchilari qo‘shimcha tayyorgarlikdan o‘tishlari hamda va oliy harbiy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi diplomiga ega bo‘lishi lozim.

Hozirda zamonaviy xorijiy universitetlarda pedagoglarning o‘rni va maqsadi o‘ngartirayotganini kuzatishimiz mumkin: ya’ni: asosiy manba va bilim tashuvchisi sifatida emas balki, boshqaruvchiga talabalarning faoliyati davomida ta’lim muammolarining turli axborot manbalari bilan ishlashni o‘rgatuvchiga aylantirish yo‘lga qo‘yilmoqda. Buning natijasida pedagog kadrlarni professional tayyorgarligiga ko‘proq e’tibor berilib, ularning ijtimoiy mavqeini oshirilmoqda.

Shunday qilib, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda harbiy kadrlar ta’lim tizimi holati ko‘p darajali va ko‘p sikllidir. Pedagog kadrlarni kasbiy va professional tayyorgarligi hamda ilmiy-pedagogik talablar darajadan darajaga oshirib boriladi shuning uchun ularning malakasini oshirish bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi, masalan, AQShda - 4 bosqich.

Birinchi bosqich (40 soat) - o‘qituvchini o‘zini tayyorlash quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

-kattalarni o‘qitishda prinsiplarni o‘rganish;

-shaxsni tarbiyalash falsafasi;

-o‘qitish nazariyasi;

-ijodiy fikrlash xususiyatlar.

Ikkinchi bosqich (6 oy) – o‘quv kurslarini ishlab chiquvchilar uchun;

-o‘quv kurslarining o‘ziga xos xususiyatlari va ularni o‘qitish metodikasi;

-pedagogning professional kompetensiyasi;

-o‘quv jarayonini baholash metodikasi.

Birinchi va ikkinchi bosqich dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlaganlar AQSh quruqlikdagi qo‘shinlar shtab-komandirlik kollejida ta’lim burish huqqini beradi

Uchinchi bosqich (1 yilgacha) – o‘quv dasturlarini o‘zgartirishlarni boshqarish. Bu bosqich darsliklar, qo‘llanmalar va o‘quv materiallari muharrirlari hamda mualliflari uchun majburiydir.

Tayyorgarlikning to‘rtinchi bosqichi(1 yilgacha) - malaka oshirish. O‘quv kursi – o‘quv muassasalarining bo‘lajak va amaldagi rahbarlari uchun, ushbu o‘quv kursini tashkil etish va boshqarish uchun harbiy va fuqarolik muassasalari hamda mudofaa vazirligining yetakchi mutaxassislari jalb etiladi.

Xorijiy davlat ta’lim muassasalari o‘qituvchilarning sifatli kasbiy tayyorgarlik hamda o‘z-o‘zini tarbiyalash uchun o‘quv yuklamasi kamaytirilib ularga qulay sharoitlar yaratib beriladi. O‘qitishning muvaffaqiyatli pedagogik faoliyati mashg‘ulotlarning optimal soni bilan ma’qullanadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar hamda xorijiy harbiy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini tahlil qilish davomida quyidagi xulosalarni keltirib o‘tishimiz mumkin:

- pedagogik faoliyat bilan bog‘liq ishga qabul qilishda oliy harbiy ta’lim muassasasi professor o‘qituvchilaridan iborat komissiya tashkil etish va ular tomonidan ishga qabul qilinayotgan kadrlarni oshkoralik, talabchanlik, prinsipiallikka rioya qilgan holda baholash tizimi asosida qabul qilish;
- o‘qituvchilikka nomzodlarni dastlabki tanlov kursantlik davridanoq boshlash, shuningdek harbiy qismlardan pedagogik faoliyatga moyilligi va qobiliyati bor ofitserlar tarkibidan olinishi;
- harbiy ta’lim muassasasi o‘qituvchilik lavozimiga nomzodlar ta’lim

muassasasi va kafedra yo‘nalishiga ko‘ra majburiy umumiy pedagogik tayyorgarlikdan, fuqarolik ta’lim muassasalarini bitiruvchilari dastlabki qayta tayyorlashdan o‘tishlari shart;

- professor-o‘qituvchilarni rag‘batlantirish ularning kasbiy tayyorgarligi darajasini oshirish va o‘z-o‘zini takomillashtirish uchun qulay sharoitlar yaratish;
- oliy harbiy ta’lim muassasalarida “harbiy pedagog” mutaxassisligini ochish yoki barcha mutaxassisliklarga “kasbiy pedagogika” hamda “pedagogika psixologiya” fanlarini joriy etish

Аннотация. В данной статье описаны реформы, проводимые в системе образования нашей страны по подготовке военных педагогов и обозначены приоритетные задачи, а также важные особенности системы военного образования в развитых зарубежных странах и основные требования к преподавателям высших военных учебных заведений.

Ключевые слова: военная подготовка, военно-педагогический состав, военно-учебные заведения, педагогическая деятельность.

Abstract. This article describes the reforms being carried out in the education system of our country for the training of military teachers and identifies priority tasks, as well as important features of the military education system in developed foreign countries and the basic requirements for teachers of higher military educational institutions.

Key words: military training, military teaching staff, military educational institutions, pedagogical activity.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” Strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. Kirish rejimi: www.lex.uz. Murojaat sanasi - 18.09.2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida” qonun. Kirish rejimi: www.lex.uz. Murojaat sanasi - 14.09.2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son “2022-026yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. Kirish rejimi: www.lex.uz. Murojaat sanasi - 15.09.2023.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 20 yanvardagi “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-10 qarori: Kirish rejimi: www.lex.uz. Murojaat sanasi - 21.09.2023.
5. Xasanbaev X.X. Mudofaa sohasida harbiy pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish omillari: avtoref. dis. d-ra filos. ped. nauk (PhD) : 13.00.01 / X.X. Xasanbaev;.–Ch., 2023. – 42 s.
6. Dudolatov, A.A. Pedagogicheskiy analiz podgotovki prepodavateley zarubejnых voyenno-uchebnых zavedeniy / A.A. Dudolatov // Vestnik voyennogo obrazovaniya. – M., 2020. – №3. – S. 64-66.
7. https://www.dissertatus.ru/articles/chto-takoe-adyunktura/

ISSN 3030-3230

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HARBIY XIZMATCHILARNI ijtimoiy – huquqiy, moddiy va ma’naviy qo‘llab quvvatlashning nazariy jihatlari

Ikramov Alisher Aktamovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi
katta o‘qituvchisi,
harbiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. **Mazkur maqolada harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilishning mohiyati, ijtimoiy kafolatlarning zarurligi olimlarning asarlarini o‘rgangan holda ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy huquqshunos olimlarning sohaga oid ilmiy qarashlari ilgari surilib, mualliflik ta’riflari berilgan.**

Kalit so‘zlar: harbiy xizmatchi, ijtimoiy kafolat, ijtimoiy muhofaza qilish, moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy muhofaza.

Barcha davlatlarda bo‘lgani singari, O‘zbekiston Respublikasining ham taraqqiyoti harbiy xizmatchilarni ijtimoiy-huquqiy, moddiy va ma’naviy qo‘llab quvvatlashni sifat jihatidan yangi bosqichlarga olib chiqishga bog‘liq. Chunki, bugungi tahlikali zamonning o‘zi ko‘rsatib bermoqdaki, rivojlangan davlatlar ham harbiy sohani va unda xizmat qilayotgan ofitserlar hamda shartnoma asosida xizmat o‘tayotgan serjantlarni ularni oila a’zolarini moddiy va ma’naviy hamda ijtimoiy va huquqiy jihatdan to‘laqonli himoya qilmas ekan ko‘zlagan maqsadlariga erishishi amrimahol bo‘lmoqda.

Shuning uchun ham harbiy xizmatchilarni ijtimoiy-huquqiy va moddiy-ma’naviy himoya qilish dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini insoniy qadriyatlardan kelib chiqib har tomonlama qo‘llab quvvatlash xususiyatining rivojlanishiga zamin yaratib, sohaga oid qonunchilikni optimallashtirish va kuchaytirishni talab etmoqda.



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida O‘zbekiston o‘zining zamonaviy ijtimoiy himoya tizimini namoyon qilgan holda nafaqat kam ta’minlangan aholini, balki muayyan kasb egalarining ish faoliyatlarida turli muammolarni oldini olish uchun ham ijtimoiy davlat prinsipiga amal qiladi. Ushbu soha vakillaridan biri bevosita harbiylar bo‘lib, ularni ijtimoiy - iqtisodiy huquqlarini himoya qilgan holda davlat harbiy xizmatchilarga o‘zlarining shaxsiy va kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun munosib shart sharoitlar yaratib berishi kerak.

Mazkur sohani o‘rganishning dolzarbligi shundan iboratki:

Birinchidan, harbiy xizmatchilarni moddiy va ma’naviy hamda ijtimoiy-huquqiy jihatdan himoya qilish nazariy va uslubiy jihatdan yetarlicha o‘rganilmagan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining hozirgi rivojlanish bosqichida harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydigan normativlar mavjud emasligi;

Ikkinchidan, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoya tizimini inson salohiyatini o‘z-o‘zini rivojlantirish omili sifatida o‘rganish, shuningdek, ularni xizmat va mehnat faoliyatining samaradorligini ijtimoiy-iqtisodiy ta’minlash orqali oshirish o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish;

Harbiy xizmatchilarni moddiy va ma’naviy, ijtimoiy va huquqiy himoya qilish turli xil ilmiy konseptual yo‘nalishlar doirasida o‘rganiladi.

Ilmiy adabiyotlarda aholining ijtimoiy himoyasi qadimdan sotsiologik va iqtisodiy tadqiqotlarning predmeti sifatida qarab kelingan.ijtimoiy himoyaga oid qarashlar, tushunchalar F.D.Ruzveltning ilmiy asarlarida ochib berilgan hamda mazkur tushuncha 1940-yillarga kelib xalqaro miqyosda e’tirof etilib xalqaro mehnat tashkiloti qoidalariga

kiritilgan[1]. Bu ibora ba'zi mamlakatlarda o'sha vaqtdan aholini himoya qilish uchun qonunchilik darajasiga ko'tarilgan(masalan, Rossiya, Belorus).

Ijtimoiy himoya siyosati nafaqat aholini munosib hayotini ta'minlaydigan shart sharoitlarni, balki mehnatkash aholini jismoniy va ma'naviy qobiliyatini erkin rivojlantirish omili sifatida ham ko'rila boshlangan. Shu sababdan ham O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasiga ham bejizga aholini ijtimoiy himoya qilish zarurati qonunchilik darajasida tan olingan emas.

O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida mehnatga haq to'lashning kafolatlangan miqdori ham belgilandi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 42-modda). Ijtimoiy himoyani O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining barchasi, jumladan harbiy xizmatchilar ham olishi mumkinligini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, zamonaviy sharoitda ijtimoiy himoya mehnat munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy amaliy vositasi bo'lib, nafaqat aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi, balki turli xil kasbiy guruhlar xodimlarining mehnat salohiyatini oshirishning omili ham hisoblanadi.

Aholini moddiy, ijtimoiy va iqtisodiy qo'llab quvvatlash masalalariga oid ilmiy tushunchalar xorijiy olimlardan P.Burde, M.Veber, E.Giddenz va E.Dyurkeym asarlarida sotsiologik jihatlari o'rganilgan. K.Marks, P.Soronkin va P. Shtompkalarning ilmiy asarlarida umumiy tarzda yoritilgan[2].

Masalan, Veber kapitalistik munosabatlar sharoitida mavjud qonunlar jamiyatning barcha subyektlari uchun bir xil talqin etilib tatbiq etilishi kerak degan fikrni bildiradi. Shuningdek, ijtimoiy himoya masalasi ham shunday hisoblanishi lozimligini tushuntiradi[3].

Bu borada K. Marksning ham o'ziga xos yondashuvi mavjud bo'lib, har bir davlat o'zining ijtimoiy funksiyasini amalga oshirish orqali ijtimoiy - iqtisodiy manfaatlarni ta'minlashi va shu orqali aholining turli qatlamlari orasida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy qarama-qarshiliklarni bartaraf qilishi lozim bo'ladi degan xulosaga keladi[4].

Sorokin esa, davlatning ijtimoiy – iqtisodiy funksiyalarini chuqur tahlil qilgan holda, ushbu funksiya ijtimoiy foydali xususiyatga egaligini, ijtimoiy himoya va imtiyozlar har bir inson uchun davlat himoyasining bir qismi ekanligini ta'kidlaydi[5].

Sorokinning fikrlarini qo'llab quvvatlagan holda Shtompka ham davlatning ijtimoiy himoya modelini shakillantirish orqali nafaqat xalqning teng huquqlarini, ularning mol-mulkidan va boshqa mavqeidan qati nazar har bir mehnat subyektlari uchun keng huquqlar taqdim qilishini ta'kidlaydi[6].

Aslini olganda aholini ijtimoiy himoya qilishning mohiyati, ijtimoiy himoyani qo'llovchilarning, ya'ni davlatning mahoratiga bog'liq bo'lib, turli kasb vakillarida inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat hisoblanishi darkor.

Shuning uchun ham, O'zbekiston Respublikasida nafaqat aholiga umumiy tarzda ijtimoiy himoya funksiyasi qo'llaniladi, balki davlatimizning uzoq muddatga mo'ljallangan strategik maqsadi hamda davlatimizning ustuvor vazifasi sifatida harbiy xizmatchilarga nisbatan ham bosqichma bosqich tatbiq etib kelinmoqda.

Ammo, ilmiy manbalarni tahlil qilish shundan darak bermoqdaki, o'tkazilgan ijtimoiy tadqiqotlar natijasida ijtimoiy himoyaning tizimli hodisa sifatida yagona to'xtami mavjud emas. Fikrimizcha, ijtimoiy himoya va ijtimoiy kafolat kabi atamalarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va mazmuni yetarlicha aniqlanmagan. Ayniqsa, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoya tizimini vujudga keltirish va o'z o'zini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan boshqarish kabi konseptual mexanizmlar mavjud emasligi ham biroz ularni mehnat salohiyatini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

Yuqoridagi tushunchalarga oydinlik kiritish hamda nazariy bo'shliqni to'ldirish uchun ijtimoiy himoya va ijtimoiy kafolat tushunchalarini farqlashimizga to'g'ri keladi.

Ijtimoiy himoya tushunchasi keng ma'noda talqin qilinganda moddiy ta'minot uchun davlat fondlarini shakllantirish, shuningdek aholining turli guruhlarini moddiy, ijtimoiy va madaniy qo'llab-quvvatlash uchun milliy daromadning bir qismini qayta taqsimlash jarayonini aks ettiruvchi munosabatlar majmuasini ifodalovchi fanlararo kategoriya sifatida qaraladi[7]. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirish orqali davlat mehnat subyektlarini maqsadli rivojlantirishni amalga oshiradi, mehnat qobiliyatini yo'qotganlarga yordam beradi, ijtimoiy-iqtisodiy tartibga solishning maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarini amalga oshiradi va aholining turli kasbiy guruhlariga qonun bilan qabul qilingan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlarni amalga oshirishga intiladi[8].

Tor ma'noda olib qaralganda ma'lum

ISSN 3030-3230

darajada harbiy xizmatchilarga berilgan imtiyoz va hayotning ijtimoiy kafolati sifatida ko‘riladi. Shuningdek, insonning daxlsizligi va qadr qimmatini himoya qilish huquqi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u insonning alohida huquq va erkinliklarini ifodalaydi[9].

Bu yerda ijtimoiy huquqlar - davlat tomonidan o‘rnatilgan va huquq subyektlariga berilgan hamda himoya qilinadigan ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar, ularning erkinligi, ijodkorligi shuningdek, boshqa imkoniyatlari majmui sifatida tushuniladi. Aksariyat hollarda harbiy xizmatchilarga berilgan ijtimoiy himoyani boshqalarga berilmagan faqat shu toifadagilar uchun beriladigan afzalliklar tushuniladi. Mazkur imtiyozlar harbiy xizmatchining ishlash davri davomida yoki nafaqaga ketgandan keyin ham amal qilishi yoki bir yoxud bir necha marotaba foydalanish imkoniyatlariga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan afzalliklar hisoblanadi.

Harbiy xizmatchilarga bunday imtiyozlarni berilishi ularning turli xil mehnat va hayot sharoitlarda yashaganliklari uchun taqdim etiladi. Shu bois, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoya qilish ma’lum bir yaxlit tizimni shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi va bu harbiy xizmatchilarga muayyan kafolatlar, imtiyozlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab quvvatlashlar berishni talab etadi. Davlat tomonidan ijtimoiy himoya nafaqat harbiy xizmatchilarning o‘ziga balki uning oila a’zolariga ham beriladi. Shuning uchun ham, harbiy xizmatchini ijtimoiy-iqtisodiy ta’minlashning ma’lum bir ijtimoiy kafolatlari, imtiyozlari va mexanizmlari bilan tavsiflangan ijtimoiy institut sifatida ijtimoiy himoya qilishning o‘ziga xos integratsiyalashgan (umumiy va o‘ziga xos) tizimini shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. Umumiy nazariy yondashuv doirasida harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish ilgari ishlab chiqilgan ijtimoiy kafolatlar va imtiyozlarni ta’minlash (amalga oshirish) jarayoni sifatida o‘rganiladi. Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy kafolatlari nafaqat harbiy oilaning davlat tomonidan minimal ijtimoiy standartlarini namoyon etishning konkretlashtirilgan shakli, balki uning turli vakillarini ijtimoiy himoya qilishni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlarini ham belgilaydi. Harbiy xizmatchilar hayotining ijtimoiy standartlari-bu harbiy xizmatchi va uning oila a’zolari uchun ijtimoiy kafolatlar va imtiyozlarni qonuniy ravishda sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlar asosida belgilangan tizimidir[10].

Demak yuqoridagi fikrlardan yakun yasagan holda shuni aytishimiz kerakki, kafolatlar va imtiyozlar harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish tizimining asosiy elementlari hisoblanadi. Shu boisdan ham, O‘zbekiston Respublikasida harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilishni amalga oshirish jarayonida kafolatlar va imtiyozlar tizimidan foydalanishning qiyinligi amaldagi qonun hujjatlarida “harbiy xizmatchilar uchun ijtimoiy nafaqalar” turlarining aniq shakllantirilmaganligi bilan bog‘liq. Milliy qonunchiligimizni tahlil qilish shundan dalolat beradiki harbiy xizmatchilar uchun ijtimoiy imtiyozlar va ijtimoiy kafolatlar tushunchalari o‘rtasidagi farqni yaqqol ajratib ko‘rsatish qiyin sanaladi.

Huquqiy adabiyotlarda harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilishni nafaqat davlat tomonidan ularga taqdim etilgan imtiyoz sifatida, balki harbiy muassasalarning imidji sifatidagi qarashlarni ham uchratishimiz mumkin bo‘ladi[11].

Ijtimoiy himoyani davlatning muassasa, korxona, tashkilot va organlarida faoliyat yuritayotgan xodimlarning hayotiy faoliyatning ijtimoiy kafolatlarini ta’minlash mexanizmi sifatida qaraladi. Huquqiy adabiyotlarni o‘rganish orqali shunday to‘xtamga kelish mumkinki, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy kafolatlari alohida professional guruhi sifatida ijtimoiy kafolatlar va imtiyozlarning umumiy ro‘yxatini sifat tavsifini ifodalaydi. Ikkinchidan harbiy xizmatchi va uning oilasi hayoti uchun davlatning minimal ijtimoiy standartlari tizimini belgilaydi. Mazkur nazariya doirasida harbiy xizmatchilar oilasi hayotining ijtimoiy kafolatlari asosan ikki tomonlama hodisa sifatida tushuniladi. Bir tomondan, bu harbiy xizmatchining oilasi hayotining barqarorligini ta’minlash, uning a’zolariga davlatning minimal turmush darajasi va ijtimoiy huquqlarni ta’minlash shakli sifatida tushuniladi. Boshqa tomondan, ijtimoiy kafolatlar – davlat va uning muassasalari yoki alohida harbiy muassasalar tomonidan ko‘rsatiladigan harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a’zolariga harbiy xizmatchining o‘z xizmat va kasbiy vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq xarajatlarni qoplashga imkon beradigan kompensatsiya xizmatlari sifatida tushuniladi.

Aksariyat nazariyotchi olimlar harbiy xizmatchining ijtimoiy himoyasini ta’minlash jarayonining pragmatizm, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini o‘rganmaydilar.

Aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash tizimi orqali davlat mehnat munosabatlarini yaxshilaydi, mehnat potensialini ko‘paytirish uchun maqbul

sharoitlarni ta’minlaydi, sog‘liqni saqlash tizimini qo‘llab-quvvatlaydi va aholining turli kasbiy guruhlarining bo‘sh vaqtlarini rivojlantiradi[12]. Shundan keyingina jamiyatda insonlar o‘rtasida ijtimoiy farovonlik, adolat va jamiyatning muayyan kasbiy guruhlarining qobiliyatlarini qayta tiklash uchun ijtimoiy zarur shart-sharoitlarni ta’minlash darajasining oshishiga erishiladi.

Umuman olganda harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoyasi, ularning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishni ta’minlaydigan hamda jamiyatda egallab turgan ijtimoiy mavqeini shakllantirishni belgilaydigan kafolatlar tizimi bilan tavsiflanadi. Harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish ma’lum darajadagi ijtimoiy kafolatlarni ishlab chiqish, qonunchilikni mustahkamlashga erishish vositalari orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, harbiylarning oilalarini huquqlarini hurmat qilish va ijtimoiy mavqeini mustahkamlash uchun ham zarur sanaladi.

Yana bir holatga e’tibor qaratishimiz lozimki, harbiy xizmatchilar eng avvalo kasbiy xavf xatarlarning mavjudligi, xizmatdagi mehnat salohiyatini tiklash, o‘zini-o‘zi rivojlantirish uchun ijtimoiy himoyani nafaqa shaklida emas, balki davlatning ijtimoiy kafolati sifatida olishadi. Shu sababli ularga ijtimoiy himoyaning imtiyozlari mavjudligini uy-joy olishda, iste’mol kreditlari olishda, farzandlarini o‘qishga kirishida berilayotgan tavsiyanomalarda va hokazolarda ko‘rishimiz mumkin. Bu harbiy xizmatchilarning va ularning oila a’zolarining konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishni ta’minlashga qaratilgan moddiy va huquqiy vositalar majmui shaklida namoyon bo‘ladi.

Harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish nafaqat harbiy xizmatchining barcha oila a’zolarining insoniy salohiyatini qayta tiklash, balki qonunda belgilangan huquq va erkinliklardan foydalanishni ta’minlaydigan moddiy, ijtimoiy, ma’naviy va huquqiy shartlar sifatida ko‘rib chiqilishi kerak.

Ijtimoiy kafolatlar harbiy xizmatchilar uchun ijtimoiy himoya qilishning shakli sifatida ko‘rib chiqiladi. Shu o‘rinda bir holatni ta’kidlash o‘rinli bo‘lar edi, harbiy xizmatchiga berilayotgan ijtimoiy kafolatlar harbiy xizmatchi va ularning oila a’zolarini zaruriy hayotiy ehtiyojlarini qanoatlantira olishi kerak.

Xulosa sifatida aytganda, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish butun jamiyatdagi va xususan alohida harbiy muassasalardagi ijtimoiy-iqtisodiy qarama-qarshiliklarni yumshatish mexanizmi sifatida ko‘rib chiqilishi lozim.

ВОЕННОСЛУЖАЩИХ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОЦИАЛЬНО – ПРАВОВОГО, МАТЕРИАЛЬНОГО И МОРАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

Аннотация. В данной статье на основе изучения трудов ученых анализируется сущность социальной защиты военнослужащих, необходимость социальных гарантий. Также изложены научные взгляды зарубежных учёных-правоведов на данную тему и даны определения авторства.

Ключевые слова: военнослужащий, социальная гарантия, социальная защита, материальная и моральная поддержка, социальная защита.

MILITARY PERSONNEL IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN THEORETICAL ASPECTS OF SOCIO-LEGAL, MATERIAL AND SPIRITUAL SUPPORT

Abstract. In this article, the essence of social protection of military personnel, the necessity of social guarantees is scientifically analyzed by studying the works of scientists. Also, the scientific views of foreign legal scholars on the field are put forward and authorship definitions are given.

Key words: military personnel, Social Security, Social Protection,

ISSN 3030-3230

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Антропов В.В. Социальная защита в странах Европейского союза. История, организация, финансирование, проблемы. М.: Экономика, 2006. С. 9.
2. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. М.: Наука, 1991.
3. Вебер М. Основные социологические понятия // Вебер М. Избранные произведения. М.: Прогресс, 1990. С. 603.
4. Маркс К. Капитал. М.: Политиздат, 1983. Т. 1. С. 163-166, 174, 244, 274-276, 279, 319, 320.
5. Сорокин П. Система социологии. М.: Наука, 1993. Т. 2.
6. Штомпка П. Социология социальных изменений. М.: Аспект-Пресс, 1996.
7. Кудаев Александр Викторович. социальная защита военнослужащих в условиях социально-экономического развития россии. Специальность 22.00.03 – Экономическая социология и демография. Дис.на соискание ученой степени кандидата социологических наук. Саратов. 2017.
8. Цалко А.В. Обеспечение социальной защиты военного человека — важнейшее дело государства, всего общества // Информационный бюллетень МВКРФ по социальным вопросам военнослужащих. 1993. № 1. С. 1.
9. Кипинган Н.С. Понятие и сущность социальной защиты населения // Вестник Кемеровского государственного университета. 2010. № 1. С. 143.
10. Маркелов В.В. Гарантированный доход в контексте трансформации российского общества // Вестник Поволжской академии государственной службы. 2008. № 3 (16). С. 144-149.
11. Новик В.К., Передня Д.Г. Имидж современной Российской армии глазами молодежи // Социологические исследования. 2006. № 11.
12. Социальные ресурсы и социальная политика. М.: Наука, 1990.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi moliyaviy nazorat xizmati va davlat moliyaviy nazorati organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni takomillashtirish

Djaydakbayev Murat Turgunovich
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Nazorat-taftish boshqarmasi boshlig‘i,
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. **Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi moliyaviy nazorat xizmati va davlat moliyaviy nazorati organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan.**

Kalit so‘zlar: moliyaviy nazorat, davlat moliyaviy nazorati organlari, Hisob palatasi, ichki nazorat.

Jahon iqtisodiyotining tez sur’atlarda rivojlanishi hamda jahonda geosiyosiy va tashqi iqtisodiy sharoitlarning keskin o‘zgarishi tabiiy ravishda O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiyotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish, iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligini ta’minlash zarurati yanada ortdi. Moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda davlat moliyaviy nazorati tizimi faoliyatining yuqori samaradorligini hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash dolzarb masalalardan bo‘lib hisoblanadi.

Budjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlarini takomillashtirish, ularning faoliyatini tahlil qilishda xorijiy va mahalliy olimlarning bu yo‘nalishda olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari, maqola va ilmiy ishlanmalari o‘rganildi. Xususan, xorijlik iqtisodchilar N.Masson va L.Anderson, M.V.Gracheva, S.Y.Zakutnevning fikrlari alohida e’tiborga ega. N.Masson va L.Andersonlarning fikricha, xavfsizlik sohasida moliyaviy nazoratni kuchaytirish uchun mamlakatlar parlamenti, audit institutlari, fuqarolik jamiyati tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari kabi rasmiy va norasmiy nazorat organlari bilan hamkorlik qilishni talab qiladi deb e’tirof etishgan [1].

M.V.Grachevaning fikriga ko‘ra, bugungi kunda tashqi, ya’ni davlat moliyaviy nazorati organlari vazirlik va idoralarning ichki audit va moliyaviy nazoratini rivojlanishida muhim omil bo‘ladi. Ichki audit va moliyaviy nazorat hamda ichki nazoratning vazifalari murakkablashadi: buxgalteriya xatolarini topishda band bo‘lgan ishchilar o‘rniga, tezkor menejerlarga qarorlarni qabul qilishda, risklarni boshqarishda yordam beradigan maslahatchilar paydo bo‘ladi. Ushbu sohaning davlat moliyaviy nazorati organlari bilan o‘zaro aloqalari kuchaygan va korporativ sektorda mavjud bo‘lgan yondoshuvlar uni tartibga solishda faol foydalanilmoqda. Xalqaro moliyaviy normalar asosida tashkil etilgan davlat moliyasi sohasida tegishli ichki audit va moliyaviy nazoratning mavjudligi bugungi kunda sivilizatsiyalashgan jamoaga tegishli bo‘lishning zaruriy belgisi sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Yangi asrda vazirlik va idoralarning ichki audit kasbini porloq istiqbol kutmoqda [2]

S.Y.Zakutnev budjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazoratni rivojlantirish tashqi davlat moliyaviy nazorati organlari uchun nihoyatda muhim ekanligini ta’kidlagan [3].

Mamlakatimiz olimlaridan J.M.Babaxonovning fikricha, moliyaviy nazorat tizimi chora-tadbirlar asosida to‘g‘ri amalga oshirilib yaxshilanadigan bo‘lsa, davlat budjetiga talon tarojliklar, turli xil qonunbuzilishlari oldi olinardi [4].

ISSN 3030-3230

D.Po‘latovning fikriga ko‘ra, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda davlat moliyasini boshqarish hamda nazoratini takomillashtirish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish, budjet jarayonining shaffofligini yanada oshirish va uning ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, budjetdan moliyalashtirish, hisob va hisobot mexanizmini takomillashtirish, vazirlik va idoralarida budjet intizomini mustahkamlash borasidagi mas’uliyatini oshirish, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari va xalqaro e’tirof etilgan davlat moliyaviy nazorat standartlarini joriy qilish yo‘li bilan korrupsiya, budjet qonunchiligini buzish holatlarining oldini olish va profilaktikasiga qaratilgan davlat moliyaviy nazoratining o‘rnini tubdan takomillashtirish belgilandi, deb ta’kidlagan [5].

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolani tahlil qilishda bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari o‘rganildi hamda mavzuni yoritishda kuzatish, sintez, ilmiy abstraksiya va umumlashtirish kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Respublikamizda bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitida samarali moliyaviy nazoratni shakllantirish davr talabidir, moliyaviy nazoratni takomillashtirish esa uning asosi hisoblanadi.

Bu borada O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoev quyidagilarni ta’kidlaydi: “Albatta, Davlat budjeti o‘lchovsiz emas, mablag‘larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta’minlash zarur. Bu – hammaga ravshan va rad etib bo‘lmaydigan haqiqatdir”[6].

Shunday ekan, islohotlarni davom ettirish va davlat budjeti xarajatlaridan oqilona foydalanish jarayonida moliyaviy nazoratning usullarini keng qo‘llash, mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda xarajatlarni tejashda moliyaviy nazorat xizmatining profilaktik tadbirlarni o‘tkazishi muhim ahamiyatga ega. Budjet nazorati iqtisodiyotni rivojlantirish, barqarorlikni ta’minlash va sifatli boshqarish jarayonini tubdan o‘zgartirishning asosiy muvaffaqiyatlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatli organlar davlat moliyaviy nazorat organlaridir. Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlarining daromadlari qismi bo‘yicha davlat moliyaviy nazorati berilgan vakolatlar doirasida davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi [7].

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda davlat moliyaviy nazorati va vazirlik, idoralarning ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada takomillashtirish maqsadida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida quyidagi tartib o‘rnatilgan. Hisob palatasi va ichki audit xizmatlari:

1. har bir nazorat tadbirini tashkiliy, asosiy va yakuniy bosqichlarni o‘z ichiga oluvchi uch bosqichli tizim asosida hamda audit tadbirining turlarini aniq belgilagan holda amalga oshiradi;
2. audit tadbirlari natijalari to‘g‘risidagi xulosada, shu jumladan qonunbuzarliklarga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoit va omillarni, shuningdek, ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalarni va tizimli muammolarni hal qilish bo‘yicha takliflarni aks ettiradi;
3. moliyaviy nazorat tadbirlari faqatgina nazorat ishlarining yillik dasturiga kiritilgan subyektlarda amalga oshiriladi, kameral nazorat va qonunchilikda ko‘zda tutilgan boshqa holatlar bundan mustasno [8].

Farmonga muvofiq Hisob palatasi Hay’ati tashkil etilib, unga nazorat tadbirlari natijalari bo‘yicha budjet qonunchiligini buzish holatlarining oldini olish va ularning profilaktikasi yuzasidan vazirlik va idoralar tomonidan amalga oshirilgan ishlarni muhokama qilish, davlat moliyaviy nazorati va ichki audit faoliyatini tashkillashtirish hamda amalga oshirishning xalqaro tan olingan uslublari va vositalarini joriy qilish, normativ-huquqiy hujjatlardagi ziddiyatlarni bartaraf etish, ularni takomillashtirish, moliyaviy huquqbuzarliklarning profilaktikasi va ularning oldini olishni nazarda tutadigan istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash, ichki audit xizmatlari faoliyati natijalarini muhokama qilish vazifalari

yuklandi.

Farmon bilan tasdiqlangan “2021-2022-yillarda davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish bo‘yicha yo‘l xaritasi”ga asosan davlat moliyaviy nazorati va ichki audit ta’lim yo‘nalishlarida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va oliy ta’lim sifatini oshirish yuzasidan aniq vazifalar belgilangan, xususan:

- xorijiy mutaxassislar ishtirokida davlat moliyaviy nazorati sohasida mahorat darslari, treninglar va malaka oshirish kurslari, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiyalar va seminarlar o‘tkazish;
- nazorat obyektida o‘rganiladigan savollar, tadbirning predmeti, ma’lumotlarni jamlash, tahlil o‘tkazish va xulosalarni tuzish tartibini ishlab chiqish;
- xodimlarning sohadagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish maqsadida moliyaviy, samaradorlik va muvofiqlik auditlarini dastlabki bosqichini o‘tkazish uchun xorijiy yetakchi auditorlik tashkilotlarining ekspert va mutaxassislarini jalb etish;
- OTMda davlat moliyaviy nazorati organlarining mansabdor shaxslari tomonidan budjet nazorati va auditga ixtisoslashgan yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun amaliy darslar o‘tish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari birinchi navbatda quyidagi yo‘nalishlarda budjet qonunchiligi buzilishining profilaktikasiga alohida e’tibor qaratilishi ko‘rsatilgan, bunda:

- budjet tashkilotlarida ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanishi;
- ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritilgan obyektlarda amalga oshirilayotgan qurilish ishlarini monitoring qilish va ularda nazorat tadbirlarini o‘tkazish;
- davlat xaridlarida qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini nazorat qilish [9].

Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, vazirliklarning ichki audit xizmatlari nazorat ishlarining yillik dasturlarini yuqorida sanalgan ustuvor yo‘nalishlarga muvofiqlashtiradi, budjet mablag‘lari boshqarilishi va budjet hisobi yuritilishini maxsus avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulotlar vositasida doimiy monitoring qiladi.

Yuqorida qayd etilgan normativ-huquqiy hujjatlar talablaridan kelib chiqib, Milliy gvardiya moliyaviy nazorat xizmati yuklatilgan vazifa va funksiyalarni yanada samarali bajarishi uchun davlat moliyaviy nazorat organlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodchi olim Z.Xamidovaning fikricha, Iqtisodiyot va moliya vazirligi Axborot-hisoblash markazi markaziy moliyaviy ma’lumotlar bazasini yaratish va boshqarish zarur [10] deb e’tirof etgan.

Bu tizimni yaratish markazlashgan moliyaviy ma’lumotlar (dasturiy ta’minot) bazalarini shakllantirish va yuritish bo‘yicha jadvalini tuzish va tasdiqlashdan boshlanadi. Markazlashgan moliyaviy ma’lumotlar bazasini yaratish, uni vakolatli organlarning axborot tizimlari va resurslari bilan integratsiya qilinishini amalga oshirish uchun vakolatli organlarni aniqlash hamda ular bilan o‘zaro hamkorlikning muhim jihatlarini belgilash lozim. Moliyaviy nazorat xizmati tizimga integratsiya qilinadi. Bosqichlar takomillashtirilib yagona tizimning bazasini va markazlashgan moliyaviy nazorat xizmati faoliyatining elektron shaklini yaratish mumkin.

Markazlashgan moliyaviy ma’lumotlar bazasida bo‘lmagan axborotning saqlanishini ta’minlovchi davlat axborot resurslarini yaratishda moliyaviy nazorat xizmati, vazirlik va idoralar yagona identifikatorlaridan foydalaniladi. Ular axborotni yig‘ish, tasdiqlash, tekshirish, solishtirish uchun tegishli organlarning axborot resurslaridan foydalanadilar. Bunga kerakli organlarni tanlab olishi va ularni dasturga kiritishi kerak. Axborot resurslarini yig‘ish, solishtirish va almashish uchun moliyaviy nazorat xizmatining tegishli organlar bilan o‘zaro hamkorligi ta’minlanishi zarur.

Hamkorlik budjet tashkilotlari, vazirlik va idoralar, davlat moliyaviy nazorati organlari, banklar o‘rtasida amalga oshiriladi va Hisob palatasi tomonidan muvofiqlashtiriladi. Hisob palatasining “Davlat auditi” dasturiy kompleksi orqali:

budjet tashkilotlarida o‘tkazilgan barcha davlat moliyaviy nazorati tadbirlari, shu jumladan ichki audit xizmatlarining audit tadbirlari “Davlat

ISSN 3030-3230

auditi” dasturida ro‘yxatga olinadi;

har bir nazorat tadbiri uchun o‘rganiladigan savollar, tadbirning predmeti, ma’lumotlarni jamlash va tahlil o‘tkazish tartibini o‘z ichiga olgan nazorat tadbirini o‘tkazish rejasi tuziladi;

barcha davlat moliyaviy nazorati tadbirlari, shu jumladan ichki audit xizmatlarining audit tadbirlari natijalariga doir barcha turdagi hujjatlar (davlat siri mustasno) “Davlat auditi” dasturida jamlanadi.

Bu hamkorlikda Hisob palatasi vazirlik va idoralar hamda ichki moliyaviy nazorat xizmatining faoliyatini kuzatadi, xulosa, hisobotlarni qabul qiladi, nazorat tadbirlari, ularni o‘tkazish rejasi, natijalari hamda aniqlangan holatlar bo‘yicha nazorat o‘tkazilgan tashkilotning yozma fikrini yagona integratsiyalashgan axborot tizimiga kiritadi. O‘zaro integratsiya qilingan axborotlar tizimida moliyaviy nazorat xizmati va davlat moliyaviy nazorat tomonidan kiritilgan moliyaviy ma’lumotlar negizida yagona budjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlari bo‘yicha baza shakllantirish mumkin.

Moliyaviy ma’lumotlar (dasturiy ta’minot) bazasi tizimini amalga oshirishda Hisob palatasi va tegishli organlarning o‘zaro hamkorligi, axborot almashinuvi quyidagi 1-rasmda ko‘rishimiz mumkin.

Joriy qilingan yangi tizim orqali budjet tashkilotlarining huquqlari himoya qilinadi, ularda qayta-qayta tekshirishlar o‘tkazish holatlari hamda faoliyatiga asossiz aralashuvlar oldi olinadi. Dasturiy kompleksning ishga tushirilishi moliyaviy nazorat organlari faoliyatini tartibga solish, korrupsion omillarni oldini olish, budjet mablag‘laridan samarali foydalanish hamda vertikal nazorat tizimini o‘rnatish imkonini yaratadi.

Milliy gvardiya tizimida moliyaviy nazoratning natijadorligini va axborot ochiqligini oshirish hamda moliyaviy nazoratni amalga oshirish samaradorligini rivojlantirish maqsadida axborot tizimini Hisob palatasi “Davlat auditi” dasturiy majmuasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi “Elektron nazoratchi-taftishchi” axborot tizimiga belgilangan tartibda integratsiyalash, ma’lumot almashish, kameral nazoratdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Natijada moliyaviy nazoratni o‘tkazish vaqti tejaladi, faoliyat jadallashadi, samaradorlik oshadi va uzluksiz monitoring qilish uchun sharoit yaratiladi hamda moliyaviy nazoratni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar kamayishiga erishish mumkin.



1-rasm. *Moliyaviy ma’lumotlar bazasi tizimini Hisob palatasi va tegishli organlar bilan hamkorligi*

Hisob palatasining “Davlat auditi” dasturiy kompleksi ishga tushirildi. Dasturiy kompleksdan ko‘zlangan maqsad – budjet tashkilotlaridagi tekshiruvlarni tartibga solish, nazorat tadbirlarining samaradorligini oshirish va nazorat jarayonlarida inson omilini kamaytirishdan iborat.

Agar barcha bo‘g‘indagi moliyaviy nazorat organlari bir-biri bilan hamkorlikda faoliyatlarini tashkil etsa, o‘zaro axborot va ma’lumotlar almashish, monitoring va tahlil qilish, taftish, tekshirish usullari, shakllari hamda metodologiyasining samaradorligi ortadi.

Yagona integratsiya qilingan axborot tizimi ma’lumotlari jamlanadi va u orqali nazorat

obyekti haqida umumiy ma’lumot aniqlanadi. Hisob palatasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, vazirliklar ichki audit, moliyaviy nazorat xizmatlari nazorat ishlarini muvofiqlashtiradi.

Milliy gvardiya moliyaviy nazorat xizmatining boshqa davlat moliyaviy nazorati organlari bilan hamkorligini 2-rasmda ko‘rishimiz mumkin.



2-rasm. *Milliy gvardiya moliyaviy nazorat xizmatining davlat moliyaviy nazorati organlari bilan hamkorligi*

Budjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlarining o‘zaro munosabatlarini tartibga solish maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligida Davlat organlari ichki audit tuzilmalari faoliyatini rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi tashkil qilindi va quyidagilar asosiy vazifalari etib belgilandi:

- milliy standartlar va uslubiy hujjatlarni hamda hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, moliyaviy nazorat xizmati xodimlarining malakasini doimiy oshirib borish ishlarini va ularni sertifikatlashni tashkil etish;
- masofaviy nazorat tadbirlari ko‘lami va sifatini oshirish, ichki audit xizmatlariga risklarni aniqlash, ularning oldini olishda uslubiy ko‘maklashish;
- yagona integratsiyalashgan axborot tizimi yuritilishini nazorat qiladi, ularning so‘rovlariga muvofiq taklif, tavsiya va amaliy yordam ko‘rsatadi.

Moliyaviy nazorati xizmati, ichki nazorat va davlat moliyaviy nazorati organlari tomonidan 3-rasmda ko‘rsatilgan uch tizim orqali bo‘linmalar nazorat qilinadi.



3-rasm. *Bo‘linmalarda ichki va tashqi nazoratning o‘zaro hamkorligi*

ISSN 3030-3230

Ushbu tizim o‘z faoliyatida doimiy ravishda o‘zaro axborot va ma’lumotlar almashadi. Har bir tizimning alohida vazifa va funksiyasi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan. Lekin barchasining eng asosiy maqsadi vakolati doirasida nazorat qiladi, moliyaviy huquqbuzarliklar, xato-kamchiliklarni aniqlaydi va bartaraf etilishini ta’minlaydi, taklif va tavsiyalar hamda natijalari yuzasidan xulosalar beradi. O‘zaro ma’lumotlar almashishi natijasida quyidagilarga erishishi mumkin:

✔ ***samarasiz tekshirishlarning sonini qisqartirishga va vaqtni tejashga;***

✔ ***nazorat tadbirlari samaradorligini oshirishga;***

✔ ***ma’lumotlar ishonchligiga, to‘g‘riligiga va risklarning pasayishiga.***

Moliyaviy nazorat xizmati ishining natijalari ichki nazorat samaradorligi va risklarni baholashga, ularni boshqarishga yordam beradi.

Moliyaviy nazorat xizmati va davlat moliyaviy nazorat organlarining o‘zaro munosabatini 4-rasmda ko‘rishimiz mumkin.



4-rasm. *Davlat moliyaviy nazorati organlari va moliyaviy nazorat*

Xulosa va takliflar

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni ta’kidlash joizki, davlat moliyaviy nazoratining asosiy vazifalaridan biri bu budjet qonunchiligiga rioya qilinishini, budjet intizomni ta’minlash, budjet mablag‘laridan maqsadsiz foydalanilishiga yo‘l qo‘ymaslik orqali davlat moliyaviy siyosatining amalga oshirilishiga ko‘maklashishdan iboratdir.

Milliy gvardiya moliyaviy nazorat xizmati va Davlat moliyaviy nazorati organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish yuzasidan mavjud muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi tavsiyalarni shakllantiramiz:

- Milliy gvardiya moliyaviy nazorat xizmati va Davlat moliyaviy nazorati organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash, ularning faoliyat yo‘nalishlarini integratsiya qilish maqsadga muvofiq. Bu esa, budjet xarajatlarining samaradorligini yanada oshirishga, moliyaviy nazorat faoliyatini muvofiqlashtirishga, qayta, takroriy tekshirishlarning oldini olishga hamda vazifalarni aniq belgilashga xizmat qiladi.

- Milliy gvardiya tizimida moliyaviy nazoratning natijadorligini va axborot ochiqligini oshirish hamda moliyaviy nazoratni amalga oshirish samaradorligini rivojlantirish maqsadida davlat moliyaviy nazorati organlarining dasturiy komplekslariga belgilangan tartibda (maxfiylik tartibotiga amal qilgan holda) bosqichma-bosqich integratsiya qilish, moliyaviy ma’lumotlar almashish, kameral nazoratdan foydalanish taklif etiladi. Natijada moliyaviy nazoratni o‘tkazish vaqti tejaladi, faoliyatni jadallashtiradi, unumdorlik oshadi va uzluksiz monitoring qilish uchun sharoit yaratiladi hamda moliyaviy nazoratni amalga oshirish bilan bog‘liq budjet xarajatlar kamayishiga erishiladi.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ МЕЖДУ СЛУЖБОЙ ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГВАРДИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ОРГАНАМИ ГОСУДАРСТВЕННОГО ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы совершенствования сотрудничества службы финансового контроля Национальной гвардии

Республики Узбекистан с органами государственного финансового контроля.

Ключевые слова: финансовый контроль, органы государственного финансового контроля, Счетная палата, внутренний контроль.

IMPROVING COOPERATION BETWEEN THE NATIONAL GUARD OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN FINANCIAL CONTROL SERVICE AND STATE FINANCIAL CONTROL BODIES

Abstract. The article discusses issues of improving cooperation between the financial control service of the National Guard of the Republic of Uzbekistan and state financial control authorities.

Key words: financial control, state financial control bodies, Accounts Chamber, internal control.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Н.Массон, Л.Андерсон. Укрепление финансового контроля в секторе безопасности. – Женева, 2011. – С. 71.
2. Грачева М.В. Внутренний контрол и аудит в секторе государственного управления: опыт развитых стран // Электронный вестник, 2007 – № 12. – С. 3-9.
3. Закутнев С.Е. Организация внутреннего финансового аудита финансово-экономической и хозяйственной деятельности в Вооруженных Силах Российской Федерации // Вооружение и экономика, 2011. – № 3 (15). – С. 73-80.
4. Babaxonov J.M. Moliyaviy nazorat va uning O‘zbekiston iqtisodiyotida budjet munosabatlarini rivojlantirishdagi o‘rni // Logistika va iqtisodiyot, 2021. – 3-son. – B. 121-127.
5. Po‘latov D.X. O‘zbekistonda budjet nazoratini tashkil etishning nazariy va amaliy xususiyatlari // Eurasian journal of academic research Innovative Academy Research Support Center, 2022. – № 2. – P. 544-551.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagi PQ-3231-son “Ta’lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi. Kirish rejimi: https://lex.uz/uz/docs/2304138.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi PF-6300-son “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. Kirish rejimi: https://lex.uz.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-son “O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori. Kirish rejimi: https://lex.uz.
10. Xamidova Z.O‘. Budjet tashkilotlarida ichki audit faoliyatini takomillashtirish // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya tezislar to‘plami. – T., 2018. – B. 34-36.

ISSN 3030-3230



TURKISTONDAGI HARBIY MUAMMOLARNING OLDINI OLISHDA JADIDLAR ISLOHOTLARINING AHAMIYATI

Mirzajonov G‘ayrat Tayirjonovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Magistraturasi boshlig‘ining o‘rinbosari, dotsent

Annotatsiya. Maqolada XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida Turkiston o‘lkasidagi harbiy-siyosiy vaziyat, milliy ozodlik harakatlari, milliy-harbiy tizimni barpo etish yo‘lida olib borilgan islohotlar, jadidchilik harakati a’zolarining milliy-harbiy tizimni shakllantirish bo‘yicha g‘oyalari va amalga oshirgan ishlari yoritilgan. Shuningdek, jadid ma’rifatparvar va taraqqiyparvarlarining harbiy sohadagi islohotlar tarafdori bo‘lishgani, Turkistonda askarlik masalasiga alohida e’tibor qaratishgani mavjud manbalar asosida tahlil qilinib, jadidchilik islohotlarida harbiy muammolar va ularning oldini olish masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: turkiston, jadid, jadidchilik, harbiy, askar, qo‘shin, qo‘shin tuzilishi, milliy-harbiy tizim, milliy qo‘shin, milliy armiya, milliy-ozodlik harakati, davlat tuzumi.

Milliy tariximizning ajralmas qismi bo‘lgan, milliy ma’naviyat, milliy tarbiya va mentalitetimizda muhim o‘rin egallagan, xalqimizning milliy madaniyati va tafakkuri milliy ma’naviyati va tarbiyasida yuksak o‘rin egallagan, chin ma’noda o‘zbek madaniyatida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan jadidlar ma’rifatini o‘rganish, taraqqiyparvar ziyolilar hayoti va faoliyatini, boy ilmiy merosini tadqiq qilish hamda bugungi avlod ta’lim-tarbiyasiga singdirish davrning eng ahamiyatli voqeliklaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqida “O‘tgan asr boshida kurash maydoniga chiqqan jadid bobolarimiz ko‘targan asosiy g‘oya fidoyilik va vatanparvarlikdan iborat bo‘lgan. Shu ma’noda ulug‘ mutafakkir, jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston xalqining manfaati uch narsaga bog‘liq deb aytganlar. Birinchisi g‘alla, ya’ni oziq-ovqat xavfsizligi, ikkinchisi askar, uchinchisi harbiy tizimni shakllantirish deb yuz yil oldin aytgan so‘zlari chuqur ma’noga ega” – ekanligi ta’kidlandi [1].

Chor Rossiyasi tomonidan zabt etilgan Turkiston mustamlakachilik zulmining yorqin namunasiga aylandi. Imperiya bosib olingan O‘rta Osiyo hududlarida Turkiston general-gubernatorligining harbiylashtirilgan mustamlaka boshqaruvi joriy etildi. Barcha yuqori bo‘g‘im lavozimlari – o‘lka, viloyat va uezd boshliqlari harbiylar bo‘lib, ular ayni paytda o‘zi boshqargan hududdagi harbiy qismlar boshlig‘i ham bo‘lgan, bu hol o‘lkani itoatda ushlab turilishida katta rol o‘ynadi. Bu hududlarda jamoat tartibini saqlash masalalari bo‘yicha mahalliy politsiya tizimi joriy etildi. Politsiyaning boshqaruv apparatidagi oliy va o‘rta (uyezdlardagi) bo‘g‘in lavozimlari rus amaldorlari egalladi, faqatgina mahalliy ma’muriy-politsiya funksiyasi oqsoqollarda qolgan edi [2]

Rossiya imperiyasi tomonidan tayinlangan general-gubernatorlarning o‘lkadagi siyosati faqat ovro‘paliklar ishlaydigan boshqaruv tizimi millatchilik ruhi bilan sug‘orilgan bo‘lib, tub aholini milliy-siyosiy huquqlari bilan hisoblashmas, ularga ishchi kuchi sifatida qarashga asoslangan edi. Turkiston general-gubernatorining 1911-yil 31-oktabrda viloyat harbiy gubernatorlari boshliqlariga bergan quyidagi ko‘rsatmasida mazkur siyosat yaqqol o‘z aksini topgan edi: “Tub aholiga nisbatan hamisha qattiq munosabatda bo‘lib, hamma sohalarda rus nomi va rus manfaati asosiy o‘rinni egallashi lozim. Bizning birinchi vazifamiz rus kazaklari va xristyanlarining manfaatlarini ta’minlashdan iboratdir” [3, 361]. Bunday siyosat mustabid hukumat hukmdorlarining ilk kunlaridan boshlab barcha sohalarda izchillik bilan amalga oshirilib borildi. Masalan, V.P.Nalivkin “tub aholini qattiq nazorat va taqib ostida ushlab, qilich bilan o‘lka bo‘ylab izg‘ib, tub aholining yuragiga qo‘rquv va vahimani solib turishni” tavsiya etgan, doim qafasda ushlash zarur deb hisoblagan [4]. Bunday siyosatni amalga oshirishda mustamlakachi hukumat ma’muriyati o‘lkada yashayotgan ruslarga tayanardi.

Mahalliy xalqning turmush sharoitini yomonlashib borishi, milliy-diniy qadriyatlarning oyoq osti qilinishi, chet el sarmoyasining o‘lkaga shiddat bilan kirib kelishi, o‘lka boyliklarining bosqinchilar tomonidan shafqatsizlarcha talanishi ilg‘or fikrli ziyolilarni befarq qoldirmadi. Shu bois milliy vatanparvar ziyolilar tomonidan mustamlakachilikdan qutilish va taraqqiyot uchun kurashning turli yo‘llari izlandi. Ushbu harakatlar natijasida XIX asr oxirlariga kelib Turkiston o‘lkasida milliy o‘zlikni anglashga xizmat qilgan va milliy ozodlik mafkurasini yuzaga kelishiga hamda rivojlanishiga muhim hissa qo‘shgan yirik ijtimoiy-siyosiy oqim jadidchilik harakati kelib chiqdi. Turkiston o‘lkasidagi bu harakat XIX asr oxirlaridan 1938-yillargacha ma’rifatparvarlik harakatidan keng ko‘lamli ijtimoiy-siyosiy harakat darajasiga ko‘tarildi. Ushbu vaqt oralig‘ida butun Turkistonda ziyolilar qatlami orasida ham turli guruhlarga ajralish jarayonlari tezlashdi. Fikr va qarashlarning turlicha bo‘lishiga qaramay, o‘lka ziyolilarini yagona Turkiston mustaqilligi g‘oyasi birlashtirib turar edi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistondagi milliy ozodlik harakatlarida milliy-harbiy tizimni shakllantirishni, shu jumladan, uning ijtimoiy-siyosiy oqimlarining tarixiy jarayonidagi roli va harakatlarini xolisona o‘rganish, dolzarb masala sifatida ilmiy doiraga chiqdi.

Bu davrda jadidchilik harakati tezlik bilan rivojlandi. Milliy ziyolilarning o‘zagini tashkil etuvchi jadidchilikning ko‘zga ko‘ringan vakillari – Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li, Ubaydulla Asadxo‘ja o‘g‘li, Abdulla Avloniy, Toshpo‘lat Norbo‘tayev, Mahmudho‘ja Behbudiy, Hoji Muyin Shukrullo, Abdulqodir Shakuriy, Sdriddin Ayniy, Fayzulla Xo‘jayev, Abdurauf Fitrat, Ubaydulla Xo‘jayev, Ashurali Zoxiriy, Po‘lat Soliyev, Obidjon Mahmudov, Nosirxonto‘ra Komolxonto‘rayev, Ishoqxon Ibrat kabilar harakatning yetakchilari edilar [5, 36]. Chor Rossiyasining Turkistondagi harbiy-mustamlaka diktaturasi, Buxoro va Xiva xonliklaridagi tuzimga qaramay ular o‘z atroflariga ziyolilarning ilg‘or vakillari va boshqa qat’iy kurashchilarni to‘plab jadidlar harakati, yosh buxoroliklar, yosh xivaliklar kabi turli ijtimoiy tashkilot va oqimlarni tashkil qila oldilar.

1914-yilda boshlangan birinchi jahon urushi ma’rifatparvarlarning fikrlarini ancha siyosiylashtirdi. Bu vaqtga kelib ular parlamentar monarxiya tuzumi haqida yozdilar, fuqarolarning davlat organlarining shakllantirishda qonun chiqarish ishida, davlatni idora qilishda qatnashuvi va ishtiroki yo‘llari va usullarini ishlab chiqishga urindilar [6, 8].

Chor hukumatining o‘lkada mustamlakachilik siyosatini yuritishi, milliy-diniy qadriyatlarning oyoq osti qilinishi, o‘lkaga shiddat bilan kirib kelishi, o‘lka boyliklarining bosqinchilar tomonidan shafqatsizlarcha talanishi natijasida, Turkiston xalqlari uchun mahalliy askarlarga bo‘lgan zarurat ortib, ozodlikka erishning muhim shartlaridan biri sifatida aynan milliy-harbiy tizimni barpo etish ehtiyoji yuzaga keldi. Bu borada taraqqiyparvar jadidlar milliy-harbiy tizimni barpo etish, undagi muammolar va ularning oldini olish masalasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan islohotlar yuzasidan matbuotdagi maqola va asarlarida o‘z fikr-mulohazalarini bayon qilib borishgan.

Jadidlar harakatining targ‘ibotchisi va ko‘pgina g‘oyalarning muallifi Mahmudho‘ja Behbudiy Turkistonni chor mustamlakachiligi zulmidan qutqarish g‘oyasini o‘z asarlarida ilgari suradi. Xalqni istiqlol uchun chorlaydi. Behbudiy milliy-harbiy tizimni shakllantirish masalasida o‘z g‘oyalarini maqolalarida fikr bildirib, “Askar mas’alasidirki, bu har bir narsadan muhim va buning umumiy bo‘lishi lozim. Ammo musulmonlar hanuz shunga o‘rganmagan va

ISSN 3030-3230

ham doxil fitnachilar qora xalqning fikridan foydalanib, ehtimolki ba'zi bir fitnalarga sabab bo'lsalar. Va ham noma'lum va siyosatan fikri bilkulli noto'g'ri kishilar qo'lig'a yarog' o'tub, ehtimolki, kutulmagan yomon hodisalar paydo bo'lsa. Shuning uchun taklif qilamanki, to xalq o'rganib, biroz ahvol o'zgarguncha umumiy askar olinmay, ko'ngilli tariqinda targ'ib va tashviq bilan ham xalqning ahvoliga qarab olinsa edi." [7], "O'zimizni(ng) muhofazatimiz uchun milliy jandarma, askarimiz bo'lur. Mamlakat xazinasindan boshqa milliy va madaniy ishlarimizning masorifi uchun o'zimizning alohida xazinamiz bo'lur." [8]. Mahmudho'ja Behbudiy ijodidan ko'rishimiz mumkinki, ma'rifat, madaniyat va ta'lim tarbiya tarqatish masalalri bilan bir qatorda askarlik masalalari, shu jumladan milli-harbiy tizimni yatratish masalalarga ham alohida etibor qaratgan.

Jadid taraqqiyparvari Abdulla Avloniy erk va ozodlikni har narsadan baland tutarkan, unga olib boradigan birdan-bir yo'l deb ilm-ma'rifatni bildi.

Shu sabab Vatanni, xalqi uchun zarracha manfaat yetkazishni o'ylagan kishini ma'rifatga da'vat etdi [9, 52]. Avloniy ijtimoiy faoliyatini qizg'in davom ettirdi. Xalqni ko'zini ochish, madaniyatga yaqinlashtirish uchun teatr ishlarini yo'lga qo'yib, Turkistonning bir necha shaharlariga borib, o'zbeklar orasida teatrga yo'l ochdi. Avloniy bu orqali nafaqat yoshlarning ma'naviyatini oshirishga, balki siyosiy ongini ham o'stirishga intildi. Adib bularni keyinroq o'z tarjimai holida shunday izohlaydi: "Bu vaqtlarda bizning maqsadimiz zohirida teatru bo'lsa ham botinda Turkiston yoshlarin siyosiy jihatdan birlashtiruv va inqilobga hozirlov edi." [10, 289]. Avloniy ta'lim va tarbiya, ilm va ma'rifat olish yo'li bilan vatandoshlarining baxtli va saodatli bo'lishini orzu qldi.

Jadid ma'rifatparvarlari fikrlarida nafaqat askarlar sonini ko'paytarish va buni mahalliy yoshlar asosida amalga oshirish, balki qo'shinni zamonaviy qurol-yarog' va texnikalar bilan bosqichma-bosqich qurollantirish, tibbiy-ta'minot, shuningdek, jangovar taktika va harbiy operatsiyalarni bajarish yo'lida rivojlangan Yevropa mamlakatlari tajribalarani faol o'rganish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Jadid ma'rifatparvari **Abdurauf Fitrat** bu masalada fikr bildirib, "… birinchi navbatda loyiha askarning sonini orttirish masalasiga to'xtaydir. Rusiyaning bugungi hukumati bilan tuzilgan mu'ohada (ahdlashuv, kelishuv)ga binoan Buxoroning askari 12 mingdan iborat bo'lsa kerak edi, lekin amir shu mu'ohadadan foydalana bilmadi. Askarni tuzishda Ovrupa usullarini kirgizish kerak: "Askariy xizmat hamma uchun majburiy bo'lishi lozim". Askariy xizmatga olinadurgan kishilar do'xturlar qaramog'idan o'tushlari kerak. Kasallar, mayiblar bundan ozod bo'ladilar. Askariy xizmat muddati ikki yil. Yigirma ikki yoshga yetilgan har kim askariy xizmatga majburan chaqiriladir. Bundan keyin loyiha askarlarni o'rgatish va ta'min qilish masalasiga to'xtaladir. Loyiha juda katta kazarmalar ishlatishni, Buxoroda qo'mondonlar tayyorlash uchun harbiy maktablar ochishni askar uchun xazinadan ovqat, kiyim berishni, askarlarga oz bo'lsa ham oylik maosh berishni talab etadir" [11].

Milliy taraqqiyparvarlardan biri bo'lgan **Hoji Muin Shukrillo** matbuot sahifalaridagi maqolalarida harbiy masalalarga to'xtalib, "Hozirgi vazifamizg'a qarag'anda bizga eng avval, askar kerakdir. Chunki hozirgi doxili sho'rish va inqilob xorijiy dushmanlarning tajovuzidan ortiq bizga qarshi xatarli bir holg'a aylanmaqdadurki, bu sho'rishdan Vatan va hurriyatni qutqarib olmoq uchun askariy zo'r bir quvvatg'a molik bo'lmog'imiz mutlaqo lozimdir [12]. Bu borada harbiy tuzilmalar avvalo mahalliy yoshlar hisobiga to'ldirilishi, uni muqaddas mehnatga aylantirish muhim ahamiyat kasb etishi alohida ta'kidlangan. Shuningdek, bu haqda yana fikr bildirib, "... boshlab yerlik xalqdan zobitlar yetishtirish uchun Turkistonning har bir shahrida askariy kurs va maktablar ochish kerak. Askarlarning maishatlarini yaxshi ta'min etish va ba'zi urf odatlarga mudoxala qilmaslik va o'zlarini Turkistondan boshqa shaharga yubormaslik kabi qoida va yon berishlar e'lon qilinganda askar olishning muvaffaqiyatli chiqishi aniqdir. ... askarlik muqaddas bir xizmatdir. Askarlik xizmatiga kirishi bilan Turkiston xalqi iftixor qilishga haqlidir. Askar bo'lmoq chin huquqqa ega bo'lish demakdir. Turkiston xalqi askarlik xizmatini zo'r shodlik va butun ixlos bilan qarshi olar deb ishonamiz" [13].

Jadidlar ijodi ayni tahlikali mahalda olib borilgan bo'lib ular harbiy masalalarda ham milliy tizim yaratish zarurligi, faqat shu orqali vatan tinchligi va xavfsizligini ta'minlash mumkin ekanligini, boshqalarga qaram bo'lmaslik, huquqlarni toptalmasligi, mustaqillikni saqlab qolish uchun milliy-harbiy tizim yaratishga alohida ta'kidlab o'tganlar.

Jadidchilarimizning yana bir yorqin vakili Abdulla Qodiriy “Bizda askarlik masalasi” maqolasida quyidagilarni keltirib o‘tgan:

Boshqalar tarafidan huquqingning toptalmog‘i, chetlarga mahkum, mazlum bo‘lmaslik, chet millatlarga o‘z tovushingni eshittirib eshitmoqqa majbur etuvg‘a shubha yo‘qkim, qo‘lingdagi qurolingg‘a, askariy kuchingga qarab bo‘lur. Ko‘ramizkim Ovrupo, Omriqo millatlari bunchaliq sha’n-shavkatni faqat harbiy kuch ila qozomishlardir. Ovrupo, Omriqo imperialistlari Sharq xalqini faqat qurol kuchi ila o‘zlariga asir etmishlar va hali ham harbiy kuch ila Sharq mazlumlarini zanjirda tutarlar. Ammo biz sharqli mazlum musulmonlar esa shu qurolsizlik, askar yo‘qlik ila shu zolim xunxo‘rlar zanjiriga band bo‘lmishmiz. Durust, biz sharqlilar g‘arbliklarga qaraganda madaniyatcha bik tubandamiz, bizim mazlumiyatimiz madaniyatsizligimiz uchun deyilsa mumkin. Lekin shundog‘ bo‘lsa ham istiqlol olib, askarsiz yashamoq butunlay mumkin emas...

Eski shaharga ta’lim joylari ochib, harbiy muallimlarni musulmonlardan qo‘ysun. Musulmonlarning o‘zidan askariy muallimlar yetkuzmak uchun kurslar ochib, shu kundan e’tiboran Eski shahar sinfiy ittifoqlari sho‘rosiga bir nafar o‘z harbiy vakilini doimiy etib tushursun [14].

G‘ulom Zafariy ham taraqqiyparvar jadidlar qatori siyosiy hayotda faol ishtirok etdi. O‘z she’rlarida xalqni ilm-ma’rifatga da’vat etish bilan bir qatorda, yosh-u qari barchani qo‘liga qurol olib, Muxtoriyatni himoya qilishga, mustaqillikni ko‘z qorachig‘idek asrashga chaqiradi. Milliy-harbiy tizimni shakllantirish yuzasidan fikrlar bildirib “Quvvatimiz askardir” maqolasida shunday yozadi: “Jamiyatparvar turkistonliklar! Biz, turkistonli turk bolalari, Muxtoriyat e’lon etdik. Endi Muxtoriyatimiz barqaror o‘lsun, desak, bizga quvvat lozim. Ul quvvat askarlardir. Quvvatimiz bo‘lgan askarlarga jon-u dil ila boqib, qalbimizni unga tavajjuh etaylik, aslo unutmaylik, och, suvsiz tursak ham, boshqa bir narsaga qaramasdan, qahramon askarimizni tushunaylik! Zero, bu islomiyat, bu turklik, bu millat buning ila yashaydir, buning ila buyuk bo‘ladir. Buning ila jon beradir, buning ila hayot bo‘ladir, buning ila muzaffariyatlarga noil bo‘lib jahonni titratadir. Buning ila ajdodlarimiz bo‘lgan fotihlarning qahramon ruhlarini shod etaylik, moziymizni xotirga keltirib istiqbolimizni ta’min etaylik, harakat etaylik, bir-birimiz-la yomon harakatlarda bo‘lmasdan dushmanlarimiz-la olishib nom-shon olaylik, iftixor etaylik, lekin bu quvvat qaysi yo‘l ila vujudga kelur?

Eshitingiz! Turklik-la iftixor etgan millat! Bu kun rohatimizni tark etib, uxlamay, faqat bularni tushunaylik, zavq va vafoga tolmaylik, to‘y-tomoshalarga mo‘l-mo‘l pullarni xarj etmay, iqtisodga rioya etib orttirganimizni iona etaylik... Sandiqlarni, xaltalarni, yuklarni to‘ldirmoqqa g‘ayrat etmay quvvatimizni to‘ldirmoqqa g‘ayrat etaylik. Qimmatlik narsalarga, ya’ni olmosga, javohirga, zumradga, marjonga, yoqutga va kumush asboblarga oltunlarimizni berib-da, sandiqlarda hibs etsak, bularning na davlatga, na millatga, na Vatanga, na askarga foydasi bo‘lmas. Sandiqlarda shundog‘icha qolur. Balki egasiga ham foydasi bo‘lmas...

Bu kun bizni askarimiz naqadar ko‘b bo‘lsa, ul qadar quvvatli, haybatli bo‘lurmiz... U vaqt biz dushmanlarga ko‘kragimizni kerib qararmiz. Hamda orzu etgan masalalar to‘bsiz, to‘fangsiz, silohsiz, musrafsiz hosil bo‘lur. Oning uchun doimo to‘pimiz, to‘fangimiz, askarimiz mavjud bo‘lmog‘i taqazo etilar. Har holda bu yo‘lda g‘ayrat etaylik...

Yashasin himmatli boylarimiz, yashasin askarlarimiz, yashasin millat, yashasin Vatanimiz, mahv o‘lsin dushmanlarimiz.” [15, 30]. G‘ulom Zafariy milliy armiyani tuzish uchun barchani imkon qadar yordam berishga chaqiradi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlab o‘tish joizki jadidlar ijodi ayni tahlikali mahalda olib borilgan bo‘lishiga qaramasdan, Turkistonda ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya, milliy ma’naviyat tarqatish bilan birga, milliy mentalitetning o‘ziga xos xususiyati bo‘lgan o‘zbek xalqining tinchliksevarlikka, bosiqlikka moyilligidan kelib chiqib, tinch yo‘l bilan o‘z maqsadlarini amalga oshirishga intildilar. Shu bilan birga mamlakat tinchligi va osoyishtaligini saqlash, xalq manfaatlarini qo‘llab-quvvatlash, bu borada askarlik, ya’ni Yevropa andozalarini joriy etgan holda milliy-harbiy tizimni yaratish zarurligi, faqat shu orqali vatan tinchligi va xavfsizligini ta’minlash mumkinligi yuzasidan o‘zlarining aniq yo‘nalish va pozitsiyalariga ega bo‘lib, ushbu mulohazalarni Turkiston matbuotida yoritishga intildilar. Bu borada mahalliy yoshlar hisobiga milliy qo‘shin yaratish orqali harbiy tizimni mustahkamlash pirovard maqsad bo‘lib qolgan.

ISSN 3030-3230

Аннотация. В статье освещается военно-политическая ситуация в Туркестанском крае в конце XIX-начале XX века, национально-освободительные движения, реформы проведенные на пути построения национально-военной системы, идеи членов джадидистского движения по формированию национально-военной системы, и проделанная ими работа. Также на основе имеющихся источников был проанализирован тот факт, что джадидистское просвещение и прогрессисты выступали за реформы в военной сфере, уделяя особое внимание вопросу о военном деле в Туркестане, исследовались военные проблемы и вопросы их предотвращения в ходе джадидистских реформ.

Ключевые слова: Туркестан, джадид, джадидизм, военный, солдат, войска, структура войск, национально-военная система, национальная армия, национально-освободительное движение, государственная система.

Abstract. The article highlights the military-political situation in the Turkestan region at the end of the 19th and beginning of the 20th centuries, national liberation movements, reforms carried out on the way to building a national-military system, the ideas of members of the Jadidist movement on the formation of a national-military system, and the work they did. Also, based on available sources, the fact that the Jadidist education and progressives advocated reforms in the military sphere, paying special attention to the issue of military affairs in Turkestan, was analyzed, military problems and issues of their prevention during the Jadidist reforms were studied.

Key words: turkestan, jadid, jadidism, military, soldier, troops, structure of troops, national army, national military system, national liberation movement, state system.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqidan. 2024-yil 12-yanvar. https://president.uz/uz/lists/view/6967.
2. Тимошевская А.Д. Создание Туркестанского генерал-губернаторства и формирование его полицейской системы во второй половине XIX – начале XX в. Труды Академии управления МВД России. 2014. № 4.
3. Киреев Ф.Н., Колодин Ф.И. Рабочее и аграрные движения в Казахстане в 1907-1914 годах. Сборник документов и материалов. Алмата. 1957, с. 571.
4. Наливкин В.П. Туземцы ранше и тепер. Ташкент. 1913, с.136.
5. Alimova D.A. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy mohiyati va jadidlar tafakkuri // Jadidchilik: islohat, yangilanish, mustaqillik va taraqiyot uchun kurash (Turkiston va Buxoro jadidchiligi tarixiga yangi chizgilar). Davriy to‘plam №1, 1999 – 218 b.
6. Agzamxodjayev S.S. Turkiston ma’rifatparvarlarining jamiyatni yangilash haqidagi g‘oyalari: nazariya va amaliyot // Jadidlar ilm-ma’rifat va ma’naviy merosining yoshlar ta’lim-tarbiyasidagi ahamiyati // Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2020 – 263 b.
7. Mahmudxo‘ja Behbudiy. G‘alla, askarlik, yer va tazminoti harbiy. Mehnatkashlar tovushi, 1918 йил 2 август. 14-son.
8. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Haq olinur, berilmas. Hurriyat, 1917-yil 13 iyul. 22-son.
9. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar: I jild: Sh’erlar, ibratlar. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2020. – 272 b.
10. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar: 2 jildlik, 2-jild. Pandlar, ibratlar, hikoyatlar, nabiylar hayoti, dramalar, maqolalar, sayohat xotiralari. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 1998. – 304 b.
11. Xo‘jayev Fayzulla. Buxoro inqilobining tarixiga materiallar.
12. Hoji Muin. Bizga nima kerak? Mehnatkashlar tovushi, 1918-yil 13-avgust.
13. Hoji Muin. Askarlik to‘g‘risida. Zarafshon, 1923-yil 21-iyun.
14. Qodiriy A. Bizda askarlik masalasi. Ishtirokiyun, 1919-yil 4-noyabr.
15. G‘ulom Zafariy. Quvvatimiz askardir. Ishchilar dunyosi jurnali 1918-yil 2-son.

ГУМАНИСТИЧЕСКИЕ ИДЕИ ВОСТОЧНЫХ УЧЕНЫХ ОБ ОБРАЗОВАНИИ И ВОСПИТАНИИ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ

Комилова Муяссар Мавжудовна
старший преподаватель Ташкентского университета прикладных наук, самостоятельный соискатель НИИ педагогических наук

Annotatsiya. данная статья посвящена особенностям воспитания и обучения подрастающего поколения. В ней рассмотрены идеи о воспитании и обучении детей в священных книге «Авесто» и хадисах, в трудах восточных ученых. Перечислены причины актуальности темы воспитания и образования в современном мире. Утверждается, что в Узбекистане большое внимание

Ключевые слова: «Авеста», хадисы, ученые востока, воспитание, образование, учеба, дети, методы воспитания, педагогическое воздействие, труды ученых, подрастающее поколение, вопрос образования в Узбекистане.

Тема воспитания молодёжи и обучение их грамоте всегда была актуальной темой. Актуальность темы заключается в том, что, во-первых, в связи с демографическими изменениями, молодежь становится все более значимой группой населения, и их взгляды, ценности и поведение начинают оказывать все большее влияние на общество. Во-вторых, обучение и воспитание молодежи имеет важное значение для экономического роста и развития каждой страны. Хорошо образованная и обученная рабочая сила является ключом к устойчивому экономическому росту.

В-третьих, молодежь является важным двигателем изменений и инноваций в обществе, особенно в свете растущего влияния социальных медиа и интернета. В-четвертых, воспитание молодежи также важно для сохранения и передачи культурных ценностей, традиций и истории общества. В-пятых, воспитание молодежи в духе уважения к закону и социальным нормам может помочь предотвратить преступность и другие формы антиобщественного поведения. В-шестых, образование и воспитание играют ключевую роль в подготовке молодежи к взрослой жизни, помогая им стать ответственными и самостоятельными гражданами. А также воспитание молодого поколения в духе устойчивого развития может способствовать решению глобальных проблем, таких как изменение климата, загрязнение окружающей среды и бедность.

Молодёжь и ее воспитание на Востоке испокон веков является самым важным и актуальным вопросом. Многие восточные мыслители, такие как Сунь-цзы, Лао-цзы, Конфуций, аль Фараби, Фергани, Аль Хорезми, Ибн Сино и другие, придавали большое значение воспитанию и обучению молодежи.

В священной книге зороастризма «Авесте», которая являлась ведущей религией Среднеазиатских народов в древности, большое внимание уделено образованию и воспитанию. В ней сказано: «Самой значимой опорой жизни является воспитание. Каждого молодого надо воспитывать так, во-первых, чтобы он хорошо читал, потом писал. Поднимаясь на высокую ступень» [1]. В священной книге подчеркивалась ответственность учителей, обучавших детей грамоте, нравственные нормы зороастрийцев. Педагоги-наставники должны научить их хорошим манерам, умению отличать хорошее от плохого, помочь выбрать правильный жизненный путь. Книга восхваляет умных

ISSN 3030-3230

и добрых учителей, которые учат детей противостоять злу, говорить только правду, думать только о добре. В то же время «Авеста» проклинала учителей-наставников, которые отпугивали детей от учебы из-за своей лени и незнания, безответственности и неграмотности.

В хадисах говорится: «Лучшее, что родитель может дать, даровать своему ребёнку, – это хорошее воспитание» или «Благонравный ребёнок (сын или дочь) должны стараться быть благонравными, правильными, зарекомендовать себя в обществе как порядочные люди» [2].

Неоспоримый факт, что Восток является колыбелью высокой культуры, нравственности и мудрости. С Востока вышли многие ученые, философы и педагоги, имена которых известны во всем мире.

Известно, что великий учёный Востока Мухаммад ибн Муса аль Хорезми руководил «Домом мудрости» («Байт аль-хикма»). Он высоко ценил науку и образования. Ученый подчеркивает необходимость выбирать простые и легкие способы объяснения сложных вопросов.

Труды Аль-Хорезми сыграли исключительную роль не только в истории математики, но и в истории мировой цивилизации, как основной источник распространения десятичной позиционной системы счета и записи чисел, используемой ныне на всех континентах, взамен греческой, римской и китайской. [3]

Еще одна из знаменитостей мира ученый-энциклопедист Аль-Фараби принадлежал к категории прогрессивных личностей, создавших научные школы. В своей научной системе он стремился к педагогическому натурализму, ставил гуманизм и гуманитарное образование выше специального образования; в то же время он высоко ценил индивидуальность ребенка, для его развития считал семью лучшей средой.

Цель воспитания, по мнению Фараби, – привести человека к этому добру, привив страсть к добрым делам. Знания помогают понять, что хорошо, а что плохо. Фараби предложил систему методов воспитания хороших качеств. Ученый приемы воспитания делит на «мягкие» и «жесткие». Мягкие приемы применялись тем, кто старался учиться хорошо, совершал добрые поступки. Жесткие приёмы тем, кто своенравный, непослушный и злобный. [4]

Существенное отличие Аль-Фараби от большинства своих предшественников состоит в том, что свои наставнические идеи он брал из практики и пытался проверить их эффективность в деятельности открытых им учебных заведений.

Аль-Фараби придавал особое значение музыке в развитии эмоциональной чувствительности детей. Он также рассматривал музыку как психотерапевтический инструмент, оказывающий сильное эмоциональное воздействие на психологию человека. Такая идея аль-Фараби не потеряла своего значения и сегодня.

Выдвигая педагогические идеи наглядности и системности обучения, Абу Райхон Беруни, выдающийся мыслитель Востока, утверждал, что главная цель воспитания – нравственное очищение – от бесчеловечных обычаев, фанатизма, безрассудства, жажды властвовать, что без научного знания человек становится сомнительным в своей сущности. Наука – это признак превосходства человека над живыми существами, а также принцип существования на протяжении всей жизни. По мнению Беруни, основу обучения должна составлять строгая научность. Учебники и учебные пособия должны быть научными, ясными, доступными» [5].

Проблема системности обучения и научность учебной литературы актуальна по сей день. Ученые современности работают над совершенствованием учебного процесса и учебно-методических комплексов.

Интересны взгляды Абу Али ибн Сины на образование. Ученый мечтал о разностороннем образовании и воспитании, прежде всего музыкальном, поэзии, философии, творчески подходил к вопросам обучения и воспитания детей. Он проявляет широкое и глубокое понимание природы ребенка и относится к нему не только как к врачу, но и как к прекрасному педагогу. Ибн Сина рассматривал образование как средство совершенствования творческой, думающей, чувствующей и активной личности. В своем сочинении «Книга указаний и наставлений» он утверждает, что, прежде чем человек познает себя человеком, он должен понять, почему его называют человеком. Среди педагогических взглядов великого мыслителя,

не потерявших своего значения и в наши дни, интересна новаторская для того времени педагогическая идея Ибн Сины о в школе [6]. В книге «Тадбири манзил», в разделе «Обучение и воспитание детей в школе» Ибн Сина, в первую очередь, останавливается на вопросе об охвате всех детей школой [7]. Достойны похвалы мнение ученого о преимуществах коллективного обучения. Он считает, что, если ученики будут учиться вместе, не будет скуки и у них развивается желание соревноваться между собой, что, в общих беседах дети рассказывают друг другу интересные истории, которые они узнали из книг и услышали от старших, что, в итоге они начинают дружить и уважать друг друга, помогая друг другу в усвоении знаний. Ученый предъявляет учителю некоторые требования, что им необходимо соблюдать умеренность в обращении с детьми; в работе с детьми он должен применять разные методы и формы работы. При этом важно учитывать индивидуальность ребёнка. Эмоциональность учителя, использование жестов, мимики помогают детям хорошо и легко усваивать материал.

Кей-Кавус, персидский писатель и автор книги «Кабус-Наме», считает, что воспитание детей должно быть требовательным, но и нежным [8].

Выдающийся математик, астроном, педагог, просветитель и поэт своего времени Мирзо-Улугбек считает, что «стремление к просвещению – путь к процветанию государства», что учитель должен вести себя достойно и беречь свою честь. Учителям необходимо неустанно работать, совершенствовать свои знания и педагогическое мастерство, чтобы на каждом уроке обеспечить содержание преподаваемого учебного материала на высоком уровне. Тогда ученики будут учиться с интересом, быть внимательными и дисциплинированными на уроке, что каждого ребенка следует приучать к трудолюбию, физическому и нравственному воспитанию.

Вопрос образования поднят на уровень государственной политики в Узбекистане, принято множество нормативно-правовых документов. Ученые-педагоги работают над совершенствованием системы образования. Так как от успеха в этой важной работе зависит будущее нации и государства.

Вышеперечисленные ученые, которые были ведущими людьми своего времени, оставили нам огромное наследие полезных знаний и советов в области образования и воспитания подрастающего поколения. Гуманистические идеи, поднятые в священных книгах и трудах восточных ученых, открыли новые возможности для утверждения принципа гуманности во всем мире.

Продолжая их традиции, нам следует особое внимание уделять сфере образования и воспитания. В формировании личности подрастающего поколения необходимо опираться на образовательные методы предков, применять на практике полученные знания и опыты, воспитывать духовно богатого и физически здорового поколения.

Annotatsiya: ushbu maqola yosh avlodni tarbiyalash va o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlariga bag’ishlangan. Muqaddas “Avesto” kitobi va hadislarda, sharq allomalari asarlarida farzand ta’lim-tarbiyasiga oid fikrlar o‘rganilgan. Zamonaviy dunyoda tarbiya va ta’lim mavzusining dolzarbligi sabablari sanab o’tilgan. Asosiy e’tibor o‘qituvchining shaxsiyatiga qo‘yiladigan talablarga qaratilgan. Bugungi kunda O‘zbekistonda yosh avlod ta’lim va tarbiyasiga katta e’tibor qaratilayotgani haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: “Avesto”, hadislar, Sharq olimlari, tarbiya, ta’lim, o‘qish, farzandlar, tarbiya usullari, pedagogik ta’sir, olimlar asarlari, yosh avlod, O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya masalasi.

Abstract. this article is devoted to the peculiarities of education and training of the younger generation. It examines ideas about the upbringing and teaching of children in the sacred book “Avesto” and hadiths, in the works of

ISSN 3030-3230

oriental scientists. The reasons for the relevance of the topic of upbringing and education in the modern world are listed. The opinion was expressed that today in Uzbekistan much attention is paid to the education and upbringing of the younger generation.

Key words: "Avesta", hadiths, Eastern scientists, upbringing, education, study, children, methods of education, pedagogical influence

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тоджибаева К. С. Мыслители Востока о профессии педагога и педагогическом мастерстве // Academy. 2016. №12 (15). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/mysliteli-vostoka-o-professii-pedagoga-i-pedagogicheskom-masterstve (дата обращения: 15.04.2024).

2. https://umma.ru/musulmanskaya-etika-vospitaniya-detej

3. Кадырбаев, Рахман. Аль-Хорезми — великий математик и основатель классической алгебры / Рахман Кадырбаев, Г. С. Ражабова, А. К. Кенжегул. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 12 (116). — С. 687-691. — URL: https://moluch.ru/archive/116/31438/ (дата обращения: 15.04.2024).

4. Аминов Т.М., Аминова Л.Я. Педагогическая теория «Аристотеля Востока» аль-Фараби / Мир педагогики и психологии: международный научно-практический журнал. 2020. № 04 (45). Режим доступа: https://scipress.ru/pedagogy/articles/pedagogicheskaya-teoriya-aristotelya-vostoka-al-farabi.html

5. Камолова Ш.У. и другие. Абу Райхан Беруни о духовно-нравственном воспитании подрастающего поколения // Вестник науки и образования. 2016. №4 (16).

6. Педагогические взгляды Абу Али ибн Сины (Авиценны) / Ш. У. Камалова, Р. У. Мунарова, Н. А. Ахмедова [и др.]. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2015. — № 9 (89). — С. 1068-1070. — URL: https://moluch.ru/archive/89/17662/ (дата обращения: 16.04.2024).

7. Авазова, А. К. Дидактические принципы Абу Али Ибн Сино / А. К. Авазова. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2017. — № 19 (153). — С. 369-371.

8. Белофост М. Г., Великанова Е. Г. Из дали времен минувших: наследие Кей-Кавуса // Гаудеамус. 2006. №9.

YANGI O‘ZBEKISTONDA g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlar intensivlashuvida g‘oyaviy tarbiyaning ahamiyati

Xodjayev Olimxon Shavkatovich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari
va huquq ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda g‘oyaviy – mafkuraviy jarayonlarda intensivlashuvida g‘oyaviy tarbiyaning ahamiyati falsafiy tahlili qilingan. Shuningdek, Mamlakatimizga modernizatsiyasi sharoitida g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish dinamikasi o‘rganilib, milliy g‘oya va tarixiy xotira, milliy g‘oya va xalq ruhi, milliy o‘zlikni anglashning o‘zaro fundamental bog‘liqligi masalasi hamda ta’lim tizimi g‘oyaviy tarbiyaning shakllanishi doir masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: yangi O‘zbekiston, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy, madaniy hayotning, integratsiyalashuvi va intensivlashuvi, globallashuv mexanizm, davlat siyosati, suverenitet va xavfsizligi, ma’naviy qadriyat, g‘oyaviy-mafkura.

Bugungi kunda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy, madaniy hayotning barcha sohalarida xalqaro munosabatlarning integratsiyalashuvi va intensivlashuvi, bir so‘z bilan aytganda, globallashuv jarayoni bilan xarakterlanadi. Har qanday ijtimoiy hodisa kabi globallashuv jarayonining ham ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. Tadqiqotchilarning fikricha, globallashuv jarayoni bilan bog‘liq ziddiyatlar avvalo madaniyat sohasida yaqqol namoyon bo‘lib, millatlarning ma’naviy - axloqiy qadriyatlariga tahdid solishida, g‘oyaviy ta’sir ko‘rsatishida o‘z aksini topmoqda[1]. Ma’lumki g‘oyaviy tarbiya sust bo‘lgan yoki to‘g‘ri olib borilmaganda inson ongida g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lib, bu bo‘shliqni shu millatning tabiatiga yot g‘oyalar egallab olishi va turli mafkuraviy tazyiqlar o‘z zararli ta’sirini o‘tkazishi muqarrar. Bu holat ayniqsa hozirgi globallashuv davrida “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi xavf-xatarning keng tarqalib borayotganligi masalasiga jiddiy e’tibor qaratishimizni talab etmoqda[2]. G‘oyaviy kurashning o‘zgarishi, inson ongi va qalbini egallash orqali dunyoni bo‘lib olishga bo‘layotgan urinishlar bugungi globallashuv davrida kuchli tahdid bo‘lib qolmoqda. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, mafkuraviy immunitet, xavfsizlik va barqarorlikning o‘zaro munosabati ayni paytda dolzarb ahamiyatga ega hamda ilmiy o‘rganishga muhtoj masala hisoblanadi. Shuningdek, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy hayot negizlarining o‘zgarishi jamiyat taraqqiyotida yangi g‘oyaviy omilga tayanish zarurligi ko‘rsatmoqda. Yangi milliy g‘oya va demokratik ongning shakllanishida mafkuraviy ta’lim va tarbiyaning dolzarb ahamiyat kasb etayotganini ilg‘ab olish uchun hozirgi zamondagi mafkuraviy jarayonlar xususida atroflicha ma’lumotga ega bo‘lmoq zarur.

Hozirgi davrda inson qadr-qimmati hurmatiga asoslangan e’tiqod, o‘zining va o‘zgalarning haq-huquqlarini e’tirof etadigan fuqaro tarbiyasiz, fuqaroviy madaniyatsiz barqaror taraqqiyot bo‘lishi mumkin emasligi ayon bo‘lib bormoqda. Bu masalada tadqiqotchi olim O.Bozorov “erkin fuqaro ma’naviyati shakllanishiga qaratilgan g‘oyaviy tarbiya – gumanistik e’tiqod va rasional-tanqidiy dunyoqarashni ham anglatadi”[1], degan qarashni ilgari suradi. Mazkur muammolar o‘z vaqtida yechimga ega bo‘lmasligi esa, jamiyatda ma’naviy tanazzulni kuchaytiradi, shuningdek, sekulyarizatsiyalashgan jamiyatlardan farqli ravishda azaliy islomiy jamiyatlarning dunyoviy taraqqiyotiga doimiy xavf solib turuvchi diniy fundamentalizmning tahdidiga chek qo‘yilishi yanada murakkablashadi. Demak, “har qanday tarbiya jarayoni oxir-oqibat, o‘z maqsad va mohiyatiga ko‘ra g‘oyaviy tarbiyadir”[2]. Shu tufayli ham Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev xalq ta’limi tizimini butunlay isloh qilish masalasini

ISSN 3030-3230

ko‘ndalang qilib qo‘ydilar[3]. Chunki, ayrim ota-onalar, xalq ta’limi tizimi, mahalla faollari yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan shaxslar ta’siridan bolalarni muhofaza etishda e’tiborsizlik qilmoqdalar. Hech kimga sir emas, zo‘ravonlik, maishiy yengiltaklik va johillikni targ‘ib qiluvchi chet el filmlari mavjud ekan, g‘oyaviy zararsizlantirish, ularning yo‘lini to‘sish haqida jiddiy o‘ylab ko‘rish lozim. O.Yusupov fikricha, “yoshlarni yot g‘oya va mafkuralardan himoya qilishning eng asosiy negizi ularning ona yurtiga nisbatan iymon va e’tiqodini kuchaytirishdir. E’tiqodli inson nima qilayotganini, nima uchun aynan shu ishni qilayotganini juda yaxshi biladi. E’tiqod egasi ilmga intiladi, o‘z oldiga bunyodkorlik g‘oyalar, maqsadlar qo‘yib, barkamol bo‘lishga tirishadi, g‘ayratlilik uning hayot tarziga aylanadi”[4]. Shuning uchun zamon, islohotlar bizdan e’tiqod, mardlik, fidoyilik, iroda, vijdon, qat’iyat, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi fazilatlarni talab qilmoqda.

G‘oyaviy tarbiyada tarbiyalanuvchilarning rivojlanishini yoshi, tipologik va individual xususiyatlarini hisobga olinishi qator pedagogik muammolarning oldini oladi. Masalan: Bola yoshi oshib borgan sari ota-onadan uzoqlasha boradi va o‘smirlik davrida buzg‘unchi g‘oyalarga kirib ketish xavfi tug‘iladi. Ota-onalar bolani fiziologik yoshini hisobga olmaydi va bu kamchiligini, xatosini ular anglashmaydi. Oilaviy sharoiti nochor bo‘lgan bola ota-onalaridan norozi bo‘lib, 14-15 yoshga yetganda oilasidan, ota-onasidan har xil kamchiliklar topib, ayblay boshlaydi, ya’ni unda oppozision – muxolif fikr tug‘iladi. Yoshlikdagi ota-ona noroziligi ulg‘aygan sari jamiyatga, davlatga qarshi buzg‘unchi g‘oyalarga aylanishi mumkin. Oilada ota-onalar, farzandlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch buzg‘unchi g‘oyalarning oldini oladi. Oilalarda o‘tkazilgan suhbatlarimizda ota-onalar bolasiga noto‘g‘ri ayb qo‘yib ota-onaga nisbatan ishonchini so‘ndirmaslik kerakligi haqida gapirdilar. Oila va mahalla tomonidan yo‘l qo‘yilgan arzimas xato kamchilik bolada odamga nisbatan ishonch tuyg‘usini so‘nishiga, unga ishonadigan odamlarni ko‘chadan izlashga olib keladi[5].

G‘oyaviy tarbiya yangi kishining ma’naviy qiyofasida asosiy o‘rinni ishg‘ol etadi. G‘oyaviy tarbiya muhim psixologik rezerv bo‘lib, iqtisodiyotimiz, siyosiy va madaniy qurilishimizning jadallashuvi ko‘p jihatdan shu rezervdan foydalanishga bog‘liq. Tadqiqotchilarning fikricha, “g‘oyaviy tarbiya bu, jamiyat a’zolarining, qolaversa butun millatning qiziqishini ifodalovchi, kishilarning mustahkam ishonchiga aylangan, ularning faoliyati, xulqi va odatlarini harakatga keltirib va boshqarib turadigan g‘oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik, diniy va boshqa e’tiqodlar sistemasi va birligidan iborat bo‘lgan ijtimoiy ong va ruhiyatning konkret namoyon bo‘lishidir”[4]. Kishilarning g‘oyaviy tarbiyasi, ularning o‘zlari uchun, o‘z jamiyatlari uchun mehnat qilayotganliklarini chuqur anglab olganliklari ularda mehnat tashabbuskorligini va ijtimoiy faollikni oshiradi.

Hozirgi avlod haqiqiy qahramonlik davrida yashamoqda. Buyuk kelajak uchun kurash uning birinchi galdagi maqsadidir. Bu maqsadga erishish kishilarning real va ongli mehnatlari bilan bunyodga kelishini juda yaxshi anglaydilar. Shuning uchun ham ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida yuksak g‘oyaviylik keng tus olgan. Tabiiyki, g‘oyaviylik turli guruhdagi mehnatkashlarda, turli kasblardagi xizmatchilarda turlicha shaklda namoyon bo‘ladi. Lekin bularning barchasi uchun xarakterli bo‘lgan umumiy belgilar: 1) milliy g‘oyaga sodiqlik; 2) jamiyat baxt-saodati uchun sidqidildan mehnat qilish va jamiyat boyligini asrash hamda ko‘paytirish; 3) mehnat intizomiga qat’iy rioya qilish, jamiyat tartibini buzuvchilarga, bevoshlik va intizomsizlik singari negativ (salbiy) holatlarning har qanday ko‘rinishlariga shafqatsiz murosasizlik; 4) ijtimoiy burchni chuqur his etish, jamoatchilik va o‘zaro hamkorlik, rostgo‘ylik, haqqoniylik va axloqiy poklik; 5) mamlakatimiz xalqlarining do‘stlik va qardoshligi, vatanparvarlikdan iboratdir.

Mamlakatimiz kishilarining ongliligi, xalqlarning jipsligi va birodarligi bilan qudratlidir. Yuqori darajadagi siyosiy onglilik, yuksak g‘oyaviy tarbiya kishilarimiz ma’naviy qiyofasining ajoyib xususiyatidir. Kishilar g‘oyaviy tarbiyasining asosi ularning yuksak darajadagi siyosiy onglilik va axloqiy fazilatlaridir. Bu onglilik va axloqiy fazilatlar eng avvalo g‘oyaviy-tarbiyaviy ishlarning natijasida shakllanadi.

Buyuk kelajak sari intiluvchi mamlakatning tarixiy vazifalarini faqat yuksak g‘oyaviy tarbiyali, siyosiy yetuk, ma’lumotli, mustahkam intizomli, uyushqoq, hech qanday qiyinchilik va sinovlardan qo‘rqmaydigan kishilargina sharaf bilan bajara oladilar. Shunday qilib, barkamol avlodning shakllanishi, kishilarda onglilikni tarbiyalash – amaliy ishdir. Erishilgan yutuqlarimiz va tajribalarimiz buning dalilidir.

Jamoatchilik, jamiyat oldidagi o‘z burchini anglash, mehnatga to‘g‘ri munosabat, jamiyat ravnaqi, ozod va obod Vatan, erkin va farovon turmush barpo etish uchun qayg‘urish, milliy g‘oyaga cheksiz sadoqat, vatanparvarlik kishilarimizga xos tipik fazilatlardir[5]. Kishining yuksak g‘oyaviyligi undagi ijodiy kuchning, mehnat va kurashdagi ilhomning manbaidir. G‘oyaviy tarbiya, ommaning ongliligi qancha yuqori bo‘lsa, bunyodkorlik yo‘lidagi yutuqlarimiz yanada ko‘proq va yanada tezroq amalga oshadi. Bu ezgu ishlarni amalga oshirish barkamol avlodning muqaddas vazifasidir.

Talaba-yoshlarning g‘oyaviy tarbiyasida insonparvarlik, millatparvarlik va vatanparvarlik kabi abstraksiyalar faqat konkret-amaliy harakatlar orqali muayyan mazmun va ahamiyatga ega bo‘lishi mumkinligiga ham e’tibor darkor. Shunday sharoitlarda turli destruktiv kuchlar, totalitar mafkuralar tahdidi barham topishiga imkon yaraladi. Buning uchun esa ta’lim-tarbiyani insonparvarlashtirgan holda uning milliy mafkura bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanishini ta’minlash zarur. Zotan, “... yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da’vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish – milliy mafkuraning bosh maqsadidir”[6].

Bugungi kunda yurtimiz yoshlarining ma’naviy yuksak bo‘lishi uchun kollej, lisey, oliy o‘quv yurtlarida barcha sa’yi harakatlar amalga oishirilmoqda. Chunki millatni millat, insonni inson, xalqni xalq sifatida shakllantiradigan, barkamollikka yetaklaydigan narsa ma’naviyatdir. Bizning jamiyatimizga barkamol insonlar kerak. Biz barkamol insonlarga muhtojmiz! Aqlan yetuk, jismoniy jihatdan baquvvat, ma’naviy jihatdan pok inson – barkamol insondir. Inson turli xil sabablarga ko‘ra nogiron bo‘lishi mumkin, biroq ayrim sog‘lom insonlarga nisbatan eliga, yurtiga, atrof-muhitga ko‘proq foydasi tegadi. Bunday insonga nisbatan ham komillik tushunchasini ishlatsak bo‘ladi. Biz talabalarni ham jismonan, ham aqlan sog‘lomlikka undashimiz kerak. Ularga kelajagimiz davomchilari sifatida qarab, ularning kamoloti yo‘lida bor kuchimizni ayamasligimiz kerak[7].

Talaba-yoshlarni hozirgi zamon sivilizatsiyasi salbiy ta’siridan himoya qilish uchun “Shaxs ma’naviy-axloqiy xavfsizligini ta’minlash Konsepsiyasini” ishlab chiqish zarur bo‘ladi. Konsepsiya shaxs ma’naviy-axloqiy xavfsizligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratishga; ma’naviy ta’lim-tarbiya sistemasi samaradorligini o‘z ichiga olmog‘i darkor[8].

Hozirgi zamon sivilizatsiyasining shaxs ma’naviy-axloqiy qiyofasiga ta’siri kuchayib borayotgan bir paytda ma’naviy ta’lim-tarbiya sistemasi faoliyatini turli ijtimoiy guruhlarning o‘ziga xos xususiyatlariga, bugungi talablarga mos ravishda yo‘lga qo‘yish. Ma’naviy-axloqiy ta’lim-tarbiya sistemasi faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish uchun Ma’naviyat targ‘ibot markazi huzurida muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Ma’naviy-axloqiy vaziyatni o‘rganish texnologiyasi samarali uslublar (hujjatlarni o‘rganish, statistik ma’lumotlarni o‘rganish, aholi so‘rovi, taqqoslash, kuzatish, tahlil va sintez uslubi va hokazolar), prinsiplar (obyektivlik, sistemaviylik, tarixiylik va dialektik ziddiyat, mavhumlikdan konkretlikka borish, mantiqiylik va tarixiylik birligi prinsipi va hokazolar), zamonaviy vositalar va materiallar asosida o‘tkazilganidagina zaruriy natijalarga olib keladi.

Jamiyat modernizatsiyasi sharoitida g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish dinamikasi o‘rganilib, milliy g‘oya va tarixiy xotira, milliy g‘oya va xalq ruhi, milliy o‘zlikni anglashning o‘zaro fundamental bog‘liqligi masalasi hamda ta’lim tizimi g‘oyaviy tarbiyaning shakllanishi bosqichi ekanligi ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilindi va quyidagi xulosaga kelindi:

birinchidan, g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlar intensivlashishi sharoitida milliy o‘zlikni anglashni yuksaltirish masalalari doimo olim va faylasuflarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Bunda milliy g‘oya, xalq ruhi, milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira va shu asosda shakllanadigan g‘oyaviy tarbiyaning roli muhim o‘rin tutadi;

milliy g‘oya xalqning, millatning o‘zini, o‘zligini ekzistensial borliqda anglash va namoyon etish ehtiyojini sezganida paydo bo‘ladi. Ayni paytda u yuksak ijtimoiy mazmunga ega bo‘lgani, jamiyatning taraqqiyot yo‘lidagi ezgu intilishlarini aks ettirgani bois umuminsoniy haqiqatga aylanadi. Milliy o‘zlikni anglashning to‘la namoyon bo‘lishi ham mustaqillik bilan bog‘liq hodisadir. Demak, milliy o‘zlikni anglash bilan milliy g‘oya o‘rtasidagi asosiy fundamental bog‘liqlik mustaqillikdadir.

ISSN 3030-3230

Aynan mana shu fundamental bog‘liqlik milliy o‘zlikni anglashning ham, milliy g‘oyaning ham jamiyatning strategik maqsadiga, ya’ni yuksak ma’naviyatli barkamol avlodni tarbiyalashga yo‘naltirilganidadir. Shu joyda milliy g‘oya proyektiv hodisa, uning ijtimoiy munosabatlarni, shu jumladan, ma’naviy hayotni ham ma’lum bir yo‘nalishga soluvchi, uni yo‘naltiruvchi xususiyati namoyon bo‘ladi;

Yangi O‘zbekistonda g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlar intensivlashuvida g‘oyaviy tarbiyaning ahamiyati ulkan ahamiyatga ega. Tarbiya sust bo‘lgan yoki to‘g‘ri olib borilmaganda inson ongida g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lib, bu bo‘shliqni shu millatning tabiatiga yot g‘oyalar egallab olishi va turli mafkuraviy tazyiqlar o‘z zararli ta’sirini o‘tkazishi muqarrar ekanligini ta’kidlash lozim.

АННОТАЦИЯ:

В данной статье сделан философский анализ значения идеологического воспитания в интенсификации идеологически – идеологических процессов в новом Узбекистане. Также изучена динамика борьбы с идейно-идеологическими угрозами в условиях модернизации страны, исследованы вопросы фундаментальной взаимосвязи национальной идеи и исторической памяти, национальной идеи и духа народа, национального самосознания, а также вопросы формирования идеологического воспитания в системе образования.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, духовно-просветительская работа, социальная, политическая, экономическая, духовная, культурная жизнь, интеграция и интенсификация, механизм глобализации, государственная политика.

Abstract:

This article provides a philosophical analysis of the importance of ideological education in the intensification of ideological and ideological processes in the New Uzbekistan. Also, in the conditions of modernization of our country, the dynamics of combating ideological and ideological threats were studied, the issues of national idea and historical memory, national idea and people’s spirit, mutual fundamental dependence of national self-realization, and the formation of ideological education of the educational system.

Key words: new Uzbekistan, spiritual and educational affairs, social, political, economic, spiritual, cultural life, integration and intensification, globalization mechanism, public policy, sovereignty and security, spiritual value, ideological and ideology.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Отамуротов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. –Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2013. 68 б.

2.Қуронов, М. Янги маънавий-мафкуравий таҳдидлар : / М. Қуронов // Маърифат. – 2017. – № 21.

3.Бозоров О. Миллий ғоя ва тарғибот самарадорлиги. – Тошкент: Маънавият, 2015. – 19 б.

4.Қуронов М. ва бошқалар. Миллий тарбия ва ёшлар. – Тошкент: Kamalak. 2016. 67 б.

5.Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. 175 б.

6.Юсупов О., Икромова Ҳ. Ёшларнинг маънавий камолоти диний ва дунёвий маданият уйғунлиги. – Тошкент: Маънавият, 2015. 42 б.

7.Қосимов, Н. Оилада бурч тарбияси - маънавий комиллик асоси / Н. Қосимов, Г. Машарипова, Б. Исроилов; Муҳарр. К. Қуранбоев. – Тошкент: Маънавият, 2015. 14 б.

8.Маҳмудов О. Фарзанднома : Адабий-бадиий нашр / О. Маҳмудов; Муҳарр. Н. Муҳаммадиев. – Тошкент: O‘qituvchi, 2018. 52 б.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

Milliy gvardiyasi xizmat faoliyatida foydalanish uchun profayling texnologiyasini ishlab chiqish istiqbollari

Ikanov Azamat Agzamovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi boshlig‘i,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasi Milliy vardiyasi xizmat faoliyatida profayling texnologiyasini qo‘llash istiqbollari ilmiy tadqiq etilgan. Alohida e’tibor ommaviy tadbirlarni o‘tkazish obyektlari, istirohat bog‘lari, xiyobonlar hamda bozorlarda profayling texnologiyasini qo‘llashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: milliy gvardiya, jamoat xavfsizligini ta’minlash, profayling, profayler, ommaviy tadbirlarni o‘tkazish obyektlari, istirohat bog‘lari, xiyobonlar, bozorlar.

Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlashning o‘ziga xos milliy tizimi yaratilib, jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning profilaktikasiga oid tuzilmalar faoliyatini rivojlantirish, aholi ko‘plab tashrif buyuradigan gavjum joylarda xavfsizlikni ta’minlash borasida uzluksiz ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi **PF-158-son** Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida “Hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish” masalasi alohida belgilanib, unga ko‘ra “Bozorlarni zamonaviy, qulay barcha xavfsizlik talablariga javob beradigan savdo komplekslariga aylantirish” 2030-yilgacha erishiladigan samaradorlik ko‘rsatkichlaridan biri sifatida belgilangan[1].

Qonunchilikka muvofiq, jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash Milliy gvardiya organlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi[2].

Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda hamda istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etish bevosita Milliy gvardiya bo‘linmalari tomonidan amalga oshirilishi ko‘rsatib o‘tilgan [3].

2023-yilda Respublikamizda jamoat joylarida 5 774 ta jinoyat sodir etilgan bo‘lib, ushbu ijtimoiy xavfli qilmishlar jami jinoyatlarning 5,5 foizini tashkil etgan. Bu toifadagi jinoyatlarning 3 731 tasi (65 %) ko‘chalar, maydonlar, bog‘lar va xiyobonlarda qayd etilgan. Milliy gvardiya bo‘linmalari xizmat olib borayotgan jamoat joylarida jami 485 ta jinoyat sodir etilgan[4].

Hozirgi texnikaviy taraqqiyot davrda rivojlangan mamlakatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyat sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash, jinoyatlarni barvaqt oldini olishda bir qator innovatsion loyiha va dasturlar amalga oshirilmoqda.

Shulardan biri sifatida xalqaro amaliyotda jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarlik sodir etishga moyil (ehtimoliy xavfli) shaxslarni aniqlashda profaylingdan [5]

(profayling bu – shaxs to‘g‘risida axborot beruvchi belgilar, tashqi qiyofa va o‘zini tutish tavsiflari tahlili asosida insonning o‘zini tutishini baholash va bashorat qilishning uslub va uslubiyotlari majmuasi) foydalanilayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Bugungi kunda profayling texnologiyasini qo‘llash borasida dunyo davlatlarida o‘ziga xos tajribalar to‘plangan. Xususan Isroil, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy, Avstriya, Fransiya, Rossiya, Koreya Respublikasi, Ukraina kabi davlatlarda profayling texnologiyasini ishlab chiqish va qo‘llash borasida ko‘p yillar mobaynida qator tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda va bu borada muayyan dasturlar amalga oshirilgan.

G‘ayriqonuniy harakatlar, avvalo terrorchilik harakatlarni amalga oshirish mumkinligi nuqtayi nazaridan xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan yo‘lovchilar (gumonlanuvchilar)ni aniqlash maqsadida mutaxassis profaylerlar (profaylerlar

ISSN 3030-3230

– profayling bilan shug‘ullanuvchi shaxslar)[6] tayyorlash va ulardan foydalanish ilk bor XX asrning 70-yillari oxirida Isroilda “El-Al” (El Al) aviakompaniyasi tomonidan amalga oshirilgan.

1985-yilda AQShda shaxsni profillash (profayling) Federal qidiruv byuroda P. Bruks va R. Ressler rahbarligida zo‘rlik ishlatish bilan bog‘liq epizodli jinoyatlarni fosh etishga ko‘maklashish maqsadida “ViCAP” dasturi doirasida zo‘ravon jinoyatchilarni aniqlash maqsadida qo‘llanilgan. Germaniya, Avstriyada bunday dastur “VICLAS” deb ataladi.

Ushbu texnologiyani rivojlantirishga “Pol Ekman groups” kompaniyasi alohida hissa qo‘shgan. Bu kompaniya amerikalik psixolog P. Ekman rahbarligida insonning hissiy holatini “ochib olishga” (aniqlashga) imkon beruvchi bir qator kompyuter dasturlarini ishlab chiqilgan. Bu dasturlar nafaqat AQSH aeroportlarida, balki xavfsizlikni ta’minlash bilan shug‘ullanuvchi boshqa tuzilmalarda ham jadal qo‘llanila boshlangan.

Profaylingning metodologik asoslarini P. Ekman, V. Frizen, K. Sherer, M. Sukerman, B. De Paulo, V. Labunskaya, O. Fray va boshqalar yaratganlar. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni Yu. Volьınskiy-Basmanov, M. Kameneva, N. Anisimova, N. Eriashvili, I. Aminov, V. Prokopeshkin davom ettirganlar.

Hozirda Isroil va Rossiyada transportda xavfsizlikni ta’minlash yo‘nalishida “Transport profaylingi” keng qo‘llanilib kelinmoqda[7].

Ayrim mutaxassislar mazkur texnologiyaga quyidagicha ta’rif berishmoqda: “Profayling – kuzatish va maxsus so‘rov usuli yordamida xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan, noadekvat xatti-harakatga moyil shaxslarni aniqlashga qaratilgan maxsus tadbirlar tizimi hisoblanadi”

Ta’kidlash lozimki, yuqorida nomlari ko‘rsatilgan olimlarning ishlarida O‘zbekiston sharoitida jamoat xavfsizligini ta’minlashda foydalanish uchun profayling texnologiyasi ishlab chiqilmagan.

Shu sababli, mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash, xususan huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan ehtimoliy xavfli shaxslarni aniqlashda maxsus bilim va ko‘nikmaga ega mutaxassislar profaylerlar tayyorlash mexanizmini ishlab chiqish hamda huquqbuzarlarni barvaqt aniqlash dolzarb hisoblanadi.

Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-martdagi 121-son qarori bilan tasdiqlangan 2022 — 2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ning 8-bandida O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida “Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida foydalanish uchun innovatsion profayling texnologiyasini ishlab chiqish” deb nomlangan maqsadli amaliy ilmiy-tadqiqot loyihasini bajarish belgilangan[8].

Mazkur ilmiy tadqiqot amalga oshirilishi natijasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o‘tkazish hamda istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlash faoliyatida qo‘llash uchun profayling texnologiyasi ishlab chiqilishi maqsad qilingan bo‘lib, unda quyidagi aniq ilmiy natijalarga erishish rejalashtirilgan:

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o‘tkazish hamda istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlash faoliyatida profayling texnologiyasini qo‘llash bo‘yicha o‘quv dasturini ishlab chiqish;

– o‘quv dasturiga muvofiq, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o‘tkazish hamda istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlash faoliyatida profayling texnologiyasini qo‘llash bo‘yicha o‘quv-amaliy qo‘llanma ishlab chiqish;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o‘tkazish hamda istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlash faoliyatida qo‘llash uchun profayling texnologiyasini ishlab chiqish. Bunda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o‘tkazish vaqtida, istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jinoyat sodir etgan shaxslarning

psixologik portretini tayyorlash va ularni o‘xshash xususiyatlarini umumlashtirish asosida quyidagilarni ishlab chiqish:

– potensial xavfli shaxsning psixologik portreti;

– tashqi ko‘rinishi va xatti-harakatlarining xususiyatlari bilan bog‘liq informatsion belgilarni (markaziy asab tizimining namoyon bo‘lishi, hissiy holatlar, nutq xususiyatlari, noverbal ko‘rinishlar, tashqi ko‘rinish xususiyatlari) tahlil qilish asosida inson xatti-harakatlarini baholash va prognoz qilish metodikasi;

– potensial xavfli shaxslarni aniqlash maqsadida kishilarni kuzatish va so‘rov qilish texnologiyasi.

– ommaviy tadbirlarni o‘tkazish hamda istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlash faoliyatida profayling texnologiyasini qo‘llash orqali potensial xavfli shaxsni aniqlashga ko‘maklashuvchi vizual poligraf dasturiy ta’minotini yaratish.

Yuqoridagilarga asosan, jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun Milliy gvardiya xizmat faoliyatida profayling texnologiyasini yaratishda quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz:

so‘rov – profayling texnologiyasi ishlab chiqish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslar, faktlar va holatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni bilgan yoki bilishi mumkin bo‘lgan shaxs bilan bevosita muloqotda bo‘lish jarayonida axborot olish;

ma’lumotlar to‘plash – profayling texnologiyasini ishlab chiqish uchun, materiallarni, ma’lumotlar bazalarini o‘rganish, shuningdek, so‘rovnomalar yuborish orqali jismoniy va yuridik shaxslar, faktlar va holatlar haqida ahamiyatga ega bo‘lgan axborotni olish;

predmetlarni va hujjatlarni tekshirish – profayling texnologiyasining vazifalarini hal etish maqsadida predmetlarni va hujjatlarni o‘rganish uchun zarur ilmiy, texnikaviy va boshqa maxsus bilimlarga ega bo‘lgan mutaxassislarni jalb etgan holda tekshiruv o‘tkazish;

tezkor kuzatuv – loyiha vazifalarini hal etish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan axborotni olish maqsadida huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning harakatlarini, hodisalarni va jarayonlarni bevosita yoki bilvosita (texnik vositalardan foydalangan holda) nooshkora kuzatish va qayd etish;

profil yaratish – huquqbuzarliklarni oldini olishga mo‘ljallangan texnologiya asosida universal shaxs profili yaratish;

shaxsning aynanligini aniqlash – potensial xavfli subyekt deb baholanayotgan kishi shaxsini identifikatsiya qilish yoxud xususiy belgilari asosida aniqlash.

Umuman olganda jamoat xavfsizligini ta’minlashda va Milliy gvardiya xizmat faoliyatida profayling texnologiyasidan foydalanish qator masalalarni hal etilishiga imkon yaratadi:

– “xavfsiz hudud”, “xavfsiz shahar”, “xavfsiz mahalla” va “xavfsiz xonadon” konsepsiyalarini to‘laqonli amalga oshirishga ko‘maklashadi;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o‘tkazish vaqtida, istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jinoyat sodir etgan shaxslarning psixologik portretini ilmiy-amaliy tadqiq etgan holda shakllantirilgan ehtimoliy huquqbuzar shaxslarning profili ijtimoiy xavfli qilmish sodir etmoqchi bo‘lgan shaxsni barvaqt aniqlash imkonini beradi;

– jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatiga profayling texnologiyasi ko‘rinishidagi zamonaviy uslublar joriy etilishiga, shuningdek, ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi vakolatli shaxslarning to‘liq qonuniy harakatlanishini ta’minlashga xizmat qiladi;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o‘tkazish vaqtida, istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda ehtimoliy xavfli shaxslar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining barvaqt oldini olishga erishiladi;

– jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini amalga oshiruvchi davlat idoralari xodimlarida

ISSN 3030-3230

ehtimoliy xavfli subyektlarni aniqlashning maxsus bilim va ko‘nikmasi shakllanishiga hamda bu boradagi faoliyati samaradorligi oshishiga xizmat qiladi;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o‘tkazish vaqtida, istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash xizmatlarining kuch va vositalaridan samarali foydalanish imkonini beradi;

– jamoat xavfsizligini ta’minlash, shu jumladan jamoat tartibini saqlash faoliyatining metodologik va ilmiy-nazariy asoslarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy tahlil natijalariga ko‘ra aytishimiz mumkinki, jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida “Profayling texnologiyasi” samarali usullardan biri sifatida ko‘plab rivojlangan mamlakatlarning huquqni muhofaza qilish organlari xizmat faoliyatida foydalanib kelinmoqda. Mamlakatimizda ham bevosita jamoat xavfsizligini ta’minlashni amalga oshiruvchi mutaxassislar, xususan Milliy gvardiya harbiy xizmatchi va xodimlarida profayling asosidagi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish o‘z ijobiy natijasini namoyon qiladi, deb hisoblaymiz.

Аннотация. Данная статья выполнена в рамках практического грантового проекта №ALM-202310202738 «Разработка инновационной технологии профайлинга для использования в деятельности по обеспечению общественной безопасности», в котором были научно исследованы перспективы использования технологии профайлинга в служебной деятельности Национальной гвардии Республики Узбекистана. Особое внимание уделено использованию технологии профайлинга в объектах массовых мероприятий, парках, бульварах и рынках.

Ключевые слова: Национальная гвардия, общественная безопасность, профайлинг, профайлер, массовые мероприятия, парки, бульвары, рынки.

Abstract. This article was carried out within the framework of the practical grant project No. ALM-202310202738 “Development of innovative profiling technology for use in activities to ensure public safety,” in which the prospects for using profiling technology in the official activities of the National Guard of the Republic of Uzbekistan were scientifically studied. Particular attention is paid to the use of profiling technology in public event facilities, parks, boulevards and markets.

Key wors: National Guard, public safety, profiling, profiler, public events, parks, boulevards, markets

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoniga 1-ilova. https://lex.uz/ru/docs/6600413

2. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/uz/docs/5128310

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni. https://www.lex.uz/ru/docs/5749291

4. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ma’lumotlari asosida.

5. Qodirov M.S. Bojxona xizmati xodimlarida profayling asosidagi kasbiy kompetensiyalar shakllanish xususiyatlari. //psix.fan.bo‘y.fal.dok. diss. O‘zbekiston Milliy universiteti, 2022. – B.36

6. Sirliyev B.N. Penitensiar psixologiya. Darslik. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. – T.:2024. – B.110.

7. Sirliyev B.N., Xasanov Sh.X., Xusanov A.D. Hodisa joyidagi izlar asosida jinoyatchining psixologik portretini yaratish: O‘quv-amaliy qo‘llanma – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. – B.34.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 23 martdagi “2022 — 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasini 2023 yilda amalga oshirish bo‘yicha «yo‘l xaritasi»ni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 121-son qarori. https://lex.uz/ru/docs/6411327

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDA BALANDLIK-ISHG‘OL TAYYORGARLIGINING RIVOJLANISH TENDENSIYASI

Uraimov Muzaffar Zuxriddinovich
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Ixtisoslashtirilgan o‘quvmarkazi
Balandlik – ishg‘ol va jismoniy tayyorgarlik sikli boshlig‘i

Annotatsiya. **O‘zbekiston Respublikasining geosiyosiy joylashuvidan kelib chiqib, alpinizmning rivojlanishi harbiy sohada ham muhim o‘rin egallaydi. Alpinizm o‘z o‘rnida bir necha yo‘nalishlarga bo‘linib, bulardan biri Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi bo‘lib, shahar sharoitidagi ko‘p qavatli bino va inshootlarning yuqori qismlarida yoki qavatlariga yashirinishga uringan jinoyatchilarni izlab topish, nazorat qilish, qo‘lga olish hamda yo‘q qilishda muhim o‘rin tutadi.**

Kalit so‘zlar: ishg‘ol qilish, jangovar-maxsus, ko‘p qavatli binolar, alpinist anjomlar, izlab topish, nazorat qilish, qo‘lga olish hamda yo‘q

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.Mirziyoev Qurolli kuchlar tashkil etilganligining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo‘llagan bayram tabrigida “Hozirgi vaqtda jahonda va mintaqamizda harbiy siyosiy vaziyat keskin o‘zgarib, milliy va global xavfsizlik sohasida xatar va tahdidlar tobora kuchayib bormoqda. Ana shunday o‘ta mas’uliyatli vaziyat va hayotning o‘zi erishgan barcha yutuqlarimizni, shu bilan birga, yo‘l qo‘ygan kamchiliklarimizni chuqur va tanqidiy tahlil qilishni barchamizdan talab etmoqda”[1], deb ta’kidlagan edi.

O‘zbekiston Respublikasi geosiyosiy joylashuvi O‘rta Osiyoning markazini tashkil qiladi. Respublika hududining asosiy qismi past-baland quruqliklardan tashkil topgan bo‘lib, daryo, cho‘l va tog‘li hududlardan iborat. Shu bilan birga, qo‘shi davlatlar bilan chegaralab turuvchi tog‘ tizmalari mavjud bo‘lib, ularni o‘rganish, o‘zlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Tog‘ tizmalari bo‘ylab yurtimiz chegarasi daxlsizligini himoya qilishda alpinizmning o‘rni katta hamda turizm sifatida ham harbiy yo‘nalishda ham katta o‘rin tutadi. Alpinizm o‘z o‘rnida bir necha yo‘nalishlarga bo‘linib, harbiy yo‘nalishda ham keng qo‘llanilib kelgan. Harbiy alpinizm o‘z o‘rnida tog‘ tayyorgarligi hamda balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi yo‘nalishlariga bo‘linadi. Tog‘ tayyorgarligi harbiy xizmatchi va xodimlarning, respublika tog‘li hududlarida kundalik va jangovar xizmat vazifalarini bajarishda foydalanish uchun xizmat qilsa, Shahar sharoitidagi ko‘p qavatli bino va inshootlarning yuqori qismlarida yoki qavatlariga yashirinishga uringan jinoyatchilarni izlab topish, nazorat qilish, qo‘lga olish hamda yo‘q qilishda balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi muhim o‘rin egallaydi.

Balandlik-ishg‘ol tayyorgarlik fani maxsus vazifalarni bajaruvchi bo‘linma harbiy xizmatchi va xodimlarini o‘qitishning muhim qismi hisoblanadi. Zamonaviy jangovar muhitning tobora kuchayib borayotgan muammolari ushbu fanni o‘qitish usullarini yangilash va takomillashtirish zarurligini kuchaytiradi. Ushbu maqolada balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi fanining poydevori bo‘lgan alpinizmning kelib chiqish tarixidan boshlab, O‘zbekiston Respublikasi hududida ta’sis etilgan balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi fani va uning mashg‘ulotlarini takomillashtirish bo‘yicha bir necha muhim omillarni ko‘rib chiqamiz.



Alpinizmning kelib chiqish qisqacha tarixi.

Alpinizm so‘zining kelib chiqish tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, 1786 yilning 8-avgust kuniga to‘g‘ri keladi. Ikki sayohatchi Shveysariyalik doktor Mishel Gabriel Pakkar va tog‘ yo‘l boshlovchisi Jak Balma tomonidan Alp tog‘ining “Monblanna”[2] cho‘qqisiga ko‘tarilgan davrdan boshlab, yuqori cho‘qqilarni zabt etish, u erdagi qiyinchiliklarga bardosh berib, oshib o‘tish

ISSN 3030-3230

kabi harakatlarini o‘rgatuvchi yo‘nalish paydo bo‘lgan va bunga alpinizm nomi bilan yuritila boshlagan. Yuqoridagi ikki sayohatchining xotirasiga atab Fransiya davlatining sharqidagi “Shamoni”[3] shahrida joylashgan tog‘ tayyorgarligi o‘quv markaziga haykallari o‘rnatilgan.

“**Alpinizm** – Alp tog‘i nomiga qo‘yilgan sport turi bo‘lib, turli murakkab to‘siqlardan oshib o‘tish, tog‘ cho‘qqilariga ko‘tarilish va ularni zabt etish” – degan ma’noni anglatadi.

XVII-asrning oxirlari XVIII-asrning boshlariga kelib, alpinizmga katta e’tibor qaratila boshlagan va ko‘plab sayyohlarni o‘ziga jalb qilgan. Alpinizm sayyohlarda katta qiziqishlar uyg‘otib, kam muddatlar ichida markaziy Yevropadan boshqa o‘lkalarga, shu jumladan g‘arb va Osiyo davlatlariga ham keng tarqala boshlagan.

“1788-yilda rus dengiz zobiti Daniil Gauss o‘zining ikki do‘sti bilan Kamchatkadagi 4835 metr balandlikka ega bo‘lgan, Yevro Osiyodagi eng yuqori balandlik hisoblangan “Klyuchevskaya sopka” – nomi bilan nom qozongan cho‘qqini zabt etishgan”[4]. Bu o‘z o‘rnida boshqa davlatlar sayyohlarini o‘ziga jalb qilgan holda qiziqishlarini oshirgan.

Alpinizmning harbiy yo‘nalishdagi ilk qadamlari.

Ilk bor 1829 yilda, dunyoning eng yuqori yettita cho‘qqilaridan biri bo‘lgan “Elbrus” cho‘qqisiga, “Rossiya fanlar akademiyasi”[5] general Emmanuel boshchiligidagi ilmiy ekspeditsiya tashkil qilingan. Ushbu ekspeditsiyaga yo‘l boshchilik qilgan Kilar ismli shaxs Elbrus cho‘qqisini zabt etgan. Alpinizm, jamiyat hayotining har xil jabhalarining amaliy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Alpinizm texnikasi, inson faoliyati ko‘p sohalari rivojlanish jarayonida keng qo‘llanilib kelgan. Bundan ko‘rinib turibdiki alpinizm harbiy soha vakillari qiziqishlarini ham chetlab o‘tmagan.

XIX–XX asrlarda geograf olimlari hamda alpinizm havaskorlarini bir joyga to‘plash maqsadida Rus tog‘ jamiyati (Русское горное общество – РГО) tashkil topgan. Ushbu jamiyatning birinchi raisi etib[6], [7] Aleksandr Karlovich fon Mekk tayinlangan. Rus tog‘ jamiyati tashkilotchilari “Alp bizda yo‘q, shu sababdan biz o‘zimizni alp jamiyati deb atay olmaymiz”[8] deb yozadilar. Shu sababdan alpinizm tayyorgarligi so‘zini o‘rniga tog‘ tayyorgarligi so‘zi bilan almashtirilgan.

Ilk tog‘-o‘qchilari.

Tog‘li hududlari mavjud bo‘lgan mamlakatlarda alpinizmning o‘rni harbiy sohalarda katta bo‘lgan. XX asr boshlarida Avstro-Vengriya va Italiyada ilk bor maxsus tog‘-o‘qchi harbiy qismlari tashkil topgan[9]. Tog‘-o‘qchilari tog‘li hududlarda jang olib borish san’atini mukammal o‘zlashtirgan. Bunda ular tog‘ qoyalarida maxsus anjomlar yordamida o‘ziga biriktirilgan qurol yarog‘ini jangovar xolda olib yurish, qoyalar orasiga o‘rnatilgan nishonlarga qarata o‘q uzish, tog‘ qoyalarida uchraydigan xar xil turdagi qiyin to‘siqlarni oshib o‘tish, tog‘ daralari va daryo o‘zanlaridan kechib o‘tish kabi murakkab mashqlarni bajarib tayyorgarlikdan o‘tib borishgan. Birinchi jahon urushining 1918-yil yoz oylarida tog‘-o‘qchilari suv sathidan 3678 metr balandlikda San-Motteo nomli baland tog‘ urushida ishtirok etadilar[10]. Ushbu jangda tog‘-o‘qchilari o‘zlarini katta mahorat egalari ekanliklari, tog‘li hududlarda jang olib borishning o‘zgacha, professional uslublardan foydalanganliklari boshqa davlatlarda ham katta qiziqish uyg‘otdi. Ikkinchi jahon urushi boshlanishidan oldin Germaniyada “tog‘-o‘qchisi” diviziyasi tashkil topdi. Shu bilan bir qatorda sovet ittifoqi va boshqa mamlakatlarda ham tog‘-o‘qchisi kabi harbiy qismlari tashkil topgan[11].

Sobiq sovet ittifoqi tog‘-o‘qchilari.

1942 yilda nemes tog‘-o‘qchilari Kavkaz tog‘ tizmasi hududi bo‘ylab olib borgan jangida, ilk bor sobiq sovet sotsialistik respublikalari ittifoqi (CCCP) tomonidan tog‘li hududlarda harakatlanib, jang qila olish salohiyati mavjud professional ovchi va fuqarolar tarkibidan tashkil topgan alohida tog‘-o‘qchilari otryadi (Отделные горнострелковые отряда – ОГСО) otryadi bilan to‘qnash kelgan. Ushbu tog‘-o‘qchilari yuqori professional tayyorgarlikka ega, maxsus tog‘ anjomlari, tog‘li hududlarda harakatlanishga moslashtirilgan harbiy kiyimi hamda o‘q otar qurollar bilan ta’minlangan maxsus otryad bo‘lgan.

1942 yilning kuz oyiga kelib, harbiy alpinist va tog‘-o‘qchilarini tayyorlash bo‘yicha ichki ishlar xalq qo‘mitasi maktabi tashkil topgan. Ushbu maktabni sovet ittifoqida xizmat

ko‘rsatgan aka-uka alpinistlar Yevgeniy va Vitaliy Abalakovlar boshchilik qilganlar. 1943 yilning yanvar oyiga kelib alohida maxsus vazifalarni bajaruvchi tog‘-oqchilari brigadasi (отделная горно-стрелковая бригада особого назначения – оргсбрОН) tashkil topgan va shu bilan birga tog‘li hududlarda xar qanday vazifalarni bajara oladigan kadrlarni tayyorlash majburiyati yuklatilgan[12].

O‘zbekiston hududiga alpinist tayyorgarligini kirib kelishi.

Turkiston general gubernatori Mixail Vasilevich Frunze[13] tomonidan tog‘li hududlarda jang olib borish san’atini, tog‘ taktikasini, jangovar o‘q otish va tog‘ hududlari joylarini oldindan o‘rganib chiqmoq (рекогносировка) kabi mashg‘ulotlarni targ‘ib qilgan. Alpinist tayyorgarligi Toshkent, Baku, Tbilisi va Vladikavkaz harbiy maktablari o‘quv mashg‘ulotlariga kiritilgan.

1914 yil 6-iyul kunida tashkil topgan, uch-bosqichli Toshkent harbiy bilim yurti Rossiya imperiyasi hududidagi eng yosh harbiy bilim yurtlaridan biri bo‘lgan (bundan yosh faqat 1915 yilda tashkil topgan Alekseevckiy muhandislik bilim yurti va Nikolayevskiy artilleriya bilim yurti bo‘lgan).

Toshkent harbiy bilim yurti – bu, Rossiya imperiyasining piyoda qo‘shinlar zobitlarini tayyorlash uchun mo‘ljallangan bilim yurti bo‘lib, har tomonlama mukammal jang qilish salohiyatiga ega yosh zobitlarni yetishtirib bergan. Turkiston general gubernatori M.V.Frunzening tog‘li hududlarda jang olib borish san’atini, tog‘ taktikasini, jangovar o‘q otish va tog‘ hududlari joylarini oldindan o‘rganib chiqmoq (рекогноссировка) kabi mashg‘ulotlarni Toshkent harbiy bilim yurtida sifatli o‘tkazilishini nazorat qilgan. 1925 yilda Toshkent harbiy bilim yurtining ofitserlardan tashkil topgan oltita harbiylari Kavkaz tog‘ chizmasi asosiy cho‘qqilarini zabt etgan holda oshib o‘tishgan[14].

O‘zbekiston Respublikasida balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi.

Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi, ko‘p qavatli bino va inshootlarning tik tashqi (vertical) qismi yoki kirib borish hamda harakatlanish imkonsizdek ko‘ringan tarafidan xizmat va jangovar vazifalarni bajarish imkonini beruvchi jamlanmani o‘z ichiga qamrab oladi.

Shahar sharoitlarida jang olib borish, ko‘p qavatli bino va inshootlarda xizmat va jangovar vazifalarni bajarish, binolarga yashirinishga uringan jinoyatchilarni qo‘lga olish, ularning harakatlarini nazorat qilish va yo‘q qilish bo‘yicha mashg‘ulotlar “tog‘ – balandlik tayyorgarligi” fanida tog‘ tayyorgarligi bilan birga qisman o‘rgatilib borar edi.

Ilk bor O‘zbekiston Respublikasida, 2020-yilning may oyida Milliy gvardiya Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazida Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi fani ta’sis etildi. Shu bilan jinoyatchilarning ko‘p qavatli bino va inshootlarda kutmagan tarafidan zarba berish, kirib borish qiyin bo‘lgan joylarda to‘g‘ri harakatlanish, har xil turdagi quvurlar orqali jangovar harakatlarni amalga oshirish orqali maksimal samaradorlikka erishish, bo‘yicha chuqurlashtirilgan mashg‘ulotlar o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yildi.

Jamoat xavfsizligi hamda maxsus bo‘linma harbiy xizmatchi va xodimlari shahar sharoitida kundalik xizmat vazifalarini bajarish jarayonida favqulodda vaziyatlar yuz bergan hollarda balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi qobiliyatlari muhim ro‘l o‘ynaydi. Shahar sharoitidagi hududlarda ko‘p qavatli binolar jinoyatchilarning yashirinishiga maxsus bo‘linma harbiy xizmatchi va xodimlarining ko‘zidan g‘oyib bo‘lishga katta imkoniyat tug‘diradi. Bu o‘z o‘rnida maxsus bo‘linma harbiy xizmatchi va xodimlarining binoning ichkarisini nazorat qilish, binoning yuqori qavatlariga tashqi tarafdan kirib borish, har xil turdagi quvurlar orqali harakatlanish va jinoyatchilarni yo‘q qilish qobiliyatlari mukammal darajada bo‘lishini talab qiladi.

Ko‘p qavatli binolarda maxsus operatsiya o‘tkazish jarayonida harbiy xizmatchi va xodimlardan katta mas’uliyat talab qilinadi. Bunda oldinga qo‘yilgan vazifani samarali bajarilishi, balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi salohiyat darajasiga ko‘p narsa bog‘liq bo‘lib qoladi. Maxsus bo‘linma harbiy xizmatchi va xodimlari ko‘p qavatli binolarda maxsus operatsiya bajarish jarayonida binoni ishg‘ol qilishdan tashqari alpinist anjomlaridan to‘g‘ri foydalangan holda harakatlarni amalga oshirishni mukammal bilishlari lozim. Bu qobiliyatlarni sifatini bilish, o‘zida sinab ko‘rish o‘quv mashg‘ulotlarda namoyon bo‘ladi.

Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi mashg‘ulotlarini o‘tkazish.

Balandlik -ishg‘ol tayyorgarlik mashg‘ulotlari harbiy xizmatchi va xodimlarda

ISSN 3030-3230

ko‘p qavatli bino va inshootlarning tashqi va ichki harakatlanish qiyin bo‘lgan joylaridan alpinist anjomlaridan to‘g‘ri foydalangan holda qutqaruv, nazorat va ishg‘ol qilish usullarini o‘rgatadi.

Alpinist anjomlaridan foydalangan holda ko‘p qavatli bino va inshootlarda harakatlanish, harbiy xizmatchi va xodimda ruhiy barqarorlik, jismoniy chaqqonlik, o‘ziga ishonch, jismoniy ruhiy holati mustahkam bo‘lishini talab etiladi va bu xislatlarni Balandlik-ishg‘ol tayyorgarlik mashg‘ulotlari shakllantirib rivojlantiradi.

Balandlik-ishg‘ol tayyorgarlik mashg‘ulotlari davomida eng asosiysi xavfsizlik qoidalariga qat’iy amal qilish hisoblanadi. Bunda alpinist anjomlaridan to‘g‘ri foydalanish, yaratilayotgan tayanch nuqtalarining mustahkamligiga ishonch hosil qilish hamda shaxsiy xavfsizlik choralarini ko‘rishdan iborat. Chunki har bir oqibatini o‘ylamasdan qilingan harakat inson sog‘lig‘i, yoxud hayotidan ayrilishiga olib kelishi mumkin.

Balandlik-ishg‘ol tayyorgarlik mashg‘ulotlarini o‘tkazishda faqat maxsus kafolatga ega, vakolatli ishlab chiqaruvchi tomonidan ishlab chiqqanligi hamda sinovdan o‘tgan alpinisti anjomlaridan foydalanishga ruxsat beriladi.

Balandlik-ishg‘ol tayyorgarlik mashg‘ulotlarini o‘tkazish jarayonida o‘rganuvchilarning malaka toifasi, bilimi va qobiliyati qanday bo‘lishidan qat’iy nazar har bir harakat yuqori malakaga ega bo‘lgan o‘qituvchi-instruktorlar nazorati ostida amalga oshiriladi.

O‘rganuvchilarning xavfsizligini ta’minlash maqsadida, balandlik-ishg‘ol tayyorgarlik mashg‘ulotlari kamida ikkita yuqori malakaga ega bo‘lgan o‘qituvchi-instruktorlar tomonidan amalga oshiriladi.

Mashg‘ulot rahbari:

Balandlik-ishg‘ol tayyorgarlik mashg‘ulotlarini boshlashdan oldin mashg‘ulot o‘tish yordamchi o‘qituvchi-instruktorlari bilan birgalikda mashg‘ulot obyektini bir boshdan sinchiklab ko‘zdan kechirib chiqadi, inson hayoti va sog‘lig‘iga putur yetkazadigan barcha omillarni bartaraf qiladi;

Mashg‘ulot o‘tish yordamchi o‘qituvchi-instruktorlarini o‘quv mashg‘ulotlariga tayyorgarligini tekshiradi;

Mashg‘ulot o‘tish yordamchi o‘qituvchi-instruktorlariga mashg‘ulot maqsadi, vazifalari va o‘quv nuqtalarida nimalarga ko‘proq e’tibor qaratilishi bo‘yicha yo‘riqnoma o‘tib, vazifalarini belgilab beradi;

O‘rganuvchilarga mashg‘ulotning maqsadi, vazifasi, kutilayotgan natijalari, xavfsizlik qoidalari bo‘yicha yo‘riqnomani imzo ostida yetkazadi;

Mashg‘ulot jarayonida har bir harakatni, usulni shaxsiy namuna sifatida avval o‘zi yoki yordamchi o‘qituvchi-instruktor tomonidan amalga oshiradi so‘ngra o‘rganuvchilarga izn beradi.

Birinchi o‘qituvchi-instruktor:

Ko‘p qavatli bino va inshootning yuqori qismi, o‘rganuvchining tushish uchun boshlang‘ich nuqtasiga yani tushish harakatini amalga oshirish joyida bo‘lishi lozim. Uning vazifasi o‘rganuvchining xavfsizlik kamari yoki tizimining to‘g‘ri kiyganligi, kamarning har bir to‘qasi (пряжкаси) o‘z joyiga biriktirilib, mustahkamlanganligini tekshiradi;

Alpinist anjomlarini (karabin, sakkizlik, desantyor va hokazolar) asosiy tushish arqoniga (fal arqon) to‘g‘ri biriktirilganligi va har bir anjom vazifasiga ko‘ra to‘g‘ri foydalanganligini nazorat qiladi. Shu bilan birga yo‘l qo‘yilgan kamchilikni joyida bartaraf qilish orqali o‘rganuvchining bilim va mahoratini oshiradi.

Ikkinchi o‘qituvchi-instruktor:

Mashg‘ulot o‘tish joyining pastki qavatida turib, fal arqonini pastki qismidan mahkam ushlab, o‘rganuvchining xavfsizligini ta’minlaydi va tushish jarayonidagi og‘irlik kuchlanishini nazorat qiladi;

O‘rganuvchining har bir harakatini to‘g‘ri bajarilishini, past tarafdan har bir kamchiliklarini imkon qadar joyida bartaraf qilishini ta’minlaydi;

O‘rganuvchining pastga yerga hech qanday talafotsiz tushishini, tan jarohati olmasligini ta’minlaydi.

O‘rganuvchi:

Mashg‘ulot o‘tish joyiga o‘z vaqtida yetib kelishi;

Har qanday malaka tajribasidan qat’iy nazar mashg‘ulot rahbari va o‘qituvchi-instruktorlarning barcha talablarini so‘zsiz bajarishlari lozim;

Ko‘p qavatli bino va inshootlarda harakatlanish uchun yopiq ust kiyim, qo‘l kuymasligi uchun charmdan ishlangan qo‘l qop, oyoq kiyim va ortiqcha tan jarohatini oldini olish uchun shaxsiy himoya vositalarini (kaska, tizza va tirsak himoyasi qoplamasi) kiygan holda kelishi lozim bo‘ladi.

Alpinism 8-avgust 1786-yilda asos solingan bo‘lsada, sobiq ittifoqi hududiga 1829-yilga to‘g‘ri keladi va 1918-yil

yoz oylariga kelib harbiy yo‘nalishda foydalaniladi. Alpinism harbiy yo‘nalishda foydalanishni boshlagandan so‘ng “Harbiy alpinism”, “Tog‘ tayyorgarligi”, “Tog‘-balandligi tayyorgarligi” nomlari fan sifatida harbiy xizmatchi va xodimlarga o‘rgatilib kelgan. Ilk bor O‘zbekiston Respublikasida, 2020-yilning may oyida Milliy gvardiya Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazida Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi fani ta’sis etildi. Bu esa, harbiy xizmatchi va xodimlarning tog‘li hamda shahar tipidagi hududlarda kundalik va jangovar xizmat vazifalarini bajarishdagi ajralmas muhim bir qismi bo‘lib qoldi.

O‘zbekiston Respublikasida, Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi fani 2020 yilning may oyida ta’sis etilgan bo‘lib, jinoyatchilarning ko‘p qavatli bino va inshootlarda kutmagan tarafidan zarba berish, kirib borish qiyin bo‘lgan joylarda to‘g‘ri harakatlanish, har xil turdagi quvurlar orqali jangovar harakatlarni amalga oshirish orqali maksimal samaradorlikka erishish, bo‘yicha chuqurlashtirilgan mashg‘ulotlar o‘tkazilishini yo‘lga qo‘ydi.

Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi, ko‘p qavatli bino va inshootlarning tik tashqi (vertical) qismi yoki kirib borish hamda harakatlanish imkonsizdek ko‘ringan tarafidan xizmat va jangovar vazifalarni bajarish imkonini beruvchi jamlanmani o‘z ichiga qamrab oladi.

Shahar sharoitlarida jang olib borish, ko‘p qavatli bino va inshootlarda xizmat va jangovar vazifalarni bajarish, binolarga yashirinishga uringan jinoyatchilarni qo‘lga olish, ularning harakatlarini nazorat qilish va yo‘q qilish bo‘yicha mashg‘ulotlar balandlik-ishg‘ol tayyorgarlik fanida o‘rgatilib boradi.

Balandlik-ishg‘ol tayyorgarlik mashg‘ulotlari davomida eng asosiysi xavfsizlik qoidalariga qat’iy amal qilish hisoblanadi. Bunda alpinist anjomlaridan to‘g‘ri foydalanish, yaratilayotgan tayanch nuqtalarining mustahkamligiga ishonch hosil qilish hamda shaxsiy xavfsizlik choralarini ko‘rishdan iborat.

Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi har bir maxsus bo‘linma harbiy xizmatchi va xodimlarining kundalik xizmat va jangovar vazifalarni bajarishdagi, maxsus operatsiyalarni sifatli yakun topishida muhim o‘rin egallaydi.

ТЕНДЕНЦИЯ РАЗВИТИЯ ВЫСОТНО-ОККУПАЦИОННОЙ ПОДГОТОВКИ НА ТЕРРИТОРИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация. Исходя из геополитической размещения Республики Узбекистан играет большую роль развития альпинизма в военной областьи. Альпинизм в свою очеред разделяется на несколько направлении и одно из них высотно-штурмовой подготовка которую предразумивающий выполнение специально-боевых задач как прочёсывание, контролирование, задержание и уничтожение противника, пытавшегося скрыться в многоэтажном здании в городских условиях.

Ключевые слова: Штурм, специально-боевая, многоэтажные здания, алпинисткие снаряжения, прочёсывания, контрол, задержания уничтожения.

THE DEVELOPMENT TREND OF HEIGHT-OCCUPATION PREPARATION IN THE TERRITORY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract. On the assumption of geopolitical placement, the Republic of Uzbekistan plays a big role the development of Alpinism in the military field. The alpinism, in turn, is divided into several directions and one of them high-rise assault training which fulfillment special combat mission as search, monitor, detain and destroy the enemy who trying to hide inside the multy-story building.

Key words: assault, special combat, multy-story building, alpenistic equipment, search, monitor, detain, destroy.

ISSN 3030-3230

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi.//”Postda” gazetasi,2017 yil, 3-son.
2. Захаров П. П., Мартынов А. И., Жемчужников Ю. А. Альпинизм. Энциклопедический словарь. – М,.: ТВТ Дивизион, 2006.
3. Шамони-Мон-//Словарь географических названий зарубежных стран/отв.ред.А.М.Комиков. – 3-е изд.,перераб. и доп. – М. : Недра, 1986. – С. 432.
4. КЛЮЧЕВСКАЯ СОПКА//Большая российская энциклопедия : [в 35 т.] / гл. Ред. Ю. С. Осипов. – М. : Большая российская энциклопедия, 2004–2017.
5. Официальное название РАН по Уставу. Архивная копия от 27 сентября 2016 на Wayback Mashine, от 2014 года – федеральное государственное бюджетное учреждение «Российская академия наук»
6. Усыскин Г. Очерки истории российского туризма
7. Емельяненко Ю. К истории альпинистских значков// Альманах МАРС Академия русской символики № 5, 2007
8. Усыскин Г. Русское горное общество
9. Г. Уильямсон. Немецкие горнострелковые и лыжные части. 1939-1945. – М.: Издательство АСТ , 2002. – С. 3. – 63 с – ISBN 5-17-016441-б.
10. WWI bodies are found on glacier (англ.). BBC.News (24 августа 2004). Дата обращения: 20 декабря 2009. Архивировано 22 августа 2011 года.
11. Г. Уильямсон. Немецкие горнострелковые и лыжные части. 1939-1945. – М.: Издательство АСТ, 2002. – С. 3. – 63 с. – ISBN 5-17-016441-б.
12. Захаров, Мартынов, Жемчужников, 2006, ОГСО, с. 370.
13. Млечин Л. М. “Фрунзе”. – М.: Молодая гвардия, 2014. (Жизнь замечательных людей)
14. Захаров П. П., Мартынов А. И., Жемчужников Ю. А. Альпинистская (горная подготовка) воинских частей и соединений РККА // Альпинизм. Энциклопедический словарь. – Москва: ТВТ Дивизион, 2006. – С.347. – 744 с. ISBN 5-98724-030-1

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnalida chop etish uchun maqolalarni rasmiylashtirishga qo‘yiladigan

TALABLAR

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnalida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning yo‘nalishlari, bosqichlari va natijalari, ijtimoiy-gumanitar, texnikaviy, huquqiy, iqtisodiy shuningdek, harbiy fanlar sohasida erishilgan yutuqlar, ilg‘or xorijiy tajribaning ilmiy-nazariy tahlili va natijalari nashr etiladi. Jurnal bir yilda to‘rt marta (har chorak) chop etilib, unda quyidagi asosiy ruknlar bo‘yicha ilmiy maqolalar e’lon qilinadi:

- KONSTITUTSIYA, INSON HUQUQLARI VA MILLIY QONUNCHILIK;
- JAMOAT TARTIBI VA JAMOAT XAVFSIZLIGI;
- HARBIY SOHADAGI ISLOHOTLAR;
- IJTIMOIY TARAQQIYOTNING DOLZARB NAZARIY-AMALIY MASALALARI;
- TA’LIM-TARBIYA JARAYONI;
- IQTISODIYOT: NAZARIYA VA AMALIYOT;
- TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALAR TARAQQIYOTI;
- XORIJIY TAJRIBA;
- YOSH OLIMLAR MINBARI.

Maqolani tahririyatga topshirish uchun KERAKLI HUJJATLAR

1. Tahririyatga taqdim etilayotgan qo‘lyozma bo‘yicha muallif ilmiy-tadqiqot ishi olib borayotgan tashkilot rahbariyatining **xati**, maqolani chop etish mumkinligi haqidagi **ekspert xulosasi** hamda **ikkita taqriz** bo‘lishi kerak. Maqola o‘zbek, rus yoki ingliz tilida yozilgan bo‘lishi mumkin. Maqola nomi, uning 8-10 qator (500 tadan oshmagan chop etish belgilar) hajmdagi annotatsiyasi hamda kalit so‘zlari o‘zbek, rus va ingliz tillarida berilishi lozim, shuningdek muallif(lar)ning familiya, ism-shariflari, ish joylari (OTM, ITI, tashkilot) ham uch tilda taqdim qilinishi zarur.
2. Tahririyatga qo‘lyozma matni ikki nusxada topshiriladi, ikki nusxasi ham barcha mualliflar tomonidan imzolanadi. Maqolaning elektron ko‘rinishi ham taqdim etiladi.

Maqola mualliflarining familiyalari, ism-shariflari, ish joyi va lavozimi, manzillari, elektron manzillari (E-mail) hamda xizmat va uyali telefon raqamlari ko‘rsatilgan ma’lumotnoma beriladi.

Maqolani rasmiylashtirish TALABLARI

1. Maqola matni MS Word matn tahrirgichda Times New Roman shriftida 14 o‘lchamda terilgan bo‘lishi kerak.
2. Maqola hajmi bir intervalda bosilgan matn hisobida (jadvallar, rasmlar va adabiyotlar ro‘yxati bilan birgalikda) to‘liq 8-10 bet bo‘lishi kerak.
3. Varaq o‘lchami: 210x297 mm (A4 - format), rasm (sxema, grafik)larning o‘lchamlari 6x9 sm dan oshmasligi kerak. Matn chegarasi o‘lchami: yuqoridan - 2,0 sm, pastdan – 2,0 sm, chapdan – 3,0 sm, o‘ngdan – 1,5 sm bo‘lishi kerak.

1. Maqoladagi materiallarda eng zaruriy matematik ifodalargina berilishi kerak.

2. Maqola boshida UDK, keyingi qatordan (berilgan o‘lchamda bosh harfda, o‘rtada, qalin qilib) maqolaning nomi, undan keyingi qatorda muallif(lar)ning familiyasi va ism-sharifi, keyingi qatorda muallifning ish joyi (OTM, tashkilot, muassasa nomi) kichik bosma harfda o‘zbek, rus, ingliz tillarida teriladi. Keyingi qatordan maqola annotatsiyasi kursivda yoziladi. Keyingi qatorda 8-10 ta so‘zdan iborat kalit so‘zlar yoziladi. Bir qatordan so‘ng maqola matni teriladi.

3. Maqola bo‘lim va punktlarga bo‘linishi mumkin. Bo‘limlarning nomi qalin shriftda alohida qatorda tegishli ravishda kichik bosma (qalin) harflar bilan terilib, matn chap tomonidan tekislanadi. Punktlar nomi matnning birinchi qatoriga (qalin qilib) kiritiladi.

4. Adabiyotlar (so‘nggi 10 yildagilar tavsiya etiladi) ro‘yxati maqola oxirida, matndagi havolalar ketma-ketligi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxatida quyidagilar ko‘rsatiladi: a) jurnalda bosilgan maqolalar va ma’ruza tezislari uchun - muallifning familiyasi, ismi sharifi, maqolaning nomi, jurnalning nomi, nashr yili, soni yoki qismi (bo‘lsa) va betlari; b) kitoblar uchun - muallifning familiyasi, ismi sharifi, kitobning nomi, nashr joyi (shahar), nashriyot nomi, nashr yili, betlari.

5. Tahririyat barcha maqolalarni taqrizga yuboradi.

6. Tahririyatga maqolaning tahririyat taqrizidan keyin qayta ishlangan matni topshirilgan vaqt maqolaning tahririyatga tushgan kuni hisoblanadi.

Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar ko‘rib chiqishga qabul qilinmaydi, maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi. Maqolani ko‘rib chiqish natijalarini muallif tel: (71) 230-32-71, (71) 230-32-82 (kommutator) va 1045, 1046 ichki telefonlar orqali bilishi mumkin.
E-mail: jxu@umail.uz

Tahririyat manzili: 100109, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chor-su qo‘rg‘oni, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti.

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining Tahririyat-noshirlik bo‘limida tayyorlandi.

Maqolalar har qanday usulda to‘liq yoki qisman ko‘chirib bosilganida «Jamoat xavfsizligi» ilmiy-amaliy jurnalidan olinganligi ko‘rsatilishi shart.

Qo‘lyozmalarga taqriz berilmaydi va ular qaytarilmaydi.

Tahririyat xatlar mualliflari bilan yozishmaydi. Tahrir hay’atining fikri muallif fikridan o‘zgacha bo‘lishi mumkin. Qo‘lyozmalar mazmuni va keltirilgan faktlarning haqiqiyligi uchun muallif javobgar.

Nashr. lits. №148674. 20.10.23. Bichimi 60x84 1/8. «Cambria» garniturasida raqamli bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog‘i 14,375. Adadi 10 nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi 27.06.2024 y. Buyurtma № 188.

© O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2024